Asosiy qism. Huquqiy tarbiya jarayonida o‘qituvchi shaxsiy namuna ko‘rsatishi, o‘quvchi bilan hamkorlikda ishlashi va huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Shu bilan birga, ota-onalar, jamoatchilik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda olib boriladigan tadbirlar huquqiy madaniyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar huquqiy bilimlarni ommalashtirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, onlayn kurslar, vebinarlar, huquqiy mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma’rifiy kontent yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta’lim muassasalarida “Huquq darslari”, “Konstitutsiya kuni”, “Adolat haftaligi” kabi tadbirlarni interaktiv shaklda o‘tkazish orqali o‘quvchilarni real hayotiy holatlarga tayyorlash mumkin.

Zamonaviy yondashuvlarning yana bir muhim jihati — kompetensiyaga asoslangan ta’lim tizimidir. Bu yondashuvda o‘quvchi nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishi, balki huquqiy masalalarda amaliy qarorlar qabul qilishga, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini egallashga o‘rgatiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun davlat siyosati, ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarining uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” kabi me’yoriy hujjatlar bu boradagi islohotlarning asosini tashkil etmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy tarbiyani kuchaytirish jarayoni uzviylik, izchillik va tizimlilik tamoyillariga asoslanadi. Chunki huquqiy tarbiya inson shaxsining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon faqat maktab yoki oliy ta’lim bosqichida emas, balki butun umr davomida davom etadi. Shu bois, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashi lozim.

Huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun, avvalo, ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni berishning zamonaviy usullari joriy etilishi zarur. An’anaviy ma’ruza shaklidan tashqari, interfaol metodlar — “fikrlar jangi”, “rol o‘ynash”, “muammoli vaziyat tahlili”, “sud jarayoni ssenariysi”, “huquqiy debat” kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, huquqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun davlat siyosati, ta’lim standartlari va o‘quv

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

dasturlarining uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” kabi me’yoriy hujjatlar bu boradagi islohotlarning asosini tashkil etmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy tarbiyani kuchaytirish zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, pedagogik innovatsiyalarni joriy qilish va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Bu esa yosh avlodni huquqiy ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashning eng muhim sharti hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta’lim tizimida huquqiy tarbiyani kuchaytirish nafaqat ta’lim sohasining, balki butun jamiyatning ma’naviy-axloqiy, huquqiy va fuqarolik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2020.
3. “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”. — Toshkent, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Qodirov A. Huquqiy tarbiya metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

Internet ma’lumotlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.ensiklopediya.uz
3. www.ziyouz.com

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLASHGAN MUHITDA TA’LIM SIFATI: FALSAFIY VA METODOLOGIK TAHLIL

Akbarova Nozima Anvarjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: Kamolova Kimyoxon G‘ulomjonovna
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotasiya: *Ushbu maqolada hozirgi davrda raqamlashgan jamiyat, uning ijobiy xususiyatlari, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va uning zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha tadbirlar tavsiya etilgan. Shuningdek uzluksiz hamda oliy ta'lim tizimida raqamli ta'limga bo‘layotgan talab va ehtiyojlar muhokama qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *raqamlashgan jamiyat, raqamli ta'lim, raqamli texnologiya, modernizasiya, taraqqiyot strategiyasi, axborot makoni, axborot texnologiyasi, ma'naviyat, ijtimoiy taraqqiyot*

Аннотация: *В данной статье рекомендуются цифровое общество, его положительные черты, цифровые технологии в образовательном процессе и меры по внедрению современных методов. Также были обсуждены требования и потребности в цифровом образовании в системе непрерывного и высшего образования.*

Ключевые слова: *цифровое общество, цифровое образование, цифровые технологии, модернизация, стратегия развития, информационное пространство, информационные технологии, духовность, социальное развитие*

Abstract: *This article recommends the digital society, its positive features, digital technologies in the educational process and measures to introduce modern methods. The requirements and needs for digital education in the system of continuous and higher education were also discussed.*

Keywords: *digital society, digital education, digital technology, modernization, development strategy, information space, information technology, spirituality, social development*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TABBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Keyingi paytlarda raqamlashgan jamiyat, raqamlashgan iqtisodiyot, raqamlashtirilgan ta'lim kabi iboralar ko‘p ishlatilmoqda. Xo‘sh, raqamlashgan jamiyatning qanday afzallik tomonlari bor? Raqamlashgan jamiyatda insonning o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat? Raqamlashtirish bugungi yangi taraqqiy qilayotgan O‘zbekiston uchun qanday zaruriyatga ega?

O‘tgan asrlardan boshlab insoniyatning postindustrial jamiyatga o‘tishi globallashuvning keskin darajada oshishiga, inson faoliyatining barcha sohalarida axborotning rolini oshirish bilan bog‘liq jarayonlarda namoyon bo‘ldi. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarishda, balki insonning kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Raqamli texnologiyalari kishilar hayotining ko‘p jabhalarida axborot mahsulotlari va kommunikasiyalar sohasiga o‘tishga imkon yaratib berdi. O‘zbekistonda shu munosabat bilan jamiyat nafaqat axborotlashgan, balki raqamli jamiyat bo‘lib qoldi.

Jamiyatni yanada modernizasiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida raqamli transformasiya alohida ahamiyatga ega. Buni anglab etgan Prezidentimiz Sh.Mirziyoev raqamlashtirish siyosatiga e'tibor qaratib, amalga oshirilayotgan islohotlarda haqiqiy axborotlashgan jamiyatni barpo etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O‘zbekistonda axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga 2000 yillarning boshlaridanoq ahamiyat berila boshlandi. Bu borada hukumat qarorlari va Farmonlar, chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqildi. Jumladan, “2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikasiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” kabi normativ hujjatlar qabul qilinib, ularda milliy iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy soha, ta'lim va umuman jamiyatda raqamli transformasiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Jamiyatni raqamlashtirish fuqarolarga qanday engilliklar olib keladi? Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonlarni tezlashtiradi; fuqarolarning hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan uchrashuvlari va murojaatlarida engilliklar yaratadi; uchinchidan, hayot sifatini yaxshilaydi; to‘rtinchidan, ish unumdorligini oshirish va mehnat sharoitlarini engillashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Raqamlashgan jamiyatning yana eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, bu korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usulidir. Chunki, raqamlar hamma narsani aniq ko‘rsatadi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni taqdim eta oladi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish(kelishish), u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslik(kamchiliklarni yashirish)ning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma'lumotlarning tizimliligi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldashning imkoni yo‘q. Natijada poraxo‘rlik, mablag‘larni samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa jamiyatning barcha sohasida shaffoflik bo‘lishiga olib keladi, misol uchun, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq etib boradi va hokazo.

Bundan tashqari, raqamlashtirilgan jamiyat odamlarni bilim olishga undaydi. Chunki, global axborot makonida odamlarning axborot bilan o‘zaro ta'siri kuchayadi; ularning jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi; axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlari qondiriladi, elektron hukumat, raqamli bozorlar, elektron ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlar rivojlanadi, ta'lim sohasidagi yangiliklar shiddat bilan yoyiladi.

Bundan tashqari hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarning jadallashuvi kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o‘rnini robototexnika egallashi mumkinligidan darak bermoqda. Shuning uchun raqamli texnologiya bo‘yicha strategiya ishlab chiqish, raqamli ko‘nikmalarni ommaviy shakllantirishni ta'minlash dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Yoshlar yangi kasblar, turli texnologiyalardan foydalanish, kompyuterlar, internet, katta miqdordagi raqamli ma'lumotlarga ishlov berishga tayyor turishi kerak. Odamlar o‘z faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyor turishlari lozim, bularning barchasi esa bilimni talab etadi.

Xo‘sh, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotan, axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida o‘qitish jarayoni qanday tashkil qilinmoqda?

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamyatga ega. Chunki, o‘qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish va keng dunyoqarash va yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash borasida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullardan foydalanish bugungi kun talabidir.

2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda aynan shu raqamli texnologiyani rivojlantirish va masofaviy ta'limni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim samaradorligi imkoniyatlarini rivojlantirish, mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish vazifalari ilgari surildi. Bu borada bir qancha amaliy islohotlar olib borildi va bugungi kunga qadar olib borilmoqda.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

❖ Raqamli ta'limni tushunadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish va bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratish;

❖ Oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik (PhD, ScD) dissertasiyalaridan iborat ilmiy–texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish;

❖ masofaviy o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini nazariy-metodik asoslash;

❖ Zamonaviy axborot-kommuniksiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta'minlash;

❖ Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

❖ Tinglovchilar ham kamida kompyuter va internet bilimlaridan xabardor bo‘lishini ta'minlash.

Ta'lim tizimiga raqamlashtirish jarayonining kirib kelishi ya'ni, noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining kengayishi ta'lim jarayonining samarali bo‘lishiga olib kelmoqda. Ta'lim oluvchining bilimlarni o‘zlashtirishi an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Agarda raqamli ta'limda samarali foydalanilganda qanday yutuqlarni qo‘lga kiritish mumkin?

✓ talaba xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
✓ vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
✓ internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
✓ ta'lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;
✓ o‘qituvchilarga internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi;
✓ ta'lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi va boshqalar;

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovasiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: masalan, ta'lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizasiya qilishga, zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi, bu **birinchidan**.

Ikkinchidan, raqamli ta'lim ta'lim samaradorligini oshirishga, onlayn ta'lim orqali mavjud vaqt va byudjetning tejalishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ta'lim muassasalarida o‘quv faoliyatini boshqarishda shaffoflikka erishishga, interfaol kontentlar yaratishga olib keladi.

To‘rtinchidan, o‘quvchi va talabalarda o‘qishga, izlanishga bo‘lgan motivasiyaning oshishiga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, uchinchi Renessans ostonasida turgan Yangi O‘zbekiston uchun, unda faoliyat olib borayotgan fuqarolari uchun raqamli jamiyat judayam zarur. Faqatgina buning uchun barcha korxona va tashkilotlarda Internet tezligini oshirish, uning narxini pasaytirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini ham tahlil qilib ko‘rish lozim. Aksincha esa mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar katta samara bermasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi, ID-9413-son, O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi, 24.02.2020 y.
2. Белокрылова О.С., Алехин В.В., Ипатова А.В., Кирьяков А.Г., Миргородская Е.О., Своеволин В.Ю. Теория инновационной экономики (учебник). Международный журнал экспериментального образования, 2010 год, № 3.
3. Ismailova N. Raqamli iqtisodiyot ta'rifi, konsepsiyasi va uning ko‘lamini o‘lchash // BIZNES-EKSPERT №11 (143)-2019

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA'RIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI MUHITDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQIY TARBIYA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Amonova Munisa Shavkat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Musiqa ta’lim va san’at mutaxasisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: M.O`.Naimov
San`atshunoslik fanlari nomzodi(PhD), professor v.b.

Annotatsiya. *Raqamli transformatsiya sharoitida musiqiy-estetik tarbiya mazmuni yanada kengayib, bolalarda badiiy didni shakllantirish, emotsional idrok, muloqot, ijodkorlik va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitga asoslangan musiqiy mashg‘ulotlar bolalarning eshitish, e’tibor, xotira, nutq va o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlashga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada raqamli muhitda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya kompetensiyalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari, raqamli pedagogik ta’minotning didaktik imkoniyatlari hamda amaliyotga joriy etish strategiyalari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В условиях цифровой трансформации содержание музыкально-эстетического воспитания значительно расширяется, создавая дополнительные возможности для формирования у детей художественного вкуса, эмоционального восприятия, коммуникативных навыков, творческого потенциала и духовно-нравственных качеств. Исследования показывают, что музыкальные занятия, интегрированные в цифровую среду, оказывают существенное положительное влияние на развитие слуха, внимания, памяти, речи и навыков чтения у дошкольников. В данной статье анализируются цели и задачи формирования музыкально-воспитательных компетенций в дошкольных образовательных организациях в цифровой среде, дидактические возможности цифрового педагогического обеспечения, а также стратегии его внедрения в практику.*

Annotation. *In the context of digital transformation, the content of musical and aesthetic education is expanding, providing new opportunities for developing children’s artistic taste, emotional perception, communication skills, creativity, and moral values. Research indicates that music activities integrated into a digital environment have a significantly positive impact on the development of preschool children’s auditory perception, attention, memory, speech, and early reading skills. This article examines the goals and objectives of developing musical education competencies in preschool institutions within a digital environment, the didactic potential of digital pedagogical support, and strategies for implementing these tools into practical educational settings.*

Kirish. Jamoa bo‘lib kuylash va musiqali o‘yinlar esa bolalarda jamoaviy hamkorlikni, o‘zaro hurmat va mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati orqali bolalarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ham mumkin – milliy qo‘shiqlar va kuylar bolalarda o‘z madaniyatiga

muhabbat uyg‘otadi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya berishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – bolalarni musiqaga oshno etish, ular qalbida go‘zallikka mehr uyg‘otish va barkamol shaxs tarbiyalashdir.

Musiqiy tarbiyaning umumiy maqsadi bolalarning estetik didini va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘lsa, bunga erishish uchun bir qator vazifalar belgilangan. Hozirgi kun talablari maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga aniq musiqiy-estetik tarbiya vazifalarini qo‘yadi. Ilmiy manbalarda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan musiqa tarbiyasi bo‘yicha quyidagi asosiy vazifalar ta’kidlangan:

1. Bolalarda musiqaga mehr-muhabbat va qiziqishni o‘stirish.
2. Bolaning musiqiy tajribasini boyitish.
3. Oddiy musiqiy tushunchalar va ko‘nikmalarni hosil qilish.
4. Bolalarda emotsional sezgini va ritm tuyg‘usini shakllantirish.
5. Musiqiy did va estetik tafakkurni tarbiyalash.
6. Ijodkorlik va musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Yuqoridagi vazifalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo’lib, bolalarda musiqaga muhabbat uyg‘onsa, ular faol tinglaydi va kuylaydi; tinglash va kuylash odati rivojlangan sayin esa musiqiy did va qobiliyatlar shakllanadi. Albatta, musiqiy tarbiyaning bu vazifalarini amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida maxsus musiqa mashg‘ulotlari tashkil etiladi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarini odatda maxsus tayyorgarlikka ega musiqa rahbari (muallimi) olib boradi. Bunday mashg‘ulotlar haftada bir necha marta o‘tkazilib, har bir darsning davomiyligi bolalarning yoshiga mos ravishda taxminan 15-20 daqiqani tashkil qiladi (kichik guruhlarda qisqaroq, katta guruhlarda biroz uzunroq). Mashg‘ulot mazmuni bolalarga turli musiqiy faoliyat turlarini bajartirishni nazarda tutadi. Xususan, musiqa darsida bir necha faoliyat uyg‘unlashadi: bolalar musiqa tinglaydilar, qo‘shiq kuylaydilar, musiqaga mos ritmik harakatlar bajaradilar, ba’zan oddiy cholg‘u asboblarida ijro ham qilishadi. Shu tarzda, bolalarning musiqiy eshitish qobiliyati, ijrochiligi va ijodkorligi hamohang ravishda shakllanadi.

Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘yin-usulda olib borilishi maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar diqqatini uzoq vaqt bir joyga jamlay olmaydi, ular juda harakatchan va o‘yinga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois musiqa darslarini qiziqarli o‘yinlar, harakatli mashqlar bilan boyitish zarur. Masalan, mashg‘ulot avvalida bolalarni jonlantirish uchun musiqaga oid salomlashuv qo‘shig‘i aytilishi mumkin – bolalar qo‘l qoqib,

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

qo‘shiq aytib bir-birini qutlaydi. Keyinroq diqqatni jalb etish uchun musiqiy o‘yin o‘tkazish yoki cholg‘u asboblarining ovozini topish kabi kichik interaktiv topshiriqlar berish mumkin. Mashg‘ulot davomida faoliyat turlari tez-tez almashinib turishi lozim – masalan, bir qo‘shiqni aytgandan keyin darhol raqsga tushish, so‘ngra qisqa musiqiy parchani tinglash va keyin yana bir o‘yinga o‘tish kabi tartib bolalarning zerikib qolishini oldini oladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda multimedia texnologiyalardan foydalanish ham musiqiy mashg‘ulotlarni jonlantirishga yordam bermoqda. Projektorda rang-barang tasvirlar yoki qisqa multfilmlarni musiqa bilan uyg‘unlashtirib ko‘rsatish bolalarning qiziqishini oshiradi. Masalan, videoroliklar yordamida turli cholg‘u asboblarini tanishtirish mumkin – ekranda doira yoki skripka chalib turgan bolani ko‘rgan tarbiyalanuvchi real asboblarni ko‘rganda tanib oladi. Shu tarzda, musiqa darsi boshqa faoliyat turlari (tasviriy san’at, adabiyot, jismoniy tarbiya va hokazo) bilan integratsiyalashgan holda o‘tishi, ya’ni bir darsda bir nechta maqsadga xizmat qiluvchi faoliyatlar uyg‘unlashishi mumkin. Bu integrativ yondashuv bolalarning musiqaga qiziqishini yanada oshiradi va turli yo‘nalishdagi bilimlarni bir butun qilib birlashtiradi.

Musiqiy tarbiyada muhim vazifalardan biri – bolalarga turli xarakterdagi musiqani tushunib yetishni o‘rgatishdir. Musiqa asarining “xarakteri” deganda uning ohangidagi kayfiyat, tezlik (temp), ritm va ifoda uslubi nazarda tutiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda kuylarning asosiy kayfiyatini sezish qobiliyatiga ega: masalan, major laddagi (jo‘shqin, xursand ohangli) kuyga quvonch bilan javob berishsa, minor laddagi (sokin yoki g‘amgin ohangli) kuy chalsa, bolalar jiddiy tortib qolishadi. Demak, bolalarning musiqadan oladigan ta’surotlarini boyitish uchun ularga quvonchli hamda xotirjam – turli temperamentdagi kuylarni navbatma-navbat eshittirish kerak.

Musiqa tinglash mashg‘ulotlarida bolalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

Tinglash madaniyati	Musiqani diqqat bilan, jim holda, oxirigacha tinglash
Mazmunni tushunish	Asarning mazmuni va xarakterini anglash
Musiqa savodi	Musiqaning ifoda vositalari va janrlari (qo‘shiq, raqs, marsh va boshqalar) haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lish
Cholg‘u tovushlarini farqlash	Turli cholg‘u asboblari tovushlarini ajrata bilish

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Ovozlarni farqlash	Erkaklar, ayollar va bolalar xori ovozlarini farqlash ko‘nikmasining shakllanishi

Shuningdek, musiqaning xarakterini harakat bilan tushunish usuli ham samarali. Masalan, marsh janridagi musiqalarni olaylik: bolalar turli xarakterdagi marsh kuylariga turlicha qadam tashlab ko‘rishlari mumkin. Sport marshida – tetik va chaqqon yurishsa, o‘yinchoqlar marshida – yengil harakat bilan oyoq uchida yuradilar, harbiy marsh chalganda esa – gavdani tik tutib, baland qadamlar bilan tantanali yurishni mashq qilishadi. Bunday mashqlar bolalarga har xil musiqaning ruhini butun vujudi bilan his etishga yordam beradi. Xuddi shunday, lirik (muloyim) kuy chalganda bolalarga sekin qo‘l harakatlari bilan “suzishni” taklif etish, sho‘x kuyda esa joyida sakrab “quvonch ifodalash”ni o‘rgatish mumkin. Raqs va ritmik harakatlar musiqaning kayfiyatini anglashda juda foydali: birinchidan, bolalar raqs orqali musiqaga mos harakat qilishni o‘rganishadi; ikkinchidan, harakat orqali chiqargan quvonch yoki boshqa hissiyotlari tufayli musiqani chuqurroq his qilishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqs va musiqali o‘yinlar jarayonida bolalarning ritm tuyg‘usi faol rivojlanadi, musiqaga qiziqishi oshadi.

Bolalarni qo‘shiq aytish va musiqa tinglashga o‘rgatish

Maktabgacha yoshdagi bolalar qo‘shiq aytishni juda yaxshi ko‘radilar. Qo‘shiq kuylash – bolalarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi va ularni nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi. Bolalar kuylar jarayonida zavqlanib, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganadilar. Qo‘shiq aytayotganda bolaning nafas olish organlari, nutq apparati, gavda holati kabi bir qator jismoniy jarayonlar ham takomillashadi – masalan, to‘g‘ri o‘tirib kuylagan bola diafragmasini to‘g‘ri ishlatishga odatlanadi, tovush paychalari chiniqadi va nutqi ravonlashadi. Shuningdek, birgalikda kuylash orqali bolalar jamoaviy birlikni his qiladilar, o‘zlarini bir xor jamoasining a’zosi sifatida sezib, ijtimoiy ko‘nikmalar ham oladilar.

Bolalarni qo‘shiq aytishga o‘rgatish jarayonida maxsus metodik yondashuvlar mavjud. Yosh bolalarning ovoz imkoniyatlari cheklangan – ular baland pardalarda yoki murakkab ohanglarda kuylay olmaydi, diapasoni tor bo‘ladi (masalan, 3-4 yoshli bolalar faqat 4-5 ta tovush oralig‘ida kuylashga qodir). Shu bois, tarbiyachi bolalar uchun qulay diapazondagi sodda kuylarni tanlaydi va asta-sekin ularning qo‘shiq repertuarini kengaytiradi.

Tarbiyaviy dasturlar tavsiyasiga ko‘ra, yil davomida bolalar taxminan 10–12 ta yangi qo‘shiq o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi. Bu qo‘shiqlarni tanlashda mavsumiy bayramlar, milliy va bolalar folklori, shuningdek, bolalar shoiri va bastakorlarining

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

asarlariga alohida e’tibor qaratiladi. Yuqoridagi usullarga amal qilinsa, bolalar belgilangan miqdordagi qo‘shiqlarni yod oladilar, eng muhimi – ularda qo‘shiq aytishga doimiy ishtiyoq shakllanadi. Qo‘shiq aytishga o‘rgatish – bu bolaga musiqa orqali o‘zini ifodalashni, jamoa bilan birlashib kuylashni o‘rgatishdir. Keyinchalik maktabda xor yoki musiqa darslarida bu ko‘nikmalar ularga qo‘l keladi.

Bolalarni musiqa tinglashga o‘rgatish

Bolalarga musiqani tinglashni o‘rgatish – musiqiy tarbiyaning yana bir asosiy jihati. “Tinglash” oddiy eshitishdan farqli ravishda, musiqiy asarga ongli ravishda e’tibor berish demakdir. Kichkina bolaga “diqqat bilan tingla” deyish kifoya qilmaydi; unga bu jarayonni qiziqarli qilib tashkil etish lozim. Musiqa tinglash mashg‘ulotlari odatda alohida qismlar sifatida har bir darsda o‘tkaziladi. Tarbiyachilar musiqiy asarlarni tanlashda bolalarning yoshini, psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini hisobga oladilar. Masalan, kichik guruhda 1-2 daqiqalik qisqa kuylar qo‘yilsa, katta guruhda 3-4 daqiqali mumtoz asarlar ham tinglatilishi mumkin.

Eng asosiysi, bolaga “musiqani tinglash” faoliyatini majburlab emas, qiziqarli bir mashg‘ulot sifatida talqin etish kerak. Tarbiyachi rag‘batlantiruvchi yondashuvi bilan har bir bolani tinglash jarayoniga tortishi lozim: masalan, “Azizlarim, kim bu kuyda kapalak uchayotganini tasavvur qildi? Ajoyib! Yana kim nimani tasavvur qildi?” deb maqtov va e’tibor bilan ularni ilhomlantiradi. Musiqiy tinglash o‘yinlari ham shunday maqsadga xizmat qiladi – masalan, “Kuyni eshitib qaysi hayvon raqsga tushyapti deb o‘ylang” deyishi mumkin. Bunda bolalar kuy tinglab bo‘lishgach, “bu quyoncha edi” yoki “men ayiq deb o‘yladim” deb javob berishadi, barchasi variantlar ma’qullanadi va birgalikda xursand bo‘lishadi. Natijada, bolalar uchun musiqa tinglash qiziqarli bir o‘yinga aylanadi va ular bu faoliyatni intiqlik bilan kutadigan bo‘ladilar.

Interaktiv yondashuv va ijodiy usullar

Musiqiy tarbiyada interaktiv yondashuv juda muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘yin orqali o‘rgansa, jarayon samaraliroq bo‘ladi. Shu bois musiqa mashg‘ulotlarini imkon qadar jonli, har bir bolaning ishtirokiga yo‘l ochuvchi tarzda o‘tish kerak. O‘yin elementlari – musiqali estafeta, topshiriqli raqslar, musiqani “taxmin qilish” kabi mashqlar – bolalarni darsga mahliyo etadi. Masalan, tarbiyachi cholg‘u asbobining tovushini audio yozuvdan eshittirib, “Bu qanaqa asbob, topa olasizmi?” deb so‘rasa, bolalar quloqlarini ding qiladilar: “Bu doira!”, “Yo‘q, bu nog‘ora bo‘lsa kerak!” deya baxslashadilar. To‘g‘ri javob topilganida esa hammaga birday quvonch

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ulashiladi. Bunday interaktiv topshiriqlar orqali bolalar sezmasdan yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Jismoniy harakatga undovchi usullar ham interaktiv metodning tarkibiy qismi sanaladi. Bolalar kuyga mos ritmik harakatlarni bajarishni xush ko‘rishadi. Tarbiyachi har bir harakatni avval o‘zi namoyish qilib ko‘rsatishi va bolalarga ergashtirishi lozim. Masalan, “Hozir hammamiz qushcha bo‘lamiz, musiqa chalindi – uchamiz!” deb qo‘l-qanotlarini qoqib chopsa, bolalar darhol ergashadilar. Keyin musiqa to‘xtaganda “Qushchalar uyasiga qaytdi” deb to‘xtatadi – bu ham bir o‘yindir, ammo bolalar aslida musiqani diqqat bilan tinglab to‘xtashni, harakatni musiqaga mos boshqarishni o‘rganishmoqda. Musiqali stulcha (musiqa to‘xtaganda stulga o‘tirish o‘yini) yoki musiqa bilan to‘p uzatish (musiqa o‘ynaganda to‘pni qo‘ldan qo‘lgga berish, to‘xtaganda kimning qo‘lida qolsa – o‘sha qo‘shiq aytadi) kabi o‘yinlar ham mashhur va foydali. Bu o‘yinlar bolalarning diqqatini, tezkorligini oshirish bilan birga, musiqa bilan bog‘liq hodisalarni quvonchli tajribaga aylantiradi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi musiqiy tarbiya – bu kichkina bolaga beriladigan bebaho tuhfa, uning kelajakdagi ma’naviy va estetik rivojiga qo‘yiladigan tamal toshidir. Musiqa bolalarning qalbini noziklashtiradi, ularning dunyoni go‘zallik orqali idrok etishiga ko‘maklashadi. Yuqorida sanab o‘tilgan maqsad va vazifalar, mashg‘ulot shakllari hamda interaktiv usullar barchasi bir maqsadga qaratilganki, u ham bo‘lsa – bolada musiqaga, san’atga muhabbat uyg‘otish, uni baxtiyor va barkamol inson qilib voyaga yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, musiqa tarbiyasi – bu bolaga berilgan quvonch va ilhom manbai, ta’lim-tarbiyaning eng muhim qirralaridan biri. Bolalarga musiqa orqali baxt ulashish, ularning ko‘zlarida porlagan quvonchni ko‘rish – bu o‘qituvchi uchun eng katta mukofot bo‘la oladi. Shunday ekan, musiqiy tarbiya jarayonini chin dildan, qiziqarli va samarali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Najmetdinova N.I. *"Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarining pedagogik va psixologik omillari"*. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022oriens.uzoriens.uzoriens.uz.

2.Abduraximov A’. *"Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy tarbiyaning ahamiyati"*. JDPI, 2021art.jdpu.uz.

3.Soipova D. *"Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi"*. Toshkent, 2021jdpu.uzjdpu.uzjdpu.uzjdpu.uzjdpu.uzjdpu.uzjdpu.uzjdpu.uz.

4.Saidjonova S.S. *"Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasining maqsad va vazifalari"*. Ta’lim, fan va innovatsiyalar jurnali, 2024newjournal.org.

5.“The Positive Impact of Music on Children’s Cognitive and Social Skills.” American SPCC, Sep 9, 2025americanspcc.orgamericanspcc.org.
6.Anonim maqola. *"MTMlarda musiqiy tarbiya vazifalari"*oriens.uz. (Oriens.uz ilmiy jurnali maqolasi)
7.Anonim. *"Maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotlarida interaktiv yondashuv"*journal.bilig.uz. (Internet manba)

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI MUHITDA BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi
Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni raqamli muhitda tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik muammolari o‘rganilgan. Zamonaviy raqamli vositalar bolalarning ijtimoiylashuvi, axloqiy me’yorlari va kognitiv rivojlanishiga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqotda amaliy mashg‘ulotlar, media savodxonlik, internet xavfsizligi, oila–maktab hamkorligi va gamifikatsiyaga asoslangan tarbiyaviy texnologiyalarning samaradorligi baholandi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli tarbiya, ijtimoiy-pedagogik texnologiya, media savodxonlik, raqamli madaniyat, internet xavfsizligi, boshlang‘ich ta’lim, kiberxavf, oila–maktab hamkorligi*

Аннотация. *В исследовании рассматриваются социально-педагогические проблемы обучения детей младшего школьного возраста в цифровой среде. Проанализировано влияние современных цифровых инструментов на социализацию, морально-нравственное и когнитивное развитие детей. В исследовании оценивалась эффективность образовательных технологий на основе практических занятий, медиаграмотности, интернет-безопасности, взаимодействия семьи и школы и геймификации.*

Ключевые слова: *цифровое образование, социально-педагогические технологии, медиаграмотность, цифровая культура, интернет-безопасность, начальное образование, киберриски, взаимодействие семьи и школы*

Abstract. *This study examines the socio-pedagogical problems of educating primary school children in a digital environment. The impact of modern digital tools on the socialization, moral standards and cognitive development of children was analyzed. The study assessed the effectiveness of educational technologies based on practical exercises, media literacy, Internet safety, family-school cooperation and gamification.*

Keywords: *digital education, socio-pedagogical technology, media literacy, digital culture, Internet safety, primary education, cyber risk, family-school cooperation*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivoji bolalarning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. UNESCO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, 8–10 yoshli bolalarning 65 foizi internetdan mustaqil foydalanishni boshlaydi. O‘zbekiston sharoitida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 70 foizdan ortig‘i mobil telefon va planshetlarga ega bo‘lib, kuniga o‘rtacha 2–3 soat raqamli kontent bilan shug‘ullanadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilar – o‘yin, qiziqish va taqlid orqali o‘rganadigan, ijtimoiy tajribasi kam bo‘lgan, axborotni tanqidiy baholay olmaydigan avloddir. Raqamli muhit esa ularga ham imkoniyat, ham xavf tug‘diradi.

Nazariy jihatdan qaralganda, raqamli tarbiya quyidagi uch asosiy maydonda muammolarni yuzaga keltiradi:

1. **Psixologik rivojlanish muammolari**
2. **Axloqiy-ijtimoiy tarbiya muammolari**
3. **Pedagogik jarayon muammolari**

Bu muammolar raqamli muhitning noto‘g‘ri va nazoratsiz ta’siri natijasida yuzaga keladi. Quyida har bir muammo nazariy asosda tahlil qilinadi.

1.Psixologik muammolar

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa gadjet va internetning erta qo‘llanishi kichik yoshdagi bolalarda bir qator psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.Nazariy manbalarda (UNESCO, APA) ko‘rsatilishicha, ekran oldida uzoq vaqt o‘tirish bolalarda selektiv diqqatni pasaytiradi.Kognitiv jarayonlar (xotira, tafakkur, mantiqiy bog‘liqlik) izdan chiqishi mumkin. 6–10 yosh oralig‘ida bola ko‘proq harakatga muhtoj bo‘lgan davr – gadjet bunga to‘sqinlik qiladi. Ekran vaqtining ortishi faol o‘yinlar, sensor tajriba, jonli muloqot o‘rnini bosib qo‘yadi.

Psixologik nazariyalarga ko‘ra, kichik yoshda mukofot-harakat tizimi kuchli ishlaydi.

Multfilm, o‘yin, tezkor effektlar bola miyasiga lazzat gormonlarini chiqaradi va asta-sekin: raqamli o‘yinlarga haddan tashqari qaramlik, tasalli uchun gadjetga murojaat qilish, real hayotdan uzoqlashish holatlarini yuzaga keltiradi. Bu “raqamli stress” yoki “virtual qaramlik” deb nomlanadi. Jonli munosabat kamaya borishi natijasida: empatiya (hamdardlik) pasayadi, his-tuyg‘ularni boshqarish qiyinlashadi, jismoniy o‘yinlar kamaygani sababli agressiya ortishi mumkin, virtual muhitdagi harakatlar bilan real hayot standartlarini chalkashtirish holatlari yuzaga keladi. Bu muammo Erikson va Vigotskiy nazariyalarida alohida ta’kidlangan bolaning ijtimoiylashuvi real muloqot orqali shakllanadi. Raqamli muhit bolalarning tarbiya jarayoniga bevosita ta’sir qiladi va ko‘plab axloqiy-ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

2.Axloqiy-ijtimoiy tarbiya muammolari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari: qo‘pol kommentlar, xorijiy platformalardagi salbiy xabarlar, o‘yinlardagi agressiv xulq bilan tez tanishadi. Nazariy manbalar (UNICEF, OECD) buni ijtimoiy-emotsional xavf sifatida tasniflaydi. Chunki bola virtual muhitdagi tahdidni real hayotdan ajrata olmaydi.

Filtrlanmagan internet muhitda kichik yoshdagi bola quyidagilarga duch kelishi mumkin: zo‘ravonlik sahnalari,erotik tasvirlar, yoshi mos bo‘lmagan o‘yinlar,yolg‘on, manipulyativ, reklama kontentlari. Bu esa uning qadriyatlar tizimini buzadi. Boshlang‘ich yoshdagi bola shaxsiy ma’lumot nima ekanini tushunmaydi. U uchun: ism, rasm, manzil,maktab nomi yopiq axborot hisoblanishi kerak, lekin u buni anglamaydi. Bu kiberxavfsizlikning asosiy muammosidir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Raqamli aloqa jonli muloqotni kamaytiradi: do‘stlashish,o‘rtoqlashish,navbat kutish,qoida bo‘yicha o‘ynash kabi ko‘nikmalar sekin rivojlanadi. Bu holat Bandura nazariyasidagi ijtimoiy o‘rganish jarayonining zaiflashuviga olib keladi. Agar bolada: emotsional stress, oilaviy muammolar, past baho yoki tanbeh, do‘stlar bilan kelishmovchilik bo‘lsa, u raqamli dunyoga “qochishga” intiladi. Bu o‘z navbatida: ichki xavotirning kuchayishi, real hayotdan ajralish, ijtimoiy moslashuvning pasayishi kabi oqibatlarga olib keladi.

3. Pedagogik jarayon muammolari

Raqamli muhitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayoni o‘qituvchidan yangi kompetensiyalarni, metodik yondashuvlarni va pedagogik jarayonni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Zamonaviy raqamli vositalarning keskin ko‘payishi ta’lim jarayoniga ijobiy imkoniyatlar bilan birga murakkab pedagogik muammolarni ham olib kirmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari ko‘pincha quyidagi sohalarda tajribaga ega emas: internet xavfsizligini o‘rgatish metodikasi, media savodxonlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish, zararli kontentni aniqlash, raqamli odob-axloq bo‘yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, texnologiyalarni didaktik maqsad bilan uyg‘unlashtirish. Raqamli darslar soni ko‘payganda: jonli muloqot, emotsional aloqa,bolaga yakka tartibda yondashish kamaya boradi.

Boshlang‘ich yoshdagi bola uchun esa: o‘qituvchining ovozi, ko‘zi bilan muloqot, samimiy munosabat tarbiyaviy jarayonning asosiy qismlari hisoblanadi.

QOFIL NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO (2023). *Guidelines on Addressing Digital Learning and Well-Being in Primary Education.*Paris:UNESCOPublishing. Boshlang‘ich ta’limda raqamli farovonlik, xavfsizlik va media savod bo‘yicha global tavsiyalar.
2. Livingstone, S., & Helsper, E. (2019). *Children's Online Risks, Opportunities and Mediation.* Journal of Child Psychology, 44(3).
3. Vigotsky, L. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press.
4. ISTE Standards for Educators (2020). *International Society for Technology in Education.* O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi bo‘yicha xalqaro standartlar.
5. OECD (2021). *Digital Education Outlook: PISA Insights to Learning in the Digital Age.* Paris: OECD Publishing. Raqamli o‘quv muhiti, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalari bo‘yicha tahlillar.

QORI NIYOZIYNING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING DAVOMIYLIGI

Axmedova Nargiza Toychibekovna
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi davomiyligi tahlil qilinadi. Olimning ilmni inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida e’tirof etishi, milliy ta’limni modernizatsiya qilishga qo‘shgan hissasi, o‘zbek tilida ilmiy adabiyotlar yaratishdagi tashabbuslari keng yoritilgan. Shuningdek, Qori Niyoziy faoliyatining hozirgi zamon ta’lim islohotlari, o‘qituvchi tayyorlash tizimi, ilmiy maktablar rivoji va yoshlar ongidagi innovatsion tafakkur bilan bog‘liq jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar. *Qori Niyoziy, Ma’rifatparvarlik, Ma’rifat g‘oyalari, Ilm-ma’rifat, Ma’rifatparvar olim, Ma’rifiy meros, Ilmiy meros, Ilmiy tafakkur, Ilmiy dunyoqarash, Ta’lim taraqqiyoti, Milliy ta’lim, Ta’lim islohotlar, O‘zbek ta’lim tizimi, Matematika metodikasi, Pedagogik qarashlar*

Аннотация. *В данной статье анализируются просветительские идеи Абдуллы Қори Ниязий, процесс их исторического формирования, а также их преемственность в современной системе образования. Широко освещаются признание учёным знания, как основного фактора развития личности и общества, его вклад в модернизацию национального образования, инициативы по созданию научной литературы на узбекском языке. Кроме того, рассматриваются аспекты деятельности Қори Ниязия, связанные с современными образовательными реформами, системой подготовки учителей, развитием научных школ и формированием инновационного мышления у молодёжи.*

Ключевые слова: *Қори Ниязий, просветительство, просветительские идеи, наука и просвещение, просветитель-учёный, просветительское наследие, научное наследие, научное мышление, научное мировоззрение, развитие образования, национальное образование, образовательные реформы, система образования Узбекистана, методика математики, педагогические взгляды*

Kirish. XX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston ilm-ma’rifat sahnasida o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan Abdulla Qori Niyoziy ma’rifatparvar olim, pedagog, tashkilotchi hamda jamiyat taraqqiyotining eng samarali yo‘li sifatida ilmni targ‘ib qilgan ulug‘ mutafakkirdir. U o‘zbek xalqining ilmiy salohiyatini yuksaltirish, matematika va tabiiy fanlarning o‘qitilishini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy maktablar tizimini isloh qilish, yosh avlodni ma’rifat yo‘liga boshlash borasida ulkan mehnat qilgan. Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimi, ilmiy fikrlash, yoshlarning intellektual salohiyatini

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

rivojlantirish siyosatida munosib davom etmoqda. Uning ma’rifiy qarashlari — ilmni har bir inson hayotining eng asosiy qadriyati deb bilish, fan orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklash, xalqning dunyoqarashi va tafakkurini yuksaltirish, o‘zbek tilida ilmiy maktab yaratish g‘oyalari — bugungi intellektual jamiyat qurilishi jarayonida muhim poydevor vazifasini bajarib kelmoqda. Shunday ekan, Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik merosini o‘rganish, uning bugungi kundagi davomiyligini aniqlash zamon talabi sanaladi[1].

Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik qarashlari shakllanishi. Tarixiy sharoit va ma’rifat g‘oyalarining kuchayishi. Qori Niyoziy faoliyat yuritgan davr — O‘rta Osiyo tarixida murakkab va ayni paytda yangilanish jarayonlari kuchaygan davr edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidlar harakati ko‘tarilgan, ta’limda dunyoviy fanlarni tatbiq etish, yangi usul maktablari ochish, milliy uyg‘onish g‘oyalari jamiyatda keng tarqalgan edi. Qori Niyoziy ana shu ma’rifat shamchiroqlarining davomchisi sifatida: xalqning savodxonligini oshirish, ilm-fanni ona tilida o‘qitish, maktab va madrasalarda zamonaviy fanlarni joriy qilish, milliy ziyolilar qatlamini shakllantirish kabi masalalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Uni aynan ma’rifatparvarlik ruhini chuqur egallagan ziyoli sifatida shakllantirgan omillardan biri - o‘zbek jamiyatida ilmli insonning mavqei yuqori bo‘lishi, shuningdek, Turkiston jadidlarining ta’siridir. Qori Niyoziyning ilmiy dunyoqarashi uning ma’rifatparvarlik qarashlari quyidagilarga asoslangan: ilm - insonning asosiy kamolot vositasidir, fan jamiyatni modernizatsiya qiladi, xalqning madaniy saviyasi oshmas ekan, millat taraqqiy eta olmaydi, ta’limda milliylik va zamonaviylik uyg‘un bo‘lishi shart. Bu fikrlar keyinchalik uning darsliklarida, nutqlarida, ilmiy maqolalarida yaqqol aks etgan[2].

Qori Niyoziyning ilm-ma’rifat sohasidagi amaliy faoliyati. Ta’lim tizimining ilmiy asosda rivojlanishi, Qori Niyoziy O‘zbekiston ta’lim tizimini ilmiy asosda tashkil etgan birinchi mutaxassislardan biridir. Uning sa’y-harakati bilan o‘zbek tilida matematika darsliklari yaratildi, maktablarda yangi o‘quv dasturlari joriy qilindi, ilmiy terminologiya shakllantirildi, o‘qituvchi tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Uning “Aritmetika”, “Geometriya”, “Matematika metodikasi” kabi asarlari turli avlodlar uchun yetakchi qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan[3].

Qori Niyoziy Fanlar akademiyasi va ilmiy maktablar rivojiga, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti sifatida respublika miqyosida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Uning tashabbusi bilan matematika, fizika, geologiya, tarix, tilshunoslik kabi yo‘nalishlarda ilmiy institutlar

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tashkil etildi. Bu esa o‘zbek ilm-fanining mustaqil rivojlanishi uchun muhim poydevor bo‘ldi.

O‘qituvchi shaxsiga e’tibor Qori Niyoziy fikricha, jamiyat taraqqiyoti, avvalo, o‘qituvchining bilim saviyasi va ma’naviy dunyosiga bog‘liq. Shuning uchun u pedagoglarni muntazam malaka oshirish, zamonaviy dars metodikalarini tatbiq etish, o‘quv jarayoniga didaktik materiallar kiritish kabi masalalarga alohida e’tibor bergan. Bugungi kunda o‘qituvchi malakasini oshirish tizimi ham aynan shu tamoyillarga asoslanadi.

Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining asosiy tamoyillari Ilm - taraqqiyotning bosh omili uning ilm haqidagi qarashlari quyidagicha umumlashtiriladi: ilm jamiyatni yangi bosqichga ko‘taradi, ilmiy tafakkur insonni xatodan xoli qiladi, fan va texnika taraqqiyoti millatning raqobatbardoshligini belgilaydi. Bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida bu fikrlar o‘z dolzarbligini yanada chuqurroq namoyon qilmoqda[3].

Ma’rifat xalq qalbining uyg‘onishidir Qori Niyoziy uchun ma’rifat - bu faqat bilim emas, balki ongning ochiqligi, tafakkurning kengligi, yangilikka intilish, ijtimoiy faollikdir. Uning ta’lim haqidagi qarashlari shundaki, ma’rifat tarqatish orqali xalqning ijtimoiy-siyosiy ongi ko‘tariladi. Ilmning milliy ildizlari Olim o‘zbek xalqining boy ilmiy merosini chuqur o‘rgangan va bu merosni zamonaviy fan bilan uyg‘unlashtirishni maqsad qilgan. Qori Niyoziy fikricha ilm o‘zbek xalqining ma’naviy bir qismidir, tarixiy merosni bilmagan xalq kelajakka mustahkam qadam qo‘ya olmaydi. Qori Niyoziyning asarlarida Al-Xorazmiy, Ulug‘bek, Beruniy, Farg‘oniy ilmiy maktablariga murojaatlar ko‘p uchraydi[4].

Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining hozirgi kundagi davomiyligi. Mustaqillik davri ta’lim islohotlarida davomiylik, bugungi O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, STEAM va raqamli texnologiyalarni o‘qitish, o‘zbek tilida ilmiy adabiyotlar yaratish, zamonaviy darsliklar ishlab chiqish jarayonlari Qori Niyoziy boshlab bergan an’analarni davom ettirmoqda. Har bir islohotning markazida - “ilmiy fikrlovchi, mustaqil, tashabbuskor shaxsni tarbiyalash” g‘oyasi turadi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri Qori Niyoziy ma’rifatparvarlik merosining uzviy davomi hisoblanadi. Ilm-fan taraqqiyotida davomiylik Bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot institutlarining kengayishi yosh olimlarga davlat dasturlari orqali ko‘mak ko‘rsatilish Qori Niyoziy tashlagan ilmiy asoslarning bugungi ko‘rinishidir. Ilmiy maktablar, ilmiy rahbarlik an’analari ham Qori Niyoziy davridan boshlangan. O‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni hozirgi ta’lim siyosatida o‘qituvchi maqomini yuksaltirish eng ustuvor vazifalardan biri

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

hisoblanadi. Malaka oshirish tizimi kengaytirilmoqda, xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilmoqda, o‘qituvchining ijtimoiy obro‘sini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu ham Qori Niyoziyning *“Yaxshi o‘qituvchi — kuchli jamiyatning tayanchi”* degan ma’rifiy g‘oyasining davomidir. Yoshlar tafakkurida davomiylik bugungi yoshlar innovatsiya, ilmiy yangilikka intilish, startaplar bilan shug‘ullanish, raqamli madaniyatni egallash borasida faol. Bu jarayonlarda asosiy maqsad - yoshlarni fan va ta’lim orqali jamiyat taraqqiyotiga yetaklashdir. Bu esa Qori Niyoziyning bosh maqsadi bilan uyg‘un. Qori Niyoziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati Intellektual jamiyat qurilishiga ta’siri uning qarashlari asosida quyidagi ijtimoiy qadriyatlar shakllanadi, intellektual mehnatga hurmat, o‘qishga chanqoqlik, ilmiy tafakkurning ustuvorligi, ma’rifatning milliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi. Bugungi kunda bu qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylangan. Milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni Qori Niyoziy ilm-fanning o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy identitetini mustahkamlashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Bugungi kunda o‘zbek tilining ilmiy til sifatidagi mavqei, milliy merosni o‘rganish, buyuk allomalarning ilmiy maktablarini tiklash ham aynan uning g‘oyalariga tayanadi. Globalizatsiya sharoitida ahamiyati dunyo ilm-fan tez rivojlanayotgan bir paytda Qori Niyoziy g‘oyalarining kuchli tomonlari quyidagilardir: ilmiy raqobatbardoshlik, innovatsion tafakkur, chet tillarini o‘rganish, xalqaro aloqalarni kengaytirish. Uning o‘zi ham xalqaro ilmiy hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘ygan olim sifatida tanilgan[5].

Tavsiyalar. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Qori Niyoziy merosini ta’lim jarayoniga chuqurroq integratsiya qilish darslik va o‘quv qo‘llanmalariga olimning ilmiy-metodik qarashlarini kiritish. Pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun “Qori Niyoziy merosi” maxsus kursini tashkil etish.

2. O‘zbek tilida ilmiy adabiyot yaratish an’analarini davom ettirish, Qori Niyoziyning ilmiy-uslubiy tajribasidan foydalanib, fanlarga oid zamonaviy darslik va atamalar lug‘atlarini tayyorlash. Ilmiy-texnik tarjimalarni kengaytirish va ilmiy tilni boyitish.

3. O‘qituvchilarning manaviy ma’rifiy va metodik salohiyatini oshirish, Qori Niyoziy ta’kidlaganidek, o‘qituvchining doimiy o‘qishi va yangiliklarni o‘zlashtirishi ta’lim sifatini belgilaydi. Malaka oshirish markazlarida olim merosiga bag‘ishlangan metodik seminarlar o‘tkazish.

4. Ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, Qori Niyoziy boshlab bergan ilmiy maktablar an’anasiga tayanib, yosh olimlar uchun ilmiy loyihalar va

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

grantlar sonini oshirish. Talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish va ularni amaliyot bilan bog‘lash.

5. Yoshlar orasida ilm-fanga qiziqishni oshirish maktab va oliy ta’lim muassasalarida “Ma’rifatparvar olimlar merosi” turkumida uchrashuvlar, olimpiadalar, targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish. Ilmiy tafakkur, innovatsion fikrlash va ma’rifiy ongni kuchaytirishga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish.

6. Qori Niyoziyning tarixiy merosini keng targ‘ib qilish hujjatli filmlar, ko‘rgazmalar, ilmiy konferensiyalar tashkil etish. Uning asarlarini raqamlashtirib, ochiq elektron kutubxonalar orqali taqdim etish.

Xulosa. Qori Niyoziy o‘z faoliyati davomida o‘zbek xalqining ilm-ma’rifat sohasidagi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ma’rifatparvar olimdir. Uning ilmiy merosi, pedagogik qarashlari, ta’lim va fan sohasidagi amaliy ishlari bugungi zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotida ham o‘z aksini topmoqda. Uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilmga ishonch, milliy va zamonaviy ta’lim uyg‘unligi, fan va innovatsiyaga tayangan taraqqiyot, yosh avlodni ma’naviy va intellektual kamolotga yetaklash kabi tamoyillarga asoslangan. Bugungi O‘zbekiston ta’lim siyosati, ilmiy salohiyatni oshirish dasturlari, yoshlarni ilm-fan sari yo‘naltirish harakatlari - bularning barchasi Qori Niyoziy boshlagan ma’rifiy an’ananing uzviy davomidir. Shu bois Qori Niyoziy merosini chuqur o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish nafaqat ilmiy-ma’rifiy, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA MILLIY KONTENT ASOSIDA SHAXSDA O'ZLIKNI ANGLASH KOMPETENTSIYASINI SHAKLLATTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Axralov Shavkat Sulaymonivich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti
Axrorova Sevara Suloymon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Phd doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim jarayonida milliy kontentni integratsiyalash orqali shaxsda o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada o‘zlikni anglash kompetensiyasi tushunchasining mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim vositalarida milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy kontent asosida yaratilgan raqamli resurslar yordamida ta’lim oluvchilarda milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli muhitda milliy kontentdan samarali foydalanish o‘quvchilarda vatanparvarlik, madaniy identitet va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimi oldida yangi, zamonaviy vazifalar paydo bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari, raqamli resurslar va onlayn platformalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bir paytda, milliy qadriyatlar, madaniy meros va o‘zlikni anglash kabi ma’naviy omillarni raqamli muhitda saqlab qolish va rivojlantirish zarurati keskin ortmoqda. Shu sababli, raqamli ta’lim jarayoniga milliy kontentni integratsiyalash shaxsning o‘zligini anglash kompetensiyasini shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida qaralmoqda.Milliy kontent deganda o‘z xalqining tarixi, madaniyati, tili, an’analari, qadriyatlari, san’ati va urf-odatlariga oid ma’lumotlarning ta’lim mazmuniga singdirilishi tushuniladi. Mazkur kontent raqamli ta’lim muhiti orqali ta’lim oluvchilarga yetkazilganda, ularning milliy o‘zlikni anglash darajasi oshadi, jamiyatda ijtimoiy-madaniy uyg‘unlikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, raqamli ta’lim va milliy kontentning uzviy uyg‘unligi shaxsni barkamol, mustaqil fikrlovchi, o‘z xalqining ma’naviy ildizlariga sodiq inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.Mazkur mavzuning dolzarbligi, raqamli muhitda yoshlarning ma’naviy qarashlariga global axborot oqimlari kuchli ta’sir ko‘rsatayotgani, bu jarayonda milliy o‘zlikni saqlab qolish mexanizmlarini pedagogik nuqtai nazardan ilmiy asoslash zarurligida namoyon bo‘ladi. Chunki

zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o‘quvchilarning e’tibori ko‘proq xorijiy axborot manbalariga qaratilmoqda, bu esa ularning milliy identifikatsiyasini zaiflashtirish xavfini tug‘diradi.Raqamli ta’lim jarayonida milliy kontent asosida shaxsda o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini tahlil qilish, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat.Shu bilan birga, raqamli ta’limning imkoniyatlaridan foydalangan holda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni chuqurlashtirish hamda ularni global raqamli makonda faol va ongli shaxs sifatida shakllantirish zarurligi tadqiqotning markaziy g‘oyasini tashkil etadi.So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi inson hayotining barcha sohalarini, jumladan, ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, masofaviy va aralash o‘qitish shakllarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, yangi pedagogik yondashuvlarni ham talab qilmoqda. Shunday sharoitda ta’limda nafaqat texnologik yangiliklarni joriy etish, balki milliy qadriyatlar, madaniy meros va o‘zlikni anglash kabi insoniy fazilatlarni asrash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta’lim — bu shunchaki texnik imkoniyatlar majmui emas, balki zamonaviy o‘quvchi va talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy tizimdir. Shu boisdan ham raqamli ta’lim sharoitida milliy kontentni to‘g‘ri tanlash, uni o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali shaxsda o‘zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.Mazkur maqolada raqamli ta’lim jarayonida milliy kontent asosida o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi, milliy qadriyatlarga tayangan holda raqamli ta’lim mazmunini boyitish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.Raqamli ta’lim bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Unda sun’iy intellekt, virtual haqiqat, onlayn platformalar, elektron resurslar, raqamli laboratoriyalar kabi vositalar keng qo‘llanmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, ta’limni individuallashtirish va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.Ammo, raqamli muhitning cheksiz imkoniyatlari bilan bir qatorda, u milliy madaniyatdan uzoqlashish, o‘z ildizlarini unutish xavfini ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun raqamli ta’lim jarayonida milliy kontentni qo‘llash, o‘quv materiallarini milliy qadriyatlarga asoslash juda muhimdir.

Milliy kontent deganda xalqning tarixi, tili, madaniyati, san’ati, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan bilimlar, axborotlar va materiallar majmuasi

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tushuniladi. U nafaqat ma’naviy merosni asrashga, balki o‘quvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy identitetini shakllantirishga ham xizmat qiladi.Ta’lim tizimida milliy kontentni raqamli shaklda yaratish va uni o‘quv jarayoniga integratsiyalash bir qator afzalliklarga ega:

- o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytiradi;
- tarixiy xotirani tiklaydi va milliy merosga hurmat uyg‘otadi;
- ta’lim mazmunini o‘zbek xalqining mentalitetiga moslashtiradi;
- global axborot makonida milliy o‘zlikni himoya qilish imkonini beradi.

Masalan, tarix, adabiyot, san’at kabi fanlarda milliy kontent asosida yaratilgan raqamli darsliklar, videodarslar, interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalaydi.

O‘zlikni anglash kompetensiyasi – bu shaxsning o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglay olishi, milliy, madaniy va ijtimoiy identitetini tushunishi, o‘z qadriyatlarini himoya qila olishi va ularni amaliy hayotda qo‘llay bilish qobiliyatidir. Bu kompetensiya ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasi bilan bevosita bog‘liq.

Raqamli ta’lim sharoitida o‘zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- milliy qadriyatlarni raqamli materiallar orqali o‘rganish;
- ta’lim jarayonida madaniy kontekstga ega misol va topshiriqlardan foydalanish;
- o‘zbek tilida multimedia resurslarini kengaytirish;
- shaxsiy identitetni mustahkamlovchi interaktiv topshiriqlarni joriy etish.

O‘zlikni anglash faqat nazariy bilim emas, balki shaxsiy tajriba, refleksiya va o‘z madaniyatiga munosabat orqali shakllanadi. Shu sababli, o‘quv jarayonida raqamli ta’lim vositalari orqali milliy qadriyatlarni his etish imkonini beruvchi interaktiv metodlar qo‘llanilishi lozim.Milliy kontentni raqamli ta’lim jarayoniga integratsiyalash bu pedagogik jihatdan murakkab, ammo samarali yo‘nalishdir. Bunda o‘qituvchi nafaqat o‘quv materialini raqamli shaklga o‘tkazadi, balki uni milliy ruhda qayta ishlab chiqadi.

Integratsiya jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Milliy kontentni tahlil qilish va tanlash;
2. Raqamli o‘quv materiallariga moslashtirish;
3. Interaktiv shaklda taqdim etish;
4. O‘quvchilarda milliy qadriyatlar asosida refleksiya jarayonini tashkil etish.

Pedagogik nuqtai nazardan bu jarayon shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faol o‘qitish metodlari, kompetensiyaviy yondashuv va konstruktiv pedagogika

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tamoyillariga tayanadi.Bugungi kunda o‘qituvchilar uchun milliy kontent asosida yaratilgan bir qator raqamli vositalar mavjud: elektron darsliklar, virtual muzeylar, milliy tarixiy joylarning 3D turlari, onlayn madaniyat platformalari va boshqalar. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar o‘z madaniy ildizlarini chuqurroq anglaydilar, milliy merosni raqamli muhitda o‘rganadilar.Masalan, “Virtual O‘zbekiston” loyihasi, “Madaniy meros” elektron platformasi yoki “O‘zbek adabiyoti onlayn kutubxonasi” kabi resurslardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularda o‘zlikni anglash va milliy iftixor hissini ham rivojlantiradi.

Raqamli ta’limda milliy kontentni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchining raqamli pedagogika sohasidagi bilim va ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat texnik vositalardan foydalana olishi, balki ularni didaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘llay bilishi kerak.Shuningdek, raqamli muhitda o‘qituvchi milliy qadriyatlarni o‘rgatishda o‘z shaxsiy namunasi, nutqi, kommunikatsiyasi orqali ham muhim ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘qituvchilarni milliy kontent asosida raqamli ta’limni tashkil etish bo‘yicha maxsus kurslarda tayyorlash zarur.

Xulosa. Raqamli ta’lim jarayonida milliy kontentdan samarali foydalanish, ta’lim oluvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki milliy g‘urur, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat kabi muhim insoniy fazilatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa, zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.O‘zlikni anglash kompetensiyasining shakllanishi shaxsning o‘z milliy qadriyatlarini anglash, ularni zamonaviy raqamli muhitda talqin etish, o‘z fikrini mustaqil ifoda eta olish, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan, raqamli ta’lim jarayoniga milliy kontentni integratsiyalash pedagogik jarayonni boyitadi, ta’lim oluvchilarda milliy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy kontent asosida tashkil etilgan raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning o‘zlikni anglash darajasi sezilarli ravishda oshadi. Chunki bunday yondashuv o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.Pedagogik jihatdan bunday integratsiya shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interaktiv metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish va ijodiy topshiriqlar orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchidan nafaqat raqamli savodxonlik, balki milliy-madaniy tafakkurni chuqur bilishni ham talab etadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim jarayonida milliy kontentni o‘rinli qo‘llash bu zamonaviy texnologiyalar yordamida yosh avlodni o‘z milliy ildizlariga bog‘lash, ularning shaxsiy va ma’naviy kamolotini ta’minlashning muhim yo‘lidir. Shu boisdan, bu yo‘nalishda pedagogik yondashuvlarni ilmiy asoslash, ta’lim jarayoniga mos metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va amaliyotda keng joriy etish zamon talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori.
3. Xoshimova D. Raqamli ta’limning pedagogik imkoniyatlari.* – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Jalilov J. Milliy qadriyatlar va zamonaviy ta’lim.* – Samarqand: SamDU, 2020.
5. UNESCO. Digital Learning in Education.* – Paris, 2021.
6. Ziyodova S. Ta’limda milliy identitetni shakllantirish muammolari.* – Toshkent: Nizomiy TDPU, 2022.
7. To‘raqulova M. Raqamli pedagogika asoslari.* – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2023.
8. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027.*
9. Xudoyberdiyev A. O‘zlikni anglash psixologiyasi.* – Toshkent: Fan, 2019.
10. Nazarov R. Ta’limda raqamli texnologiyalar integratsiyasi.* – Toshkent: O‘zMU, 2022.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

TINGLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI PEDAGOGIK TA’MINOT MODELI

Aymatova Amansoltan Arazmed kizi
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida tinglash qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvlari va bu jarayonni raqamli pedagogik ta’minot orqali takomillashtirish strategiyalari yoritilgan. Raqamli vositalar, audiovizual resurslar, sun’iy intellekt asosida differensial o‘qitish tizimlari, multimodal tinglash muhiti hamda interfaol elektron platformalar tinglash kompetensiyasini shakllantirishda qanday imkoniyatlar yaratishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli pedagogik ta’minotning konseptual modeli taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tinglash qobiliyati, boshlang‘ich ta’lim, raqamli pedagogika, multimodal ta’lim, raqamli ta’minot, audiovizual metodlar, AI-diagnostika, interfaol platforma*

Аннотация. *В статье освещаются современные методические подходы к развитию умения слушать на этапе начального образования и Стратегии совершенствования этого процесса с помощью цифрового педагогического обеспечения. Научно проанализировано, как цифровые инструменты, аудиовизуальные ресурсы, дифференцированные системы обучения на основе искусственного интеллекта, мультимодальная среда прослушивания и интерактивные электронные платформы предоставляют возможности для формирования навыков слушания. Также предлагается концептуальная модель цифрового педагогического обеспечения.*

Ключевые слова: *умение слушать, начальное образование, цифровая педагогика, мультимодальное обучение, цифровое обеспечение, аудиовизуальные методы, ИИ-диагностика, интерактивная платформа*

Annotation. *The article covers modern methodological approaches to the development of listening skills at the stage of primary education and strategies for improving this process through digital pedagogical provision. It is scientifically analyzed what opportunities digital tools, audiovisual resources, differential training systems based on artificial intelligence, a multimodal listening environment and interactive electronic platforms provide in the formation of listening competence. A conceptual model of digital pedagogical provision is also proposed.*

Keywords: *listening ability, primary education, digital pedagogy, multimodal education, digital provision, audiovisual methods, AI-diagnostics, interactive platform*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON DAVLAT PEDAGOGIKA MILLIY INSTITUTI

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishda tinglab tushunish faoliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki tinglash – o‘quvchining nutqni idrok etish, uni mantiqan qayta ishlash, mazmunini anglash va unga munosabat bildirishni talab qiluvchi murakkab psixolingvistik jarayondir. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari aynan shu jarayonni tabiiy shaklda

rivojlantiruvchi asosiy pedagogik muhit sifatida yondoshiladi. Umumiy holda olib qaraganda bu ikki fan bir-biriga juda ham yaqin fanlar hisoblanadi.

Tinglash kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy metodlari tinglovchilarni faol jalb etishga, ularning faol tinglashini va matnni tushunishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday metodlarga faol tinglash mashqlari, ochiq va yopiq savollar, munozaralar, kichik guruhlarda ishlash va multimedia materiallaridan foydalanish kiradi. Boshlang'ich ta'limda tinglash kompetensiyasini rivojlantirish uchun raqamli pedagogik ta'minot modeli (digital pedagogical support model) interaktiv darsliklar, ta'limiy ilovalar, audio va video materiallar, onlayn o'yinlar va viktorinalar yordamida amalga oshiriladi. Bu model raqamli texnologiyalardan foydalanib, tinglash ko'nikmalarini mustahkamlash va o'qitishning qiziqarli va samarali usulini yaratishga yordam beradi.

Maktabga endigina kelgan bola uchun so‘zning tovush tizimini farqlash, gap ohangini sezish, matnning mazmuniy bog‘lanishini tushunish – barchasi kundalik o‘quv faoliyatining tarkibiy qismi sanaladi. Ammo aynan boshlang‘ich sinfda tinglab tushunishning izchil shakllanmasligi o‘quvchining keyingi bosqichlarda o‘qish, og‘zaki nutq va yozma nutqdagi muvaffaqiyatiga bevosita salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun ham bugungi pedagogik yondashuvlar tinglashni yordamchi jarayon emas, balki boshlang‘ich ta’limning poydevori sifatida e’tirof etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tinglash ko‘nikmasini shakllantirish, avvalo, matnni to‘g‘ri tanlashdan boshlanadi. Juda murakkab obrazli matn bolani charchatadi; ortiqcha sodda matn esa uning tafakkurini sustlashtiradi. O‘quvchining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda qisqa, ravon, mazmuni aniq bo‘lgan hikoyalar, ertaklar, qiziqarli voqealar tinglash ko‘nikmasini asta-sekin rivojlantiradi. Tinglangan matn o‘quvchida avval idrok, so‘ng tushunish, undan keyin esa tushunganlarini so‘z orqali ifodalash zanjirini hosil qilishi lozim. Shu ma’noda, tinglash va qayta hikoya qilishni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi – ular bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir.

Zamonaviy fanda tinglash kompetensiyasini shakllantirishning quyidagi zamonaviy metodlari tan olinmoqda:

✓ **Faol tinglash mashqlari:** Tinglovchilarga matnni tinglash paytida asosiy g'oyalarni, dalillarni va muallifning fikrini aniqlashga qaratilgan mashqlar berish.

✓ **Ochiq va yopiq savollar:** Ma'lumotni aniqlashtirish, fikrlashni rag'batlantirish va chuqurroq tushunishni ta'minlash uchun savol-javob usullaridan foydalanish.

✓ **Munozaralar:** Tinglangan material asosida kichik guruhlarda yoki butun sinf bilan muhokamalar tashkil etish.

✓ **Kichik guruhlarda ishlash:** Tinglovchilarni juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlashga undash, bu orqali ular bir-birining fikrlarini tinglashadi va muhokama qilishadi.

✓ **Multimedia materiallaridan foydalanish:** Audio kitoblar, podkastlar, ta'limiy videolar va boshqa audio/video materiallar tinglash mahoratini oshirishga yordam beradi.

Tinglab tushunish kompetensiyasi – bu og‘zaki nutqni faol qabul qilish, uni anglab, tegishli tarzda javob qaytarish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi murakkab psixolingvistik jarayondir. Uo‘quvchining ijtimoiylashuvi, fikr almashish jarayonidagi faolligi va muloqot madaniyatinirivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu kompetensiyaning shakllanishi, avvalo,o‘qituvchining og‘zaki nutqini tinglash, matnli materiallar asosida ishlash, hikoya qilish va suhbatqurish orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinfda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishdamatnlar ustida ishlash o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega.
Tinglash kompetensiyasi boshlang‘ich ta’limda quyidagilar uchun asos yaratadi:

- o‘qish tezligi va tushunish;
- to‘g‘ri talaffuz;
- mustaqil nutq qurish;
- ijodiy fikrlash;
- ijtimoiy-kommunikativ faoliyat.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tinglash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy jihatlari ham mavjud. O‘quvchi boshqani tinglashni, uning gapini bo‘lmaslikni, fikrini oxirigacha eshitishni o‘rganadi — bu esa kommunikativ madaniyatning muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonida aynan shu jihat ko‘p hollarda e’tibordan chetda qoladi. Aslida esa tinglash madaniyati bolaning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Tinglab tushunish jarayonini samarali tashkil etishda o‘qituvchining nutq madaniyati ham beqiyos o‘rin tutadi. O‘qituvchining ravon, ifodali, ohangdor nutqi bolaning tinglashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Monoton, hissiz o‘qilgan matn esa eng yaxshi asarni ham zerikarli ko‘rsatishi mumkin. Demak, tinglash faoliyati faqat o‘quvchi faoliyati emas, balki o‘qituvchining nutqiy mahoratiga ham chambarchas bog‘liq.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tinglash kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy metodlari – multimodal o‘qitish, gamifikatsiya, audiohikoya, situatsion tinglash ва AI-assistentli individual mashqlar – boshlang‘ich ta’lim jarayonida yuqori natija beradi. Raqamli pedagogik ta’minot modeli esa ushbu jarayonni tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, adaptiv ва samarali ta’lim ekotizimiga aylantiradi.

Raqamli kontent, audiovizual resurslar ва sun’iy intellekt integratsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanishini yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan nafaqan o‘qituvchi, balki ota-ona ham shug‘ullanishlari maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M.A. Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish. – T.: TDPU, 2022. – B. 47.
2. Jonbo‘tayeva M. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida matn ustidaishlash orqali o‘quvchilarning tinglab tushunishkompetensiyalarini rivojlantirish. https://universaljurnal.uz/
3. https://www.google.com/search?q=Tinglash+kompetensiyasini+shakllantirishning+zamonaviy+metodla

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASHNING INNOVATSION METODIK ASOSLARI (BIOLOGIYA FANI MISOLIDA)

B.Abduvahitov

Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida iqtidorli o‘quvchilarni biologiya fan olimpiadalariga tayyorlashning innovatsion metodik asoslari tahlil qilinadi. Jizzax davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi akademik litseylarda 303 nafar o‘quvchi ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Raqamli platformalar (HHMI BioInteractive, NCBI, Visible Body, LabXchange, Google Classroom), sun’iy intellekt asosidagi vositalar, virtual laboratoriyalar va adaptiv test tizimlaridan foydalanish samaradorligi an’anaviy metodlarga nisbatan solishtirildi. Tadqiqot natijalari raqamli metodikalar yuqori darajadagi biologik tafakkur, analitik ko‘nikmalar va olimpiada masalalarini yechish tezligini sezilarli oshirganini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, fan olimpiadasi, innovatsion metodika, biologiya, virtual laboratoriya, sun’iy intellekt, iqtidorli o‘quvchi*

Abstract. *This article examines innovative methodological approaches for preparing gifted students for biology olympiads in a digital learning environment. A total of 312 students from academic lyceums at Jizzakh State Pedagogical University, Bukhara State University, and the Tashkent Medical Academy participated in an experimental study. The effectiveness of digital platforms (HHMI BioInteractive, NCBI, Visible Body, LabXchange, Google Classroom), artificial intelligence tools, virtual labs, and adaptive testing systems was compared with traditional methods. Results indicate that digital methodologies significantly enhanced biological reasoning, analytical skills, and problem-solving speed.*

Keywords: *digital learning, science olympiad, innovative methodology, biology, virtual laboratory, artificial intelligence, gifted students*

Аннотация. *В статье анализируются инновационные методические основы подготовки одарённых учащихся к олимпиадам по биологии в цифровой образовательной среде. В эксперименте участвовали 312 учащихся академических лицеев при Джизакском государственном педагогическом университете, Бухарском государственном университете и Ташкентской медицинской академии. Эффективность цифровых платформ, виртуальных лабораторий и систем адаптивного тестирования сравнивалась с традиционными методами. Результаты показывают, что цифровые технологии существенно повышают аналитические навыки и скорость решения олимпиадных задач.*

Ключевые слова: *цифровое обучение, олимпиада, инновационная методика, биология, виртуальная лаборатория, одарённые учащиеся*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga chuqur kirib bormoqda. Dunyo miqyosida

raqamlashtirish jarayonlarining tezlashuvi o‘quv jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, biologik ma’lumotlar bazalari, multimodal platformalar hamda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonni an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yanada interaktiv, vizual, chuqur tahliliy va shaxsga yo‘naltirilgan shaklga keltirmoqda. UNESCO (2023) hisobotida ta’kidlanishicha, raqamli ta’lim muhiti fanning murakkab bo‘limlarini o‘zlashtirishda vizualizatsiya, moslashtirilgan ta’lim trayektoriyalari, real vaqtli tahlil va individual nazorat imkoniyatlarini kengaytiradi. Biologiya kabi eksperimental fan uchun bu o‘zgarishlar ayniqsa muhim, chunki laboratoriya amaliyotlarini takrorlash, modellashtirish va kuzatish imkonining cheklanganligi iqtidorli o‘quvchilarning chuqur nazariy va amaliy tayyorgarligiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

An’anaviy metodlarda laboratoriya tajribalari ko‘pincha jihozlar yetishmasligi, laboratoriya xavfsizligi bo‘yicha cheklovlar, qimmat reagentlar, vaqt resursining kamligi kabi omillar tufayli o‘quv jarayonida to‘liq qo‘llanilmaydi. Natijada ko‘plab murakkab biologik jarayonlar faqat darslik matni, statik rasm yoki o‘qituvchi tushuntirishiga asoslanib o‘tiladi. Bu esa iqtidorli o‘quvchilarda olimpiada savollarida talab etiladigan yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini, ya’ni modellashtirish, tahlil qilish, faraz chiqarish, tajriba dizaynini yaratish kabi ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Raqamli texnologiyalar ushbu muammoning samarali yechimini taqdim etadi — ular laboratoriya jarayonlarini xavfsiz, takroriy, interaktiv va ancha keng ko‘lamda simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Biologiya ta’limi uchun mo‘ljallangan virtual laboratoriyalar (LabXchange, PhET, HHMI BioInteractive), 3D biologik modellar (Visible Body), genomika va bioinformatika ma’lumotlar bazalari (NCBI, Ensembl), ekologik monitoring platformalari (iNaturalist), shuningdek sun’iy intellektga asoslangan o‘quv yordamchilari biologiyaning molekulyar darajadan ekotizimlar darajasigacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchi o‘zining individual sur’atida o‘rganish, bilimlarni takrorlash, murakkab jarayonlarni turli burchaklardan tahlil qilish, ilgari imkonsiz bo‘lgan tajribalarni virtual muhitda bajarish va ilmiy izlanish elementlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli platformalar, shuningdek, fan olimpiadalarida qo‘llaniladigan murakkab grafik ma’lumotlarni tahlil qilish, statistik modellarni talqin qilish, genetik

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

hisob-kitoblarni bajarish yoki molekulyar jarayonlarning bosqichma-bosqich mexanizmini ko‘rish imkonini beradi. Olimpiada savollarining aksariyati real ilmiy tadqiqotlardan olingan bo‘lib, ular ko‘pincha laboratoriya jarayonlari, grafik tahlil yoki biologik tizimlarning murakkab o‘zaro ta’sirini tushunishni talab qiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalar fan olimpiadalariga tayyorlash jarayonida nafaqat qo‘shimcha vosita, balki zarur pedagogik elementga aylanib bormoqda.

Raqamli vositalarning yana bir muhim afzalligi — ular iqtidorli o‘quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratadi. Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar o‘quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida baholab, unga individual o‘quv resurslari, maslahatlar va murakkablik darajasi bo‘yicha moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil izlanish, tezkor o‘rganish, o‘zini o‘zi baholash va yuqori darajadagi o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi juda yuqori bo‘lib, u raqamli ta’lim muhiti asosida biologiya fanidan fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasining amaliy samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda raqamli pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy asoslari, ta’lim jarayoniga integratsiya modeli, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga ta’siri hamda an’anaviy metodlar bilan solishtirilganda natijalardagi farqlar chuqur tahlil qilinadi. Mazkur ish biologiya ta’limi sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni tanlab tayyorlash jarayonini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rnini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Metodologiya (Methods). Tajriba 2024–2025 o‘quv yilida quyidagi uchta akademik litseyda olib borildi. Raqamli ta’lim vositalarida o‘quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtiriash natijasida tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘quvchilarning tajriba boshida va yakunidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini taqdim etamiz.

№	Tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan akademik litsey nomlari	Nazorat guruhi m_j=152			Tajriba guruhi n_i = 151		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
1	Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi(Sayiljoy akademik litseyi)	9 10	18 19	25 23	8 15	21 30	23 7

2	Buxoro davlat universiteti akademik litseyi(qo‘rako‘l akademik litseyi)	7 8	21 19	23 24	7 13	19 27	25 11
3	Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi	7 8	15 16	27 25	6 12	14 22	28 14
Barcha akademik litseylar bo‘yicha umumiy xulosalar		23 26	54 54	75 72	21 40	54 79	76 32

Jami: 303 nafar o‘quvchi.

Tadqiqot 3 bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostika – boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash.
2. Eksperiment – tajriba guruhida raqamli metodikalar qo‘llanildi.
3. Yakuniy tahlil – an’anaviy va raqamli metodlar samaradorligi solishtirildi.

Raqamli vositalar

Tajriba jarayonida quyidagi xalqaro ilmiy va didaktik platformalardan foydalanildi:

Mikrobiologiya	https://www.microbeworld.org/	Mikrobiologiya va mikroskopik organizmlar haqida ma’lumotlar
Neyrobiologiya	https://neuroscientificallychallenged.com/	Nerv sistemasi va neyrobiologiya to’g’risida
Fiziologiya	https://www.innerbody.com/	Odam organizmini interaktiv o’rganish uchun
Ekologiya	https://www.nationalgeographic.org/society/education-resources/	Tirik organizmlar xilma-xilligi va ekologik bilimlarni oshirish uchun
Evolyutsiya	https://www.pbs.org/wgbh/evolution	Biosfera evolyutsiyasi
Umumiy biologiya	https://uz.khanacademy.org/login?continue=https%3A%2F%2Fwww.khanacademy.org%2F	Biologiya bo’yicha bepul video darslar
Biotexnologiya	https://www.biotech-now.org/	Biotexnologiyaga oid ma’lumotlar
Zoologiya	https://www.zsl.org/	Hayvonlarning xilma-xilligiga oid

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Botanika	https://www.plantbiology.ucdavis.edu/	O’simliklarning xilma-xilligiga oid
Genetika	https://www.learn.genetics.utah.edu/	Genetikaga oid bilimlarni oshirish uchun

Baholash mezonlari

- Olimpiada masalalarini yechish tezligi
- Mantiqiy-analitik tafakkur
- Biologik hodisalarni modellashtirish ko‘nikmasi
- Nazariy materiallarni o‘zlashtirish darajasi
- Mustaqil izlanish kompetensiyalari

Natijalar (Results). Tajriba va nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash

Quyidagi jadvalda 303 nafar respondent natijalarining umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari keltirilgan. An’anaviy va raqamli metodikalar samaradorligining solishtirilishi

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (an’anaviy)	Tajriba guruhi (raqamli)	Farq (%)
Olimpiada masalalarini yechish tezligi	62%	84%	+22%
Analitik tafakkur	58%	81%	+23%
Virtual model yaratish ko‘nikmasi	40%	89%	+49%
Nazariy bilimlar	67%	90%	+23%
Mustaqil izlanish	55%	88%	+33%

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Natija: raqamli metodika barcha mezonlar bo‘yicha sezilarli ustunlik ko‘rsatdi.

O‘quvchilarning fikrlari

Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 92 foizi:

- virtual laboratoriyalarni real laboratoriyaga alternativ sifatida qabul qilgan;
- 3D modellar murakkab mavzularni osonlashtirganini aytgan;
- olimpada savollaridagi grafik va statistik tahlillarni AI yordamida mustahkamlagan.

Muhokama (Discussion). Tahlilarimiz davomida o‘quvchilarning yuqoridagi fanlar kesimida mavzular bo‘yicha kognitiv qobiliyatlarni baholashga oid differensial savollarning 1993-2022-yillar oralig’idagi dinamikasini tahlil qildik. Mazkur tahlil

natijalari shuni ko’rsatdiki, raqamli texnologiyalar va axborot komunikatsion vositalaridan foydalanish ananaviy o’quv metodlariga nisbatan yuqori samaradorlikni qayd etdi. Ushbu tahlil natijalarini quyidagi diogrammada ifodalaymiz



	shakillantirish va modellardan foydalana olish	rejalashtirish yangi tushunchalarni aniqlash	analiz va malumotlardan foydalana olish	matematik va kompyuter fikrlash qobiliyati	malumotlarni integratsiyalash o’zaro bog’lash, keltirib chiqarish
1993	1	0	32	8	6
19982	1	0	21	4	15
2009	10	2	48	20	0
2013	0	0	70	9	5
2017	10	0	69	22	6
2022	20	1	92	19	11
amaliy	4	75	57	47	40

MILLIY INSTITUTI

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli muhit biologiya fanining quyidagi bo‘limlarida ayniqsa yuqori samaradorlik ko‘rsatdi:

Molekulyar biologiya va genetika: Virtual laboratoriyalar (LabXchange, HHMI) DNK replikatsiyasi, PCR, elektroforez, gen tahlilini simulyatsiya qilish imkonini berdi. Bu jarayonlar an’anaviy laboratoriyalarda moddiy bazaning cheklanganligi sababli ko‘p hollarda o‘tilmaydi.

Anatomiya: Visible Body platformasi murakkab organ tizimlarini 3D ko‘rinishda ko‘rish, a’zolarni aylantirish, kesimlarda tahlil qilish imkonini yaratdi.

Ekologiya**:** iNaturalist ekotizimlar monitoringi, populyatsiyalar o‘zgarishi, turning tarqalishi bo‘yicha real ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirdi.

Sun’iy intellektning o‘rni: Tajriba davomida AI vositalari:

— murakkab biologik matnlarni soddalashtirish,

— genetik masalalarni modellashtirish,

— biologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish,
— testlarni avtomatik tahlil qilishda qo‘llanildi.

An’anaviy metodlardan ustunligi

An’anaviy metodlar	Raqamli metodlar
Cheklangan laboratoriya jihozlari	Cheklanmagan virtual tajribalar
Bir xil dars jarayoni	Individual ta’lim trayektoriyasi
O‘qituvchi markazlashgan	O‘quvchi markazlashgan
Statik darsliklar	Interaktiv animatsiya va modellar
Kam vizual material	3D va VR tajribalar

Xulosa. Tadqiqot raqamli ta’lim muhiti iqtidorli o‘quvchilarni biologiya fan olimpiadalariga tayyorlashda an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli samaradorlik berishini ko‘rsatdi. Raqamli platformalar yuqori darajadagi tafakkur, analiz, modellashtirish va mustaqil bilim olishni rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Raqamli texnologiyalar olimpiada tayyorgarligida +20–50% gacha samaradorlik oshishini ta’minlaydi.
2. Virtual laboratoriyalar murakkab jarayonlarni xavfsiz, cheklanmagan miqdorda bajarish imkonini beradi.
3. Raqamli resurslar o‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi va o‘z-o‘zini o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
4. Biologiya fanining molekulyar biologiya, anatomiya va genetika bo‘limlarida raqamli metodlar eng samarali hisoblanadi.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI OLIY NOMIDAGI TA’LIM PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2023). *Technology in Education: A Global Overview.* https://unesco.org
2. HHMI BioInteractive. Rasmiy sayt: https://www.biointeractive.org
3. LabXchange – Harvard University. https://www.labxchange.org
4. NCBI – National Center for Biotechnology Information. https://www.ncbi.nlm.nih.gov
5. Visible Body – Human Anatomy Atlas. https://www.visiblebody.com
6. iNaturalist. https://www.inaturalist.org
7. Yates, T. B., & Kenkel, C. D. (2021). *Using virtual labs in biology education.* Journal of Biological Education.
8. Milligan, M. (2022). *Digital learning and STEM education.* Nature Education.
9. OECD (2022). *Digital Education Outlook.* https://www.oecd.org

RAQAMLI PEDAGOGIK TA’LIMDA O‘SMIRLARNI MADANIY QADRIYATLARGA YO‘NALTIRISH STRATEGIYALARI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi
Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli pedagogik ta’lim jarayonida o‘smirlarni milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlarga yo‘naltirishning zamonaviy strategiyalari yoritiladi. Raqamli vositalarning o‘quvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishdagi o‘rni, ularning raqamli madaniyatini shakllantirish jarayonida uchraydigan muammolar hamda samarali yechimlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: ta’lim,tarbiya ,madaniyat,milliy content,madaniy qadriyatlar*

Аннотация. *В статье рассматриваются современные стратегии приобщения подростков к национальным и общечеловеческим культурным ценностям в процессе цифрового педагогического образования. Анализируется роль цифровых инструментов в духовно-нравственном развитии учащихся, проблемы, возникающие в процессе формирования их цифровой культуры, и эффективные пути их решения.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, культура, национальный контент, культурные ценности*

Annotation. *This article discusses modern strategies for directing adolescents to national and universal cultural values in the process of digital pedagogical education. The role of digital tools in the spiritual and moral development of students, the problems encountered in the process of forming their digital culture, and effective solutions are analyzed.*

Keywords: *education, education, culture, national content, cultural values*

Kirish:Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar axborot oqimiga eng ko‘p duch keladigan va undan faol foydalanadigan guruhlardan biri bo‘lgani uchun ularning madaniy qadriyatlarga munosabati ham raqamli muhit ta’sirida shakllanadi. Shu sababli raqamli pedagogik ta'lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirish, milliy identitetni mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash strategiyalarini ishlab chiqish dolzarbdir.

1. Raqamli pedagogik ta’limning madaniy tarbiyadagi o‘rni

Raqamli ta’lim quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Interaktivlik: videodarslar, virtual muzeylar, 3D ekskursiyalar orqali madaniy merosni jonli tushuntirish.

O‘quv jarayonini individuallashtirish: o‘smirlarning qiziqishi va ehtiyojlariga mos kontent yaratish.

Global madaniy almashinuv: boshqa davlat o‘quvchilari bilan muloqot orqali madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish.

Raqamli yaratijlik: mediamahsulotlar yaratish orqali o‘smirlarni kreativ fikrlashga yo‘naltirish.

2. O‘smirlarni madaniy qadriyatlarga yo‘naltirishda uchraydigan muammolar

Axborot olamidagi chaqiriqlar: yolg‘on ma'lumot, ekstremistik g‘oyalar yoki destruktiv kontentning mavjudligi.

O‘smirlarning raqamli savodxonlik darajasining teng emasligi.

Ijtimoiy tarmoqlarning nota’limiy kontent bilan to‘lib ketganligi.

Raqamli o‘qituvchilarning madaniy-ma’rifiy kompetensiyasi yetarli bo‘lmasligi.

3. O‘smirlarni madaniy qadriyatlarga yo‘naltirish strategiyalari

3.1. Raqamli madaniyat asoslarini o‘qitish

O‘smirlarga axborotni tanqidiy tahlil qilishni o‘rgatish.

Madaniy merosga oid virtual platformalar, onlayn kutubxonalar bilan tanishtirish.

3.2. Madaniy kontent asosida raqamli loyihalar yaratish

“Mening yurtim merosi”, “Mahalliy qahramonlar”, “Milliy qadriyatlar” mavzularida video, blog, podkast tayyorlash.

O‘quvchilar uchun storytelling uslubida tarixiy shaxslar haqidagi raqamli hikoyalar yaratish.

3.3. Virtual muzeylar va madaniy ekskursiyalar

O‘zbekiston tarixi muzeyi, Amir Temur muzeyi va boshqa manzilgohlarga virtual ekskursiyalar tashkil qilish.

Butunjahon madaniy meros ob’ektlari bilan tanishtiruvchi AR/VR texnologiyalaridan foydalanish.

3.4. O‘smirlarning raqamli ijtimoiy faolligini boshqarish

Sog‘lom raqamli odatlar (digital wellbeing)ni shakllantirish.

Internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

3.5. Ota-ona va maktab hamkorligini kuchaytirish

Ota-onalar uchun media savodxonlik bo‘yicha seminarlar.

O‘qituvchi–ota-ona–o‘quvchi uchburchagida madaniy loyihalar boshlash.

Xulosa: Raqamli pedagogik ta'lim o‘smirlarning madaniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Muammo shundan iboratki, raqamli muhitning salbiy ta’siriga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqilmasa, o‘smirlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kontent nazoratsiz qolishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonida raqamli madaniyatni shakllantirish, interaktiv madaniy ta’lim

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

resurslaridan foydalanish va ijodiy raqamli loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va ta’limga oid normativ hujjatlar.
2.M. Yo‘ldoshev — o‘smirlar tarbiyasida raqamli omillarning roli.
3.Z. Qodirova — media savodxonlik va madaniy qadriyatlar uyg‘unligi.
4.A. Sodiqov — raqamli pedagogikaning didaktik xususiyatlari.
5. Marc Prensky (2001) — “Digital Natives, Digital Immigrants”
Prensky raqamli era bolalarini “raqamli tug‘ma” deb atagan. Ularning axborotni qabul qilish, o‘rganish va idrok etish mexanizmlari avvalgi avloddan farq qilishi ta’kidlanadi. Bu o‘qituvchilardan yangi metodlar talab etadi.
6. UNESCO (2019) — “Global Media and Information Literacy Framework”
7. Tapscott, D. (2009) — “Grown Up Digital”

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

MILLIY KULOLCHILIK AN’ANALARI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ESTETIK DIDINI RAQAMLI VOSITALAR ORQALI TARBIYALASH

Begijonov Jaxongir Otabek o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy kulolchilik an’analari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning estetik didini shakllantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Kulolchilik san’atining tarbiyaviy imkoniyatlari, uning estetik va kompozitsion fikrlashga ta’siri, shuningdek, 3D modellash, grafik dizayn dasturlari, AR/VR texnologiyalari va virtual ekskursiyalar kabi raqamli vositalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari milliy madaniy merosni o‘qituvchi kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish estetik tarbiyaning yanada rivojlanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Milliy kulolchilik, estetik did, raqamli texnologiyalar, bo‘lajak o‘qituvchilar, estetik tarbiya, kompozitsiya, 3D modellash, virtual ekskursiya, milliy meros.*

Annotation. *This article focuses on the use of digital technologies in developing aesthetic taste among prospective teachers through the traditions of national pottery. It examines the educational and artistic value of pottery art, its role in enhancing creative and compositional thinking, and the effectiveness of digital tools such as 3D modeling software, graphic design applications, AR/VR technologies, and virtual museum tours in modern education. The research results emphasize that integrating national cultural heritage into teacher training programs significantly contributes to the improvement of aesthetic education and creative competence.*

Keywords: *National pottery, aesthetic taste, digital technologies, prospective teachers, aesthetic education, composition, 3D modeling, virtual tour, cultural heritage*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogik mahoratning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning boy moddiy va ma’naviy merosini, ayniqsa milliy amaliy san’at turlarini yosh avlod ongiga singdirish jarayonida zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilgan yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri — milliy kulolchilik an’analari bo‘lib, u nafaqat amaliy hunar, balki o‘zida yuksak estetik va badiiy qadriyatlarni mujassam etgan san’at turidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida kulolchilik san’atining o‘rni beqiyosdir. Chunki u nafosat olami, shakl va rang uyg‘unligi, milliylik, an’anaviy naqshlar hamda kompozitsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamon talabiga ko‘ra bu jarayonni faqat an’anaviy ustaxonalar yoki amaliy mashg‘ulotlar orqali emas, balki raqamli texnologiyalar yordamida ham tashkil etish zarur. Kulolchilik san’ati o‘z tarixiga ko‘ra qadimgi madaniyatlar rivoji bilan

chambarchas bog‘liq. Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi kulollik markazlarida yaratilgan asarlar nafaqat maishiy ehtiyojni qondirgan, balki badiiy-estetik mazmun kasb etuvchi bezak buyumlari sifatida xalqning dunyoqarashi, milliy ruhini yoritib kelgan.

Uning tarbiyaviy imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-shakl, rang va naqsh uyg‘unligini sezish qobiliyatini oshiradi;

-estetik didni shakllantiradi;

-sabr-toqat, mehnatsevarlik, ma’suliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi;

-milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi;

-ijodiy fikrlash va kompozitsion tasavvur darajasini oshiradi.

Shunday qilib, estetik tarbiya jarayonida kulolchilik san’atidan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Raqamli ta’lim vositalari imkoniyatlari yildan yilga kengayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarda kulolchilik bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi raqamli resurslardan foydalanish maqsadga muvofiq: Misol sifatida 3 D model yaratish dasturlari (Blender, ZBrush, Tinkercad) Kulolchilik shakllarining virtual modellarini yaratish, kompozitsiyani sinash, Grafik dizayn dasturlari (Adobe Illustrator, Photoshop, Procreate) Milliy naqshlarni chizish va raqamli bezaklar yaratish, Raqamli muzey ekskursiyalari Rishton, G‘ijduvon, Ichan-qal’a kabi markazlarga virtual sayohat qilish kabilarni aytishimiz mumkin.

Milliy kulolchilik asosida estetik tarbiya jarayoni quyidagi bosqichlarda tashkil qilinishi mumkin: Nazariy tayyorgarlik – kulolchilik tarixini, markazlarini, ustalar ijodini o‘rganish. Raqamli kuzatish va tahlil – video darslar, virtual ekskursiyalar, 3D modellardan foydalanish. Amaliy ijodiy mashg‘ulotlar – raqamli naqsh chizish, kompozitsiya yaratish, 3D idish loyihalash.

Estetik tahlil va baholash – ishlarning badiiy qiymatini tahlil qilish, kompozitsion yondashuvni asoslash. An’anaviy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish – ustaxona mashg‘ulotlari, tajribali ustalar bilan uchrashuvlar. Bu bosqichlar uyg‘unligi talabaning nafaqat texnik, balki estetik dunyoqarashini kengaytiradi. **Raqamli texnologiyalar orqali o‘quv motivatsiyasini oshirish.**

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual, interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish:

darsga qiziqishni oshiradi, ijodiy yaqinlik yaratadi, o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi, natijani tez va aniq ko‘rishga imkon beradi. Masalan, kulolchilik buyumining 3D modelini virtual tarzda aylantirib ko‘rish, naqsh ranglarini

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

o‘zgartirish yoki shakl nisbatini real vaqtda moslashtirish talaba uchun kuchli motivatsiya omilidir.

Milliy kulolchilik an’analari bo‘lajak o‘qituvchilarning estetik didini tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etuvchi san’at turi bo‘lib, u zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgandagina yanada samarali natija beradi. Raqamli vositalar orqali milliy hunar sirlarini o‘rganish yoshlarning nafosat hissini oshiradi, ijodkorlik, kompozitsion tafakkur, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Shu sababli ta’lim tizimida estetik tarbiyani raqamli texnologiyalar bilan rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, A. (2020). *O‘zbek kulolchilik san’ati tarixi va rivoji*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Boltaeva, M., & Ahmadjonova, G. (2022). Digital technologies in art education: innovative approaches in teaching decorative-applied arts. *International Journal of Education and Humanities*, 4(3), 65–72.
3. Karimov, I., & Rasulova, Z. (2021). The role of national crafts in developing students' aesthetic culture. *Art and Design Education Journal*, 6(2), 44–53.
4. Matyakubov, B. (2019). *Rishton kulollik maktabining uslubiy xususiyatlari*. Farg‘ona: Adabiyot jamg‘armasi.
5. Saidov, A. (2023). Application of virtual reality technologies in the teaching of traditional crafts. *Scientific Bulletin of Pedagogical Innovations*, 8(1), 112–119.
6. Sobirov, N. (2020). Development of aesthetic taste through national applied arts. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 3(5), 98–104.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI RESURSLAR ASOSIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING METODIK MODELI

Choriyeva Dildora Ismat qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni raqamlashtirishning dolzarbligi, raqamli pedagogik ta’minotning mazmuni, uni joriy etish mexanizmlari, afzalliklari va samaradorlikka erishish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli platformalar, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim vositalari va interfaol raqamli resurslar asosida ta’lim sifatini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli pedagogik ta’minot, raqamli ta’lim ekotizimi, sun’iy intellekt, raqamli baholash tizimi.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi tezkor o‘zgarayotgan raqamli muhit bilan uyg‘unlashishni talab qilmoqda. Raqamli pedagogik ta’minot – bu ta’lim jarayonida o‘quvchi, o‘qituvchi va boshqaruv tizimi o‘rtasida o‘zaro samarali axborot almashinuvini ta’minlaydigan texnologik, metodik va dasturiy yechimlar majmuasidir. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan ta’lim strategiyalarida raqamli ta’limni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangani ushbu jarayonning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Raqamli pedagogik ta’minot – bu ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish va takomillashtirishni ta’minlaydigan kompleks pedagogik, texnologik hamda metodik yechimlar majmuasidir. Mazkur tushuncha ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashuvning samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli pedagogik ta’minot quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Raqamli darsliklar, ta’lim platformalari va elektron o‘quv resurslari** – o‘quvchilarning bilim olish jarayonini interfaol, ko‘rgazmali va moslashuvchan shaklda tashkil etishga imkon beradigan multimediali o‘quv materiallari, virtual kutubxonalar, masofaviy ta’lim platformalari, elektron qo‘llanmalar va ta’lim ekotizimlari.

2. **Raqamli monitoring va baholash tizimlari** – o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini real vaqt rejimida baholash, kuzatish, statistik tahlil qilish hamda natijalarga tayangan holda ta’lim sifatini boshqarish imkoniyatini beradigan elektron baholash vositalari, test platformalari va o‘quv reyting tizimlari.

3. **Multimedia vositalari va sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar** – sun’iy intellekt, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, elektron trenerlar, avtomatik kontent yaratish tizimlari, ovoz va matnni qayta ishlash texnologiyalari, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va o‘quv faoliyatini avtomatlashtirishga xizmat qiladigan raqamli vositalar.

4. **O‘qitishning onlayn, oflayn va aralash shakllari** – o‘qitish jarayonini maktab, kollej, oliygoh va mustaqil ta’lim muhitini birlashtirgan holda amalga oshirish, o‘quvchilar uchun istalgan joy va vaqtda ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish, onlayn darslar, vebinarlar, virtual mashg‘ulotlar va video-darslar orqali o‘quv jarayonining qulayligini ta’minlash.

5. **O‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va natijalarni raqamli nazorat qilish tizimlari** – learning analytics texnologiyalari orqali o‘quvchining o‘quv faolligi, darsga qatnashish, topshiriqlarni bajarish, bilim dinamikasi va o‘sish ko‘rsatkichlarini avtomatik kuzatish, statistika shaklida qayd etish, o‘qituvchiga individual yondashuv strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradigan intellektual kuzatuv tizimlari.

Shu tariqa, raqamli pedagogik ta’minot ta’lim jarayonini nafaqat texnik jihatdan tizimlashtiradi, balki uning mazmun-mohiyatini ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar bir necha toifaga bo‘linadi. Ushbu omillar o‘quv jarayonining sifati, mazmuni, tashkiliy mexanizmlari hamda o‘quvchilar faoliyatining natijadorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Texnologik omillar – raqamli ta’lim uchun zarur bo‘lgan texnik asos va platformalardir. Bunga yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i, kompyuter, planshet, smartfon kabi raqamli qurilmalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim tizimlari hamda sun’iy intellekt asosida ishlovchi o‘quv platformalari kiradi. Mazkur omillar raqamli materialdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ta’lim jarayonida multimedia va interfaol texnologiyalarni joriy etishni ta’minlaydi.

Pedagogik omillar – o‘quv jarayonini raqamli muhitga mos holda yangilashni, metodik yondashuvlar va ta’lim standartlarini modernizatsiya qilishni anglatadi. Bularga o‘quv jarayonida masofaviy, onlayn va aralash ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchini o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi interfaol metodlar, raqamli treninglar, animatsiyalangan darslar, gamifikatsiya

elementlarini qo‘llash kiradi. Bunday yondashuvlar o‘quv motivatsiyasini oshiradi va individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishga yordam beradi.

Tashkiliy omillar – raqamli ta’limning institutsional qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik infratuzilma yaratish, pedagogik jarayonlarni boshqarishning elektron tizimlarga o‘tkazilishi va raqamli ta’lim siyosatini tizimli amalga oshirishni nazarda tutadi. Tashkiliy omillarning kuchli bo‘lishi raqamlashtirish jarayonining izchil, samarali va barqaror kechishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy omillar – raqamli ta’limning jamiyat tomonidan qabul qilinishi va qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq. Ular o‘quvchilarning raqamli savodxonligi, oilalarning texnologik imkoniyatlari, ota-onalarning farzandlarning onlayn ta’limini qo‘llab-quvvatlashi, jamiyatda raqamli madaniyat va axborotdan foydalanish madaniyatining shakllanganligi bilan belgilanadi. Mazkur omillar ta’lim jarayonida raqamli vositalardan to‘laqonli va mazmunli foydalanishni ta’minlaydi.

Demak, ta’limni raqamlashtirishning texnologik, pedagogik, tashkiliy va ijtimoiy omillari o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonining zamonaviy talablarga moslashuvi va samaradorligini ta’minlaydi.

1. Dasturiy-ekotizimni yaratish strategiyasi

Raqamli pedagogik ta’minotni samarali shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu uzluksiz va o‘zaro integratsiyalashgan ta’lim ekotizimini yaratishdir. Bunday ekotizim raqamli platformalar, elektron resurslar, sun’iy intellekt xizmati, boshqaruv tizimlari hamda monitoring mexanizmlarini yagona raqamli muhitda uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur strategiya ta’lim jarayonida shaffoflikni oshiradi, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi, ta’lim sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Shu strategiya quyidagi tarkibiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Maktablar va oliygohlar uchun yagona raqamli ta’lim platformalarini yaratish. Yagona platformalar ta’lim muassasalarining barcha elektron resurslarini birlashtiruvchi makon bo‘lib, masofaviy ta’lim, elektron darsliklar, videodarslar, testlar, chat va forumlar kabi vositalarni yagona tizimda boshqarish imkonini beradi. Bunday integratsiyalashgan platformalar (Learning Management System – LMS) ta’lim jarayonini standartlashtirish, metodik resurslardan to‘liq foydalanish va axborot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quvchilar uchun personal o‘quv kabinagi shakllantirish.

Personal kabinada o‘quvchilar dars jadvali, topshiriqlar, natijalar, baholar, o‘qituvchilar fikrlari, ta’lim materiallari va shaxsiy o‘sish dinamikasini ko‘rishi

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

mumkin. Bu individual yondashuvni kuchaytiradi, o‘quv faoliyati bo‘yicha o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantiradi, ta’lim jarayonining shaxsiylashtirilgan xarakterini ta’minlaydi.

Elektron kundalik va reyting monitoring tizimlarini joriy etish.

Elektron kundaliklar va baholash tizimlari o‘quvchini baholash jarayonini shaffof qiladi, baholash natijalarini tahlil qilish, reytinglarni avtomatik shakllantirish, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun real vaqtda monitoring imkonini taqdim etadi. Bu raqamli boshqaruv tizimida ta’lim sifatini nazorat qilishni yengillashtiradi va pedagogik jarayonni samarali axborot oqimi bilan ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt yordamida individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirish.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning bilim darajasi, yutuqlari, qiyinchiliklari, fan bo‘yicha kompetensiya dinamikasi, o‘qish tezligi va ta’limdagi individual xususiyatlarini tahlil qilib, ularga mos ta’lim kontenti hamda topshiriqlarni tavsiya qilishi mumkin. Learning Analytics texnologiyalari asosida o‘quvchilar uchun:

- shaxsiy o‘quv rejalari;
- kuchli va zaif tomonlarni aniqlash;
- o‘quv strategiyalarini optimallashtirish;
- o‘quv natijalarini prognozlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

Demak, raqamli dasturiy-ekotizimni yaratish strategiyasi ta’lim jarayonini raqamlashtirishning asosiy halqasi bo‘lib, u o‘qitish, baholash va boshqarish jarayonlarini yagona raqamli muhitda uyg‘unlashtirish orqali ta’limning sifat, samaradorlik va shaxsga yo‘naltirilganlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

2. Pedagogik metodika va standartlarni raqamlashtirish

Ta’lim jarayonida raqamli transformatsiya nafaqat texnik vositalarni joriy etishni, balki o‘quv dasturi, pedagogik metodika va ta’lim standartlarini ham zamonaviy raqamli muhitga moslashtirishni talab etadi. Bu jarayon fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarini raqamli formatda ishlab chiqish, darslarni interfaol va multimediali ko‘rinishda tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishini kuchaytirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Birinchidan, fanlar bo‘yicha raqamli o‘quv metodikalarini ishlab chiqish ta’lim sifatining uzviyligini ta’minlaydi. Raqamli metodikalarda kontentni multimedia shaklida taqdim etish, murakkab mavzularni animatsiya, simulyator, virtual tajriba yoki interfaol topshiriqlar yordamida bayon qilish o‘quv materialini osonroq qabul qilish va eslab qolishga yordam beradi. Mazkur yondashuv o‘quv jarayonini vizual, ko‘rgazmali va tadqiqotga yo‘naltirilgan xarakterga ega qiladi.

Ikkinchidan, trening, vebinar, video-dars, podkastlar kabi raqamli ta’lim formatlari o‘quvchilar uchun qulay vaqt va makonda bilim olish imkonini yaratadi. Ushbu formatlar o‘quvchini an’anaviy dars bilan cheklamasdan, qo‘shimcha resurslar orqali mustaqil ravishda bilimni chuqurlashtirishga undaydi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun ham o‘z tajribasini ommalashtirish, masofaviy ta’limni rivojlantirish hamda fan o‘qitishda integrativ yondashuvni joriy etish imkoni kengayadi.

Uchinchidan, gamifikatsiya elementlarini qo‘llash (badge, leaderboard, achievement) o‘quv motivatsiyasini sezilarli ravishda oshiradi. Gamifikatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida rag‘batlantiradi, sog‘lom raqobatni shakllantiradi, ta’limni qiziqarli, dinamik va natijaviy qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlarini baholash, maqsadga intilish va natijaga erishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish strategiyasi

Raqamli ta’limni samarali joriy etish jarayonida o‘qituvchi yetakchi rolni bajaradi. Shu sababli pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan amaliy foydalanish malakasini shakllantirish dolzarb vazifadir. Kasbiy rivojlanish strategiyasi bir necha yo‘nalishni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish ta’lim jarayonida innovatsion vositalardan ongli, metodik asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanish imkonini beradi. Onlayn kurslar, seminarlar, vebinarlar, tajriba almashish platformalari o‘qituvchilarning digital literacy darajasini oshiradi, raqamli pedagogikaning ilg‘or tajribalarini ommalashtiradi.

Ikkinchidan, sun’iy intellektdan foydalanib dars rejalari, testlar, topshiriqlar va ta’lim kontenti yaratish pedagogning vaqtini tejaydi, rejalashtirish jarayonini avtomatlashtiradi, ta’lim sifatini me’yorlashtiradi. Sun’iy intellekt vositalari orqali shaxsiy yondashuvni ta’minlash, o‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda mos materiallarni generatsiya qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Uchinchidan, raqamli psixodiagnostika usullaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim dinamikasi, ijtimoiy-emotsional holati, shaxsiy rivojlanish mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron diagnostika o‘quv jarayonini monitoring qilish, qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash, individual pedagogik strategiyalar ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi.

Demak, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi raqamli ta’limning muvaffaqiyatli kechishi uchun zarur shart bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

maqsadga muvofiq tatbiq etish va ta’lim sifatini bosqichma-bosqich yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

4. Baholash tizimini raqamlashtirish

Ta’limda raqamli baholash tizimini joriy etish o‘quv jarayonining shaffofligi, aniqligi va tezkorligini ta’minlaydi. Raqamli baholash faqat yakuniy natijani qayd etish emas, balki o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini real vaqt rejimida tahlil qilish va pedagogik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Avvalo, onlayn testlar, loyiha ishlari, elektron portfel (e-portfolio) baholash tizimlarini qo‘llash o‘quvchining bilimini bir yo‘nalish bilan emas, balki ko‘p mezonli baholash imkonini yaratadi. Elektron portfel o‘quvchining vaqt davomida to‘plagan yutuqlari, ijodiy ishlari, loyihalari va mustaqil izlanishlarini tizimli ravishda jamlash, rivojlanishni xronologik kuzatish va baholashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quv ko‘rsatkichlarini real vaqt monitoring qilish — har bir o‘quvchi faoliyati, darsdagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish darajasi, dars qoldirishi va baholash natijalarini onlayn kuzatish imkonini beradi. Bu mexanizm o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona uchun doimiy tahliliy ma’lumotlar taqdim etadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida o‘quv natijalarini prognozlash texnologiyalari yordamida o‘quvchilar bilimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar va bilim uzilishlari oldindan aniqlanadi. AI asosidagi prognoz modellar o‘quvchining ehtiyojlariga mos individual ta’lim rejalarini taklif qiladi, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

5. O‘quvchilar uchun individual ta’lim yo‘lini yaratish

Raqamli ta’limning eng muhim afzalliklaridan biri — o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yuritish imkoniyatidir. O‘quvchilar bir xil darsni turlicha tezlikda o‘zlashtirishi mumkin, shu sababli individual yondashuv har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini oshiradi.

Birinchidan, learning analytics asosida shaxsiy o‘quv xaritasini yaratish o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi, qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlariga tayangan holda shaxsiy ta’lim yo‘lini rejalashtirishga yordam beradi. Bu xarita o‘quvchining ta’limdagi yo‘nalishini muntazam ravishda yangilanib boradigan raqamli tizimga aylantiradi.

Ikkinchidan, qiziqish, qobiliyat va bilim darajasiga mos o‘quv kontentini tavsiya qilish individuallashtirilgan o‘quv tajribasini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari (recommendation systems) har bir o‘quvchiga mos qo‘shimcha darslar, videomateriallar, simulyatorlar, mashqlar yoki akademik resurslarni avtomatik ravishda taklif qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Uchinchidan, doimiy baholash va shaxsiy “feedback” berish o‘quvchining xatolarini vaqtida ko‘rish, o‘rganish strategiyasini yangilash va o‘sishni nazorat qilish imkonini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchini passiv iste’molchidan faol o‘quv sub’ektiga aylantiradi.

6. Ta’lim muassasalarida raqamli xavfsizlik strategiyasi

Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi bilan birga axborot xavfsizligi masalasi dolzarb tus oladi. Raqamli masofaviy platformalardan foydalanish, elektron ma’lumotlar bazasi yaratish va onlayn o‘qish jarayonida ta’lim muassasalari axborotning himoyalanganligini ta’minlashi zarur.

Birinchidan, o‘quvchi va pedagoglarga oid shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish — raqamli ma’lumotlar bazasining himoyalanganligi, ma’lumotlarga ruxsat asosida kirish, shaxsiy ma’lumotlarni shifrlash va ularni uchinchi tomonlarga berilmaslikni ta’minlash demakdir. Ta’lim muassasalari axborotlar bilan ishlashda lokal va xalqaro standartlarga mos yondashuvni qo‘llashi lozim.

Ikkinchidan, bolalar uchun xavfsiz internet muhitini yaratish — zararli kontent, kiberbulling, yolg‘on axborot va psixologik tahdidlardan himoyalashni nazarda tutadi. Buning uchun filtrlash tizimlari, nazorat dasturlari, onlayn xulq-atvor bo‘yicha treninglar va ota-onalar bilan hamkorlikda xavfsiz raqamli muhitni shakllantirish muhimdir.

Uchinchidan, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar uchun muhim kompetensiyadir. Tizimli ravishda treninglar, seminarlar, qo‘llanmalar, media savodxonlik darslari va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali raqamli makonda ongli, xavfsiz, mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish mumkin.

Shunday qilib, raqamli xavfsizlik strategiyasi ta’lim jarayonini xavfsiz, bardoshli, boshqariladigan va professional axborot muhitida olib borish uchun asosiy shartlardan biridir.

Raqamli pedagogik ta’minotning afzalliklari

Raqamli pedagogik ta’minot ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchi faoliyatini chuqur tahlil qilish va individual yondashuvni kuchaytirish imkonini beruvchi kompleks tizimdir. Uning afzalliklari quyidagicha ilmiy tarzda izohlash mumkin:

- **Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilganlik.**

Raqamli platformalar yordamida har bir o‘quvchining qiziqishi, bilim darajasi, psixologik portreti va kognitiv uslubi hisobga olingan holda individual o‘quv yo‘li shakllantiriladi. Bu personalizatsiya o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni inobatga olgan holda ta’lim samaradorligini oshiradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TABRIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

- **O‘quv jarayonining shaffofligi va aniqligi.**

Elektron kundalik, raqamli reyting tizimlari, avtomatik baholash vositalari o‘quv jarayonini ochiq va aniq monitoring qilish imkonini beradi. Natijada o‘quvchi, ota-ona va pedagoglar real vaqt rejimida o‘quv ko‘rsatkichlarini kuzatib borishi mumkin.

- **O‘qituvchi vaqtini tejash va samaradorlikni oshirish.**

Sun’iy intellekt, avtomatik test tekshirish, tayyor ta’lim modullaridan foydalanish o‘qituvchining texnik ishlariga sarflanadigan vaqtni kamaytiradi. Bu esa metodik ishlanmalarni yaratish va ijodiy faoliyatga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.

- **Ta’limni istalgan joydan va mos vaqtda olish imkoniyati.**

Onlayn kurslar, masofaviy ta’lim platformalari va mobil ilovalar geografik yoki vaqt cheklovlaridan qat’i nazar ta’limga kirish imkonini kengaytiradi. Bu hayot davomida o‘qish tamoyilini qo‘llab-quvvatlaydi.

- **O‘quv motivatsiyasining ortishi.**

Interfaol kontent, gamifikatsiya, virtual simulyatorlar, rang-barang media materiallar o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion holga keltiradi. Bu ayniqsa zamonaviy raqamli avlod uchun muhim omildir.

- **Pedagogik boshqaruv jarayonlarining avtomatlashtirilishi.**

Raqamli boshqaruv tizimlari ta’lim muassasalarida elektron hujjatlashtirish, statistik tahlil, o‘quv monitoringi, kadrlar rejalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Raqamli pedagogik ta’minotning amaliy qo‘llash yo‘nalishlari

Raqamlashtirilgan ta’lim vositalarining amaliy tatbiqi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda kuzatiladi:

- **Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Kundalik, EduMarket kabi ta’lim platformalaridan foydalanish.**

Ushbu platformalar masofaviy ta’limni tashkil etish, bilimni baholash, dars materiallarini tarqatish va o‘quvchilar bilan interaktiv muloqot o‘tkazish imkonini beradi.

- **Raqamli laboratoriyalar va simulyatorlar.**

Virtual tajribalar, onlayn eksperimentlar, STEM laboratoriyalari an’anaviy laboratoriya ishlarini xavfsiz, iqtisodiy va takrorlanuvchan shaklda amalga oshirish imkonini yaratadi.

- **STEM va STEAM yo‘nalishida virtual mashg‘ulotlar.**

Texnika, matematika, injiniring, san’at va tabiiy fanlarni integrativ o‘qitish imkonini beruvchi multimedia darslari, virtual konstruktorlar, murakkab modellashtirish dasturlari keng tatbiq etilmoqda.

- **ChatGPT, Khan Academy AI kabi sun’iy intellekt yordamchilaridan foydalanish.**

Sun’iy intellekt dars materiali yaratish, test tuzish, murakkab mavzularni sodda qilib tushuntirish, o‘quvchiga shaxsiy maslahatchi sifatida yo‘l-yo‘riq berish kabi ko‘plab jarayonlarni soddalashtiradi.

Xulosa. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning raqamli pedagogik ta’minotini rivojlantirish – zamonaviy ta’lim tizimining tub islohoti bo‘lib, u nafaqat texnologik modernizatsiya, balki didaktik yondashuvlar, metodikalar, boshqaruv jarayonlari va o‘quvchi faoliyatini baholash tizimining sifat jihatidan yangilanishini ta’minlaydi. Raqamli muhitga asoslangan ta’lim mazmuni bilim olish jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, ochiq, moslashuvchan va innovatsion darajaga ko‘taradi.

To‘g‘ri ishlab chiqilgan raqamlashtirish strategiyalari:

- ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- individual o‘quv yo‘lini yaratish va har bir o‘quvchi imkoniyatini maksimal namoyon qilishga sharoit yaratadi;
- o‘quvchi-o‘qituvchi, ta’lim muassasasi-ota-ona o‘rtasida tezkor, shaffof va samarali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yadi;
- ta’lim jarayonining tahliliy boshqaruvini kuchaytirib, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi;
- zamonaviy texnologiyalarni biladigan, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bois raqamli pedagogik ta’minotni rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasining strategik vazifasi bo‘lib, davlatning innovatsion taraqqiyoti, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari va global raqobatbardoshlikni ta’minlashda asosiy hal qiluvchi omillardan biridir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov, A. (2022). *Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Boltayev, Sh., & Madrahimova, M. (2021). Oliy ta’lim tizimida masofaviy o‘qitish metodikasi. *UzAcademy*, 3(2), 145–153.
3. Karimova, S. (2023). *Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot*. Toshkent: TDPU.

4. Kuznetsov, A. (2020). Digital Learning Environment as a Tool for Individual Education Trajectories. *Journal of Modern Education*, 12(4), 55–64.
5. Mirzayeva, G. (2022). Sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish istiqbollari. *Ta’lim jarayoni*, 6(1), 22–29.
6. Xalilova, D. (2021). Ta’limda learning analytics texnologiyalarining qo‘llanishi. *O‘zbekiston pedgogika jurnali*, 14(3), 40–48.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA’LIMDA ART-TERAPIYA TURLARI ORQALI PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI OSHIRISH

Djabborov Ma’sud Bahriddinovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Daminova Go‘zal Vaydulla qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada art-terapiyaning shaxs psixologik holatini barqarorlashtirishdagi roli va ahamiyati yoritilgan. Art-terapiya insonning ichki kechinmalarini ifoda etish, stressni kamaytirish va ijobiy emotsional muhit yaratish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada art-terapiya turlarining raqamli pedagogik muhitda qo‘llanilishi, pedagogik jarayonda interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning hissiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlash usullari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *art-terapiya, raqamli pedagogik muhit, psixologik barqarorlik, ijodkorlik, stress, shaxs rivoji, emotsional muhit*

Аннотация. *В данной статье освещается роль и значение арт-терапии в стабилизации психологического состояния личности. Арт-терапия рассматривается как средство выражения внутренних переживаний, снижения стресса и создания позитивной эмоциональной среды. Особое внимание уделяется применению различных видов арт-терапии в цифровой педагогической среде, а также методам интерактивного использования для обеспечения эмоционального и творческого развития учащихся.*

Ключевые слова: *арт-терапия, цифровая педагогическая среда, психологическая устойчивость, креативность, стресс, развитие личности, эмоциональная среда*

Abstract. *This article explores the role and significance of art therapy in stabilizing an individual’s psychological state. Art therapy is analyzed as a tool for expressing inner emotions, reducing stress, and creating a positive emotional environment. Special attention is given to the application of various art therapy types in digital pedagogical environments, as well as interactive methods to support students’ emotional and creative development.*

KEYWORDS: *art therapy, digital pedagogical environment, psychological stability, creativity, stress, personal development, emotional environment*

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda insonning ruhiy salomatligi, hissiy barqarorligi va ichki uyg‘unligini ta’minlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Texnologik taraqqiyot, axborot oqimining ortishi va ijtimoiy raqobatning kuchayishi inson psixikasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bois, psixologik muvozanatni saqlash va stressni kamaytirishning samarali usullaridan biri sifatida art-terapiya keng qo‘llanilmoqda. Raqamli muhitda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun art-terapiya metodlarini raqamli platformalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu yondashuv o‘quvchilarga:

- Ichki kechinmalarini ifoda etish,
- Stress va tashvishni kamaytirish,
- Ijodiy fikrlashni rivojlantirish,
- Onlayn va oflayn ta’lim muhitida hissiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Art-terapiya — bu san’at vositalari orqali insonning ruhiy kechinmalarini ifoda etish, o‘zini anglash va ichki muvozanatni topishga qaratilgan usuldir. Bu yondashuv XX asrning o‘rtalarida psixologiya va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, hozirda tibbiyot, psixologiya, ta’lim va ijtimoiy sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Art-terapiya metodlari an’anaviy pedagogik jarayonda uzoq yillardan buyon qo‘llanilib kelgan bo‘lsa, raqamli muhitga integratsiya qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Art-terapiyaning asosiy mohiyati shundan iboratki, inson san’at orqali o‘zini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Musavvirlik va amaliy san’at art-terapiyaning eng ko‘p qo‘llaniladigan turlaridan biridir. Izoterapevtlar his-hayajonlarni maksimal spontan holatda ishor etilishini tavsiya etadilar. Izoterapiyaning asosiy afzalligi shundaki, u ichki cheklov to‘sig‘ini yengib, ong ostidagi ishonch eshiklarini ochadi [Raximova, 2025:646]. Rasm chizish, bo‘yash, loydan ishlash, musiqa tinglash yoki yozish orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini tashqi shaklga chiqaradi. Bu jarayon shaxsdagi ichki tanglik, qo‘rquv, g‘am yoki stressni kamaytiradi, natijada psixologik yengillik hissi paydo bo‘ladi. Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish, uni o'z zamonasining eng ilg'or bilimlari bilan qurollantirish barcha davrlarda hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan [Jo‘rayev, Quliyeva, To‘rabekov, Karimova, 2015:6]. Yigirmanchi asrning birinchi uchdan bir qismida va bugungi kunda san'at terapiyasi texnologiyalari faol rivojlanmoqda. "San'at" so'zi ijodkorlikni anglatadi, shuning uchun aslida san'at terapiyasi ijod bilan davolash deb atash mumkin [Raxmatov, 2022:21].

Art-terapiya jarayonida shaxs o‘zining ichki dunyosini anglaydi, o‘z his-tuyg‘ulariga baho bera oladi va ularga ongli yondashishni o‘rganadi. Bu esa shaxsning psixologik barqarorligini mustahkamlashga, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Art-terapiyaning asosiy turlari:

1. Rasm terapiyasi – inson o‘z his-tuyg‘ularini chizish orqali ifoda etadi; bu stressni kamaytiradi va o‘zini anglashni kuchaytiradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

2. Musiqa terapiyasi – musiqa tinglash yoki ijro etish orqali ruhiy holatni tinchlantiradi.

3. Raqs (harakat) terapiyasi – tana harakati orqali energiya va his-tuyg‘ularni boshqarish imkonini beradi.

4. Drama terapiyasi – sahnalashtirish, rolli o‘yinlar orqali ichki muammolarni yengishga yordam beradi.

5. Qo‘g‘irchoq va plastika terapiyasi – bolalar bilan ishlashda ruhiy muvozanatni tiklashda samarali hisoblanadi.

Art-terapiya pedagogik jarayonda ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning hissiy kechinmalarini yengillashtirish, ijobiy motivatsiyani oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bu usuldan foydalanish samarali natijalar beradi. Ijodkorlik pedagogikasi asosida Abu Ali Ibn Sino ta’limotlarini o‘qitishga didaktik yondashuv, o‘quvchilarda bilim olish, tabiat va unga bo‘lgan munosabat madaniyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi [Tojiboyeva, 2024:503]. Dars jarayonida ranglar, shakllar yoki musiqadan foydalanish o‘quvchilarning e’tiborini jamlash va emotsional muhitni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, inson o‘z ichki o‘zligini aks ettiruvchi asarlar yaratganda mashg'ulotlarda faol bolishi mumkin. Passiv holda pedagog art-terapevt bilan birgalikda boshqa odamlarning rasmlarini, musiqiy kompozitsiyalarni va raqslarini tahlil qiladi. Mashg‘ulotlarning individual yoki guruhli turlari ham mavjud [Raxmatova, 2024:346]. Raqs va harakat psixoterapiya so‘nggi paytlarda jahon mamlakatlarida nevrotik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni davolashda qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda raqs va harakat psixoterapiyasining o‘ziga xos xususiyatiari xorijda ham yetarli darajada ta'riflanmagan [Orifjonova, 2020:104]. Shuningdek, art-terapiya psixologik muammolarga ega bo‘lgan shaxslarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni tiklash, o‘z-o‘zini qadrlashni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagog A.S. Makarenko: «O‘yinchoq o‘yinning «material asosi», o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta'sir ko‘rsatadi», — deb ta’kidlagan edi [Qodirova, Akbarov, Abdug‘opirova, Xolmirzayeva, Jumanova, 2024:82]. San’at bilan shug‘ullanish insonni ijobiy his-tuyg‘ularga yo‘naltiradi, bu esa ruhiy sog‘lomlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, o‘zbek musiqa san’ati ustoz-shogird an’analari orqali avloddan avlodga o‘tib kelgan va rivojlanib borgan. O‘zbek musiqa san’atining notalashtirilishi yoki o‘quv qo‘llanmalar yaratilishiga qadar, ustozdan shogirdga og‘izdan-og‘izga o‘tish yo‘li bilan kelgusi avlodlarga yetib borgan [Siddiqova, 2024:494].

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Art-terapiya va raqamli pedagogik ta’minot integratsiyasi. Raqamli pedagogik ta’minot — bu ta’lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etish va interaktiv kontent orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va hissiy rivojlanishini ta’minlashdir. Art-terapiya metodlarini raqamli pedagogik muhitga integratsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Onlayn rasm va chizma dasturlari yordamida o‘quvchilar his-tuyg‘ularini ifoda etadi;
- Musiqa va audio-resurslar orqali hissiy holatni tinchlantiradi;
- Video va animatsiyalar orqali raqs va harakat terapiyasi yordamida energiya va stressni boshqaradi;
- Virtual drama mashg‘ulotlari va rolli o‘yinlar orqali o‘zaro ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;
- Interaktiv 3D modellashtirish va qo‘g‘irchoq/plastika terapiyasi orqali bolalar bilan onlayn ishlash imkonini yaratadi.

Bu yondashuv o‘quvchilarning psixologik barqarorligini oshirish, ijodiy faollikni rag‘batlantirish va onlayn muhitda emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

XULOSA. Art-terapiya inson ruhiyatini sog‘lomlashtirish, stressni kamaytirish va ichki uyg‘unlikni tiklashda samarali usullardan biridir. U shaxsning ijodkorligini faollashtiradi, his-tuyg‘ularni boshqarish, o‘zini anglash va ijobiy fikrlashni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik jarayonda art-terapiya usullaridan foydalanish o‘quvchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish va o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, art-terapiya nafaqat san’at va psixologiya vositasi, balki raqamli pedagogik muhitda shaxs ruhiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali yondashuvdir.

TAVSIYALAR:

1. Ta’lim muassasalarida art-terapiya mashg‘ulotlarini psixologik xizmat faoliyatiga kiritish, bu orqali o‘quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish.
2. Pedagog va psixologlar uchun art-terapiya bo‘yicha maxsus seminar-treninglar tashkil etish, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. Oila va maktab hamkorligida art-terapiya elementlarini qo‘llash orqali bolalarning hissiy muammolarini erta aniqlash va bartaraf etish.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

4. Oliy ta’lim muassasalarida art-terapiya yo‘nalishidagi fanlar va tanlov kurslarini joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy va psixologik madaniyatni shakllantirish.

5. Art-terapiya mashg‘ulotlarida milliy san’at, musiqa, raqs va tasviriy ijod elementlarini keng qo‘llash orqali shaxsning milliy qadriyatlar asosidagi ijobiy emotsional rivojlanishini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev, H. O., Quliyeva, Sh. H., To‘rabekov, F. S., & Karimova, M. N. (2015). Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent: “Turon zamin ziyo”. — 240 b.
2. Orifjonova, G. (2020). Art terapiya: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Lesson-press” nashriyoti. — 128 b.
3. Qodirova, Z. S., Akbarov, O. E., Abdug‘opirova, F. A., Xojimirzayeva, Sh. Sh., & Jumanova, Sh. B. (2024). Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. Namangan. — 214 b.
4. Raxmatov, J. X. (2022). Art-terapiya ta’rifi, asosiy yo‘nalishlari va turlari. PEDAGOGS International Research Journal, 4(1), 18–25 b. URL: www.pedagoglar.uz
5. Raxmatova, I. I. (2024). Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida art-terapiya madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari. Inter Education & Global Study ilmiy-nazariy va metodik jurnal, №4(1), 343–348 b.
6. Raximova, F. M. (2025). Art terapiyasi tushunchasini tavsiflash va mohiyatini ochib berishda musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi. Strategies for Improving and Developing the Quality of Preschool Education: Problems, Solutions and International Experience nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 645–646 b. DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.15314507
7. Siddiqova, M. R. Q. (2024). Ijodkorlik pedagogikasi asosida iqtidorli yoshlarni tarbiyalashda milliy va jahon musiqa asarlarining o‘rganish kompetensiyalari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 492–495 b. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10679718
8. Tojiboyeva, S. X. (2024). Ijodkorlik pedagogikasi asosida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 503–506 b. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10679897

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MILLIY TARBIYANI BOSHQARISHNING STRATEGIYALARINI JORIY ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Erkinjonov Shohruh Dilmurodjon o‘g‘li
O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston 24» teleradiokanali» davlat muassasasi Ijodiy-ishlab chiqarish xizmati Texnikani rejalashtirish va taqsimlash bo‘limi boshlig‘i
Musurmonkulov Oybek Urolovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Yetakchi ilmiy xodimi. p.f.f.d.PhD.

Annotatsiya. *Maqolada ragamli ta’lim muhitida milliy tarbiyani boshqarishning strategiyalarini joriy etishning metodolik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Milliy tarbiyaning yo‘nalishlari bilan bog‘liq muammolar ochib berilgan. Milliy tarbiyaning yo‘nalishlari va o‘ziga hos hususiyatlari keltirilgan.*

Tayanch so‘zlar*: strategiya, milliy tarbiy, axloqiy qadriyatlar, oilaviy tarbiy, vatanparvarlik, raqamli axborot, an’analar.boshqarish*

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические аспекты внедрения стратегий управления национальным воспитанием в цифровой образовательной среде. Раскрыты проблемы, связанные с направлениями национального воспитания. Приведены направления и особенности национального воспитания.*

Ключевые слова: *стратегия, национальное воспитание, нравственные ценности, семейное воспитание, патриотизм, цифровая информация, традиции.*

Abstract. *The article examines the methodological aspects of implementing national education management strategies in a digital educational environment. Problems related to the directions of national upbringing are revealed. The directions and features of national upbringing are presented.*

Keywords: *strategy, national education, moral values, family education, patriotism, digital information, traditions. management*

Zamonaviy ta’limni raqamlashtirish milliy tarbiyani davlat ta’lim siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar va ayni paytda yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda raqamli ta’lim muhiti (RTM) vositasida o‘quvchilarning milliy identikligi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va madaniy-tarixiy xotirasini shakllantirish jarayonlarini samarali boshqarishning metodologik asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Metodologik tahlil raqamli transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy tarbiyani

boshqarish strategiyalarini amalga oshirish tamoyillari, yondashuvlari, vositalari va mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Milliy tarbiyani boshqarish strategiyasi raqamli transformatsiya sharoitida o‘quvchilarning milliy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishni ta’minlovchi uzoq muddatli, ilmiy asoslangan qarorlar tizimidir. Demak, barcha nazariy-metodologik asoslar strategik komponentlar: maqsad, tamoyillar, yondashuvlar, mexanizmlar, vositalar, natijalar orqali ochib berilishi lozim.

Har bir xalqning ma'naviy yuksalishi, avvalo, yosh avlodga berilayotgan tarbiya sifati bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda milliy tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yoshlarning vatanparvar, bilimli, ma'naviy barkamol bo‘lib yetishishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda[1]. Hozirgi globallashuv va raqamli inqilob sharoitida milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olish va uning istiqbollarini belgilash dolzarb masalaga aylanmoqda. Milliy tarbiya – bu xalqning urf-odati, qadriyatlari, til va madaniyatiga asoslangan tarbiyaviy tizimdir. U bolalarning yoshligidan boshlab o‘zligiga sodiq, o‘z xalqining madaniyatini hurmat qiluvchi, milliy iftixorga ega shaxs sifatida kamol topishini ta'minlaydi[2].

Bugungi sharoitda milliy tarbiyaning strategiyalari quyidagi yo‘nalishlari alohida ahamiyat kasb etmoqda(1-rasm).



1-rasm. Milliy tarbiyaning strategik yo‘nalishlari

Ma’naviy-axloqiy tarbiya **-** bu insonning ichki dunyosini, ruhiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, unga to‘g‘ri qadriyatlar, jamiyatga foydali bo‘lish, odob-axloq normalariga rioya qilish kabi jihatlarni singdirishga qaratilgan tarbiya jarayonidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalariga:vatanparvarlikni shakllantirish, odob-axloq qoidalarini singdirish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy immunitetni shakllantirish va oila va jamiyat oldidagi burchni anglash kabilar kiradi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vositalarini badiiy adabiyot va tarixiy manbalar; milliy urf-odat va qadriyatlar; oila, maktab, jamiyat hamkorligi; madaniyat markazlari, ommaviy axborotlar tashkil qiladi.

Oilaviy tarbiya — bu inson hayotidagi eng dastlabki va eng muhim tarbiya shaklidir. Bola dunyoga kelgan ilk kundan boshlab, atrof-muhitdagi ko‘nikmalar, muomala madaniyati, axloqiy me’yorlar va qadriyatlar haqida ilk saboqlarni aynan oilada oladi. Shu sababli oila — jamiyatning asosiy tarbiya maskani hisoblanadi[3].

Oila farzandning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ota-onaning muomalasi, qadriyatlarga munosabati, mehr-oqibati, hayotga bo‘lgan qarashi farzand ongida chuqur iz qoldiradi. Shunday ekan, har bir ota-ona farzand tarbiyasida o‘z mas’uliyatini teran anglashi zarur. Oilaviy tarbiyaning asosiy jihatlariga milliy madaniyat va an’analarni, o‘rgatish— bu xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, san’ati, adabiyoti, musiqasi, kiyim-kechaklari, marosimlari, xalq ijodi va madaniy xulq-atvor mezonlarining yig‘indisidir. U xalqning milliy o‘ziga xosligini belgilaydi va boshqa xalqlardan ajratib turadi.

Ma’naviy va axloqiy qadriyatlar insonning ichki dunyosini boyituvchi, uni hayotda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ruhiy asoslardir. Bularga quyidagilar kiradi: h**alollik, vatanparvarlik**, o**‘zaro hurmat va mehr-oqibat, mehnatsevarlik va halol rizq izlash, ilmga intilish va tafakkur**. Doimiy o‘z ustida ishlash, bilim olishga chanqoqlik. Insonning jamiyatda qanday yashashi, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini belgilab beruvchi mezonlardir. Bular: a**dolat**, m**as’uliyat, sadoqat, tarbiyalilik**, k**eçirimlilik**. Yoshlarning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalanishi ularning barkamol, ongli va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topishini ta’minlaydi. Ayniqsa, globallashuv davrida turli g‘oyaviy tahdidlar oldida o‘zining ruhiy tayanchiga ega bo‘lgan shaxslar jamiyat barqarorligi uchun muhim omil sanaladi.

Milliy madaniyat va an’analarni o‘rgatish — bu yosh avlodga o‘z xalqining tarixiy, madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari va hayot tarzi haqida chuqur

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tushuncha berish, ularni hurmat qilish va amalda qo‘llashga o‘rgatish jarayonidir. Milliy madaniyat va an’analarni o‘rgatish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar);

milliy kiyimlar, taomlar, musiqa va raqslar;

an’anaviy bayramlar va marosimlar (Navro‘z, to‘ylar, sunnat to‘y, chillak, mehmondorchilik);

hunarmandchilik va milliy san’at (do‘ppi tikish, zardo‘zlik, kulolchilik, kandakorlik);

tarixiy shaxslar va madaniy meros obidalari.

Axborot makonida ongli ishtirok — bu har qanday axborotni tanqidiy tahlil qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajrata olish, zararli g‘oyalarni rad etish va foydali bilimlarni ongli ravishda tanlash qobiliyatidir. Bu yoshlarning axborot olamida adashmasligi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishi uchun zarur ko‘nikmadir.

G‘oyaviy tahdidlar kuchaymoqda. Turli yot g‘oyalar, ekstremizm, ommaviy madaniyat, axloqdan yiroq kontentlar yoshlar ongini chalg‘itishi mumkin. Ongli ishtirok bunga qarshi “ma’naviy immunitet” bo‘lib xizmat qiladi.

Soxta axborot (feyk) ko‘paymoqda. Internetda yolg‘on, noto‘g‘ri va chalg‘ituvchi ma’lumotlar soni kundan-kunga ortmoqda. Yoshlar haqiqatni izlab topa olishi kerak.

Shaxsiy hayot xavfsizligi. Axborot makonida noto‘g‘ri harakatlar (ma’lumot ulashish, noma’qul kontentlar bilan o‘rtoqlashish) yoshlarning hayotida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ongli ishtirokning asosiy ko‘nikmalari: a**xborot madaniyati, media savodxonlik, shaxsiy pozitsiyaga ega bo‘lish, axborot xavfsizligi**: shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, onlayn xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, m**a’naviy tanlov.**

Axborot makonida ongli ishtirok yoshlarni raqamli dunyoda to‘g‘ri yo‘ldan yurishga, o‘zining axborot maydonidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilashga, salbiy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Bu esa ularning har tomonlama yetuk, bilimli, va milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan shaxs sifatida voyaga yetishiga zamin yaratadi[5].

Vatanparvarlik tarbiyasi — yosh avlod qalbida vatanga muhabbat, sadoqat, fidoyilik va fuqarolik burchini chuqur his qilish kabi fazilatlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy yo‘nalishdir. Bu tarbiya insonni o‘z yurtining haqiqiy farzandi sifatida ulg‘aytirishga xizmat qiladi. Vatanparvarlik - bu shunchaki yurtni sevish emas, balki uning tinchligi, taraqqiyoti, xalq farovonligi uchun mas’uliyatni his etish, kerak

QOBIL NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

bo‘lsa, yurt manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo‘lishdir. U shaxsning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadlari:

yosh avlodda milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish;

tarixiy ong va xotirani mustahkamlash;

davlat ramzlariga hurmat bilan qarashga o‘rgatish;

vatanning taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilish uyg‘otish;

tinchlik, barqarorlik va mustaqillikning qadriga yetishga o‘rgatish.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘llari bu - tarixiy bilimlar orqali. Yoshlar o‘z tarixini, buyuk ajdodlarimiz jasorati va fidoyiligini bilgan sayin, ularning yurti uchun g‘ururi ortadi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siymolar namunasi orqali vatanparvarlik ruhi oshadi.

An’analar — bu xalqning hayot tarzi, qadriyatlar tizimi, marosimlari va ko‘nikmalarini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy merosdir. Misol uchun: **Navro‘z, to‘y marosimlari, sunnet to‘ylari, ehsonlar** kabi tadbirlar. **Yoshga hurmat, mehmonnavozlik, mahalla birdamligi, kattalarga ehtirom** kabi qadriyatlar.

Bularning barchasi yosh avlodni insoniylik, hamjihatlik va o‘zlikni qadrlash ruhida tarbiyalaydi. **O‘zlikni anglashni shakllantiradi**. Milliy madaniyat va an’analar orqali yoshlar o‘z millatiga mansubligini his qiladi, milliy g‘urur bilan yashaydi. **Ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi.** Yurtimizda yashayotgan yoshlar jamiyatda qanday tutumda bo‘lishi, qanday marosim va urf-odatlarga amal qilishi lozimligini anglab yetadi.

Ma’naviy immunitetni kuchaytiradi. Globallashuv davrida yoshlar yot g‘oyalarga berilmasligi, o‘z milliy ildizlariga sodiq bo‘lib qolishi uchun ular milliy madaniyatni chuqur anglashlari zarur.

Oila tarbiyasi orqali – ota-onalar farzandlariga urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlarni amaliy ko‘rsatish orqali singdiradi. **Ta’lim tizimi orqali** – maktab va OTMlarda adabiyot, tarix, musiqa, san’at darslari orqali milliy madaniyat elementlari o‘rgatiladi. **Mahalla va jamiyat ishtiroki bilan** – folklor festivallari, madaniy tadbirlar, teatrlar orqali yoshlar o‘z merosini anglaydi.

Axborot texnologiyalari orqali – film, multfilm, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniyatni zamonaviy shaklda yetkazish mumkin[4]. Zamonaviy davrda insonlar hayoti axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi. Yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, ommaviy axborot vositalari orqali turli g‘oyalar, fikrlar, qadriyatlar, axloqiy me’yorlarga duch kelmoqda. Shu bois, **axborot makonida ongli ishtirok** qilish bugungi kun tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Kelajakda milliy tarbiyani yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi zarur:

ta’lim tizimida integratsiyalashgan yondashuv – milliy qadriyatlarni barcha fanlarga integratsiya qilish;

raqamli tarbiya dasturlarini ishlab chiqish – milliy ruhda tarbiya beruvchi mobil ilova va platformalarni yaratish;

oila, maktab va jamiyat hamkorligini kuchaytirish – tarbiyada barcha qatlamlar hamkorligini ta’minlash.

Xalqaro tajribadan unumli foydalanish – boshqa xalqlarning tarbiya tajribalarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda milliy tarbiya masalasi – bu nafaqat ma’naviy, balki strategik ahamiyatga ega jarayondir. Yoshlarimizni o‘zligiga sodiq, zamonaviy tafakkurga ega, raqobatbardosh shaxslar etib tarbiyalashda milliy tarbiya yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilab olish muhim. Bu esa kelajak avlodning barkamolligini, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PK-5040 karori. https://lex.uz/docs/5344692

2.Jabborov, X.X., Samatova, S. G‘ Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari // Orienss. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarda-milliy-tarbiya-shakllanishining-psixologik-qonuniyatlari.

3. Куронов М. Хар бир ота-она педагог булиш керак. Макола. http: //www.adolatnashr.uz/uploads/ 17.0ila.2016. pdf.

4.Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Современное образование (Узбекистан). 2019. №6 (79). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-puti-pedagogicheskogo-proryva

5.Махмудов А. Х. Компетентностный подход к подготовке магистров технических специальностей (методологические и дидактические аспекты): Монография //Т.: «Fan va texnologiya. – 2012.-168 б.

QORAQALPOQ DAVLAT NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA O‘QUVCHILARNI SHAXS SIFATIDA O‘ZLIGINI ANGLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Fayzullayev Farrux Maxsud o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli pedagogika sharoitida o‘quvchilarni shaxs sifatida o‘zligini anglash kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik imkoniyatlari hamda innovatsion mexanizmlari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhiti, onlayn platformalar, interaktiv texnologiyalar, virtual ta’lim resurslari orqali o‘quvchining o‘zini anglash jarayoni qanday kechishi, o‘z-o‘zini baholash, refleksiya, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli pedagogika, o‘zlikni anglash, kompetensiya, innovatsion texnologiya, raqamli ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ta’lim strategiyalari, refleksiya*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные педагогические возможности и инновационные механизмы формирования компетенции самосознания учащихся как личности в условиях цифровой педагогики. Анализируется, как протекает процесс самосознания учащегося через цифровую образовательную среду, онлайн-платформы, интерактивные технологии и виртуальные образовательные ресурсы, а также их роль в развитии самооценки, рефлексии, критического мышления и коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *Цифровая педагогика, самосознание, компетенция, инновационные технологии, цифровое образование, личностное развитие, образовательные стратегии, рефлексия*

Abstract: *This article explores modern pedagogical opportunities and innovative mechanisms for developing students' self-awareness competence as individuals in the context of digital pedagogy. It analyzes how the process of student self-awareness unfolds through digital educational environments, online platforms, interactive technologies, and virtual educational resources, as well as their role in developing self-assessment, reflection, critical thinking, and communication skills.*

Keywords: *Digital pedagogy, self-awareness, competence, innovative technology, digital education, personal development, educational strategies, reflection*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim jarayonining mazmuni tubdan o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar barcha sohalar qatori pedagogik jarayonga ham jadal kirib kelib, o‘quvchilarning bilim olish shakllari, o‘qituvchining o‘rni, dars mazmuni va o‘quv jarayonining tashkil etilishi tamomila yangi bosqichga o‘tmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri - o‘quvchilarni shaxs sifatida mustaqil fikrlaydigan, o‘zligini anglay oladigan,

hayotiy qarorlarni ongli qabul qiladigan, ma’suliyatli individ sifatida shakllantirishdir.

O‘zligini anglash kompetensiyasi - bu o‘quvchining kimligini bilishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglab, shaxsiy rivoj yo‘lini belgilay olishi demakdir. Raqamli pedagogika esa ushbu jarayonni yanada osonlashtiruvchi, keng imkoniyatlar bera oluvchi vositadir. Chunki internet resurslari, onlayn ta’lim platformalari, virtual ta’lim muhiti, sun’iy intellektga asoslangan dasturlar o‘quvchiga o‘zini sinash, o‘z fikrini ifoda etish, individual rivojlanish bo‘yicha mustaqil izlanish imkonini yaratadi.

Shu boisdan, ta’lim tizimida o‘zligini anglash kompetensiyasini raqamli imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Asosiy qism. Raqamli pedagogika va o‘zlikni anglash kompetensiyasining o‘zaro bog‘liqligi:

Raqamli texnologiyalar yoshlarning ongiga bevosita ta’sir qiluvchi kuchli omildir. Bugungi o‘quvchi internet, mobil ilovalar, raqamli muloqot dunyosida voyaga yetmoqda. Shu sababli o‘zligini anglash jarayoni ham avvalgidan farqli ravishda raqamli muhit bilan uyg‘unlashgan tarzda kechadi.

Raqamli ta’lim muhiti o‘quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- **o‘z fikrini erkin ifoda etish**, bloglar, forumlar, virtual fikr almashuv maydonlarida o‘z pozitsiyasini shakllantirish;
- **refleksiya qilish**, ya’ni onlayn portfoliolar orqali o‘z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish;
- **o‘zini baholash**, onlayn testlar, diagnostik platformalar orqali shaxsiy rivojlanish darajasini kuzatib borish;
- **ijodiy ifoda**, media-loyihalar, taqdimotlar, videoroliklar orqali o‘zini namoyon etish;
- **o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglash**, onlayn hamkorlik loyihalarida ishtirok etish orqali muloqot, hamkorlik, mas’uliyatni his qilish.

Demak, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchining o‘z-o‘zini anglash jarayonini boyituvchi asosiy vositaga aylanmoqda.

Raqamli portfoliolar orqali o‘zini anglashda har bir o‘quvchi raqamli portfolioga ega bo‘lishi, o‘zining barcha ijodiy ishlari, test natijalari, kundalik faoliyati, yutuqlari va xatoliklarini unda aks ettirishi mumkin. Bu o‘quvchini muntazam ravishda o‘z ustida ishlashga undaydi.

Raqamli portfolioning afzalliklari:

1. o‘quvchi o‘z rivojlanish dinamikasini ko‘radi;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

2. o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi;
3. maqsad qo‘yish va unga erishish mexanizmlarini o‘rganadi;
4. shaxsiy mas’uliyat kuchayadi.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy diagnostikada AI-platformalar o‘quvchining bilim darajasini, mantiqiy fikrlashini, xatti-harakatidagi o‘ziga xosliklarni aniqlab, unga shaxsiy rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu jarayon o‘zligini anglashning muhim mexanizmlaridan biridir.

Masalan:

- AI-o‘qituvchi xatolarni avtomatik tahlil qiladi;
- o‘quvchiga moslashtirilgan topshiriqlar beradi;
- qaysi kompetensiyalar kuchli, qaysilari sust rivojlanganini ko‘rsatadi.

“Refleksiv dars” texnologiyasida Onlayn ta’lim jarayonida har bir dars yakunida o‘quvchi:

- bugun nimani tushundi?

-qaysi faoliyat unga qiyin bo‘ldi?

- o‘zida qaysi o‘zgarishni sezdi? kabi savollarga javob berib boradi. Raqamli muhitda bu jarayon ancha qulay.

Refleksiya shaxsning o‘zini anglashida eng samarali amaliy metodlardan biridir.

Raqamli psixodiagnostik vositalarda o‘quvchining qiziqishlari, temperament xususiyatlari, kasbiy yo‘nalishga moyilligini raqamli testlar orqali aniqlash uning shaxsiy rivojlanish yo‘lini to‘g‘ri belgilashga xizmat qiladi. Bu esa o‘zlikni tanlash va anglash jarayonini kuchaytiradi.

Xulosa. Raqamli pedagogika o‘quvchining shaxs sifatida o‘zligini anglash kompetensiyasini shakllantirishda ulkan imkoniyatlar ochadi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan raqamli ta’lim muhiti o‘quvchining o‘zini tahlil qilishi, baholashi, maqsad qo‘yishi va ijodiy fikrlashi uchun qulay sharoit yaratadi. Innovatsion vositalar yordamida o‘quvchining shaxsiy rivoj jarayoni ancha samarali tashkil etiladi. Biroq bu jarayon faqat texnologiya emas, balki pedagogning ongli yondashuvi, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy tarbiya bilan birgalikda amalga oshirilgandagina yuksak natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari.
2. “Yangi O‘zbekiston – 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

4. Xalq ta’limi vazirligining 2021–2024 yillardagi raqamli ta’lim bo‘yicha metodik tavsiyalari.
5. Turdiyev A. “Raqamli pedagogika asoslari”. – Toshkent, 2023.
6. J.Alvin Toffler. “Uchinchi to‘lqin”. Dunyo ta’limining raqamli transformatsiya tahlili.
7. UNESCO. Digital Literacy Global Framework (DLGF), 2021.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASH MASALALARI

Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich
Qori Niyoziy nomidanu Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari nomzodi

Ma’lumki akseologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, ularni shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatishi, dunyoning istiqboldagi taraqqiyotini tushunib yetishi va dunyo tamaddunini anglab yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchi dunyo manzarasi, uning taraqqiyot jarayoni, rivojlanish tendensiyalari, olamni yaxlit idrok etishga oid qarashlar tizimini qadriyatli yondashuv yordamida anglab yetadi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchida moddiy borliq va shaxsning ushbu borliq ichida mavjudligi haqidagi yaxlit tasavvur paydo bo‘ladi.Moddiy borliqning nechog‘li chuqur va batafsil aks etishi shaxsning dunyoviy, ilmiy-diniy qarashlari ko‘lamiga bog‘liq. Aksiologik yondashuv shaxsning moddiy borliqni idrok etishi, uning dunyoqarashi, nuqtai nazari va olamga bo‘lgan ob’ektiv munosabati asosida shakllanadi. Ushbu yondashuv shaxs tomonidan chiqariladigan hukmning xarakterini belgilaydi, uning xulq-atvori va faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi. Shaxsning fikri, hissiyotlari ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatli yondashuv asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash esa, dunyo va insonning undagi o‘rni, kishilarning o‘z atrofidagi voqelik va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan axloqiy normalarga asoslangan qarashlar tizimi hamda bunday nuqtai nazarga nisbatan insonning e’tiqodi, uni bilish va o‘zlashtirishga nisbatan intilishidir. Bunday dunyoqarashni shakllantirish natijasida o‘quvchi-yoshlarning aqliy-intellektual taraqqiyoti ta’minlanadi.

Manba’larda keltirilishicha Aksiologiya, aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. Zamonaviy qadriyatshunoslikda ob’ektiv, sub’ektiv va plyuralistik oqim hamda yo‘nalishlar mavjud. Aksiologiya qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi prinsipi, mazkur tizimning o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlarni o‘z ichiga oladi. Insoniyat yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tish jarayonida shakllanadigan yangi qadriyatlar ham aksiologik yondashuvlar doirasida o‘rganiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Bugungi kunda ildam qadamlar bilan rivojlanayotgan yangi O‘zbekiston jamiyatiga yuksak kasbiy mahorat va intellektual ilmiy salohiyatga ega, har tomonlama ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida mujassam etgan yoshlarga ehtiyoj sezilmoqda. Katta hayotga qadam qo‘yayotgan har bir yosh ijtimoiy munosabatlar, ilmiy taraqqiyotga ziyraklik bilan qaray olishi va bo‘lib o‘tayotgan jarayonlarni ob’ektiv baholay olishi, yangiliklarni tez idrok eta olishi lozim. Aksariyat hollarda o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy-madaniy his-tuyg‘ular, jamiyatga xolisona yondashuv yetarlicha shakllanmaganligi ayon bo‘lmoqda. Chunki, borliq tomonidan yaratilgan har bir narsaga ob’ektiv yondashuv va dunyoqarash o‘quvchiga muhim qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘ladi ularda erkin tanlov imkoniyatini beradi. Ob’ektiv yondashuv o‘quvchining nuqtai nazarini barqarorlashtiruvchi asosiy vositadir.

O‘quvchilarda shakllantirilgan tadqiqotchilik ko‘nikmalari ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta’lim va tarbiya masalalarida o‘quvchida ob’ektiv yondashuvni shakllantirishda barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi, o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Xuddi shu bilimlar o‘quvchilar tomonidan tadqiqotchilik faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o‘zlashtiriladi. O‘quvchida vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarning barqarorligi unda hosil bo‘lgan ob’ektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta’minlaydi.

Ana shu sababli o‘quvchi-yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, aksiologik yondashuv asosida ularning ob’ektiv dunyoqarashini rivojlantirishning refleksiv-pedagogik modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy asoslashda quyidagi ziddiyatlar hal etilishi zarur deb hisoblaymiz:

–globallashuv jarayonida uzluksiz ta’lim sub’ektlarining intellektual va ma’naviy salohiyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko‘nikma, malakalari, egallagan kompetensiyalari o‘rtasidagi nomutanosiblik;

–o‘quvchilarni aksiologik yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish tizimini ishlab chiqish o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayon tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik mexanizm sifatida ko‘rib chiqilmaganligi;

–aksiologik yondashuv asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo‘llanilishiga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotning muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan ziddiyatlarni hal etish yo‘llarini izlab topish bugungi ta’lim tizimi ishtirokchilari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, u aksiologik yondashuv asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish tizimini amaliyotga tatbiq etish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchi qadriyatlarga avvalo umumiy kategoriya sifatida qaraydi. Bunda qadriyatlar reallikning namoyon bo‘lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlar, olamda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy sub’ektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, ob’ektiv asoslari, sub’ektiv anglab olinishi, tuzilishi, namoyon bo‘lish shakllari tavsiflanadi. Garchand qadriyatlar kategoriyasi ko‘proq umumiylikni anglatsada, unda xususiylik va alohidalik ham namoyon bo‘ladi.

Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish ana shu umumiylik, xususiylik va alohidalikning qadriyatlarda namoyon bo‘lishini, borliqni bilishning analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlilik va konkretlilik usullari asosida o‘rganadi. Shu tariqa umumiy, xususiy hamda alohida qadriyat shakllari tavsiflanadi, ular orasidagi bog‘liqlik, o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Qadriyat shakllarining namoyon bo‘lishidagi o‘zaro aloqadorlik va dialektik bog‘liqlik, buning ifodasi bo‘lgan qadriyat tizimlarining vujudga kelishi, amal qilishi, barqaror va beqaror holatlari, o‘zgarishlari kabi masalalar ham aksiologik yondashuv doirasida o‘rganiladi.

Ma’lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma’naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yo‘lga solib turadilar. Bunda qadriyatlarning regulyativ funksiyasi va ma’naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo‘lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi.

Masalan, mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab respublikamizda nochor holda bo‘lib, yillar davomida hammani nazaridan chetda qolgan tarixiy obidalarimiz,

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

qutlug‘ qadamjolarimiz, o‘zbek millatiga xos urf odatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan ilm-ma’rifat hamda bilimga boy nodir qo‘lyozmalarimiz va tariximizni anglatuvchi bebaho madaniy merosimizdan bahramand bo‘lishdek imkoniyatdan foydalanishimizga zid, juda katta bilinmas to‘siqlar mavjud bo‘lgan. Bularning barchasi esa ma’lum vaqt o‘zbek xalqini o‘zini ma’naviyati, madaniyati, san’ati, tarixi va qadriyatlarini to‘laqonli bilishdan mahrum etgan. Har bir voqelik, boshqacha talqin qilingan, ta’lim muassasalaridagi tarix, adabiyot darsliklari sovet tuzumi siyosatiga mos ma’lumotlar bilan boyitilgan, vatanparvar yurtdoshlarimiz bosqinchiga, jadidchilik harakati namoyandalari esa sovet tuzumi siyosatiga qarshi isyonkor sifatida jazolangan va qora otliq qilingan.

O‘zbekistonning mustaqil respublika sifatida dunyo hamjamiyatiga chiqishi va o‘z yo‘lini tanlagani, hech kimga qaram bo‘lmasligi natijasida yuqorida keltirilgan barcha ananalarimiz va tariximizni tiklanishiga erishildi.

Endigi vazifamiz esa shiddat bilan rivojlanib dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olayotgan bir davrda respublikamiz hukumati, aholisi, undagi millat va ijtimoiy sub’ektlarning faoliyatini belgilab turgan asosiy mezonlardan biri bo‘lgan qadriyatlarimizni, aksiologik yondashuv asosida qayta baholash, qadrlash me’yorlari, qadriyat mo‘ljallari, qadrsizlanish darajalari bilan bog‘liq muammolarni ilmiy o‘rganish va uni o‘quvchilarimizga mazmun mohiyatini tushuntirish va ular ongu shuurida singdirishdan iborat. Buning uchun esa nihoyatda katta nazariy bilim va amaliy jarayonlarni o‘z ichiga olgan tajriba muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchining ma’naviy-axloqiy sifatlari tizimining yaratilishi, ularning ijtimoiy funksiyalarini oila sharoitida o‘rganilishi va takomillashtirilishi, mazkur masalada ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik ham o‘quvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganligini sifat jihatidan takomillashuviga olib keladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI MUXITDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH SINF YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Gulzar Jumamuratova, Tumaris Azizova
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali ilmiy xodimalari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli muhitning maktabgacha va boshlang‘ich ta’limy oshidagi bolalarning tarbiyasi jarayoniga ta’siri, uning ijobiy imkoniyatlari hamda yuzaga keltiradigan muammolari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, pedagog va ota-onalar oldiga qo‘yadigan yangi vazifalar, shuningdek, bolalarda raqamli savodxonlik, axloqiy madaniyat va mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogic yondashuvlari yoritilgan. Maqolada raqamli muhitning bolaning psixofiziologik rivojlanishiga ta’siri, ekran va qutining me’yorlari va xavfsizr aqamli xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamlimuhit, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, raqamli savodxonlik, xavfsiz internet, bola rivojlanishi*

Аннотация. *В статье рассматривается влияние цифровой среды на воспитание детей дошкольного и младшего школьного возраста, анализируются ее положительные возможности и возникающие проблемы. Освещаются вопросы интеграции цифровых технологий в образовательный процесс, новые задачи педагогов и родителей, а также формирование цифровой грамотности, нравственной культуры и самостоятельного мышления у детей. Представлены научно обоснованные рекомендации по развитию психофизиологических навыков ребенка, нормированию экранного времени и формированию безопасного цифрового поведения.*

Ключевые слова: *цифровая среда, дошкольное образование, начальная школа, воспитание, цифровая грамотность, безопасный интернет, развитие ребенка*

Abstract. *This article explores the impact of the digital environment on the upbringing of preschool and primary school children, analyzing both its positive opportunities and the challenges it creates. It highlights the integration of digital technologies into the educational process, the new responsibilities of teachers and parents, and the development of digital literacy, moral culture, and independent thinking in children. The article presents scientifically grounded recommendations for supporting children’s psychophysiological development, regulating screen time, and fostering safe digital behavior.*

Keywords: *digital environment, preschool education, primary education, upbringing, digital literacy, safe internet, child development*

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan hozirgi sharoit da maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni tarbiyalash jarayoni yangi shakl va mazmunga ega bo‘lmoqda. Bolalar erta yoshdan smartfon, planshet va

internetdan foydalanishga o‘rganayotgan bo‘lib, bu jarayon bir vaqtning o‘zida ham katta imkoniyatlar, ham sezilarli xavf va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois pedagoglar, psixologlar va ota-onalar raqamli muhitda tarbiya jarayonining ilmiy-metodik asoslarini chuqur o‘rganishlariga ehtiyoj ortmoqda.

Maqolaning maqsadi — raqamli muhitning bolalar tarbiyasiga ta’sirini ilmiy tahlil qilish, zamonaviy muammolarni yoritish va samarali pedagogic yechimlarni taklif etishdan iborat.

1. Raqamli muhitning maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri.

1.1. Kognitiv rivojlanishga ta’sir.

Raqamli qurilmalar ma’lumotlarni tezkor qabul qilish, rang-barang tasvirlar va interaktivlik orqali bolalarning e’tiborini jalb qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, interaktiv dasturlar: nutq rivojlanishini rag‘batlantirishi; xotira jarayonlarini kuchaytirishi mantiqiy fikrlashni qo‘llab – quvvatlashi mumkin. Biroq haddan ortiq ekran vaqti: diqqatning bo‘linuvchanligiga, tezchalg‘ishiga, chuqur tafakkur jarayonlarining sustlashuviga olib keladi.

1.2. Emotsional va ijtimoiy rivojlanishga ta’sir.

Raqamli texnologiyalar bilan ortiqcha shug‘ullanish: emotsional beqarorlik, agressiv xulq harakatlar, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining pasayishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, sifatli pedagogic kontentdan foydalanish: hamdardlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar, jamoaviy vazifalarga asoslangan interaktiv topshiriqlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisining faoliyati eng, avvalo, kichik yoshdagi, ya’ni endigina maktabgacha ta’lim muassasasidan kelgan o’quvchilarni ta’lim jarayoniga moslashtirish bo’lib hisoblanadi. Hozirgi davr boshlang’ich sinf o’qituvchisi darslarini turli xil interfaol metodlar va didaktik o’yinlardan foydalanib o’tishi, shuningdek, ta’lim va tarbiya berishi, ularga dastlabki bilimlarni zamon bilan hamnafas tarzda yetkazib bera bilishi zarur. O’qitishning asosiy maqsadi ham o’quvchilarning bilimlarini o’zlashtirishi hamda ta’lim olishi hisoblanadi, chunki kelajakda o’zlashtirib boriladigan fanlarga, umuman o’qishga bo’lgan qiziqishi aynan bolaning ilk o’qituvchisi, boshlang’ich sinflarda egallagan savodxonligiga bog’liq bo’ladi. Shu sababli ham boshlang’ich sinf o’qituvchisining zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ilgari boshlang’ich sinflarda o’quvchilar, asosan, o’qish, yozish va dastlabki matematik bilimlarni o’zlashtirishi kerak, deb qaralgan bo’lsa, bugungi kunda o’quvchi mustaqil fikrlashga, faollikka, o’zida bo’lgan mustaqillikni rivojlantirishga va bilimlarini mantiqiy jihatdan mukammal egallashga undaydigan ta’lim jarayonining muhim bosqichi sifatida yondashilmoqda.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Shuningdek, boshlang’ich ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, turli xil interfaol metodlardan foydalanib bilim berish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa ,avvalo, interfaol metodlarning mohiyatini bilish va anglash zarur Shuningdek, "Ta’lim Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang’ich sinf o’quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interfaol metodlardan. Interfaol metod- ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotda qo’llashga o’rgatadi. O’qituvchining asosiy vazifasi esa, o’quvchilarga aniq yo’nalish berish, to’g’ri xulosalarni aytishdan iborat.

Quyidagilar raqamli texnologiylarni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi: o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirish; o‘quvchilarda texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o‘z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishva ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish.

Demakki fan konsepsiyasining maqsadlari natijasida mehnat bozori talablariga javob beradigan, texnologik opertasiyalarni o‘z bilim salohiyatlari yordamida amalga oshira oladigan, mustaqil tarzda nazaryada o‘rganganlariga asoslanib amaliy ish olib bora oladigan, texnologik savodxonlikka ega bo‘lgan kelajak egalariga terang fikrlaydigan va mulohazali yosh avlodga keng imkonyatlar eshigini ochib berishga erishamiz.

O‘rta ta’limda hozirgi zamon talablariga mos holda olib borilishi uning moddiy-texnik bazasining ishlab chiqilishi, zamonaviy ta’limga mos standartlar, darsliklar, metodik qo‘llanmalarning yaratilishi jadal rivojlanayotgan raqamli asrda innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun yangi bilimlarni egallab va amalda qo‘llay oladigan yosh avlodni o‘qitib tarbiyalashga,o‘quvchilarning kasblar dunyosi bilan tanishishga ularning turli ijtimoiy sohalarda mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan yo‘nalishlarini topishga katta yo‘l ochib beradi.

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

2. Raqamli tarbiyada uchraydigan asosiy muammolar.

2.1. Ekran vaqtining me’yoridan oshishi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ekran vaqti umuman tavsiya etilmaydi, 3–6 yoshda kuniga 1 soatdan oshmasligi, 7–10 yoshda esa 1,5 soat bilan cheklanishi lozim.

Amaliyotda esa bolalarning aksariyati bundan 2–3 baravar ko‘p vaqtni ekran qarshisida o‘tkazmoqda.

2.2. Nazoratsiz content iste’moli.

Internetdagi axborot oqimi bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelmaydigan: zo'ravonlik sahnalari, noo‘rin ijtimoiy tarmoqlar, reklamalar, tajovuzkor content bilan to‘qnashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

2.3. Ota-onalarning raqamli madaniyat darajasi yetishmasligi

Ko‘plab ota-onalar raqamli texnologiyalarni o‘zlari yetarlicha bilmagani uchun bolaga to‘g‘ri yo‘nalish bera olmaydi.

2.4. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasidagi bo‘shliqlar.

Ta’lim tizimiga texnologiyalar tez kirib kelayotgani bois pedagoglar ham yangi metodlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

3. Raqamli muhitda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning pedagogic asoslari

3.1. Raqamli savodxonlikni shakllantirish.

Maktabgacha va boshlang‘ich yoshda: internet xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotni himoyalash, zararli kontentni farqlay olish kabi ko‘nikmalar yoshga mos o‘yinlar orqali o‘rgatilishi lozim.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

3.2. Oila va maktab hamkorligi.

Raqamli tarbiyada eng muhim jihatlardan biri — ota - ona va pedagog o‘rtasidagi muntazam axborot almashinuvi.

Tavsiya etiladigan shakllar: onlayn – kuzatuv urnallari, ota –onalar uchun seminarlar, raqamli media savodxonlik bo‘yicha treninglar.

3.3. Sifatli raqamli kontentdan foydalanish.

Pedagogik dasturlar: STEAM yo‘nalishlari, mantiqiy o‘yinlar, virtual laboratoriyalar bolalarning qiziqishini oshiradi va rivojlanishga xizmat qiladi.

3.4. Ekran vaqtini boshqarish strategiyalari.

"Ochiq muloqot" usuli: bola nima ko‘rayotganini birga muhokama qilish. "Cheklangan vaqt" tamoyili: qat’iy, doimiy jadval.

"O‘rnak bo‘lish": ota – onaning o‘zi ham ortiqcha gadjet ishlatmasligi.

4. Raqamli muhitda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim uchun xavfsiz tarbiya model.

4.1. Psixofiziologik xavfsizlik. Yoshga mos yorug‘lik, masofa va tana holati. Ko‘z muskullariga zarar yetkazmaslik uchun har 20 daqiqada tanaffus.

4.2.Mazmuniy xavfsizlik Filtrlangan ilovalar, bolalar uchun maxsus platformalar (You Tube Kids, Khan Academy Kids va boshqalar), pedagogic nazorat

4.3.Raqamli axloqiy me’yorlar. Bolalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish zarur: onlayn odob, mas’uliyatli yozishmalar, kiberbullingga qarshi turish.

Yuqoridagi tahlillardan kelip chiqib, xulosa qilish mumkinki, raqamli muhit maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolada:

Raqamli savodxonlik,

Mustaqil fikrlash,

Axloqiy madaniyat,

Ijtimoiy xulq – atvor kabi muhim sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Biroq nazoratsiz foydalanish, ortiqcha ekran vaqti va sifatsiz content bolalar rivojiga salbiy ta’sir qilishi aniq. Shu bois ota - ona, pedagog va jamiyat hamkorligida raqamli tarbiyaning mukammal modeli yaratilmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WHO. Guidelines on Physical Activity, Sedentary Behaviour and Sleep for Children Under 5 Years of Age.
2. Livingstone, S. "Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities." Polity Press, 2014.
3. Prensky, M. "Digital Natives, Digital Immigrants." On the Horizon, 2001.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi metodik qo‘llanmalari.
5. Rideout, V. "The Common Sense Census: Media Use by Kids Age 0–8." Common Sense Media, 2020.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TARBIYA FANINI O‘QITISHNING INNOVATSION METODLARI

Jumabayev Amir Darmenbay uli
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada “Tarbiya” fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan raqamli pedagogik ta’minot, interfaol metodlar, 4K modeli va SMART texnologiyalarining o‘rni yoritiladi. Zamonaviy raqamli muhit tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, kreativ va texnologik yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan strategiyalar tarbiyaviy darslarni ma’naviy-axloqiy rivojlanishga yo‘naltirilgan samarali raqamli tizimga aylantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, raqamli pedagogik ta’minot, tarbiya fani, 4K modeli, SMART texnologiyasi, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya*

Zamonaviy ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar, eng avvalo, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy barkamol, raqobatbardosh va ijtimoiy mas’ul shaxs sifatida tarbiyalash zaruratini taqozo etmoqda. Bugun o‘qituvchi - nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy faoliyatni innovatsion yondashuv asosida tashkil eta oladigan ijodkor mutaxassis bo‘lishi shart.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi;

individual farqlarni hisobga olgan holda ta’limni moslashtiradi;

axborot-kommunikatsiya muhitini kengaytiradi;

pedagogik ta’sirni vizual, interfaol va emotsional jihatdan boyitadi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar ta’limni bilim uzatish jarayonidan shaxsni rivojlantirish tizimiga aylantiradi.

“Tarbiya” fanini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning bosh maqsadi - shaxsda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarda mustaqil pozitsiyani aniqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlashdir. Ushbu jarayon: faol ta’sirchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, emotsional muvozanat kabi xususiyatlarni rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Tarbiya fanida innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari sifatida quydagi interfaol metodlarni takidlab o‘tish lozim. Jumladan, interfaol texnologiyalar Klaster, “mozayka”, sinkveyn, “breynstorming”, “akvarium”, debatlar kabi metodlar o‘quvchilarda quyidagi imkoniyatlarni rivojlantiradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Masalan, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, muloqot madaniyati, hamkorlikda qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Bu usullar darsni “muloqot markazi”ga aylantirib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sub’ekt–sub’ekt munosabatni o‘rnatadi.

AKT asosidagi texnologiyalar (multimediali darslar, virtual simulyatsiyalar, mobil ilovalar, elektron platformalar) o‘quv jarayonini interaktiv, vizual va texnologik muhitga ko‘chiradi. Masalan: “Google Classroom” orqali onlayn tarbiyaviy topshiriqlar; “Canva”, “Miro” dasturlarida axloqiy qadriyatlar bo‘yicha klaster xaritalar yaratish; “Kahoot” testlarida milliy qadriyatlar mavzusida o‘yinli so‘rovlar.

Ta’limiy o‘yin texnologiyalaridan “Rolli o‘yinlar”, “kvestlar”, “axloqiy dilemmalar” kabi metodlar orqali o‘quvchilarda mas’uliyat va burchni his qilish, empatiya va hamjihatlikni anglash, ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘lish sifatlari shakllanadi. Masalan, “Vatan uchun javobgarlik” mavzusidagi rolli o‘yin yoki “Halollik sinovi” kvesti o‘quvchini real hayotiy vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhimdir:

Pedagogning ijodiy yondashuvi va texnologik savodxonligi - o‘qituvchi yangi metodlarni faqat o‘rganmasdan, balki ularni shaxsga moslashtirib qo‘llay olishi kerak.

O‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish - har bir sinf uchun mos texnologiyani tanlash.

Dars mazmuni va natijalarining uyg‘unligi - texnologiya maqsadga xizmat qilishi, darsni bezak emas, mazmunni boyituvchi vosita sifatida ishlatilishi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi - innovatsiyalar axloqiy, madaniy va milliy kontekstdan uzilmasligi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda o‘qituvchining quyidagi sifatlari alohida ahamiyatga ega:

Kreativlik – yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish;

Rivojlanuvchanlik – yangiliklarni o‘zlashtirish, zamon bilan hamnafas bo‘lish;

Refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklardan xulosa chiqarish;

Texnologik savodxonlik – AKT, multimedia va interaktiv vositalarni samarali boshqarish. Shunday o‘qituvchi “Tarbiya” fanini oddiy dars emas, insoniylik va ma’naviyat maktabiga aylantira oladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Hozirgi globallashuv davrida “Tarbiya” fanini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish: ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi; o‘qituvchining kasbiy kreativligini kuchaytiradi; o‘quvchilarda ma’naviy immunitet, mustaqil tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, pedagog tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirish – O‘zbekiston ta’lim islohotlarining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv o‘qituvchini – ijodkor yetakchi, o‘quvchini esa – ma’naviy barkamol, global fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta’lim jarayoni o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki hayotiy ko‘nikmalar – fikrlash, muloqot, ijodkorlik va hamkorlik (ya’ni “4K” modeli: kritik, kreativ, kommunikativ, kooperativ)ni shakllantirishga qaratilmoqda. Bu model, ta’limning zamonaviy paradigmasi sifatida, shaxsning ijtimoiy-axloqiy, kognitiv va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi universal texnologiya sifatida e’tirof etilmoqda. “Tarbiya” fanini o‘qitishda “4K” modeli alohida sharoit talab qilmaydi - bu usulni har qanday maktabda, mavjud dars jarayoni ichida metodik yondashuv sifatida qo‘llash mumkin. Muhimi - o‘qituvchining innovatsion fikrlash madaniyati va darsni boshqarish mahoratidir. “4K” modeli mazmunining ta’lim-tarbiya bilan integratsiyasi K1 – Kritik (tanqidiy) fikrlash, o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan: “Sabab–natija” tahlili orqali muammoning yechimini topish; Matn ustida ishlashda fakt va fikrni ajrata olish; “Nega?” va “Qanday?” savollariga javob topish orqali mantiqiy fikrlash. K2 – Kreativ (ijodiy) fikrlash, o‘quvchilarda yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimni o‘zlashtirishdan tashqari yangicha fikr bildirish, ijodiy loyihalar yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. Masalan: mavzuga oid hikmatli so‘z yaratish, o‘rganilgan axloqiy qadriyat asosida yangi hayotiy vaziyatni modellashtirish. K3 – Kommunikativ (muloqotchanlik), muloqot madaniyati, jamoada ishlash, o‘z fikrini asoslab ifodalash, tinglay olish va dalillash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Masalan: “Rol o‘ynash”, “Debat” yoki “Akvarium” texnikasi orqali muloqot va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish. K4 – Kooperatsiya (hamkorlikda ishlash), guruhda ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, muammoga jamoaviy yondashish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish. Masalan: kichik guruhlarda vazifalarni bo‘lib bajarish, loyiha asosida jamoaviy qaror qabul qilish, o‘zaro baholash.

“4K” modeli asosida tarbiya darslarini tashkil etishning didaktik asosi shundan iboratki, “Bilim emas, fikr yuritish o‘rgatiladi”degan g‘oya asosida mashg‘ulotlar

tashkil etalid. Jumaladan, “4K” modeli asosida o‘qitilayotgan “Tarbiya” darsi o‘quvchini bilimni yod olishdan emas, balki fikrni tahlil qilish, xulosa chiqarish va amaliy qo‘llashga o‘rgatadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilar o‘quv faoliyati natijasida quydagi sifatlar shakllanishi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, Motivatsiya – mavzu hayotiy misollar bilan bog‘lanadi (“Nega bu masala muhim?”).

Kognitiv faoliyat – muammo qo‘yiladi, o‘quvchi tahlil qiladi, dalillarni izlaydi.

Interaktiv amaliyot – guruhli muhokama, rol o‘yinlari, keys-stadi.

Refleksiya – o‘quvchi o‘z fikrini, xulosasini baholaydi va tahlil qiladi. Bu jarayonlarda o‘quvchilar “Tanqidiy fikrlash + Ijodkorlik + Hamkorlik + Muloqot” imkoniyatlari o‘rnatilib hamkorlikda ishlash va jamoa fikrini hurmat qilish sifatlari shakllanadi.

“Tarbiya” fanida 4K modelining natijaviy kompetensiyalari

Kompetensiya	Mazmuni	Kutiladigan natija
Kritik fikrlash	Axborotni tahlil qilish, dalillash, mantiqiy xulosa chiqarish	Mustaqil fikrlash, dalil asosida qaror qabul qilish
Kreativlik	Yangi g‘oyalar yaratish, o‘z fikrini ijodiy ifoda etish	Ijodkorlik, tashabbuskorlik, tafakkur kengligi
Kommunikativlik	Muloqot madaniyati, tinglash, fikr almashish	Samimiy aloqa, ijtimoiy muloqot madaniyati
Kooperatsiya	Guruhli faoliyat, hamkorlik, ijtimoiy javobgarlik	Birgalikda ishlash, jamoaviy qaror, empatiya

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

Ushbu modelni o‘quv jarayonida qo‘llash natijasi sifatida “4K” modeli - bu ta’limni shunchaki zamonaviylashtiruvchi emas, balki uni shaxsni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi ijtimoiy-pedagogik tizimga aylantiruvchi innovatsion yondashuvdir. “Tarbiya” fanida bu model tanqidiy fikrlovchi; ijodkor; muloqotga ochiq; jamoaviy ishlay oladigan barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, “4K” modeli asosida o‘qitilgan “Tarbiya” darsi – bu axloqiy qadriyatlar bilan texnologik yangilik uyg‘unlashgan, XXI asr talablari darajasidagi tarbiya tizimidir deb takidlashga asos bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni tezkor axborot almashinuvi, raqamli kompetensiyalar va texnologik tafakkur bilan uyg‘unlashmoqda. Shu bois ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratga aylanmoqda. Shu o‘rinda o‘quvchilarni tarbiyalashda o‘quv jarayonida SMART texnologiyasini qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, SMART texnologiyasi (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) - bu nafaqat texnik yondashuv, balki aqlli ta’lim falsafasidir, ya’ni o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan,

o‘lchovli, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylantirishga qaratilgan. SMART yondashuvi ta’limni xalqaro standartlar darajasida rivojlantirishga xizmat qiladi, yuqori malakali, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Aqlli ta’lim - bu raqamli, mobil va interaktiv texnologiyalar orqali o‘quvchini o‘zlashtirish jarayonining markaziga qo‘yuvchi tizim. U quyidagi prinsiplarga asoslanadi: Moslashuvchanlik (flexibility) – o‘quvchi istalgan joyda va vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega; Shaxsiylashtirish (personalization) – har bir o‘quvchining qobiliyati, tezligi va o‘rganish uslubiga mos yondashuv; Interfaollik (interactivity) – o‘quvchi, o‘qituvchi va texnologiya o‘rtasidagi faol aloqadorlik; Bulutli muhit (cloud-based learning) – ta’lim resurslari, loyihalar va darsliklarning yagona onlayn platformada saqlanishi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, SMART ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonini zamonaviy tezkor dunyo talablariga moslashtiruvchi va ta’limni barqaror rivojlantiruvchi mexanizm sifatida e’tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qaroriga 3-Ilova
2) R.G.Safarova, N.R.Masharipova, N.Ch.Rustamov. Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdonalar. Toshkent-2024. 70 b.
3) Lickona, T. (1991). Educating for character. New York: Bantam Books
4) Maurice J. Elias, Amy Kranzler, Sarah J. Parker, V. Megan Kash and Roger P. Weissberg. The complementary perspectives of social and emotional learning, moral education and character education. (Handbook of Moral and Character Education Second Edition). 2014. 272-290 p.
5) Matthew Davidson, Thomas Lickona, and Vladimir Khmelkov. A New Paradigm for High School Character Education. (Handbook of Moral and Character Education Second Edition). 2014. 290-308 p.
6) Berkovitz, M.V. & Bier, M.C. (2005). What works in character education?: A research-driven guide for educators. Washington, D.C.: Character Education Partnership.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI DAVLAT INSTITUTI

TA’LIMNING RAQAMLASHTIRILISHI DAVRIDA PEDAGOGLARNING MA’NAVIY FAZILATLARI VA KASBIY MUHITINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

Karaboyeva Mahliyo Kodirjonovna
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’limning raqamlashtirilishi davrida pedagoglarning ma’naviy fazilatlari va kasbiy muhitining sog‘lomlashtirishda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan masalalar yuzasida fikr yuritilgan bo‘lib, Pedagogik jamoalarga zaruriy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: Raqamlashtirish, texnologiyalar, pedagog, jamoa, ma’naviyat, shaxs, ta’ lim, fikr, ko‘nikma, tahlil*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы, которые необходимо учитывать при совершенствовании морально-нравственных качеств и профессиональной среды педагогов в эпоху цифровизации образования, а также разрабатываются необходимые рекомендации для педагогических коллективов.*

Ключевые слова: *цифровизация, технологии, педагогический коллектив, духовность, личность, образование, мышление, навыки, анализ*

Abstract. *This article discusses issues that need to be taken into account in improving the moral qualities and professional environment of teachers in the era of digitalization of education, and develops necessary recommendations for pedagogical teams.*

Keywords: *Digitalization, technologies, pedagogical team, spirituality, personality, education, thought, skills, analysis*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

XXI asrda ta’lim jarayonining jadal raqamlashtirilishi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar nafaqat o‘qitish metodlarini yangiladi, balki pedagog shaxsiga qo‘yiladigan ma’naviy-axloqiy talablarni ham kuchaytirdi. Zamonaviy ta’lim maktabi endi faqat bilim berish maydoni emas, balki raqamli ekotizimda yo‘naltira oladigan, ma’naviy qiyofasi barqaror bo‘lgan pedagoglarga tayanadigan muhitdir. Shu sababli, pedagoglarning ma’naviy fazilatlari va kasbiy muhit sifati barkamol avlod tarbiyasining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimizning PF-6079 (05.10.2020) farmoni mamlakatda raqamli iqtisodiyot va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha vazifalar va maqsadlar ko‘zda tutilgan bo‘lib ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda

zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berishdir. Yagona masofaviy ta’lim platformasini kelajakda ta’limning barcha yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirilishi texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta’lim tizimiga joriy etish kabi qator maqsadlar belgilangan. O‘RQ-957-sonli Qonun (07.09.2024)

“Ma’muriy islohotlar doirasida ta’lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi” to‘g‘risidagi qarorida ta’lim sohasidagi boshqaruv organlari vakolatlarini yangilaydi, ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Raqamli muhitning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri raqamli vositalar ta’lim jarayonini qulay, ochiq va interaktiv tarzda yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Ammo bu qulayliklar bilan birga quyidagi masalalarni ham kun tartibiga kiritadi: o‘quvchilarning raqamli xavfsizligini ta’minlash; texnologiyaning ma’naviy-axloqiy madaniyatga ta’siri; o‘qituvchidan raqamli savodxonlik bilan birga yuqori darajadagi mas’uliyat, halollik, adolat, odob kabi fazilatlarning talab etilishi. Demak, raqamli ta’lim texnologik jarayongina emas, balki ma’naviy jarayon sifatida ham ko‘rilishi kerak. Pedagogning ma’naviy fazilatlari – raqamli davr ehtiyoji raqamli ta’limda o‘qituvchi shunchaki bilim kuzatuvchi emas, balki, yo‘l ko‘rsatuvchi mentor, axborot madaniyati namunasi, axloqiy tarbiya beruvchi shaxs, raqamli muhitda to‘g‘ri xulq namunasi ko‘rsatuvchi yetakchidir. Shu bois pedagog quyidagi ma’naviy fazilatlarni o‘zida mustahkamlashi uchun quyidagi tavsiyalar taklif qilinadi.

1. Mas’uliyat va adolat

Raqamli baholash, elektron jurnal va platformalar orqali o‘quvchilar faoliyatini qayd qilishda xolislik va shaffoflik o‘qituvchining ma’naviy mas’uliyatini yanada oshiradi.

2. Halollik va intellektual poklik

Raqamli resurslardan foydalanishda mualliflik huquqiga rioya qilish, plagiyatdan tiyilish – o‘quvchilarga halollikning amaliy namunasidir.

3. Hurmat, muloqot madaniyati

Onlayn darslarda ham etik me’yorlarga amal qilish, o‘quvchilarga hurmat bilan murojaat qilish, ijtimoiy-tarmoqlarda pedagog obro‘sini asrash — ma’naviy fazilatning muhim ko‘rinishidir.

4. Axborot madaniyati

Keraksiz, zararli, soxta axborotlardan himoyalanishni o‘rgatish o‘qituvchining ma’naviy burchi bo‘lib qolmoqda.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Kasbiy-ma’naviy muhit: pedagog faoliyatining tayanch omili pedagoglar o‘rtasida sog‘lom kasbiy muhit yaratilishi ta’lim sifati va tarbiyaviy faoliyatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy sog‘lom muhitni tarkib toptirishda hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali raqamli ta’lim jarayonida pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish, metodik hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. Etik me’yorlarga amal qilish esa jamoada hurmat, mas’uliyat, odob me’yorlarining saqlanishi o‘quvchilar uchun ham ma’naviy namuna bo‘ladi. Innovatsiyalarga ochiqlik raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorlik, yangiliklarga intilish pedagogning ma’naviy yetukligidan dalolat beradi. Kasbiy integritet o‘z kasbiga sadoqat, vijdonan ishlash, shaxsiy manfaatni ta’lim manfaatidan ustun qo‘ymaslik — barkamol avlod tarbiyasining asosiy garovidir. Raqamli davrda barkamol avlod tarbiyasida pedagogning o‘rni bugungi kunda barkamol avlod nafaqat bilimli, balki, axborot xurujlaridan himoyalangan, axloqiy qarashlari mustahkam, Vatanga sodiq, ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalanishi lozim. Bu vazifalarni bajarishda pedagogning ma’naviy qiyofasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi, ayniqsa, raqamli makonda o‘zini kimga taqlid qilishni bilmay qolishi mumkin. Shunday sharoitda pedagogning namunasi — bilimdan ko‘ra kuchliroq tarbiyaviy omildir. Raqamli vositalar yordamida onlayn loyiha va tadbirlar orqali vatanparvarlik, raqamli madaniyat, ijodkorlik, mas’uliyat kabi sifatlarni o‘quvchilarga singdirish imkoniyati yanada kengaydi.

Xulosa. Ta’limning raqamlashtirilishi davrida pedagogning ma’naviy fazilatlari va u faoliyat yuritayotgan kasbiy muhit sifatini oshirish — barkamol avlod tarbiyasining eng muhim shartidir. Texnologiyalar ta’lim jarayonini yengillashtirishi mumkin, ammo ma’naviy tarbiya faqat insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan o‘qituvchi orqali amalga oshadi. Demak, raqamli ta’lim ekotizimida muvaffaqiyatga erishish uchun pedagogning ma’naviy barkamolligini rivojlantirish, sog‘lom kasbiy-madaniy muhit yaratish, raqamli madaniyatni to‘g‘ri shakllantirish zarur. Shundagina raqamli avlodni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasining 07.09.2024 yildagi O‘RQ-957-sonli qonuni
3. Qahhorova M.- “Ma’naviy axloqiy muhit,demakratik yangilanishning muammo va yechimlari” T.: Falsafa va huquq. 2008-24-b

4. G.H Tillayeva –“Ijtimoiy muhitva yoshlar tarbiyasi”T .: Falsafa va huquq institute 2009.-149-bet
5. https://lex.uz/uz/
6. https://Ziyonet.com

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI AXBOROT TA’LIM MUHITIDAN INKLYUZIV TA’LIM MUASSASASIDA FOYDALANISHNING SHART-SHAROITLARI

Karimov Komiljon Abduraximovich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot” bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. *Maqolada Raqamli axborot ta’lim muhitidan inklyuziv ta’lim muassasalarida foydalanishni takomillashtirish muammolari qaralgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot ta’lim muhiti, virtual kutubxona, telekommunikatsion texnologiyalar, integratsiya, resurslar*

Annotation. *The article examines the problems of improving the use of the information educational environment in inclusive educational institutions.*

Key words: *information educational environment, virtual library, telecommunication technologies, integration, resources*

Аннотация. *В статье рассматриваются проблемы использования информационной образовательной среды в инклюзивных образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *информационная образовательная среда, виртуальная библиотека, телекоммуникационные технологии, интеграция, ресурсы*

Zamonaviy ishlab chiqarishning barcha jarayonlari va bosqichlarida yuqori iqtisodiy samara va taraqqiyotga innovatsion g‘oyalarsiz erishib bo‘lmaydi. Mazkur g‘oyalarning asoschisi, tashabbuskori va ijrochisi, tashuvchisi esa, puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis hisoblanadi. Bu holatni inobatga olish Inklyuziv ta’lim muassasalarida barcha sohalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonlarni sifatli axborot muhiti bilan ta’minlash, uni axborot texnologiyalarining zamonaviy, yangi g‘oya va metodlari bilan boyitishni nazarda tutadi.

Inklyuziv ta’lim muassasasining axborot ta’lim muhiti o‘quv jarayonida bevosita talabani o‘rab turgan axborotlar tizimi muhitidagi faoliyati bilan bog‘liqlikda amalga oshadi.

Inklyuziv ta’lim muassasasining axborot ta’lim muhiti deganda o‘quv faoliyatining eng asosiy hamda faol subekti hisoblangan inson bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonining tashkiliy, axborotlashgan, o‘quv-uslubiy va pedagogik-psixologik jihatdan ta’minlanganlik tizimi darajasi tushuniladi [1-2].

Inklyuziv ta’lim muassasasining axborot ta’lim muhiti texnologik jihatdan axborotni an’anaviy va elektron tashuvchilar, kompyuter-telekommunikatsion

texnologiyalar, virtual kutubxonalar, bazalar manbai, o‘quv-uslubiy majmualari va boshqa keng ko‘lamli didaktik apparatlar integratsiyasi asosiga quriladi.

Axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchi-talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligining jadal rivojlanishi ta’minlanadi, bunda quyidagi pedagogik shart va jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- mavzularni o‘rganishda tizimlilik, mantiqiy izchillikka asoslanish;
- bilish-anglash faoliyatini axborot vositalari yordamida mustaqil izlab topish asosida ishlash tartibiga o‘tish;
- o‘quvchi-talabalarda yutuq va muvaffaqiyatlarni kuchaytirish;
- guruhlarda maqsad va manfaatlarini birlashtirish;
- test shaklida o‘zlashtirilgan bilimlar joriy nazoratini amalga oshirish;
- hamkorlik faoliyati asosida talabalarning bir-birlarini o‘qitish tizimini amalga oshirish maqsadida barcha talabalarga bir xil emas, balki farqlanuvchi material va mavzularni turli xildagi metodlar asosida o‘rganishni joriy etish;
- pedagogik hamkorlik o‘rnatish asosida o‘qituvchi o‘zining axborot-bilim beruvchi pozitsiyasini talabalarning o‘zlari mustaqil o‘zlashtirgan axborot-bilimlarini nazorat qiluvchi-filtrlovchi pozitsiyasiga almashtirish.

Axborot ta’lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish talabadan quyidagilarni talab qiladi:

- o‘z ustida ishlash jarayonini loyihalash, realashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni;
- belgilangan reja asosida maqsadli ishlay olishni;
- o‘quv faoliyatida o‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshira olishni;
- ilmiy va o‘quv axborotlarini anglash-bilish va ularni tahlil qila olish ko‘nikmalariga egalikni;
- o‘rganilayotgan muammo mavzusidan qat’iy nazar unga doir axborot manbalarini bibliografik qo‘llanma va kataloglar yordamida topish ko‘nikmalarini;
- turli muammo va masalalarga bag‘ishlangan ilmiy, uslubiy va boshqa adabiyotlar ro‘yxatini ilmiy bibliografik qoidalar asosida ro‘yxatga olish malakalarini;
- internet resurslaridan faol foydalanishni.

Inklyuziv ta’lim muassasasining axborotlashgan ta’lim muhitida faoliyat yuritish pedagogdan masofali ta’lim shakl va metodlaridan foydalanish, pedagogik hamkorlik, ta’limning an’anaviy va nostandart usullarini qo‘llashda global tarmoqdan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Axborot ta’lim muhitida an’anaviy talablar quyidagi jihatlar mujassamligini talab qiladi:

- tashkilotchilik ko‘nikmalarini (talabalarni jipslashtirish, ishni rejalashtirish va boshqalar);
- didaktik malakalarni (o‘quv jihozlarini tayyorlash; materiallarni aniq va ishonchli tanlash va ularni izchil tartiblash, talabalarning ma’naviy ehtiyojlari va bilish jarayonlarini stimullash);
- perseptiv qobiliyatlar (talabalarning ma’naviy dunyosiga kira olish, ularning emotsional holatlarini obyektiv baholay olish, talaba ruhiyatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlay olish);
- kommunikativ malakalar (inklyuziv ta’lim muassasasi rahbarlari, hamkasblar, ota-onalar va talabalar bilan turli maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish);
- suggestiv qobiliyatlar (talabalarga ruhiy-hissiy ta’sir ko‘rsata olish);
- ilmiy-tadqiqot, izlanish imkoniyatlari (tanlagan ixtisosligi yuzasidan ilmiy-nazariy bilimlarni mukammal o‘zlashtirish, pedagogik vaziyat va jarayonlarni anglash va ularni obyektiv tahlil qila olish);
- fanga oid qobiliyatlar (inklyuziv ta’lim fanlarini professional darajada bilish).

Axborot ta’lim muhitini inklyuziv ta’lim muassasasi darajasida takomillashtirishga ta’limni texnologiyalashtirish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik sharoitlarini ta’minlash;
- ta’lim jarayoniga pedagogik informatikaning metodlari va strategiyasini tatbiq etish.

O‘quvchi-talaba hozirgi kunda global tarmoq yoki multimedialar vositasida o‘zini har tomonlama kamol toptirish, turli axborotlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Aynan shu imkoniyatlar shaxs axborot madaniyatini shakllantirish vazifasini o‘tashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim muassasasi o‘quvchi-talabalari zamonaviy kompyuter muhitida turli axborot manbalari bilan erkin ishlay olishlari; vazifa-topshiriqlarini bajarishi, elektron hujjat aylanmalari yaratishi, axborot so‘rovlarini to‘g‘ri tashkil qilishi, zarurat tug‘ilganda axborot va kommunikatsion texnologiyalar asosida muassasani boshqarishi talab etiladi.

QOBI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Bu kabi sharoitlarda o‘quvchi-talabaning inklyuziv ta’lim muassasasida barcha fan asoslaridan, asosan, axborot texnologiyalaridan egallagan kasb faoliyati, intellektual, fuqarolik-huquqiy, kompyuter savodxonligi singari bilim, ko‘nikma va malakalari natijalari birinchi planga chiqadi. E’tirof etilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi talabaning kasbiy faolyati bilan bog‘liq yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf etish jarayonida, shuningdek, to‘laqonli shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.
2. Karimov K.A.Masofaviy ta’lim shakllari // Kasb-hunar ta’limi. – T., 2012. – 5-son. – B. 16-20.
3. Karimov K.A. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limning tarmoqli modeli // Ta’lim muammolari. – T., 2012. – 4-son. – B. 59-62.
4. Karimov K.A. Masofali ta’lim muhitini modellashtirish // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – T., 2013. – 4-son. – B. 57-58.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

INTERNET TAHDIDLARDAN HIMOYALANISHDA OTA-ONA MAS’ULIYATINI OSHIRISH DAVR TALABI

L.M.Qaraxonova

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, “Mahalla – oila – maktab hamkorligi” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), k.i.x.

Bugungi raqamli taraqqiyot va axborot kommunikatsion texnologiyalarining jadal rivojlanishi yosh avlod imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ta’lim olish, ijod qilish va dunyoqarashini boyitishga zamin yaratmoqda. Biroq virtual muhit imkoniyatlari bilan bir qatorda unda turli kiberxavf-xatarlar, internet tahdidlari, zararli axborotlar ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar tarbiyatida bu tahdidlarning shaxsiy xavfsizlikka, psixologik barqarorlikka, axloqiy ongga salbiy ta’siri jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ota-onalarning mas’uliyati va ularning kiberma’lumotlar xavfsizligi borasidagi bilim va ko‘nikmalari jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalarning internetdan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishida birinchi navbatda ota-onalarning ongli nazorati, sotsiokultur tarbiyasi hamda axborot savodxonligi hal qiluvchi omillardan biridir. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bolalarni internet tahdidlaridan himoya qilishga qaratilgan profilaktik ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilishi zamonaviy tarbiya jarayonining asosiy talablaridan hisoblanadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Internetdagi tahdidlar kun sayn ko‘payib boryapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tahdidlar ichidan eng keng tarqalgan va bugunki kunda eng xavflisi hisoblanglarni ko‘rib chiqamiz:

Internetga qaramlik.

Kiberhujum va trolling.

Terrorizm, natsizm, tajovuzni targ‘ib qilish.

Odobsiz til, odobsizlik, qo‘pollik.

Spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, tamaki....

18 + toifasidagi saytlar. ...

Lotereyalar, kazinolar, tanlovlar.

Internetga qaramlik – bu bolaning onlayn faoliyat bilan haddan tashqari band bo‘lgan va bu faoliyatni nazorat qila olmaydigan holat. Bolalarda bu holat ko‘pincha o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, videolarni tomosha qilish yoki onlayn xarid qilish kabi

faoliyatlar atrofida bo‘lishi mumkin. Internetga qaramlik bolaning normal ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bolalarda internetga qaramlikning belgilari quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Haddan tashqari vaqt sarflash: Bola ko‘p vaqtini internetda o‘tkazadi va bu vaqtni nazorat qila olmaydi.

Ijtimoiy izolyatsiya: Haqiqiy hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni kamaytirish tendentsiyasi.

Aqliy muammolar: Maktabda o‘zlashtirishning pasayishi, diqqat yetishmovchiligi va o‘rganishda qiyinchiliklar.

Jismoniy salomatlik muammolari: Ko‘zning zo‘riqishi, bosh og‘rig‘i, bo‘yin og‘rig‘i va uyqu muammolari.

Ruhiy salomatlik muammolari: Stress, tashvish, depressiya va g‘azab muammolari.

Haqiqatdan uzilish: Onlayn dunyoda yashashga haddan tashqari e’tibor qaratish va real hayot bilan aloqani yo‘qotish.

Nazoratni yo‘qotish: Internetdan foydalanishni nazorat qilishda qiyinchilik va mas’uliyat hissining pasayishi.

Kiberhujum va trolling. *Kiberhujum* – bu internetda ongni zaharlash. Odatda bu elektron pochta yoki onlayn suhbat shaklida surat va videokliplardan foydalangan holda matnli xabar jo‘natish, qo‘ng‘iroq qilish orqali sodir etiladi. Statistikaga ko‘ra, bunday hujum holatlarining aksariyati ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladi. Umuman olganda, kiberhujum tamoyili oflayn ta’sir o‘tkazish shakliga o‘xshaydi, ammo u psixologik jihatdan jabrlanuvchi ko‘proq azob chekishi tufayli yanada xavfli hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib anglab turibmizki, Internetdagi tahdidlarga qarshi kurashish har bir ota-onaning dolzarb vazifasi ekan. Eng avvalo ota -ona farzandlarning yoshidan qatiy nazar nazoratsiz qoldirmaslik kerak.

Farzandlari maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshida bo‘lsa qanday o‘yinlar o‘ynashi, bu o‘yinlarga qancha vaqt sarflashi bilan qizikishi shart deb o‘ylaymiz. Ushbu yoshdagi bolalarga Internetdan foydalanish vaqtlarini chegaralash lozim. Ularni ko‘prok vaqtini jonli o‘yinlarga jalb qilishi yoki ular bilan sayr qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar farzandlari o‘rta maktab yoshida bo‘lsa ularning qizikishini, Internetdan qanday foydalanishi, qaysi saytlarga kirishi va ular to‘g‘risida qanday fikrga egaligi haqida suhbat o‘tkazishi kerak deb hisoblaymiz. Ularni qiziktirish uchun ularga

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

savollar berib ushbu savollarga Internet manbalardan foydalanishni tavsiya qilish va olingan natijalarni birga kurib chikib, kerak bo‘lsa raxbanlantirish maqsadga muvofiqdir.

Farzandlari maktabning katta sinflarida bo‘lsa Internet imkoniyatlaridan foydalanib ularni kasb tanlashga yoki xunar o‘rganishga jalb qilish kerak. Nima bo‘lganda ham ota-ona farzandlarni tinglash va xulosalar qilish va kerakli maslahatlar berish. Chunki farzanlariz siz va boshqa mutaxassislar tomonidan Internet xavfsizligi bo‘yicha berilayetgan ma’lumotlarni tinglab, o‘ziga yetarli xulosa chikara olsa, Internetdan xavfsiz foydalalanadi.

Shunday qilib, internet muhitida yuzaga kelayotgan xatarlar va kiberxujumlarning oldini olish, bolalarning raqamli xavfsizligini ta’minlashda ota-onalarning faol ishtiroki va mas’ulligi ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoxlova N.I. “Obespecheniye detskoy bezopasnosti v Internete: rossiyskiy opыt i zarubejnыe initsiativы”. // Informatsiya: problemы i resheniya. № 7.2012. S. 34-41.
2. Solodyankina D.S. “Perspektivы ispolzovaniya zarubejnogo opыta i stran SNG dlya sovershenstvovaniya zakonodatelstva o zaщite detey ot informatsii”. // Informatsionnaya bezopasnost. 2018. № 4-5. S. 12-20.
3. Dumcheva A.G. “Obespecheniye bezopasnosti detey i podrostkov v seti «Internet”: osnovaniya i prinsipы». // Metodicheskiye rekomendatsii. Sentr internet-bezopasnosti. 2019. S. 5-28.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

SINFDAN TASHQARI TADBIRLARDA BADIIY GIMNASTIKA SPORT TURI BO‘YICHA RAQAMLI TA’LIM-TARBIYA MASALALARINING AHAMIYATI

Latipova Nigoraxon Isakovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sinfdan tashqari tadbirlarda badiiy gimnastika sport turi bo‘yicha raqamli ta’lim va tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarning texnik mahoratini rivojlantirish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish, masofaviy o‘quv jarayonlarini tashkil etish, monitoring tizimlari va motivatsiyani ta’minlash masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *badiiy gimnastika, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, raqamli ta’lim, raqamli tarbiya, innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalari, masofaviy ta’lim, videoanaliz, raqamli, platformalar, sport texnikasi, monitoring tizimi, mustaqil o‘qish, motivatsiya, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy rivojlanish, pedagogik samaradorlik, raqamli kompetensiya, sport texnologiyalari, interaktiv metodlar*

Аннотация. *В этой статье рассматривается важность цифрового обучения и воспитания художественной гимнастики как вида спорта во внеклассных мероприятиях. Проанализированы вопросы развития технического мастерства учащихся с помощью цифровых технологий, повышения эффективности обучения, организации процессов дистанционного обучения, систем мониторинга и обеспечения мотивации.ннотация. В этой статье рассматривается важность цифрового обучения и воспитания художественной гимнастики как вида спорта во внеклассных мероприятиях. Проанализированы вопросы развития технического мастерства учащихся с помощью цифровых технологий, повышения эффективности обучения, организации процессов дистанционного обучения, систем мониторинга и обеспечения мотивации.*

Ключевые слова. *художественная гимнастика, внеклассные занятия, цифровое обучение, цифровое воспитание, инновационные технологии, мультимедийные инструменты, дистанционное обучение, видеоанализ, цифровое, платформы, спортивная техника, система мониторинга, самостоятельное обучение, мотивация, здоровый образ жизни, физическое развитие, педагогическая эффективность, цифровая компетентность, спортивные технологии, интерактивные методы*

Annotation. *This article covers the importance of digital education and training in the sport of rhythmic gymnastics in extracurricular activities. Through digital technologies, issues of developing students ' technical skills, improving the effectiveness of training, organizing distance learning processes, monitoring systems and ensuring motivation have been analyzed.nnotation. This article covers the importance of digital education and training in the sport of rhythmic gymnastics in extracurricular activities. Through digital technologies, issues of developing students ' technical skills, improving the effectiveness of training, organizing distance learning processes, monitoring systems and ensuring motivation have been analyzed.*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

Keywords. *rhythmic gymnastics, extracurricular activities, digital education, digital education, innovative technologies, multimedia tools, distance education, videoanalysis, digital, platforms, sports techniques, monitoring system, independent study, motivation, healthy lifestyle, physical development, pedagogical efficiency, digital competence, sports technologies, interactive methods*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'limning barcha bo‘g‘inlariga chuqur kirib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari, jumladan badiiy gimnastika ham zamonaviy raqamli vositalar orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishi, motivatsiyasi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari va sport texnikasini o‘zlashtirish sifatini oshiradi. Mazkur maqolada sinfdan tashqari tadbirlarda badiiy gimnastika bilan shug‘ullanish jarayonida raqamli ta’lim-tarbiya masalalarining ahamiyati va imkoniyatlari tahlil etiladi.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari innovatsion vositalar bilan boyitilmoqda. Badiiy gimnastika kabi murakkab harakatlar majmuini o‘z ichiga olgan sport turlari raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali yanada samarali o‘zlashtirilmoqda. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi o‘quvchilarning nafaqat texnik tayyorgarligini, balki tarbiyaviy sifatlarini rivojlantirishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’limning badiiy gimnastikadagi o‘rni juda beqiyosdir.

1. Vizual o‘rganish imkoniyatlari. Badiiy gimnastika murakkab harakatlar, moslashuvchanlik, muvozanat va koordinatsiya talab etadi. Raqamli vositalar – videodarslar, 3D harakat modellari, sekinlashtirilgan tasvirlar (slow motion) gimnastikaga oid elementlarni aniq ko‘rish va o‘rganish imkonini beradi. Vizual o‘rganish o‘quvchilarning texnik xatolarini tezda bartaraf etishiga ko‘maklashadi.

2. Masofaviy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish. Onlayn platformalar orqali sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni masofaviy tarzda davom ettirish imkoni mavjud. Bu sportchilarni pandemiya, ta’til yoki boshqa sabablarga ko‘ra mashg‘ulotlardan chetda qolishining oldini oladi. Masofaviy darslar orqali murabbiylar har bir o‘quvchining individual ishlash jarayonini kuzatishi mumkin.

3. Raqamli nazorat va monitoring. Mobil ilovalar va sport dasturlari yordamida quyidagi ko‘rsatkichlarni nazorat qilish osonlashdi:

- cho‘zilish (stretching) darajasi,
- mashqlarni bajarish davomiyligi,
- yurak urish tezligi,

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

- texnikani baholash.

Bu ma’lumotlar murabbiy va o‘quvchiga o‘z ustida samarali ishlash imkonini beradi. Sinfdan tashqari tadbirlarda raqamli tarbiyaning o‘rni juda muhimdir. Raqamli platformalarda individual topshiriqlar, mashq videolari va nazorat ro‘yxatlari berilishi o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, vaqtni rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu tarbiyaviy jihatdan muhim omil hisoblanadi. Interaktiv videolar, sportchilar hayoti haqidagi hujjatli filmlar va motivatsion kontent o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga qiziqish uyg‘otadi. Raqamli tarbiya orqali sportga ijobiy munosabat, intizom va qat’iyat kabi fazilatlar mustahkamlanadi. Onlayn guruh mashg‘ulotlari, virtual musobaqalar va loyiha ishlari gimnastikachilar o‘rtasida hamkorlik, muloqot va o‘zaro hurmat madaniyatini shakllantiradi. Bu tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik afzalliklari quyidagicha:

- O‘quv jarayonining samaradorligi oshadi – texnik elementlarni tez va aniq o‘zlashtirish imkonini beradi.
- Xatolarni tahlil qilish osonlashadi – videoanaliz yordamida harakatlar to‘g‘rilanadi.
- Shaxsiy yondashuv kuchayadi – har bir o‘quvchi uchun individual dastur tuzish mumkin.
- Ota-onalar bilan hamkorlik rivojlanadi – raqamli kuzatuvlar orqali ularning farzandlari mashg‘ulotlaridan habardor bo‘lishi ta’minlanadi.
- Vaqt va resurslar tejaydi – murabbiy bir nechta guruh bilan samarali ishlay oladi.

Muammolar va ularni hal etish yo‘llari quyidagilardan iborat.

A) Raqamli vositalarga hamma o‘quvchilarning bir xil darajada ega emasligi.

B) Murabbiylar uchun texnologiyalarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar.

C) Internet sifati va texnik ta’minot masalalari.

Hal etish yo‘llariga maktablar va sport maktablarida raqamli infratuzilmani yaxshilash. Murabbiylar uchun maxsus raqamli kompetensiya treninglarini tashkil etish. O‘quvchilar uchun bepul yoki arzon kontentlar, mobil ilovalar yaratish.

Xulosa. Sinfdan tashqari tadbirlarda badiiy gimnastika bo‘yicha raqamli ta’lim va tarbiyani qo‘llash bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega. Raqamli vositalar o‘quvchilarning texnik mahoratini oshirish, mashg‘ulotlar sifatini yaxshilash, motivatsiyani kuchaytirish va tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari tadbirlarda badiiy gimnastika bo‘yicha raqamli ta’lim va

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tarbiyani qo‘llash sportchilarning texnik, jismoniy va tarbiyaviy rivojlanishini yangi bosqichga ko‘taradi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil va jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vositadir. Zamonaviy pedagogika jarayonida raqamli ta’limdan foydalanish istiqboldagi sportchilarni tayyorlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida sportning o‘rni va ta’sirini yanada kuchaytiradi hamda raqobatbardosh gimnastikachilarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. "Sog‘lom avlod — yurt kelajagi." Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Latipova N.I. O‘quvchi-yoshlarda jismoniy tayorgarligini rivojlantirishning pedagogik faoliyatdagi o‘rni // Scientific bulletin of NamSU. – N., 2023. – 1-son
3. Xolmatova N., Qayumova G. *Badiiy gimnastika nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: TDPU, 2021.
4. Latipova N.I. Jismoniy madaniyatni sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar. – T., 2022.
5. Turaboev A. *Jismoniy tarbiya va sportda raqamli texnologiyalar*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
6. World Gymnastics Federation (FIG). *Digital Tools in Artistic Gymnastics Training*, 2020.
7. Qodirova M. “Raqamli ta’limning jismoniy tarbiyadagi o‘rni.” — *Ta’lim va innovatsiya jurnali*, 2023.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

O‘QUVCHILARDA HARBIY-VATANPARVARLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV DASTURLARNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Matayev Elyor Dilmonovich
DXX “Temurbeklar maktabi” HAL informatika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida interaktiv dasturlar va raqamli pedagogika texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-didaktik asoslari tahlil etiladi. Raqamli o‘quv muhitida qo‘llaniladigan o‘yinlashtirish elementlari, simulyatorlar, elektron mashq modullari va multimediya vositalarining tarbiyaviy hamda o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy-vatanparvarlik, kompetensiya, raqamli pedagogika, interaktiv dasturlar, o‘yinlashtirish texnologiyalari, simulyatorlar, multimediya vositalari, raqamli o‘quv muhit, pedagogik samaradorlik.*

Аннотация. *В статье анализируются теоретико-дидактические основы использования интерактивных программ и технологий цифровой педагогики в процессе формирования военно-патриотической компетентности. На основе научных источников изучены воспитательный потенциал и активизирующие возможности игровых элементов, симуляторов, электронных тренировочных модулей и мультимедийных средств, применяемых в цифровой образовательной среде.*

Ключевые слова: *военно-патриотизм, компетентность, цифровая педагогика, интерактивные программы, игровые технологии, тренажеры, мультимедийные средства, цифровая среда обучения, педагогическая эффективность.*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim omilga aylanmoqda. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi esa yosh avlodda Vatanga sadoqat, mas’uliyat, irodaviy tayyorgarlik va milliy o‘zlikni anglash kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning samarasi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining zamonaviyligi, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantira oladigan texnologik vositalar bilan to‘laqonli integratsiyasiga bog’liq.

Raqamli pedagogika konsepsiyasi o‘quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va axborotga boy shaklga keltirishga xizmat qilmoqda. Interaktiv dasturlar, gamifikatsiya elementlari, simulyatorlar, elektron mashq modullari va multimediya resurslari o‘quvchi faoliyatini faollashtirib, real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan o‘quv muhitini yaratadi. Bu esa harbiy-vatanparvarlik mazmunini

qabul qilishni osonlashtirib, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda yo‘l topish kabi amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, interaktiv yondashuvlarning qo‘llanilishi tarbiyaviy jarayonning motivatsion jihatlarini kuchaytiradi. O‘quvchi o‘yin elementlari, vizual modellar, virtual mashqlar orqali jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi, bu esa vatanparvarlik qadriyatlarining yanada chuqurroq singdirilishiga xizmat qiladi. Raqamli vositalarning shu kabi imkoniyatlari harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasi shaxsning ma’naviy-axloqiy qarashlari, fuqarolik pozitsiyasi, irodaviy sifatlari va amaliy faoliyatga tayyorgarligini o‘zida mujassamlashtiruvchi ko‘p komponentli pedagogik kategoriya hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ushbu kompetensiya tarkibi odatda kognitiv (bilimlar majmui), affektiv (qadriyatlar va motivlar), konativ (xulq va faoliyatga tayyorgarlik) hamda kommunikativ komponentlar orqali izohlanadi. Ushbu tarkibning to‘laqonli shakllanishi o‘quv jarayonida samarali metod va texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi.

Raqamli pedagogika nazariyasi o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan konseptual yo‘nalish bo‘lib, interaktivlik, multimodal ta’lim, shaxsga yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik kabi tamoyillarga tayangan holda rivojlanadi. Interaktiv o‘quv vositalari — simulyatorlar, elektron modullar, virtual muhitlar, o‘yinlashtirish elementlari — o‘quvchini faollashtirish, bilimni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

Gamifikatsiya texnologiyalarining nazariy asosida motivasiya psixologiyasi, rag’batlantirish tizimi, bosqichli o‘rganish hamda raqobat orqali faollashtirish kabi tamoyillar yotadi. Bu yondashuv o‘quvchi faoliyatini tabiiy ravishda kuchaytiradi, mustaqil o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va jarayonning mazmunan chuqurroq anglashga yordam beradi. Simulyatorlar esa murakkab vaziyatlarni xavfsiz, nazorat qilinadigan virtual muhitda modellashtirish orqali amaliy tayyorgarlik elementlarini kuchaytiradi. Ular tezkor fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoaviy harakatni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, interaktiv dasturlar va raqamli pedagogika texnologiyalarining nazariy asoslari ularni harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishda qo‘llash uchun keng metodik imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. Mazkur nazariy

QOBIL NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

yondashuvlar o‘quv jarayonini zamonaviy, interaktiv va o‘quvchi faolligiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishning konseptual poydevorini shakllantiradi.

Raqamli o‘quv muhitida qo‘llaniladigan interaktiv simulyatsiyalar pedagogik jarayonning vizual, tajribaviy va faol ishtirok asosida tashkil etilishini ta’minlaydi. Bunday vositalar o‘quvchilarda harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatni baholash, xavfsiz harakat qilish va tezkor qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. *PhET Interactive Simulations* platformasidagi “Projectile Motion”, “Forces and Motion” hamda “Energy Skate Park” simulyatsiyalari harbiy-amaliy jarayonlarga bevosita mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, ular orqali modellashtiriladigan fizik jarayonlar harbiy faoliyatga yaqin bo‘lgan vaziyatlarni nazariy asosda tushunish imkonini beradi.

“Projectile Motion” simulyatori: trayektoriya va qaror qabul qilishni o‘rgatish. “Projectile Motion” simulyatori jismning burchak ostida uchish trayektoriyasini modellashtiradi. Boshlang’ich tezlik, burchak, havoning qarshiligi va tortishish kuchi parametrlari o‘zgartirilishi orqali o‘quvchi harakat trayektoriyasining shakllanishini tahlil qiladi. Harbiy-amaliy jarayonlarda o‘q-dori, snaryad yoki granataning uchish masofasi va yo‘nalishini oldindan baholash aynan shu fizik qonunlarga asoslanadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

“Forces and Motion” simulyatori: harakat va muvozanatni tushuntirish. “Forces and Motion” simulyatori kuchlar ta’siridagi harakat qonuniyatlarini interaktiv tarzda namoyish etadi. Itarish va tortish kuchlari, ishqalanish, massa, tezlanish kabi jarayonlarni boshqarish orqali o‘quvchi harakatning boshlanishi, tezlashuvi va to‘xtash mexanizmlarini o‘rganadi. Bu jarayonlar harbiy texnikaning harakati, jismoniy mashg’ulotlar va yuk tashish kabi amaliy faoliyatlarning fizik asosini tashkil etadi.

“Energy Skate Park” simulyatori: energiya almashinuvi va strategik holatni baholash. “Energy Skate Park” simulyatori potentsial va kinetik energiyaning almashinuvi, balandlikning energiyaga ta’siri, ishqalanishning natijaga ta’siri kabi jarayonlarni modellashtiradi. Harbiy-amaliy faoliyatda relyefni baholash, balandlikdan foydalanish, tezlik va energiya zaxirasini boshqarish muhim bo‘lgan vaziyatlarda ushbu bilimlar asosiy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida interaktiv dasturlarni qo‘llash mexanizmlari. Raqamli ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun ularning didaktik imkoniyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan holda rejalashtirish zarur. Interaktiv simulyatorlar bilan ishlash jarayoni o‘quvchi faoliyatini faollashtirish, mustaqil izlanishni kuchaytirish va nazariy bilimlarni amaliy tahlil orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy-vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida bu vositalarni qo‘llash quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

1. Ta’lim jarayonining bosqichlari bo‘yicha integratsiya

Motivatsiya bosqichi	Interaktiv simulyatorlardan foydalanish darsning kirish qismida o‘quvchilarni mavzuga jalb etish, real hayotga bog’langan vizual holatlarni taqdim etish va qiziqish uyg’otishga xizmat qiladi. Masalan, “Energy Skate Park” simulyatori yordamida energiya almashinuvi jarayonini kuzatish o‘quvchini mavzuga tez kirishiga imkon beradi.
Yangi bilimlarni o‘zlashtirish bosqichi	Simulyatorlar mavzuning asosiy ilmiy mazmunini amaliy ko‘rinishda ochib beradi. “Forces and Motion” orqali kuchlar muvozanati, “Projectile Motion” orqali trayektoriya shakllanishi tushuntirilishi o‘quv materialini aniq vizual asos bilan mustahkamlaydi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Mustahkamlash va mashq bosqichi	O‘quvchilar simulyator parametrlarini mustaqil o‘zgartirib, o‘z tajribalarini o‘tkazadilar — bu esa tahlil, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, uchish burchagini o‘zgartirish orqali masofa qanday o‘zgarishini tahlil qilish.
Nazorat va refleksiya bosqichi	Simulyatorlardan olingan natijalar asosida kichik test, tahliliy savollar yoki qisqa yozma xulosa orqali o‘quvchi o‘z o‘rganish darajasini baholaydi. Bu bosqichda o‘quvchining o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasi rivojlanadi.

2. Pedagogik sharoitlar. Interaktiv dasturlarni o‘zlashtirish samaradorligi quyidagi shartlarga bog’liq:



3. *Interaktiv simulyatorlar orqali harbiy-vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi*

Harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasi ko‘p komponentli bo‘lib, interaktiv simulyatorlar ularni quyidagi tarzda rivojlantiradi:

Kognitiv komponent	•Fizik qonuniyatlar asosida harakatni baholash; •energiya, trayektoriya, kuchlar muvozanatini anglash; •tahliliy fikrlashni chuqurlashtirish.
Amaliy komponent	•modellashtirilgan vaziyatlarga qarab qaror qabul qilish; •jarayonni boshqarish va natijani kuzatish; •vaziyat tahlili asosida amaliy xulosa chiqarish.

Motivatsion komponent	•o‘quvchida harbiy xizmatga, texnikaga, strategik fikrlashga qiziqishni kuchaytirish; •faol ishtirok va muvaffaqiyat hissi orqali o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosibatni shakllantirish.
Irodaviy-psixologik komponent	•mas’uliyat, diqqat, intizom; •bosim ostida to‘g’ri qaror qabul qilishga o‘rgatish; •xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

4. *Simulyatorlar asosida mashg’ulotni tashkil etish modeli*

a) *Mavzuni tushuntirish* – o‘qituvchi jarayonni qisqa nazariy asoslaydi.

b) *Simulyatsiyani namoyish qilish* – o‘quvchilarga dastlabki sharoitlar ko‘rsatiladi.

c) *Mustaqil tajriba* – o‘quvchilar parametrlarni o‘zgartirib, natijalarni qayd etadi.

d) *Tahlil va taqqoslash* – o‘quvchilar o‘z tajribalarini solishtiradi.

e) *Xulosa va harbiy-amaliy bog’liqlik* – olingan natijalar real hayotdagi taktik holatlar bilan bog’lanadi.

f) *Refleksiya* – o‘quvchi “men nimani o‘rgandim?” degan savolga javob beradi.

g) Bu model harbiy-vatanparvarlik ta’limining zamonaviy raqamli yondashuvga mos tashkiliy shaklini belgilaydi.

Interaktiv simulyatsiyalar zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyatini faollashtiruvchi, murakkab jarayonlarni soddalashtiruvchi va tahliliy fikrlashni kuchaytiruvchi samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarda harbiy-vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishga nazariy jihatdan asoslangan, ilmiy-didaktik imkoniyatlar yaratadi. PhET platformasidagi *“Projectile Motion”, “Forces and Motion”* va *“Energy Skate Park”* simulyatsiyalari orqali o‘quvchilar harakat, energiya almashinuvi, trayektoriya va kuchlar muvozanati kabi fundamental jarayonlarni vizual va tajribaviy tarzda o‘zlashtiradilar. Bu jarayonlar harbiy-amaliy faoliyatda uchraydigan vaziyatlarga yaqin bo‘lgan holatlarni modellashtirishga xizmat qiladi.

Simulyatorlardan foydalanish o‘quvchilarning kognitiv, amaliy, motivatsion va irodaviy-psixologik kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi. Jumladan, trayektoriya va kuchlar tahlili o‘quvchilarning strategik fikrlashini shakllantiradi, energiya almashinuvi modellashtiriladigan vaziyatlar esa xavfsiz harakatlanish

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
HARBIY PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

madaniyatini, mas’uliyat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy komponentlarini, jumladan mas’uliyat, tashabbuskorlik, vatanga munosabat va jamoada ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, interaktiv dasturlarni dars jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, ularni amaliy mashqlar bilan boyitish va refleksiv tahlil asosida yakunlash o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchi simulyatsiya orqali o‘z mustaqil tajribalarini yaratishi, natijalarni tahlil qilishi va xulosaga kelishi ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvini kuchaytiradi.

Shunday qilib, interaktiv simulyatorlar harbiy-vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik jihatdan asoslangan, zamonaviy pedagogik talab va texnologiyalarga javob beradigan samarali raqamli vosita sifatida yuqori ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish tartibi to‘g’risida”gi Nizom. – O‘zbekistonRespublikasi Mudofaa vazirligi nashri, 2021.
3. Temirov O‘.H. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. – Solution of social problems in management and economy, 3(6), 105-109, 2024.
4. Jalolov L. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Икро jurnal, 15(01), 717–719, 2025.
5. Bainiyazov D. Raqamli pedagogikaning ta’limdagi ahamiyati. Studentlerdi birlestiriw: xalíqaralíq izertlewler hám pánler boyinsha birge islesiw 1-xalíqaralíq studentler konferenciyasí. Nókis, 2025-JÍL 20-21-MAY. 302-305 betlar, 2025.
6. PhET Interactive Simulations. [Elektron resurs]. – University of Colorado Boulder, 2024.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI AVLODDA MILLIY TARBIYA G‘OYASINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Musurmonkulov Oybek Urolovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Yetakchi ilmiy xodimi, Loyiha ishtirokchisi, p.f.f.d.PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va raqamli muhitning yoshlar axloqiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Axborot xurujlari kuchaygan bugungi sharoitda milliy tarbiyaning ahamiyati, uning yoshlarda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, «milliytarbiya.uz» elektron platformasining raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tarqatishdagi roli atroflicha ochib berilgan. Bolalar kontentini rivojlantirish markazining yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilish va ularda milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyati tahlil etilgan. Yaponiyaning “ahloqiy tarbiya” tajribasi asosida milliy qadriyatlər va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Maqola global raqamli jarayonlar sharoitida yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy xulosalarni qamrab oladi.*

Kalit so‘zi: *globallashuv, raqamli muhit, yoshlar axloqi, milliy tarbiya, g‘oyaviy immunitet, axborot xurujlari, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, oila–maktab–mahalla hamkorligi, raqamli kontent, milliy o‘zlik va vatanparvarlik tarbiyasi*

Аннотация. *В данной стате проводится научный анализ протсессов глобализатсии и влияния сифровой среды на нравственност молодежи. В современных условиях усиления информатсионных атак освещается значение натсионалного воспитания, его рол в формировании идеологического иммунитета у молодежи. Также подробно раскрыта рол электронной платформы "миллийтарбия.уз" в создании и распространении натсионалного образователного контента в сифровой образователной среде. Проанализирована деятелност сентра развития детского контента, направленная на защиту молодежи от негативной информатсии и укрепление у них натсионалной идентичности. На основе опыта "нравственного воспитания" Японии научно обоснована необходимост гармонизатсии натсионалных сенностей и современных педагогических подходов. В стате содержатся практические выводы по эффективной организатсии воспитания молодежи в условиях глобалных сифровых протсессов.*

Ключевые слова: *глобализатсия, сифровая среда, молодежная этика, натсионалное воспитание, идеологический иммунитет, информатсионные атаки, духовно-нравственное воспитание, сотрудничество семя-школа-махалля, сифровой контент, воспитание натсионалной идентичности и патриотизма.*

Annotation. *This article provides a scientific analysis of globalization processes and the impact of the digital environment on youth morality. In today's conditions of increased information attacks, the importance of national upbringing and its role in the formation of ideological immunity in young people are highlighted. The role of the electronic platform "milliytarbiya.uz" in the creation and dissemination of national educational content in the digital educational environment*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

is also revealed in detail. The activities of the Center for the Development of Children's Content, aimed at protecting young people from negative information and strengthening their national identity, are analyzed. Based on the experience of Japan in "moral education," the necessity of harmonizing national values and modern pedagogical approaches has been scientifically substantiated. The article covers practical conclusions on the effective organization of youth education in the context of global digital processes.

Keywords: *globalization, digital environment, youth morality, national upbringing, ideological immunity, information attacks, spiritual and moral education, family-school-mahalla cooperation, digital content, national identity and patriotic education*

Ma’lumki, yoshlar tarbiyasi sohasining ilmiy-metodik ta’minotini amalga oshirish, buyuk allomalarimiz va jadidlarning ushbu yo‘nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish asosida zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish, o‘quvchilar tarbiyasi masalasida mahalla va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlash, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun ushbu mavzuga oid o‘quv va ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyun oyida “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti”ni tashkil etish to‘g‘risida qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga muvofiq, ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yoshlar tarbiyasiga oid raqamli kontentlarni joylashtirish va tarbiya samaradorligini oshirish uchun **«milliytarbiya.uz»** elektron platformasi yaratilib, raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarining yoshlar ahloqiga ta’sirini oshirish hamda zamonaviy va qiziqarli kontentlar joylashtiriladi.

Institutning yetakchi olimlari tomonidan raqamli ta’lim muhitiga mos ravishda metodik tavsiyalar asosida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast, videokontentlar yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda “globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta’kidlandi” - deya so‘z yuritgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev.

Hozirgi globallashuv jarayonida yosh avlod ongida turli axborot xurujlariga qarshi g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan munosib tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va o‘zlikni anglash hissini shakllantirish

mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Farzandlarimizni milliy o‘zligimiz mezonlariga zid bo‘lgan kontentlarning salbiy ta’siridan va salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlardan himoya qilish, shuningdek, ularni ta’limga keng jalb etish, kasbga yo‘naltirish hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashbbusi bilan “Bolalar kontentini rivojlantirish markazi” tashkil etildi.

Shuni ta’kidlash joizki globallashuv jarayoni yoshlar axloqiga ta’siri shu qadar kuchayib ketdiki, endilikda mazkur jarayonni nazorat qilish mumkin bo‘lmay qoldi. Lekin bu jarayonda Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Bugun yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va mavqeini yanada yuksaltirish o‘ta muhim masaladir.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: bu hodisani pedagogik jihatdan tahlil etishda qanday mezonlar bilan yondashgan ma’qul, umuman, uni ijobiy va salbiy tomonlari aynan nimalarda yaqqol namoyon bo‘ladi? Bunday murakkab vaziyatda yoshlarning ahloqiy tarbiyasini yuksaltirish orqali ularga milliy qadriyatlarimizga asoslangan yangi zamon tafakkurini singdirish qanday kechadi?

Dastavval, Yaponiya tajribasiga to‘xtalib o‘taylik. Bu mamlakatda tarbiyaning g‘oyat samarali va ta’sirchan usuli ishlab chiqilgan. Uni amalga oshirish uchun tayanch joy sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablari tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi “ahloqiy tarbiya” tizimi doirasida amalga oshiriladi. Tizimining nomlanishiga e’tibor bering - “Xarakterni shakllantirishga yunaltirilgan ta’lim”, “Davlat uchun maqbul ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”, “Fuqarolik ahloqi asoslarini tarbiyalash”. Aslida bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o‘taydi. Undan qudratli mafkuraviy ta’sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. «Ahlokiy tarbiya» usuliga ko‘ra Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishi shunchaki salbiy illat, deb hisoblanmaydi, balki Vatanga hiyonat deb qabul qilinadi.

Xo‘sh, bizda bu masalalarning huquqiy va ma’naviy mezonlari, me’yorlari mavjudmi? Biz bu savolga baralla ha, deb javob bera olamiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ortib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Reespublikasi Preezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilingan.

Globallashuv jarayoni axborot asri, axborot dunyosi madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Globallashuvning bu qadar tezlashib, kuchayib ketishi ham shularga bog‘liq. Axborot jamiyati shakllanayotgan sharoitda, radio va telefonlar, televizorlar va kompyuterlar, Internet xalqaro axborot tizimi va ixtisoslashgan tarmoqlar nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasiga, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, balki uning ma’naviy-ahloqiy hayotiga ham tobora kuchli va murakkab ta’sir ko‘rsatayotgan paytda madaniyatga texnikaning ta’siri masalasi o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Madaniyatga texnika salbiy ta’sir ko‘rsatadi degan fikrni qo‘llab-quvvatlab, faylasuf X.Ortega-i-Gasset shunday deb qayd etadi: «Texnika, bir tomondan, insonga muayyan, mohiyat e’tibori bilan, cheksiz qobiliyat ato etgani holda, boshqa tomondan, inson hayotida juda katta bo‘shliq hosil bo‘lishiga olib keladi, har bir odamni faqat va faqat texnikaga ishonib yashashga majbur qiladi... Shu bois bizning o‘ta texnikaviy hozirgi davrimiz o‘ta mazmunsiz bo‘lib qoldi». Ayrim olimlar esa texnika madaniyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi degan fikrni ilgari surmoqdalar. Chunonchi, 1982 yilda AQShda Mikroelektronika va kompyuter texnikasi korporatsiyasiga asos solgan I.Faygenbaumning fikriga ko‘ra, axborot jamiyatini vujudga keltiruvchi kompyuter inqilobini mantiqiy fikrlaydigan mashinalar amalga oshiradi. Yaqin kelajakda kompyuter sistemalarini bilmagan odam intellektuallikka da’vogar bo‘la olmaydi deya ta’kidlgan.

Ko‘rib o‘tilganidek, aslida globallashuvdan hadiksirab, sarosimaga tushib qolish shart emas. Aksincha, bu jarayonga ruhan tayyor turgan holda yoshlar tarbiyasini milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida tashkil etish zarur. Lekin, masalaning boshqa bir tomoni ham bor: psixologik nuqtai nazardan bola yetilish jarayonida yashirin va noma’lum axloqiy rivojlanishning uchta bosqichini o‘z boshidan kechiradi. Birinchidan, shartsiz-noan’anaviy bosqichda atrofdagilarni o‘ziga qaratishga intilish, xudbinlik va individualizmga xos belgilar paydo bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda individium va jamiyatning o‘zaro aloqalari bola tomonidan anglanadi. Uchinchi bosqichda bolaning jamiyatiga kirib kelishi va uni ayrim tomonlarini tanqid qilishga qodir bo‘lgan axloqiy-baholash fazilatlari shakllanadi. Shaxs tarbiyasidagi eng nozik, eng murakkb davrda kechadigan ana shu bosqichlarni umumlashtirib, ijtimoiylashuv, deb atalsa bo‘ladi. Demak, ahloqiy tarbiyaning ibtidosi bolaning ijtimoiylashish davriga to‘g‘ri keladi. Amalda esa ko‘ngilochar

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tomoshalar ko‘paygandan ko‘payib, aholining yettidan yetmishigacha ularning jozibasidan esankirab, qay birini tanlashni bilmay dovdirab yurgan bir zamonda masalaning murakkab jihatlariga diqqatini qaratmaydi. Bolam sog‘alom bo‘lsa bas, qabilida fikrlaydi. Ya’ni, murg‘ak farzandlarimizning jismoniy tarbiyasi birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda, ma’naviy, ahloqiy tarbiya bir qadar sustroq... Bizningcha, globallashuv jarayonida, avvalo, mana shu jihatlarga e’tibor qaratilmog‘i shart.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunning talab va ehtiyojlaridan kelib chikib, ma’naviy-ahloqiy tarbiya borasida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq, deb bilaman:

- Yoshlarga bo‘lgan munosabatda soxtalikka yo‘l qo‘ymaslik;
- Demokratiya mazmun-mohiyatini atroflicha tushuntirib borish;
- E’tiqodni mustahkamlash va irodani toblashning zamonaviy usul va vositalarini izlash;
- Yoshlarda milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish hamda asrab-avaylash tuyg‘usini mustahkamlash;
- Ahloqiy ta’lim va tarbiya jarayonida oila instituti rolini yanada yuksaltirish choralarini ko‘rish;
- Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va rolini huquqiy jihatlariga e’tibor qaratish. Ya’ni, bu borada ularga muayyan huquqiy vakolat berish;
- An’anaviy ustoz-shogird tizimini jonlantirish;
- Maktabgacha ta’lim maskanlarining faoliyatini takomillashtirish kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuksak ma’naviyatdan, u qaysi xalq tafakkurinig maxsuli bo‘lishidan qat’i nazar, bahramand bo‘lishni har qaysimiz xohlaymiz. Madaniyati yuksak millatlarning ma’naviy hazinasi bilan dunyoqarashimizni boyitsak jahoniy fikrlash ko‘nikmasi rivoj topishi shubhasiz. Lekin, afsuski, hamisha ham shunday bo‘lavermaydi. Gohida biz uchun jozibali, qiziqarli ko‘ringan narsalar mohiyatan kishini manqurt qilishga, fikrlash dangasaligini uyg‘otishga xizmat qilishi mumkin.

Umumbashariy madaniyat va ahloqiy kadriyatlar insonning ongu shuurini nurafshon etadi, qalni poklaydi. Millat tafakkurini yuksaltiradi. Biroq vayronkor g‘oyalarning bir dasta gul ichida o‘tkir hanjar yanglig‘ yashirinib turishi globallashuvning salbiy jihatlari ham borligini esga soladi. Chetdan kelayotgan mafkuraviy hurujlar globallashuvning iliq, yoqimli shabadasini dahshatli bo‘ron-u dovulga aylantirib yuborishini oldini olish darkor.

Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev shunday degan “Agar biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o‘z qo‘limizga

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo‘lamiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
2. Quronov M. Milliy tarbiya. T.: Ma’naviyat, 2007. – B. 220
3. Ortega-i-Gasset. Izbrannыe trudы. M., 1997, s. 221.
4. https://kun.uz/kr/news/2024/04/15/ozbekistonda-milliy-kontent-yaratishdagi-muammolar-muhokama-qilindi.
5. https://president.uz/uz/lists/view/6967.
6. https://lex.uz/docs/5344692?ONDATE=03.12.2022

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

KASBIY SHAKLLANISHDA O‘QUVCHI-YOSHLAR BILIMINI BAHOLASH

Musurmonov Sharif Majidovich
Samarqand viloyat Oqdaryo tuman 1-son Politexnikumi O‘.I.B.D.O‘
Qaraxonova Shaxnozaxon Musaxonovna
Samarqand viloyati Oqdaryo tuman 1-son Politexnikumi Ishlab chiqarish talimi ustasi

Annotatsiya. *Maqolada o’quvchilarning standartlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajasini baholash va monitoring qilishning muhim vazifasi - bu O’quvchi egallashi kerak bo'lgan kasbiy tayyorgarlik darajasiga, uning ilmiy dunyoqarashiga, ekologik va axloqiy tarbiyani shakllantirishga qo'yiladigan minimal talablarga javob beradigan bilim ko'rsatkichlarini jamiyat tomonidan baholashning ijtimoiy-psixologik masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *o'zlashtirish, bilim, ko'nikma va malaka, baholash, baholashning milliy tizimi, baholashning ijtimoiy psixologik jixatlari*

Аннотация. *В статье раскрыта важная задача оценки и контроля уровня освоения стандартизированных знаний, умений и квалификации обучающихся - социально-психологические вопросы оценки обществом показателей знаний, отвечающих минимальным требованиям к уровню профессиональной подготовки, которую должен приобрести обучающийся, его научному мировоззрению, формированию эколого-нравственного воспитания.*

Ключевые слова: *усвоение, знания, навыки и компетенции, оценка, национальная система оценивания, социально-психологические аспекты оценивания*

Annotation. *The article reveals the important task of assessing and monitoring the level of mastery of standardized knowledge, skills and qualifications of students - socio-psychological issues of society's assessment of knowledge indicators that meet the minimum requirements for the level of professional training that a student must acquire, his scientific worldview, and the formation of environmental and moral education*

Key words: *assimilation, knowledge, skills and competencies, assessment, national assessment system, socio-psychological aspects of assessment*

III Renesans jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan hozirgi kunda mamlakatimizdagi ta’lim tizimi oldidagi muhim funksiyalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim, tarbiya berishning yangi va samarali usullarini yaratish, O’quvchilarning bilim darajalariga bo‘lgan talabni ko‘tarish, o‘qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim tizimida O’quvchilarning tabiiy yo‘nalishdagi o‘quv modulilardan savodxonlik darajasini baholashning milliy tizimini yaratish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini tatbiq etish, davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi dolzarb funksiyalarni ilgari surgan. Amaldagi

bakalavriat yo‘nalishi davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari asosan o‘quv materiali va axborotni yodlash hamda bayon qilishga qaratilganligi, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan Nazorat va baholash metodlarini chuqur tahlil etish zaruriyatini talab etadi. Kasbiy shakllanishda ta’lim sifatini ta’minlash O’quvchilar bilimini baholashning ijtimoiy –psixologik jihatlarining tahlili masalaning dolzarbligini belgilaydi.

O’quvchilarning DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning o‘zlashtirish darajasini baholash va nazorat qilishning muhim funksiyasi O’quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablarga javob beradigan va O’quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan bilim ko‘rsatkichlariga egaligini, ularning ilmiy dunyoqarashlarini, ekologik, ahloqiy tarbiyasining shakllanishini baholash hisoblanadi.

Nazorat va baholashning ta’limiy funksiyasining mohiyati shundaki, nazorat va baholash topshiriqlarini bajarish davomida O’quvchilar egallagan bilimlarini tizimlashtiradi, umumlashtiriladi, mukammallashtiradi. O’quvchilar avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi va kutilmagan vaziyatlarda amalda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashi, namoyish etish imkonini beruvchi nazorat va baholash O’quvchilarning nafaqat diqqati, fikrlashi, xotirasining rivojlanishiga, balki bilim doirasining kengayishiga, kognetiv sohani chuqurlashuviga zamin yaratadi. Bu esa ta’limning eng muhim ijtimoiy psixologik jihatidir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Nazorat va baholashning tarbiyaviy funksiyasi haqida so‘z yuritilganda, nazorat va baholash O’quvchi mustaqil ta’limdan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida puxta, mustaqil, muntazam bajarishga undashi va o‘z bilimining baholanishiga doim tayyor bo‘lishlikka o‘rgatishi nazarda tutiladi. Nazorat va baholash O’quvchida burch, majburiyat, javobgarlik, vijdon kabi ahloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Nazorat va baholash jarayonida O’quvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar hamda o‘qituvchi va O’quvchi o‘rtasida hamkorlik munosabatlari shakllanadi.

Nazorat va baholashning rivojlantiruvchi funksiyasi shundaki, Nazorat va baholash orqali o‘qituvchi muntazam ravishda O’quvchilarning zehni, idrok etish xususiyati, xotira va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanganligi, bilim darajasi, ularning yutuqlari va kamchiliklari haqida doim xabardor bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchiga birinchidan O’quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, ikkinchidan har bir O’quvchining o‘ziga xos individual rivojlanish xususiyatlarini

hisobga olgan holda ularning bilish faoliyatini rivojlantirish va har bir O’quvchining o‘zlashtirishini yaxshilashga erishish uchun zarur.

Nazorat va baholashning diagnostik funksiyasining mohiyati O’quvchi-lar bilimi va ko‘nikmalaridagi nuqsonlar, kamchiliklar, bo‘shliqlar, O’quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni tug‘diruvchi sabablar haqida muntazam axborot olish sanaladi. Bunday axborotlar o‘qitishning samarali usullarini tanlash va bu usullarni hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishning yo‘nalishini aniq belgilash imkonini beradi.

O’quvchilarning bilimidagi kuchli va zaif tomonlaridan xabardor bo‘lish o‘qituvchiga o‘z pedagogik mahorati, ish usullari va O’quvchining individual xususiyatlari haqida axborotga ega bo‘lish bilan ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun orientir (mo‘ljal olish) bo‘lib xizmat qiladi. Nazorat va baholashning natijalari o‘qituvchiga O’quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga yo‘naltirishiga yordam bersa, O’quvchilarga esa o‘z xato va kamchiliklarini aniqlab, ularni tuzatishiga yordam beradi. Undan tashqari nazorat va baholash natijalariga ko‘ra ta’lim muassasasi rahbariyati, ota-onalar o‘quv jarayoni samaradorligi haqida axborotga ega bo‘ladilar.

Nazorat va baholashning profilaktik funksiyasi. Ma’lumki, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallari vaqt o‘tgan sari O’quvchilarning xotirasidan chiqadi. Bu O’quvchi bilimi va ko‘nikmalarini ishga solish, ulardan foydalanishga talab bo‘lmasa ayniqsa sezilarli bo‘ladi. O’quvchilar bilimini muntazam nazorat va baholash qilinishi avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda amalda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, mustahkamlash, takrorlash imkonini beradi. Takrorlash esa O’quvchi xotirasini charxlab boruvchi profilaktik chora sifatida nazorat va baholash bilan chambarchas bog‘liq.

O’quvchilar bilimi va malakasini nazorat va baholash qilishning quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Muntazamlilik. Nazorat va baholash ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida barcha o‘qitish shakllari: ma’ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarda O’quvchilarning o‘quv faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda muntazam ravishda tashkil etiladi.

2. Beg‘arazlilik. Nazorat va baholash o‘qituvchining O’quvchilarni chuqur o‘rganmasdan, taxminiy va sub’ektiv fikrlarga asoslanib, yuzaki mulohaza yuritib, noto‘g‘ri xulosa chiqarishini inkor etgan holda O’quvchilar bilimiga to‘g‘ri, shaffoflik, beg‘arazlik bilan, xolisona, aniq fikrlarga asoslanib baho berishni talab

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

etadi. Nazorat va baholash o‘quv jarayonining ma’lum bosqichidagi ma’lum dastur bo‘yicha O’quvchilarning olgan haqiqiy bilimlarini belgilaydi.

3. Keng qamrovlilik. Nazorat va baholash belgilangan dasturning barcha bo‘limlarini qamrab oladi va O’quvchining nazariy bilim, ko‘nikma, malaka, aqliy va intellektual salohiyati, kompetensiyalarining sinovini ta’minlaydi.

4. Individuallilik. Nazorat va baholash har bir O’quvchining bilim darajasini hamda uning o‘quv faoliyati, individual xususiyatlarini kuzatish, o‘rganish imkonini beradi.

Individual mustaqil nazorat va baholash ishlaridan doska oldida javob berishdan tortinadigan, dadil javob bera olmaydigan, jur’atsiz O’quvchilar uchun foydalanish maqsadga muofiq bo‘ladi. Bunday holatlarda O’quvchi o‘ziga topshirilgan funksiyani yaxshi bajarganini ochiq-oydin muhokama qilish bilan O’quvchini qo‘llab-quvvatlash uning o‘z kuchiga ishonchini orttiradi.

5. Tabaqalashgan yondashuv**.** Nazorat va baholash jarayonida modulning, shu modul bo‘limlarining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi, bu xususiyatlardan kelib chiqqan holda nazorat va baholashning turli usullari qo‘llanadi. Bu esa nazorat va baholashning alohida olingan bir usulidan foydalanishda kelib chiqadigan kamchiliklarning yuzaga kelishini bartaraf etadi.

6. O‘quv moduliga tayyorgarlik darajasiga bo‘lgan talablarni hamda O’quvchilarni har tomonlama o‘rganib chiqish asosida nazorat va baholash o‘tkazuvchilar tomonidan nazorat va baholash natijalariga qo‘yiladigan talabning yagonaligi ta’minlanadi.

7. Nazorat va baholash oldindan belgilangan tasniflar tizimi asosida o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etiladi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligi O’quvchi bilim va malakasini nazorat va baholash qilishning nafaqat usul va shakllarning xilma-xilligiga, balki nazorat va baholashning mazmuniga ham bog‘liq. O‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi berayotgan ilmiy axborotlar hajmi o‘quv dasturi tomonidan belgilangan talab darajasidan yuqori bo‘lishi kerak. Bunday qo‘shimcha ma’lumotlar o‘rganiladigan o‘quv materialini o‘quv moduli yangiliklari, mustaqil hayot va kasbiy faoliyatdagi muammoli vaziyatlar, ishlab chiqarish tarmoqlaridagi yangiliklar bilan boyitish uchun zarur. Bunday ma’lumotlar O’quvchilarning kasbiga va o‘quv moduliga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Lekin O’quvchilar bilimi nazorat va baholashi qat’iy belgilangan standart asosida o‘tkaziladi.

Nazorat va baholash jarayonida O’quvchi tomonidan aqliy operatsiyalarni

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

bajarishi, ayniqsa, tahliliy-tanqidiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Kasbiy ob’ektlar, jarayonlar, hodisalarga tasnif va ta’rif berish, ularni o‘zaro taqqoslash umumiy xulosalar chiqarish kabi topshiriqlar O’quvchidan murakkab fikrlash faoliyatini va malakani talab etadi. Nazorat va baholashda xuddi shunday topshiriqlar bo‘lishi kerak. O‘quv modulining o‘rganish ob’ektiga bog‘liq holda ob’ektlar va to‘plamlarning tuzilishi va funksiyalaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, ob’ektlarda sodir bo‘ladigan jarayonlar, tushunchalarni o‘zaro taqqoslash va bir-biri bilan bog‘lash, xulosa chiqarish kabi savol va topshiriqlar O’quvchining bilim sifati va malaka darajasini aniqlashda hamda ularning kasbiy tayyorgarligini yuqoriga ko‘tarishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O’quvchilar amaliy ko‘nikma, mahorat va malakalarga, masalan, darslik bilan mustaqil ishlash, vaqtinchalik loyihalar tayyorlash, tabiatda kuzatishlar olib borish, ob’ektlarni aniqlash, oddiy tajribalar o‘tkazish kabi malakalarga yetarli darajada ega emaslar. O‘qituvchi ta’lim jarayonida O’quvchilarda amaliy malakalarning shakllanishiga kasbiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunib yetish uchun tajribalar o‘tkazish, ob’ektlar ustida kuzatishlar olib borish, tabiatdagi mavsumiy va jarayonlardagi tizimli o‘zgarishlarni kuzatish, bu kuzatishlar asosida ob’ektlarni ishlash va yangi muhitga moslanishlarini aniqlash, kasbiy xilma –xillikni anglash kabilarga e’tibor qaratmog‘i shart. Bu esa oliy ta’lim mazmunini kuchaytiradi va O’quvchini ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlarini anglashga o‘rgatadi. Ma’lumki, mashg‘ulotlarda tasviriy, tabiiy, verbal ko‘rgazma vositalari va ob’ektlardan foydalanish O’quvchilarning yangi materialning mohiyatini tushunib yetishiga yordam beradi. Nazorat va baholash ishlarida ob’ektlar bilan bog‘liq masala va mashqlar berilishi, masalan, ob’ekt tuzilishining o‘ziga xos tomonlarini aniqlash, kasbiy muhitga moslanish belgilarini aniqlash, ob’ektning xarakteristikasini tuzish, ob’ekt tuzilish va funksiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadiga yo‘naltirilgan topshiriqlarning bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorlik va sifat ko‘rsatkichini aniqlashda O’quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma, malaka va o‘quv moduliga doir xususiy kompetensiyalarni o‘zlashtirilish darajasini nazorat va baholash qilish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,

29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son)
2. J. Tolipova. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma. TDPU. T.: 2017yil. 160 bet
3. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (pedagogik o‘lchovlar, testologiya). Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Brookhart, S.M. (2014) How To Design Questions and Tasks To Assess Student Thinking, Alexandria, VA: ASCD, 2014 Kubiszyn, T. and Borich, G. (2013) Yeducational Testing and Measurement: Classroom Application and Practice. Hoboken, NJ: Wiley, 2013.
5. Воробева, С. В. Современные средства оценивания результатов обучения в общеобразовательной школе. Изд. 2-е, пер. и доп. Москва: Юрайт, 2019.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARINI O‘YIN FAOLIYATI VOSITASI SIFATIDA O‘QITISH

N.J.Saidxanova
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘quv jarayonini faollashtirish uchun turli xil interfaol usullardan foydalanish nostandart qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy fikrlashga qodir o‘quvchilarni ko‘p qirrali tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida qaralgan. Mahalliy va xorijiy olimlarning ta’lim amaliyotida rivojlangan, o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga yo‘naltirilgan o‘yin turlari va ularning mazmunining xilma-xil yo‘nalishlari o‘quvchilarning ijodiy, aqliy, jismoniy va axloqiy tarbiyasiga ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *interfaol usullar, o‘yin faoliyati, o‘quvchi, xavfsizlik qoidalari, favqulodda vaziyat, faollashtirish, ijodiy fikrlash, axloqiy tarbiya, ta’lim jarayoni*

Аннотация. *В статье рассмотрено использование различных интерактивных методов для активизации учебного процесса при обучении правилам безопасности жизнедеятельности в общеобразовательных школах как одного из важнейших инструментов многогранного воспитания учащихся, умеющих принимать нестандартные решения и способных к творческому мышлению. Представлены взгляды отечественных и зарубежных ученых о влиянии различных видов игр и их содержания на творческое, умственное, физическое и нравственное воспитание учащихся, выработанные в образовательной практике, направленной на всестороннее воспитание учащихся.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, игровая деятельность, учащийся, правила безопасности, чрезвычайная ситуация, активизация, творческое мышление, нравственное воспитание, образовательный процесс*

Annotation. *The article considers the use of various interactive methods to activate the educational process when teaching the rules of life safety in secondary schools as one of the most important tools for the multifaceted education of students who are able to make non-standard decisions and are capable of creative thinking. The views of local and foreign scientists on the influence of various types of games and their content on the creative, mental, physical and moral education of students, developed in educational practice aimed at comprehensive education of students, are presented.*

Keywords: *interactive methods, play activity, student, safety rules, emergency situation, activation, creative thinking, moral education, educational process*

Mashg‘ulotlar jarayonida hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘quv faoliyatini faollashtirish uchun turli xil metodik usullar qo‘llaniladi. Bugungi kunda mamlakatimiz uchun nostandart qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy fikrlashga qodir insonlar kerak. Afsuski, zamonaviy ta’lim tizimida hali ham bilimlarni o‘zlashtirishda ijodiy yondashuvga ahamiyat berilmay qolmoqda. Xuddi shu harakatlarning bir xil qolipda takrorlanishi o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni

susaytiradi. O‘quvchilar kashfiyotlar, ixtiro qilish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishi natijasida asta-sekin ijodiy qobiliyatlarini yo‘qotishi mumkin [1].

Umumiy o‘rta maktab ta’limi tizimida o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Ular umumta’lim maktab o‘quvchilarini ko‘p qirrali tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir.

O‘yin insonga butun hayoti davomida unga hamroh bo‘ladigan hodisalardan biridir. Ko‘p o‘lchovli va murakkab hodisa bo‘lgan o‘yin doimiy ravishda tadqiqotchilarning e’tiborini tortadi. Shu bilan birga, S.L.Rubinshteynning fikriga ko‘ra, hayotiy hodisa sifatida beixtiyor sehrlaydigan va o‘ziga jalb qiladigan o‘yin ilmiy tafakkur uchun juda jiddiy va qiyin muammoga aylanadi [2].

O‘yin va o‘yin faoliyatini o‘rganish bilan F. Boytendayk, L.S. Vigotskiy, K.Groos, A. V. Zaporojets, A.N. Leont’yev, D.V. Menjeritskaya, A.P. Usova, F.I. Fradkina, V. Shtern, D. B. Elkonin va boshqa ko‘plab MDH va xorijiy psixolog va pedagoglar shug‘ullangan.

Birinchi umumiy o‘yin nazariyalari hayvonlar va inson o‘yinlari materiallari asosida yaratilgan. Mualliflari muqobil deb hisoblagan ikkita eng muhim umumiy o‘yin nazariyasini ko‘rib chiqaylik. Bu nazariyalardan biri K.Groos nazariyasi bo‘lib, unda bolalar o‘yiniga bola hayotining asosiy mazmuni sifatida juda katta ahamiyat beriladi. U o‘yinning aniq ta’rifini bermaydi, faqat o‘yin va jiddiy faoliyat o‘rtasidagi farqni tahlil qiladi [3].

K.Grossning fikricha o‘yinning asosiy ma’nosi - bizni insonning meros qilib olingan tabiatidan uning orttirilgan tabiatiga olib borishdir.

Keyinchalik V.SHtern K.Grossning fikrlariga qo‘shilgan holda, ularga ba’zi bir qo‘shimchalar kiritadi. Bu qo‘shimchalar quyidagilarni tashkil etadi [4]:

1) Qobiliyatlarning barvaqt yetilishi haqidagi tasavvur;

2) O‘yinni maxsus instinkt sifatida tan olish;

3) Ularning dunyo taassurotlari bilan yaqin aloqada bo‘lish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati.

O‘yin umumiy harakatlarning namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi: ozodlikka, birlashtirishga, takrorlashga intilish va o‘yin sohasi, tasvirlar sohasi sifatida va shu bilan bog‘liq holda fantaziya imkoniyatlari doirasi.

Mahalliy va xorijiy olimlar ta’lim amaliyotida rivojlangan, o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning foydalanilmagan zaxiralari bilan to‘la ko‘plab o‘yin turlarini aniqladilar. O‘yinda o‘quvchilarning rivojlanishi birinchi navbatda uning mazmunining xilma-xil yo‘nalishi tufayli sodir bo‘lishi isbotlangan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ijodiy-estetik (musiqiy), aqliy (didaktik va syujetli) jismoniy tarbiya

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

(harakat)ga yo‘naltirilgan o‘yinlar mavjud. Ularning aksariyati bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasiga hissa qo‘shadi (rolli, harakatli o‘yinlar va hokazo.).

Barcha turdagi o‘yinlarni ikkita katta guruhga birlashtirish mumkin, ular kattalarning bevosita ishtirokida, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatining turli shakllarida farqlanadi.

Birinchi guruh - bu yuqori sinf o‘quvchilari va kattalarni tayyorlash va o‘tkazishda bilvosita ishtirok etadigan o‘yinlar. O‘quvchilar faoliyati tashabbuskor, ijodiy xarakterga ega - o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘yin maqsadini belgilashga, o‘yin g‘oyasini rivojlantirishga va o‘yin muammolarini hal qilishning to‘g‘ri usullarini topishga qodir. Mustaqil o‘yinlarda o‘quvchilarning tashabbus ko‘rsatishi uchun sharoitlar yaratiladi, bu har doim aqliy rivojlanishining ma’lum darajasini ko‘rsatadi.

Syujetli va kognitiv o‘yinlarni o‘z ichiga olgan ushbu guruhning o‘yinlari rivojlantiruvchi funksiyasi bilan ayniqsa qimmatlidir.

Ikkinchi guruh - bu turli xil o‘quv o‘yinlaridan iborat bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘yin qoidalarini aytib berishi yoki tuzilishini tushuntiradi, ma’lum bir natijaga erishish uchun qat’iy harakatlar dasturini beradi. Ushbu o‘yinlarda odatda ta’lim va tarbiyaning aniq vazifalari hal qilinadi; ular o‘quvchilar amal qilishi kerak bo‘lgan muayyan dastur materiallari va qoidalarini o‘zlashtirishga qaratiladi.

O‘yin rivojlantiruvchi mazmunga va o‘yin ahamiyatiga ega. Muayyan motiv bilan bog‘liq holda idrok etishga qaratilgan maqsadli jarayon sifatida harakat - bu ongning “birligi” bilan ichki bog‘liq bo‘lgan faoliyat tomoni bo‘lib, biz buni “shaxsiy ma’no” atamasi bilan belgilaymiz.

Amaliyotda o‘yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi [5]:

- ko‘ngilochar (bu o‘yinning asosiy vazifasi - ko‘ngil ochish, zavq berish, ilhomlantirish, qiziqish uyg‘otish);

- kommunikativ: muloqot, munozara san’atini o‘zlashtirish;

-o‘yinda inson amaliyoti uchun sinov maydonchasi sifatida o‘z-o‘zini anglash;

- o‘yin terapiyasi: hayotning faoliyat turlarida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni yengib o‘tish;

- diagnostik: o‘yin davomida me’yordagi xatti-harakatlarda, o‘z-o‘zini bilishda og‘ishlarni aniqlash;

- tuzatish funksiyasi: shaxsiy ko‘rsatkichlar tarkibida ijobiy o‘zgarishlar kiritish;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

- millatlararo muloqot: barcha odamlar uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish;

- ijtimoiylashtirish: inson hamjamiyati normalarini o‘zlashtirish, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish.

Aksariyat o‘yinlarda to‘rtta asosiy xususiyatlar mavjud [6]:

- nafaqat natija (qoidalarga asoslangan zavq)dan emas, balki faoliyat jarayonining o‘zidan zavq olish uchun faqat o‘quvchining iltimosiga binoan amalga oshiriladigan erkin rivojlanish faoliyati;

- ijodiy, ma’lum darajada improvizatsion, ushbu faoliyatning juda faol bo‘lgan ijodkorlik sohasi;

- faoliyatning ta’sirchanlik ruhi, musobaqa, bellashuv, raqobat va boshqalar (o‘yinning his qilish tabiati);

- o‘yin mazmunini, uning rivojlanishining mantiqiy va vaqt bilan belgilanadigan ketma-ketligini aks ettiruvchi bevosita yoki bilvosita qoidalarning mavjudligi.

Mashg‘ulotlarning o‘yin shakli sinfda o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga undash, rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlaydigan o‘yin texnikasi va vaziyatlar yordamida yaratiladi.

Hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘yin mashg‘ulotlaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ijodkorlik deganda samarali rivojlanish mexanizmi tushuniladi. Ijodkorlik uchun bilimlarning nafaqat mazmuni, balki ularning tuzilishi, o‘zlashtirilgan bilimlarning psixologik turi, ular egallangan faoliyat turi bilan belgilanadigan hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab bitiruvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorligi ko‘p jihatdan ularning kasbiy sohadagi kelajakdagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. O‘quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish jarayonining maqsadi ijodkorlik uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Bunday sharoitlarning majmuasi xilma-xildir. Bu ijodiy muammoni hal qilish g‘oyasini intuitiv tushunishga yordam beradigan vaziyatlarning xususiyatlarini yaratishdan boshlanadi va zarur qobiliyatlarni, shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash, jamoada ijodiy muhitni yaratish bilan yakunlanadi.

Tahlillarimizga ko‘ra o‘quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘yin faoliyatini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘yin faoliyatini tashkil etish jarayonida maktab

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga tayanish kerak. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun keng kognitiv, isbotlash, dalillar keltirishga asoslangan bilimga qiziqish bilan tavsiflanadi. O‘smirlarda o‘quv kognitiv motivi ularning bilim olish usullariga qiziqishida namoyon bo‘ladi. Nazariy va ijodiy fikrlash usullariga qiziqishni oshirishni doim takomillashtirish lozim. O‘yin mashg‘ulotlaridan foydalangan holda darsni o‘tkazish puxta tayyorgarlik talab qiladi. Darsning mazmuni, uning vazifalari haqida atroflicha o‘ylab ko‘rish kerak. Mashg‘ulot mavzusi, uning tarkibini tanlashda o‘quv materiali hissiy jihatdan to‘yingan va mazmun jihatdan o‘quvchining eslab qolishi uchun soda bo‘lishi kerak. Mavzu materialida aniq, konkret misollar, tasvirlar, voqealar, vaziyatlar bo‘lishi lozim.

O‘yin faoliyatini tashkil qilishda maktab o‘quvchilarining hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishdagi jamoaviy faoliyatini tashkil etish shakli haqida o‘ylab ko‘rish kerak. Maktab o‘quvchilarining o‘yin faoliyati bilan hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish jamoaviy o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish shakllaridan biri bo‘lib, o‘quvchilar mashg‘ulot davomida bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradilar. Bunda guruhlarda, kichik guruhlarda ishlash samarali hisoblanadi.

Maktab o‘quvchilarining o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etishning guruh shakli har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijodiy rivojlanishiga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini anglatadi. Darsda o‘quvchilar birgalikda bilim olishga, yangiliklar yaratishga, bir-birlariga yordam berishga doimo tayyor bo‘lishni o‘rganadilar [11].

Hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda o‘yin faoliyatining o‘ziga xos xususiyati - ushbu faoliyat shaklining o‘ziga xosligini yaratadigan tasavvur faoliyatidir. Bunday o‘yinlarni tasavvurning amaliy faoliyati deb atash mumkin, chunki ularda u tashqi harakatda amalga oshiriladi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatga kiritiladi.

Vazifalarni belgilashda tematik rejaning mazmunidan kelib chiqib, oldingi dars natijalari va yangi materialni o‘zlashtirishning murakkabligini, shuningdek o‘quvchilar tarkibini, ularning tayyorgarligini hisobga olish lozim.

Darslarda hayot faoliyati xavfsizligini o‘rganish jarayonida turli xil o‘yin vositalaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarda asosiy tushunchalarni rivojlantirish va har xil turdagi vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, yangi tahdidlarni hisobga olgan holda, shakllanayotgan tushunchalarni aniq tasvirlashga imkon beradi [10].

Shunday qilib, mashg‘ulotlarda o‘yinlarni qo‘llash jihatlarini tahlil qilar ekanmiz, uning o‘quv jarayonining muhim jihatlaridan biriga tegishli ekanligini

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ta’kidlash o‘rinlidir. O‘yin fikrlash, ijodiy faoliyat, kommunikativ ko‘nikmalar va boshqalarni rivojlantirishga qaratilgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida joylashtirilgan.

Hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rganishda o‘yin faoliyatidan foydalanishning afzalligi shundaki, o‘yin faoliyati jarayonida barcha ta’lim maqsadlari va vazifalari amalga oshirilishi, o‘quvchilar esa o‘yin jarayonining faol ishtirokchilari sifatida harakat qilishlari va shu orqali o‘z bilimlarini kengaytirishlari va amaliy tajribalarini shakllantirishlari bilan bog‘liq. O‘yin usullaridan foydalanishning o‘ziga xosligi hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rganish mavzusining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. Абаскалова Н. П., Акимова Л. А., Петров С. В. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности в школе: Учебное пособие. Новосибирск. М.: Изд-во АРТА, 2011. 46 с.
2. Абрамова С. В. Теория и методика обучения и воспитания безопасности жизнедеятельности: учебно-методическое пособие. Южно -Сахалинск: изд. Сах - ГУ, 2012. 234 с.
3. Бабанский Ю.К. Выбор методов обучения в средней школе. - М., 2011. – 58 с.
4. Газизулин Т.Г., Максиняева М.Р. О методическом подходе к формированию практических занятий для студентов направления подготовки 050100.62 «Педагогическое образование» (профиль «Безопасность жизнедеятельности») // Молодой ученый. 2014. № 18.1. С.27–29.
5. Загуменных М.А. Использование активных методов обучения на уроках ОБЖ // 25 лет ОБЖ. 2016. № 4. С. 29-31.
6. Касьянова Н.С. Применение интерактивных методов обучения в преподавании ОБЖ // Современные проблемы науки и образования. 2016. № 6. С. 374.
7. Ставропольцева С. В., Гребенникова Е. В. Игровая деятельность в процессе изучения основ безопасности жизнедеятельности в современной школе // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы X Междунар. науч. конф. 2017. № 4. С. 33.
8. Сопко Г.И., Пазыркина М.В. Педагогические подходы к обеспечению безопасности здоровья // Молодой ученый. 2014. № 18.1 С. 88–92.
9. Свинар Е.В., Захарова Д.А. Использование активных и интерактивных методов обучения основам безопасности жизнедеятельности// Дополнительное профессиональное образование в условиях модернизации. 2015. № 2. С. 22-24.
10. Xusanova S.I. Ta’lim jarayonida hayot faoliyati xavfsizligini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish /Hayot faoliyat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolari va sohada innovatsion texnologiyalarning o‘rni.O‘R FVV FMI respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.T., 29 aprel, 2021. 33b.

O‘QITUVCHI NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

BOLALAR MUSIQIY IDROKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI VOSITALAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISH

Narzullaeva Marjona Karimovna
Termiz davlat pedagogika instituti Musiqa ta’lim va san’at mutaxasisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida musiqiy faoliyatlarni integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Musiqani tasviriy san’at, harakat, o‘yin, adabiyot, tabiatshunoslik kabi boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirishning bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada musiqiy idrok, emotsional hozirjavoblik, ritm va intonatsiya ko‘nikmalarining shakllanish jarayoni, ularga ta’sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar hamda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiruvchi metodlar bayon etilgan. Maqola musiqiy ta’lim jarayonida bolalarda estetik didni, ijodiy fikrlashni va hissiy sezgirlikni rivojlantirishning innovatsion usullarini taklif etadi.*

Kalit so’zlar: *musiqiy faoliyat, integratsiyalashgan yondashuv, musiqiy idrok, emotsional hozirjavoblik, ritm, intonatsiya, maktabgacha ta’lim, estetik tarbiya, ijodkorlik*

Abstract. *This article explores theoretical and practical aspects of organizing musical activities in preschool education based on an integrated approach. It examines the impact of combining music with other developmental activities such as visual arts, movement, play, literature, and nature studies on children’s holistic development. The study highlights the processes of forming musical perception, emotional responsiveness, rhythm, and intonation skills, as well as the psychological and pedagogical factors affecting them. Additionally, the article outlines effective methods that enhance the efficiency of integrated musical sessions and presents innovative approaches for developing aesthetic taste, creative thinking, and emotional sensitivity in young learners.*

Keywords: *musical activity, integrated approach, musical perception, emotional responsiveness, rhythm, intonation, preschool education, aesthetic development, creativity*

Аннотация. *В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты организации музыкальной деятельности в процессе дошкольного образования на основе интегрированного подхода. Анализируется влияние гармоничного сочетания музыки с другими видами деятельности, такими как изобразительное искусство, движение, игра, литература и естествознание, на развитие детей.В статье рассматриваются процессы формирования музыкального восприятия, эмоциональной отзывчивости, ритма и интонационных навыков, а также психологико-педагогические факторы, влияющие на них. Описаны методы, повышающие эффективность интегрированных занятий. Статья предлагает инновационные методы развития у детей эстетического вкуса, творческого мышления и эмоциональной чувствительности в процессе музыкального образования.*

Ключевые слова: *Музыкальная деятельность, интегрированный подход, музыкальное восприятие, эмоциональная отзывчивость, ритм, интонация, дошкольное образование, эстетическое воспитание, творчество*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

KIRISH. Musiqa – maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining ajralmas qismi bo‘lib, u bolajonlarning qalbida quvonch, hayrat va ijodiy ishtiyoq uyg‘otadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar bog‘chaga kelgan ilk kunlardanoq san’atga, ayniqsa musiqaga kuchli qiziqish bildiradilar. Demak, musiqiy mashg‘ulotlar orqali kichkintoylarning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Bu esa, albatta, musiqa rahbari va tarbiyachilarning mahorati, bilimdonligi va ijodkorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Integratsiyalashgan yondashuv – bu ta’lim jarayonida turli faoliyat turlari va fanlararo elementlarni bir butun holatda uyg‘unlashtirib, bolaga yaxlit bilim va ko‘nikmalar berish usulidir. Musiqa mashg‘ulotlarida integratsiyalashgan yondashuv deganda, musiqani boshqa rivojlantiruvchi faoliyatlar (masalan, rasm chizish, jismoniy harakatlar, adabiyot, tabiatshunoslik va boshqalar) bilan chambarchas bog‘lab o‘rgatish nazarda tutiladi. Bunda bolalar musiqani nafaqat tinglaydilar yoki kuylaydilar, balki uni turli badiiy va o‘yin faoliyatlari orqali chuqurroq anglaydilar.

Integratsiyalashgan musiqiy mashg‘ulotlar an’anaviy, faqat bitta yo‘nalishga qaratilgan darslarga nisbatan ko‘proq maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, integratsion darslar doirasida odatdagi usullar bilan erishish qiyin bo‘lgan bir qator pedagogik maqsadlarga erishish mumkinligi ta’kidlanadi. Xususan, bunday yondashuv bolalarning har xil bilim sohalarini bir-biriga bog‘lab idrok etishiga, dunyoni yaxlit holda ko‘ra bilishiga yordam beradi. Musiqa, tasviriy san’at va adabiyotning uyg‘unlashuvi esa bolalarning estetik dunyoqarashini kengaytirib, san’atni xalqlar o‘rtasidagi muloqot tili sifatida kashf etish imkonini beradi. San’atlar integratsiyasi orqali o‘tgan avlodlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va hayotiy tajribalari bilan tanishib, madaniy merosga qiziqish uyg‘otish mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda Musiqiy faoliyatlarda integratsiyalashgan yondashuvni amalda qo`llashning usul va misollar keltiriladi:

1-jadval

T\r	Usullar	Misollar
	Musiqa + Harakat (Raqs va ritmika)	Bolalar musiqani butun vujudi bilan his qilishadi. Musiqaga mos raqs harakatlari qilish, qo‘shiq kuylayotganda pantomima yoki gimnastik mashqlar

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

		bajarish – bularning barchasi musiqani jismoniy faollik bilan bog‘laydi.
	Musiqa + O‘yın (Dramatizatsiya va didaktik o‘yinlar)	Bolalar uchun eng qiziqarli metodlardan biri bu o‘yin orqali o‘rgatishdir. Musiqa mashg‘ulotiga o‘yin elementlarini integratsiya etish katta samara beradi. Musiqali didaktik o‘yinlar: masalan, “Nimaning ovozi?” o‘yini – bunda tarbiyachi turli hayvon yoki tabiat tovushlarini (cholg‘u yoki ovoz yordamida) chiqaradi, bolalar esa qaysi tovush ekanini topadilar
	Musiqa + Tasviriy san’at (Rasm chizish va tasavvur)	Musiqani eshitib, uning asosida rasm chizish bolalarning tasavvur va ijodkorligini oshiradi. Masalan, tarbiyachi bolalarga P. Tchaikovskining “Fasllar” syuitasidan “Kuz” musiqasini tinglatadi. Tinglagach, bolalarga savol: “Ko‘zlaringizni yumib tinglaganda ko‘z oldingizga nimalar keldi? Endi shu manzarani qog‘ozga tushiring.” Kichkintoylar tinglagan musiqasi asosida kuzgi daraxtlar, yaproqlar yoki yomg‘ir tasvirini chizishlari mumkin. Bu mashg‘ulot musiqani idrok qilishni vizual obrazlar bilan bog‘lashga o‘rgatadi.
	Musiqa + Adabiyot (She’r va ertaklar)	She’r, topishmoq, ertaklarni musiqaga ulanmasi, musiqiy ertaklar yaratish ham integratsiyalashgan yondashuvning samarali ko‘rinishidir. Tarbiyachi biror she’rni yoqimli ohangga solib kuylasa, bolalar yodlashni osonroq uddalaydilar. Ertak-qo‘shiq mashg‘uloti: masalan, “Uch og‘ayni echkilar” ertagini aytib berayotganda, tarbiyachi har bir echkiga bag‘ishlangan kichik qo‘shiqchalardan foydalanadi – bolalar ham shu qo‘shiqchalarni kuylab ertakni jonlantiradilar.

Musiqiy idrok – bu bolaning musiqani eshitib, uning mazmunini anglab, hissiy va aqlan qabul qila olish qobiliyatidir. Psixologlar idrokni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

emotsional idrok (3–4 yosh);
obrazli idrok (4–5 yosh);
ongli idrok (5–6 yosh);
musiqiy elementlarni farqlay olish (6–7 yosh).

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TA’RIKA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan usullar bolalarning musiqiy idrokini rivojlantirish bo‘yicha samarali ekanligi isbotlangan:

2-jadval

T\r	Usullar	Ijobiy ta`sir
	Obrazli tasvirlash	Musiqani tinglashni kichik bir ertak sifatida taqdim etish. Masalan, “Hozir biz sehrli o‘rmon haqida kuy tinglaymiz, ko‘zlaringizni yuming, tinglab ko‘ring – o‘rmonda qanday manzaralarni tasavvur qildingiz?” Bu usul bolani musiqani *obrazli idrok etishga* o‘rgatadi. Kichkintoylar musiqani hayolida jonlantirish orqali eshitish malakasini mustahkamlaydilar.
	Hissiy munosabat bildirish	Tarbiyachi musiqa tinglash jarayonida bolalarning *hissiy javob* berishiga sharoit yaratishi kerak. Masalan: “Kuy tugagach, hammamiz yuzimizda shu kuy uyg‘otgan hissiyotga mos ifodani ko‘rsataylik – kimga quvonchli tuyuldi, kimga yoqimli xotirjam?” Bu orqali bolalar o‘z emotsiyalarini taniy boshlaydilar va musiqa hissiyotga boy san’at turi ekanini anglaydilar.
	Elementlarga e’tibor qaratish	Bolalar bilan musiqa elementlarini ajratib ko‘rsatish ham idrokni o‘stiradi. Masalan, ritmni sezish uchun bolalar doira yoki qo‘l qarsak bilan musiqaga jo‘r bo‘ladilar, ohangni sezish uchun kuy baland-past notalarga ko‘tarilganda qo‘llarini ko‘tarib-tushiradilar va hokazo. Shuningdek, “Bu kuy tezligini soatga qiyoslasak – sekundomer tezligida chalinyaptimi yoki sekinroqmi?” kabi qiziqarli taqqoslashlar qilish mumkin.
	Savol-javob va muhokama	Har bir tinglangan musiqadan so‘ng qisqagina muhokama qilish tavsiya etiladi. Bolalar o‘z so‘zlari bilan musiqadan olgan taassurotini aytsin. Bu ularning nutqini va tafakkurini ham rivojlantiradi. Agar bola “bilmayman” desa, javobni o‘qituvchi aytib beravermasdan, boshqalarining javoblarini eshittirib, u ham keyingi safar fikr bildirishga undaladi

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Yuqoridagi usullar orqali tarbiyachi musiqiy idrokni shakllantirish vazifalarini amalga oshiradi. Ilmiy adabiyotlarda maktabgacha ta’limdagi musiqa tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri bolalarda badiiy musiqani estetik idrok etish va emotsional o‘zlashtirishni rivojlantirish, musiqa san’atiga muhabbat tarbiyalash ekani qayd etiladi. Xuddi shuningdek, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini o‘stirish, musiqiy didini shakllantirish va ijodiy tasavvurini rivojlantirish ham muhim maqsadlardandir. Demak, biz musiqa tinglashga o‘rgatish orqali ayni paytda bir nechta muhim tarbiyaviy maqsadga erishamiz: nafaqat musiqani “eshitish”, balki undan zavqlanish, uni tushunish va qadrlash ko‘nikmasini bolalarga singdiramiz.

Emotsional hozirjavoblik – bu bolalarning musiqaga nisbatan darhol va samimiy hissiy munosabat bildira olish qobiliyatidir. Oddiy so‘z bilan aytganda, kuy yoki qo‘shiq eshitganda bolaning ichki kechinmasi va hissiyotlari yuzaga chiqishi, u bunga befarq qolmasligidir. Maktabgacha yoshda bolalar tabiatan juda emotsional bo‘ladilar, ular musiqa ta’sirida o‘z his-tuyg‘ularini bemalol ifoda etadilar: ular sevinchdan sakrashlari, hayajondan ko‘zlari chaqnashi, hatto ba’zan kuy sadolari ostida ma’yus tortib qolishlari mumkin. Tarbiyachi aynan shu tabiiy emotsional sezgirlikni to‘g‘ri yo‘naltirib, rivojlantirib borishi lozim.

Bolalarda ritm tuyg‘usi va intonatsiya (ohangdor kuylash) ko‘nikmalarini shakllantirish – maktabgacha musiqiy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir. Integratsiyalashgan yondashuv bu jihatlarni ham qiziqarli usullar bilan rivojlantirishga yordam beradi.

Ritm – musiqaning “uragi”, asosi. Kichkintoylar aslida tug‘ma ritmik sezgi bilan tug‘iladilar (masalan, yurak urishi ritmi, yurish paytida takrorlanuvchi harakatlar va hokazo). Lekin bu qobiliyatni maxsus mashqlar bilan charxlash zarur. Maktabgacha ta’lim muassasasida musiqiy-ritmik mashqlar muntazam o‘tkazilishi lozim ekani ta’kidlanadi. Buning uchun quyida 3-jadvaldagi usullar qo‘l keladi:

3-jadval

T\r	**Faoliyat turi**	**Mazmuni (qisqa)**	**Rivojlantiradigan ko‘nikma**
	Jo‘r bo‘lib urish va sanash	2/4 yoki 4/4 ritmda she’r aytish, satr oxirida qarsak/baraban urish	Ritmik barqarorlik, maromni ushlash

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

	Muqobil ritm o‘yini (ritmik dialog)	Tarbiyachi ritm chaladi – bola takrorlaydi; keyin rollar almashtiriladi	Idrok, ritmni eshitish, takrorlash, ijodkorlik
	Harakat–ritm integratsiyasi ("Musiqa to‘xtaganda – haykal")	Musiqa davomida harakat, to‘xtaganda qotish	Diqqat, ritmni tan olish, nazorat
	"Barabanga ergash"	Baraban sur’ati bo‘yicha yurish, yugurish	Harakatni ritmga moslashtirish
	Cholg‘u jo‘rligida kuylash	Pianino yoki cholg‘u ostida qo‘shiq aytish, keyin a cappella	Tonallikni ushlash, mustaqil xonish
	Echo usuli (takrorlash)	Tarbiyachi bir ibora kuylaydi, bolalar takrorlaydi	Eshituv intonatsiyasi, ohangni yod olish
	Vokal o‘yinlar ("miu", “chiv-chiv”)	Ovoz ochish va baland–past tovushlarda o‘ynash	Ovoz boshqaruvi, intonatsiya
	Yakka kuylash	Guruhdan keyin bir bola qisqa qo‘shiqni alohida kuylaydi	Ovoz nazorati, ishonch, eshituv
	"Qator chaqiriq" mashqi	Tarbiyachi ohang aytadi, bolalar navbat bilan takrorlaydi	Ovoz boshqaruvi, eshituv, intonatsiya

Xulosa. Integratsiyalashgan musiqiy mashg‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida muhim o‘rin tutadi. Musiqani tasviriy san’at, harakat, o‘yin, adabiyot va boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning ijodiy fikrlashi, emotsional sezgirligi va dunyoni yaxlit idrok etishiga yordam beradi. Musiqiy idrok va emosional hozirjavoblikni shakllantirishda tarbiyachining nozik, ongli va bolaga mos yondashuvi juda zarur. Yoshga mos repertuar, obrazli tinglash mashqlari va bolaga o‘z hissiyotini ifodalash imkonini berish – bu jarayonning asosiy shartlaridir. Ritm va intonatsiyani o‘yin, harakat va kuylash orqali o‘rgatish esa nafaqat musiqiy savodxonlik, balki nutq, tafakkur va jismoniy faollikning rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Musiqa – bu qalb tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasi ularning kelajakda ma’naviy yetuk, didli va ijodkor shaxs bo‘lib shakllanishiga mustahkam poydevor yaratadi. Har bir darsni qiziqarli, mazmunli va bolaga yaqin shaklda tashkil etish – bo‘lajak tarbiyachilarning sharafli vazifasidir. Prezidentimiz tomonidan ta’kidlanganidek, bolalarga berilgan ta’lim-tarbiya – kelajagimizning eng muhim garovidir. Shu bois, musiqiy mashg‘ulotlarda integratsion yondashuvdan samarali foydalanish, har bir bolaning qiziqish va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash – yuksak natijalarga erishishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ruziyeva O. "Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiyalashgan musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari", *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2021. – Mazkur maqolada san’at turlarini uyg‘unlashtirish musiqiy tarbiyaning ma’naviy ufqlarini kengaytirishi ta’kidlangan.
2. Usmonova S. "Musiqaga nisbatan idrok va emotsional hozirjavoblikni rivojlantirish", *Pedagogika 2025/2*. – Maqolada maktabgacha yosh bolalarda musiqiy idrokning rivojlanish bosqichlari va ular uchun obrazli asarlar tanlash tavsiyalari berilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Ilk qadam dasturi (2018 yil nashri). – Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun davlat o‘quv dasturi.
4. Mirganiyeva S. "Bolalarning musiqiy idrok xususiyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash faoliyatining o‘rni", *Innovative Development in Educational Activities, 2024*.
5. Shukurova N. "Musiqiy-ritmik mashqlarning bolalarni umumiy rivojlanishidagi ahamiyati", *Innovative Development in Educational Activities, 2023*.
6. Dalkroz E. ijodiy metodikasi bo‘yicha materiallar – musiqa va harakat integratsiyasi orqali ritm va ifoda haqida.
7. O‘zbekiston va xorij maktabgacha ta’lim tajribalaridan misollar (Koreya bog‘chalari misolida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar).
8. Musiqa tarbiyasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar (N. Yusupova va boshqalar) – bolalarda musiqiy did va qobiliyatni shakllantirish masalalari.
9. Cyberleninka elektron kutubxonasidagi maqolalar to‘plami – integratsion ta’limning didaktik asoslari.
10. Bolalar psixologiyasi bo‘yicha qo‘llanmalar – maktabgacha yoshda estetik tarbiya va musiqaning roli haqida ma’lumotlar.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY BILIMLARNI KOGNITIV IDROK ETISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.b.f.d PhD

Annotatsiya*. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi, nazariy asoslari, raqamli ta’lim muhitida talab etiladigan kompetensiyalar va ularning kasbiy faoliyatdagi o‘rni, ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, intelektual, kasbiy bilimlar, qobiliyat, kasbiy yetuklik, loyihalash, modellashtirish, kreativlik, kompetentlik, strategik fikrlash*

Аннотация. *В статье рассматриваются методология и теоретические основы формирования когнитивного восприятия профессиональных знаний у будущих педагогов в цифровой образовательной среде, компетенции, необходимые в цифровой образовательной среде, их роль и значение в профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *цифровое образование, интеллектуальные, профессиональные знания, способности, профессиональная зрелость, проектирование, моделирование, креативность, компетентность, стратегическое мышление*

Abstract: *The article examines the methodology and theoretical foundations of the formation of cognitive perception of professional knowledge in future teachers in the digital educational environment, the competencies required in the digital educational environment, their role and importance in professional activity.*

Key words: *digital education, intellectual, professional knowledge, abilities, professional maturity, design, modeling, creativity, competence, strategic thinking*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA
MILLIY INSTITUTI

Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi ta’lim tizimini raqamlashtirish ham nazariy-metodologik jihatdan puxta asoslanishni taqozo qiladi. Raqamli ta’lim muhitini yaratishning metodologik asoslari sirasida tamoyillar ham ustuvorlik kasb etadi. Binobarin, tamoyillar faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish, yo‘nalishlarni oqilona belgilash, maqsad va natija o‘rtasidagi aloqadorlikni belgilab beradi. OTMda raqamli ta’lim muhitida, asosan, didaktik faoliyat ko‘zga tashlanadi. Raqamli ta’lim jarayoning ustuvor tamoyillaridan xabardor bo‘lish bo‘lajak pedagoglar uchun muhim hisoblanadi. Binobarin, ustuvor tamoyillar raqamli ta’lim muhitini metodologik, tashkiliy, texnik, texnologik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish uchun zarur bo‘lgan shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Elektron manbalardan birida esa raqamli ta’lim jarayonida ustuvorlik kasb etadigan tamoyillar sifatida quyidagilar keltiriladi: ustunlik, shaxsiylashtirish, maqsadga muvofiqlik, egiluvchanlik va moslashuvchanlik, muvaffaqiyatlilik,

hamkorlik va o‘zaro hamjihatlilikka asoslangan o‘qitish, amaliyotga yo‘naltirilganlik, murakkablikning ortib borishi, ta’lim muhitining to‘yinganligi, polimodallik (bilish va kommunikatsiya jarayonida borliqni anglash hamda muloqotning bir nechta uslublaridan foydalanish; multimediyalilik), shuningdek, baholashni yo‘lga qo‘yish tamoyillari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini takomillashtirishlarida kasbiy tayyorgarlik, pedagogik tafakkur va ongning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil bo‘la oladi. O‘qituvchilik kasbiga nisbatan ijobiy motivlarni shakllanganligi talaba tomonidan anglangach, kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi oson kechadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishida psixologiya va pedagogikaga oid bilimlarning ular tomonidan kognitiv o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyotdagi ilg‘or tajribalarni mustaqil o‘zlashtirishga, o‘qituvchilik kasbiga nisbatan ijobiy motivlarning mavjudligi, mavjud pedagogik tajribalarni ijodiy o‘zlashtirish kabi omillar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllanishida samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etishlarida bir qator psixologik jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning ruhiy holati, ya’ni intuitsiyasi, zehni, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishi, kasbiy qiziqishlari alohida ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy kompetensiyalarining tarkibiy qismini esa kasbiy bilimlar, pedagogik dunyoqarash, kasbiy texnika va kasbiy madaniyat tashkil etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyati milliy va umuminsoniy qadriyatlar, pedagogik ta’limotlarni ijodiy o‘zlashtirish natijasida shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlashtiradigan kasbiy bilimlar tarkibiga ma’naviy-axloqiy hamda muomala madaniyatiga oid yondashuvlar, mezonlar ham singdirilishi lozim. Kasbiy madaniyat va pedagogik ijodkorlik o‘zaro aloqador hodisalar bo‘lib, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda o‘qituvchilar tayyorlash va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchi faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning kreativ, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson sifatida tarbiyalash o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda oliy pedagogik ta’lim jarayonini modernizatsiyalash sohasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilarlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularga ixtisoslikka oid fanlarni chuqur o‘rgatish, pedagogik mahoratni egallashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

bilimlarni kognitiv o‘zlashtirish va o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash kompetensiyasini shakllantirishning didaktik vositalari, usullari, metodlari yangilandi. Shuningdek, ta’lim jarayonida “Pedagogik mahorat”, “O‘qitish metodikasi”, “Pedagogika-psixologiya”, “Tarbiya nazariyasi” kabi o‘quv modullari yangi yondashuvlar asosida boyitildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy bilimlarni kognitiv o‘zlashtirish natijasida quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- bo‘lajak o‘qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar;
- o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy sifatlariga qo‘yiladigan talablar;
- kasbiy tayyorgarlik mazmuni va ko‘lamiga qo‘yiladigan talablar;
- bo‘lajak o‘qituvchining ixtisoslikka oid metodik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar kabi.

Bilimlarni kognitiv o‘zlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagoglik kasbiga xos sifatlarni o‘zida jamlovchi yo‘nalishlarni ham alohida ajratib ko‘rsatiash mumkin:

a) siyosiy-g‘oyaviy yo‘nalishda:

- aniq va ilmiy dunyoqarash, diniy e’tiqodga egalik;
- o‘zining ijtimoiy ehtiyojlari, axloqiy me’yorlarni to‘g‘ri anglab yetishi;
- ijtimoiy voqelikka nisbatan ijtimoiy faol munosabatda bo‘lishi;
- fuqarolik pozitsiyasiga egalik kabi.

b) kasbiy yo‘nalishda:

- pedagogik tafakkurga ega bo‘lishlari;
- o‘quvchilar bilan hamkorlik qila olishlari va ularni tushuna olishlari;
- pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik sifatlarini namoyon eta olishlari;
- pedagogik nazokatga ega bo‘lishlari;
- o‘quvchilar bilan muloqotga kirisha olish va munosabat o‘rnata olishlari;
- pedagogik tasavvurlarining kengligi;
- tashkilotchilik layoqatini namoyon eta olishlari;
- obyektivlik, tolerantlik, talabchanligi, negbinlik sifatlarini namoyon eta olishlari;
- hozirjavoblik, qat’iyatlilik aniq maqsad sari intilishi;
- o‘z faoliyati yangiliklarini qo‘llashga intilishi;
- umumiy o‘rta ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma va uning mohiyatini anglab yetganliklari;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

- ta’lim muassasasi va o‘quvchilar jamoasini boshqara olish layoqatiga ega egaliklari;
- kasbiy jihatdan rivojlanish va yangiliklarni tezkor qabul qilish layoqatiga ega ekanliklari;
- mustaqil bilim olish va o‘z o‘zini rivojlantirish motivlariga ega ekanliklari kabilar.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar, ayniqsa o‘qituvchilik kasbiga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli axborot manbalarini boshqaruvchi, o‘quvchini mustaqil o'rganishga yo‘naltiruvchi va ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Shu sababli, pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim siyosatida ham raqamli transformatsiya jarayonlarini faollik bilan yuritmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ham nazarda tutilgan ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etishi vazifasini ham belgilab qo‘yilgan. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

O‘qituvchilarninig kasbiy va uslibiy tayyorgarligi kontseptsiyasida umumiy kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismi sifatida raqamli kompetensiyasiga alohida e’tibor beriladi. Bu raqamli texnologiyalarning o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi asosiy rolini belgilaydi va uni kasbiy kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida rivojlantirish zarurligini ishora qiladi, ham o‘qituvchining kasbiy malakasini oshirish, ham o‘zlashtirish bilan bog‘liq jihatlarda isbotlaydi. Shu sababli, raqamli kompetentsiya zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasining muhim tarkibiy qismidir, chunki u o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim mazmunini yaratish, elektron resurslar, raqamli texnologiyalar va axborot resurslarini tanqidiy baholash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni birlashtiradi va ularni kasbiy faoliyatda

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

o‘z–o‘zini tarbiyalashda qo‘llashning maqsadga muvofiqligini aniqlash, bu umuman, o‘qituvchining raqamli axborot ta’lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyasi – bu shaxsning murakkab, dinamik, yaxlit integral shakllanishi bo‘lib, bu uning raqamli texnologiyalar sohasidagi ko‘p darajali kasbiy va shaxsiy xususiyati va ulardan foydalanish tajribasi bilan belgilanadi. Bir tomondan, raqamli jamiyatning ehtiyojlari va talablari bilan, ikkinchi tomondan, uning barcha ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini o‘zgartiradigan raqamli ta’lim maydonining paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayoniga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, bilimlarni uzatishning belgilangan algoritmi va o‘qitishning uslubiy yondashuvlarini o‘zgartiradi. Bu esa, o‘qituvchilarda onlayn ta’lim tadbirlarini o‘tkazish, bilimlarni nazorat qilish, baholash va tekshirishning elektron tizimlaridan foydalanish, ta’lim muassasalarining veb–saytlari, shaxsiy bloglarini yaratish va to‘ldirish, o‘quv materiallarini innovatsion taqdimoti, loyiha va ilmiy–tadqiqot faoliyatini vositalar orqali amalga oshirish, o‘quv simulyatorlari, elektron darsliklar va ensiklopediyaslardan foydalanish, masofaviy yoki onlayn ta’lim shakllarini tashkil etish va o‘tkazishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli ta’lim muhit haqiqatda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi va uni doimiy ravishda rivojlantirishni taqozo etadi. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirish, o‘quv jarayoniga faol jalb etish, tabaqalanish va moslashuvi faollashtirishga xizmat qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydaxmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.
2. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. *Miasto Przyszłości*, *29*, 6-7.
3. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. *Miasto Przyszłości*, *29*, 1-2.
4. To‘rayeva D.I. Bo‘lajak o‘qituvchining raqamli ta’lim muhitida ishlash ko’nikmalarini shakllantirish. – S.: Respublika ilmiy amaliy anjuman, 2024. – ***https://doi.org/10.5281/zenodo.10993304*** .

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ertaklar, dostonlar, afsonalar, maqollar va qo‘shiqlardan foydalanib o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali pedagogik texnologiyalari yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodi yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, yurtga sadoqat, jasorat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiruvchi muhim ma’naviy tarbiya vositasi sifatida baholanadi. Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, obrazli tahlil, sahnalashtirish kabi zamonaviy metodlar orqali vatanparvarlik g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga chuqur singdirishning amaliy yondashuvlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlari: *fazilat,sadoqat,insonparvarlik,ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, ertak, maqol, rivoyat, milliy qadriyat,texnologiya, pedagogika*

Аннотация. *В статье рассматриваются эффективные педагогические методы воспитания патриотических чувств у учащихся на примере узбекского народного творчества – сказок, эпосов, пословиц, пословиц и песен. Народное творчество рассматривается как важный инструмент воспитания у подрастающего поколения чувства национальной идентичности, преданности Родине, мужества и ответственности. В статье представлены практические направления по формированию у учащихся патриотических идей с помощью современных методов, таких как личностно-ориентированное обучение, ролевые игры, решение проблемных ситуаций, анализ образов, инсценировка.*

Ключевые слова: *добродетель, верность, гуманность, духовное воспитание, нравственное воспитание, народное устное творчество, сказки, пословицы, легенды, национальные ценности, технология, педагогика*

Abstract. *This article discusses effective pedagogical technologies for educating students in the spirit of patriotism using examples of Uzbek folk art - fairy tales, epics, legends, proverbs and songs. Folk art is considered an important means of spiritual education that forms a sense of national identity, loyalty to the homeland, courage and responsibility in the younger generation. The article shows practical approaches to deeply instilling patriotic ideas in students' minds through modern methods such as person-centered education, role-playing games, problem situations, figurative analysis, and staging.*

Keywords: *virtue, loyalty, humanity, spiritual education, moral education, folk oral art, fairy tales, proverbs, legends, national values, technology, pedagogy*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar, ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan

biridir. Shu jihatdan qaralganda, xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida sayqal topgan milliy ma’naviyat manbai sifatida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega manba hissoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PQ–81-son qarorida ta’limda milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali yoshlarning tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish vazifasi belgilab qo‘yilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari ertaklar, maqollar, dostonlar va afsonalar ushbu maqsadga erishishda katta salohiyatga ega. Chunki xalq ijodi millatning tarixiy xotirasi, orzu-umidlari, g‘ururi va ruhiyatining eng yorqin ifodasidir. Chunki xalq og‘zaki ijodi-asrlar davomida elning boshidan kechirgan voqealari, orzu-intilishlari, kurashlari, tuyg‘ulari mujassam bo‘lgan bebaho ma’naviy merosdir.Xalq og‘zaki ijodi o‘zining soddaligi, hayotiyligi, obrazliligi, xalqchil ruh ulushi bilan o‘quvchilar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ma’naviy dunyosini boyitadi, ezgulik, mardlik, vatanparvarlik, adolat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o‘rgatadi.

Misol uchun:

– ertaklar – yaxshilikning yomonlik ustidan doimo g‘alaba qilishini targ‘ib qiladi;

– dostonlar – vatan himoyasi, mardlik, sadoqat g‘oyalarini singdiradi;

– maqol va matallar – xalqning hayotiy donoligini tarbiyaviy mazmunda yetkazadi;

– qo‘shiqlar va alla - mehr-oqibat, tinchlik, ezgulik ruhini shakllantiradi.

Xalq ijodi namunalarida yurtni sevish, xalq uchun xizmat qilish, adolatni ulug‘lash kabi g‘oyalar ustuvordir. Bularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarni Vatanga sadoqatli bo‘lishga milliy qadriyatlarni hurmat qilishga,ajdodlar merosiga munosib bo‘lishga,ona yurt ravnaqi uchun mas’uliyatni his etishga o‘rgatadi.“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”* dostonlaridagi vatan himoyasi, mardlik, jasorat sahnalari yoshlar ongida kuchli ruhiy ta’sir uyg‘otadi.Ertaklar orqali esa ezgulik, adolat, mehnatga halol yondashuv singdiriladi.Maqollar esa milliy g‘urur, birlik, ahillik g‘oyalarini mustahkamlaydi.Xalq og‘zaki ijodi asosida vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori natija beradi.

Jumladan:

1. Klaster (Cluster) texnologiyasi

O‘quvchilar ertak, doston yoki maqol asosida “Vatan”, “Jasorat”, “Mardlik”, “Sadoqat” tushunchalari bo‘yicha g‘oya xaritasini tuzadilar.

2. Aqliy hujum (Brainstorming)

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

O‘quvchilar xalq ijodidagi qahramonlar fazilatlari haqida fikr yuritib, ularni bugungi yoshlar hayoti bilan taqqoslaydi.

3. Rol o‘ynash (Role play)

Doston yoki ertak qahramonlari qiyofasiga kirish orqali ulardagi vatanparvarlik fazilatlarini amalda ko‘rsatib beradilar.

4. Muammoli ta’lim texnologiyasi

O‘quvchilarga doston yoki ertakdagi vaziyatlar asosida savol-topshiriqlar beriladi:

“Agar siz Alpomish o‘rnida bo‘lsangiz, yurtni qanday himoya qilgan bo‘lardingiz?”

5. Loyiha (Project) texnologiyasi

O‘quvchilar “Vatanparvarlik xalq ijodida”, “Qahramonlar merosi” kabi loyihalarni tayyorlaydi.

6. Multimedia texnologiyalari

Dostonlardan videolavhalar, audio-ertaklar, qo‘shiqlarni darsga qo‘shish o‘quvchilarda qiziqishni oshiradi.

Ushbu tizim quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– boshlang‘ich ta’limda - ertaklar, topishmoqlar asosida milliy ruh uyg‘otish;

– o‘rta ta’limda - dostonlar, rivoyatlar orqali jasorat va vatanparvarlikni mustahkamlash;

– yuqori sinflarda - qahramonlar merosini tahlil qilish, milliy g‘oya bilan bog‘lash.

Ushbu jarayonda pedagogning roli:

O‘qituvchi:

– xalq ijodi namunalarini mazmunli sharhlab beradi;

– o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;

– har bir asarni tarbiyaviy maqsad bilan bog‘laydi;

– zamonaviy texnologiyalar orqali darsni qiziqarli tashkil qiladi;

– o‘quvchilar ongiga Vatanga sadoqat tuyg‘usini singdiradi.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi -yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda eng kuchli ma’naviy vositalardan biridir. Uni pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlarni shakllantiradi o‘quvchilarning ongiga ezgulik, halollik, vatanparvarlik, shijoat kabi fazilatlarni singdirish mumkin. Maktab ta’limida xalq og‘zaki ijodini dars va tarbiya jarayoniga

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

zamonaviy uslubda kiritish, uni yoshlar uchun aktual va jozibador tarzda taklif etish bugungi pedagog oldidagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: Fan, turli yillar.
3. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha qo‘llanmalar.
4. O‘zbek dostonchilik maktabi tadqiqotlari.
5. O‘zbek xalq ertaklari to‘plami.
. Qurbonov Sh. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2002.
4. Mamarasulov B. Xalq og‘zaki ijodi: janrlar va talqin. – Samarqand: 2021.
5. Ziyodova N. Ma’naviy tarbiyaning asoslari. – T.: 2020.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASH MUAMMOLARI

R.Safarova

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya mutafakkirlar hamda jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudiri, p.f.d., prof.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’limni raqamli texnologiyalar vositasidatashki etish, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog‘liq muammolar pedagogik a’limni umumiy o‘rta ta’lim bilan uzviylash tirish imkoniyatlari, raqamli ta’lim tamoyillarini tatabiq etish shart sharoitlari haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Raqamli ta’lim, axborotlashgan ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, raqamli transformsiya, bo‘lajak o‘qituvchilar, professor o‘qituvchilar, talabalar, to‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari, sun’iy intellekt, virtual va qo‘shimcha reallik, global ma’lumotlar, blokcheyn*

Ta’limning axborotlashtirish uni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. So‘nggi yillarda ta’limni axborotlashtirish oldida turgan vazifalar inson faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlari raqamli transformatsiya sharoitida hal qilinmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida muhim tizimli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ular sun’iy intellekt, virtual va qo‘shimcha reallik, global ma’lumotlar, blokcheyn va h.k. Raqamli transformatsiya natijasida didaktik vositalari, ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari, ta’lim va tarbiya jarayoni sub’ektlari orasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlovchi instrumentlar o‘zgarmoqda. Ta’lim tizimidagi tashqi omillar ta’sirida ta’lim maqsadlari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Davlat ta’lim standartlariga tegishli tuzatishlar kiritilmoqda, ularda ta’lim natijalariga qo‘yiladigan yangi talablar raqamli kompetensiyalar aks etmoqda. Bo‘lajak mutaxassislar raqamli kompetensiyalarni egallashlari lozim. Ilmiy-metodik nashrlarda pedagogika fanining raqamli texnologiyalar bilan tizimli konvergensiyasi masalalari axborotlashtirilgan ta’lim maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik asoslar va metodik echimlar majmualari chuqur tahlil qilinmoqda.

Mutaxassislar umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish uchun birinchi navbatda pedagogik ta’lim tizimini raqamli reallik bilan bog‘liq holda modernizatsiyalash zarurligini qayta-qayta ta’kidlamoqdalar. (Borisenkov). Bu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasida ham normativ hujjatlarga o‘zgartishlar kiritishdan tortib konsepsiyalar ishlab chiqish va ularni loyihalar darajasida amalga oshirishgacha bo‘lgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-232-sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Oliy ta’limning malaka talabalari va davlat ta’lim standartlari bakalavriat darajasida pedagogik kadrlar tayyorlash mazmuni, zamonaviy axborot texnologiyalarining ishlash tamoyillarini tushunish va ularni professional faoliyatda qo‘llay olish bilan bog‘liq umumkasbiy kompetensiya bilan boyitilishi lozim. Ushbu kompetensiyalar oliy pedagogik ta’lim muassalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogika turkum fanlari o‘quv modullarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish maqsadida mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi” qabul qilingan. Ushbu konsepsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy maktab uchun pedagog kadrlar tayyorgarligining sifatini oshirish mamlakat rivojlanishi uchun juda muhim vazifa hisoblanadi, chunki mamlakatning pedagogik korpusi rivojlanish darajasi bilan uning turli sohalardagi yutuqlari o‘rtasida aloqadorlik mavjud. O‘zbekiston Respublikasida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini milliy tamoyillarini tatbiq etish uchun pedagog kadrlar tayyorgarligi sifatini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish talab qilinmoqda. Ular orasida pedagoglar tayyorgarligi mazmuni yangilanish sur’ati bilan umumiy ta’lim tizimi yangilanish sur’ati o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, konsepsiyada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash nazariyasi va metodikasi bo‘yicha istiqbolli ilmiy tadqiqotlarning etarli emasligi qayd etilgan. Bu esa yosh pedagoglarni tayyorlash natijalarining zamonaviy ta’lim, jamiyat va davlatning dolzarb ehtiyojlariga, jumladan ta’lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash talablariga to‘liq javob bermasligiga olib kelmoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qishga bo‘lgan talabni bildiruvchi insonlar soni tobora ortmoqda. Bu holat pedagogik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ham, oliy ta’lim muassasalarini bitirib, ishlashi kerak bo‘ladigan maktab o‘quvchilariga ham taaluqlidir. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik tizimini talabalarning o‘quv va pedagogik faoliyatining turli

yo‘nalishlarida raqamli instrumentlardan kompleks va o‘zaro bog‘liq holda foydalanish orqali transformatsiya qilish zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llashda ayrim o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligi tizimi oliy ta’lim tizimining bir qismi hisoblanadi va u raqamli transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda, bu esa tabiiy va muqarrar jarayondir. Shu bilan birga, ushbu tizim bo‘lajak o‘qituvchilarni umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga, ya’ni o‘quv va tarbiyaviy ishlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga, zamonaviy fan sohasiga mos axborot-ta’lim muhitini loyihalash va yaratishga, bunday muhitda samarali ishlashga, ta’limni axborotlashtirish sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va amaliy faoliyatga asoslangan tizimli yondashuv tamoyillarini amalga oshirishga tayyorlashga qaratilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining shu kabi ko‘p qirraliligi tufayli uning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq muammolar ko‘p omilli, keng qamrovli va dolzarb hisoblanadi. Ular orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Professor-o‘qituvchilar, talabalar va maktab o‘quvchilarida mavjud apparat va dasturiy ta’minotning etarli emasligi, shuningdek internet tarmog‘iga kirish imkoniyatining cheklanganligi;
2. Ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan raqamli ta’lim resurslarining didaktik va iste’molchilik xususiyatlari etarlicha yuqori emasligi;
3. Pedagoglarning ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasining pastligi.

Ta’lim jarayoni sub’ektlarining raqamli resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog‘liq birinchi muammo bugungi kunda raqamli resurslar ko‘pincha tarmoq texnologiyalari orqali yaratilishi va tarqatilishi tufayli haqiqatan ham mavjud. Pandemiya davri, ya’ni 2020 yildan boshlab ta’limning majburiy ravishda ommaviy onlayn-formatga o‘tishi ushbu muammoning ko‘lamini baholash imkonini berdi, biroq shu bilan bir qatorda uni kamaytirishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar yo‘lini belgilab olish imkonini ham yaratdi. Ta’lim muassasalarida kompyuter texnikasi parki bosqichma-bosqich kengayib bormoqda, maktablarni global tarmoqqa ulash imkoniyatlari ham asta sekin kengaymoqda. Professor-o‘qituvchilar va talabalar shaxsiy raqamli qurilmalardan tobora ko‘proq foydalanishmoqda, bu esa OTM kompyuterlariga va hatto internet tarmog‘iga murojaatlar sonini kamaytirmoqda. Shuningdek, butun dunyodagi ta’lim

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

jarayonlariga raqamli kontentlar jadal kirib kelmoqda va ushbu tendensiyani qo‘llab-quvvatlamoqda. Odatda, bunday qurilmalar sifatida noutbuklar, planshetlar va smartfonlar xizmat qiladi; ular tarmoq texnologiyalari orqali umumiy resurslarga ulanadi. Ma’lum talablarga rioya qilingan taqdirda, bu yondashuv aqlli auditoriya shakllanishiga olib keladi. Darslarni tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va maxsus o‘qitish metodikalari talab etiladi va bo‘lajak o‘qituvchilar aynan shu bilan qurollantirilishi zarur. Talabalarning shaxsiy raqamli qurilmalardan keng foydalanishini hisobga olganda, ushbu muammo asta-sekin echilmoqda va boshqa muammolarning kelib chiqishiga saba bo‘lmoqda.

Ta’limni axborotlashtirishning hozirgi bosqichida asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolar pedagogik va umumiy o‘rta ta’lim tizimlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar bilan belgilanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida qo‘llaniladigan raqamli ta’lim resurslarining didaktik va iste’molchilik xususiyatlari uning ta’lim sifatiga, professional va umumkasbiy kompetensiyalarining shakllanish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tayyorgarlik qanchalik samarali bo‘lsa, ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi ham kelajakda shunchalik samarali bo‘ladi. Shuning uchun mazkur muammolarni echish yo‘llarini bir-biridan ajratgan holda mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-232-sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi”
4. Махмудов А.Х. Совершенствование методического мастерства будущих учителей в период сифровой трансформатсии // Science Innovation. – 30-31Oct Conference 2024 – с.183-186.
5. Борисенков В.П., Гукаленко О.В., Розов Н.Х. Подготовка педагогических кадров: международный опыт и отечественные реалии. Вестник Московского университета, 2018. Серия 20. Педагогическое образование, (3), 3–16.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLLARI

Rahimov Bobir Baxodirovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari, uning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatidagi mohiyati hamda o‘quvchilarning shaxsiy rivojida o‘zligini anglash kompetensiyasining tutgan o‘rni yoritilgan. Globallashuv jarayonlari, axborot tahdidlari kuchaygan davrda yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, ularning ijtimoiy rollarni ongli qabul qilishi, shaxslararo munosabatlarda konstruktiv pozitsiyani shakllantirish kabi masalalar alohida ilmiy e’tiborni talab qilishi asoslab berilgan. Maqolada reflektiv yondashuv, emotsional-aks ettiruvchi metodlar, ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, kommunikativ hamkorlik texnologiyalari o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv, shaxsiy identitet va o‘zini anglash jarayonlarini kuchaytiruvchi samarali vosita sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, o‘quvchining o‘zini shaxs sifatida tan olishi, o‘z qadr-qimmatini his qilishi, ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan xatti-harakat namoyon etishi kabi indikatorlar ijtimoiy moslashuvchanlikning asosiy mezonlari sifatida ko‘rsatib beriladi.*

Tayanch so‘zlar*: ijtimoiy moslashuvchanlik, ijtimoiy kompetensiya, shaxsiy rivojlanish, o‘zligini anglash, identitet, refleksiya, emotsional intellekt, ijtimoiy-pedagogik omillar, tarbiyaviy muhit, kommunikativ yondashuv, simvolik interaksionizm, psixososial rivojlanish, ehtiyojlar iyerarxiyasi, ijtimoiy rollar, hamkorlik pedagogikasi, globallashuv, axborot tahdidlari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, axborot va texnologik o‘zgarishlari shaxsning moslashuvchanligi, ijtimoiy faolligi va turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila olishini taqozo etmoqda. Global axborot oqimlari, ko‘p madaniyatli ijtimoiy makon, o‘quvchi-yoshlarning o‘zaro munosabat doirasi kengayib borayotganligi ularning ijtimoiy moslashuv jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish ta’limning dolzarb pedagogik vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasi o‘quvchining yangi ijtimoiy sharoitga moslasha olish, turli odamlar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish, o‘z xatti-harakatini vaziyatga mos ravishda boshqarish, shaxslararo munosabatlarda konstruktiv pozitsiyani egallay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya o‘quvchining shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishi, o‘quv muhiti bilan uyg‘un integratsiyasi hamda turli ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun asos

bo‘ladi. Mazkur kompetensiyani shakllantirish jarayoni murakkab bo‘lib, u psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Demak, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlash uchun ta’lim jarayonida maxsus pedagogik omillarni yaratish, tarbiyaviy faoliyatni shu yo‘nalishda tizimli tashkil etish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuvchanlik shaxsning ijtimoiy muhitga integratsiyalashgan holda uni tushunishi, o‘z rolini anglash va samarali muloqotga kirishish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik adabiyotlarda mazkur kompetensiya quyidagi asosiy komponentlar orqali izohlanadi:

1. Kognitiv komponent-o‘quvchining ijtimoiy vaziyatni tushunishi, ijtimoiy qoidalar, me’yorlar va rollar haqida bilimga ega bo‘lishi. Muayyan vaziyatga mos xatti-harakatni tanlay olish qobiliyati.

2. Emotsional-motivatsion component-empatiya, boshqalarni tushunish, o‘z emotsiyalarini boshqarish, Ijtimoiy o‘zaro ta’sirga kirishish motivi, muloqotdan qoniqish olish hissi.

3. Kommunikativ component-samarali muloqot, tinglay olish, fikrni aniq yetkazish, nizolarni tinch hal qilish. Jamoa bilan ishlash va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari.

4. Xulq-atvor (behavioral) component-ijtimoiy vaziyatda mos xatti-harakatni namoyon etish, o‘zini tutish madaniyati, javobgarlikni his qilish, o‘zini boshqara olish. Mazkur komponentlar o‘quvchining ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasi shakllanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik jarayonning mazmunini belgilaydi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Umumta’lim maktablarida mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Qadriyatga yo‘naltirilgan tarbiyaviy muhit-o‘quvchilarni hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik, adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy xulqqa o‘rgatish. Maktabda sog‘lom psixologik va ijtimoiy atmosfera yaratish.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv-o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish. Har bir o‘quvchining moslashuv darajasi va ehtiyojiga qarab differensial yondashuvni qo‘llash. Murabbiylik va tutorlik texnologiyalaridan foydalanish.

3. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi metodlar-rol o‘ynash, bahs-munozara, debat, treninglar orqali ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish.

Konfliktologiya elementlarini o‘rgatish: nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish texnikalari.

4. Hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyalari- “Kichik guruhlarda ishlash”, “Hamkorlikda o‘qitish”, “Loyiha asosida o‘qitish” kabi metodlar o‘quvchilarda jamoaviy mas’uliyatni shakllantiradi. Jamoaviy faoliyat orqali ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish imkoniyati yaratiladi.

5. Real ijtimoiy tajribaga asoslangan faoliyat- mahalla bilan hamkorlik, jamoatchilik ishlarida ishtirok, volontyorlik loyihalari o‘quvchilarni real ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Ijtimoiy amaliyotlar o‘quvchining jamiyatdagi rolini anglashiga xizmat qiladi.

6. Emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar-stressni boshqarish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, empatiyani shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar. “Emotsional xarita”, “Mening kayfiyatim” kabi metodlar orqali emotsional barqarorlikni oshirish.

7. Axborot-kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish-raqamli makonda to‘g‘ri muloqot qilish, kiberxavfsizlik, onlayn nizolarni boshqarish. Media savodxonlik: yolg‘on axborotni farqlash, tarmoqdagi munosabatlarni tartibga solish.

Xorijiy mamlakat olimlaridan V.S. Mukhina, J.Mid, A.Maslou, E.Erikson kabi olimlar shaxsning ijtimoiylashuvi va moslashuvi insonning ijtimoiy faoliyatida shakllanadigan muhim bosqich ekanligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari o‘quvchining ijtimoiy moslashuvchanligi ijtimoiy munosabatlar, muloqot, tajriba va ta’lim muhiti orqali shakllanishini asoslab beradi. O‘zbek pedagog olimlari A.Musurmonova, N.Muslimov, R.Mavlonova va boshqalar ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishda ta’lim muhitining, hamkorlik pedagogikasining va tarbiyaviy tizimning ahamiyatini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

V.S.Mukhina (Valeriya Sergeevna Muxina) - mashhur rus psixologi, shaxs rivojlanishi, bolaning “Men-konsepsiyasi”, ijtimoiylashuv va shaxsning o‘zligini anglash jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bo‘yicha keng ilmiy izlanishlar olib borgan olima. Uning tadqiqotlari ayniqsa o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, identitet shakllanishi, yosh davrlar psixologiyasi va o‘zini anglash jarayonining bosqichlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

George Herbert Mead - amerikalik ijtimoiy psixolog, pragmatist falsafa va sotsiologiya maktabining yirik vakili, “Simvolik interaksionizm” nazariyasining asoschilaridan biri. Uning ilmiy qarashlari shaxsning identiteti, “Men” tushunchasi, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv jarayoni bo‘yicha zamonaviy pedagogika va psixologiyada muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mid shaxsni jamiyatdan

QOBILNIYOZIK NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ajratib bo‘lmaydigan ijtimoiy mavjudot sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, shaxs o‘zini faqat ijtimoiy muloqot, ya’ni odamlar bilan “belgilar va ramzlar orqali o‘zaro ta’sir” jarayonida anglaydi.

Abraham Maslow – amerikalik gumanistik psixologiya asoschilaridan biri, shaxs rivoji, o‘zini anglash (self-awareness), o‘zini ro‘yobga chiqarish (self-actualization) va inson ehtiyojlari iyerarxiyasi nazariyasi bo‘yicha mashhur olim. Uning fikricha, inson shaxs sifatida kamol topishi ehtiyojlar bosqichma-bosqich qondirilishi orqali amalga oshadi. Maslow nazariyasi bugungi ta’lim tizimida shaxsni rivojlantirish, o‘quvchilar motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Erik Erikson – mashhur amerikalik psixolog, “psixososial rivojlanish nazariyasi” asoschisi, shaxsning o‘zini anglash (identitet) shakllanishi, yosh davrlar psixologiyasi va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar muallifi. Eriksonning inson rivoji haqidagi qarashlari nafaqat psixologiya, balki pedagogika, tarbiya nazariyasi va ijtimoiy psixologiyada keng qo‘llanadi. U shaxsning rivojlanishini 8 bosqichli psixososial model orqali tushuntirib, har bir bosqich o‘ziga xos psixologik inqiroz (krizis) va uni hal etish mexanizmiga ega ekanligini ilmiy asoslab beradi.

Eriksonning nazariyasiga ko‘ra, inson tug‘ilgandan to umrining oxirigacha quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

Ishonch – ishonchsizlik (0–1 yosh)
Avtonomiya – sharmandalik va shubha (1–3 yosh)
Tashabbus – aybdorlik (3–6 yosh)
Mehnatsevarlik – pastlik tuyg‘usi (6–12 yosh)
Identitet – rol chalkashuvi (12–18 yosh)
Yaqqol yaqinlik – izolyatsiya (18–25 yosh)
Ijodkorlik – inertlik (25–60 yosh)
Butunlik – umidsizlik (60+)

Ushbu model pedagogik faoliyatda ayniqsa 4–5 bosqichlar (maktab va o‘smirlik yoshi) uchun nihoyatda ahamiyatli.

Respublikamiz olmilaridan A.Musurmonova o‘z tadqiqotlarida – tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy-pedagogik omillari, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuv, shaxsning ijtimoiy faolligi va barkamol inson tarbiyasiga qaratilgan. A.Musurmonovaning qarashlarining asosida tarbiya jarayonida oila-maktab-jamiyat hamkorligining ahamiyati; o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, mas’uliyat, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish; tarbiya

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

texnologiyalarining shaxsning o‘zini anglash jarayoniga ta’siri; qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitning tarbiyaviy samaradorlikka ta’siri muhim imkoniyat sifatida talqin etilgan. A.Musurmonovaning tadqiqot ishlari o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligi, shaxsiy rivoji, o‘zini anglash kompetensiyasi bo‘yicha asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi.

N.Muslimov - O‘zbekistonda pedagogik innovatsiyalar, ta’lim texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar muallifi. Olmining fikricha, pedagogik kompetentlik, pedagogning kasbiy mahorati va tayyorgarligi; innovatsion pedagogik texnologiyalar; o‘quvchilarda ijtimoiy faol pozitsiyani shakllantirish; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari. N.Muslimov ishlari ta’lim jarayonida ijtimoiy kompetensiyalar, moslashuvchanlik, hamkorlik, faol muloqot kabi sifatlarni rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

R.Mavlonova - ta’lim tarbiyasi, pedagogik jarayonning mohiyati, shaxsni rivojlantirish, tarbiya texnologiyalari bo‘yicha yetakchi olima. Uning ilmiy izlanishlari ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiylashuv va shaxs rivojiga oid nazariyalarni keng yoritadi. tarbiyaning pedagogik mohiyati va vazifalari; shaxsning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy rivoj jarayonlari; o‘quvchilar tarbiyasida integrativ yondashuv; tarbiya tizimining zamonaviy pedagogik asoslari. R.Mavlonovaning ishlari shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy shakllanish jarayonlarini ilmiy asoslashda muhim.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

1-jadval

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari bo‘yicha solishtirma

Olim	Asosiy nazariy yondashuvi	Ijtimoiy moslashuvchanlikka ta’sir qiluvchi pedagogik omillar	O‘quvchilar uchun qo‘llanishi
A.Musurmonova	Tarbiya jarayonining ijtimoiy-pedagogik mohiyati	- Oila-maktab-jamiyat hamkorligi - Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar - Qo‘llab-quvvatlovchi tarbiyaviy muhit	- O‘quvchilarda ijtimoiy faollikni oshirish - Jamiyatga moslashuvni tezlashtirish - Qadriyaviy

			yo‘nalishni shakllantirish
N.Muslimov	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik kompetentlik	- Innovatsion pedagogik texnologiyalar - Pedagogning kommunikativ mahorati - Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish	- O‘quvchilarning ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi - O‘zaro muloqot madaniyati rivoji - Pozitiv ijtimoiy munosabatlar
R. Mavlonova	Tarbiya nazariyasi va shaxs rivoji	- Ma’naviy-axloqiy tarbiya - Integrativ tarbiyaviy yondashuv - Tarbiya tizimining izchilligi	- O‘quvchilarda ijtimoiy barqarorlik - Me’yor va qoidalarni anglash - Ijtimoiy fazilatlarni mustahkamlash
J. Mid	Simvolik interaksionizm, ijtimoiy muloqot nazariyasi	- Ramzlar, til, muloqot orqali o‘zaro ta’sir - Rolga kirishish va rolni bajarish tajribasi - Jamoaviy o‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar	- O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya - Ijtimoiy rollarni tushunish va bajarish - Tengdoshlarga moslashuv
V.S. Mukhina	Bolalik va o‘smirlik psixologiyasi, “Men” konsepsiyasi	- Yoshga oid psixologik xususiyatlarni hisobga olish - Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash - Ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olish	- O‘quvchining o‘zini anglash qobiliyati - O‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish - Barqaror ijtimoiy identitetni shakllantirish

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

E. Erikson	Psixososial rivojlanish nazariyasi, identitet	- “Identitet – rol chalkashuvi” davrida qo‘llab-quvvatlash - Ijtimoiy tajriba orttirish imkonlari - Oila, maktab va tengdoshlar ta’siri	- O‘quvchining o‘z rolini topishi - Ijtimoiy moslashuv inqirozini yengish - Barqaror “Men” obrazini shakllantirish
A. Maslow	Ehtiyojlar iyerarxiyasi, o‘zini ro‘yobga chiqarish	- Xavfsizlik, muloqot, hurmat ehtiyojlarini qondirish - Motivatsion qo‘llab-quvvatlash - O‘zini anglashga imkon beruvchi pedagogik sharoit	- O‘quvchining ichki motivatsiyasini oshirish - O‘zini namoyon qilish imkoniyatlari - Ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish

Taqqoslovchi jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish ko‘p qirrali, ko‘p omilli va integrativ pedagogik jarayon hisoblanadi. Jadvalda aks ettirilgan mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari o‘zaro uyg‘un, ammo ta’kidlangan jihatlari bo‘yicha farqli metodologik yondashuvlarga ega.

Mahalliy olimlar – A.Musurmonova, N.Muslimov va R.Mavlonovaning yondashuvlari ko‘proq tarbiyaviy jarayonning pedagogik mohiyatiga, oila–maktab–jamiyat hamkorligining roliga, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojiga, shuningdek pedagog shaxsiyati va o‘qitish texnologiyalarining samaradorligiga urg‘u beradi. Ularning fikricha, o‘quvchining ijtimoiy moslashuvi avvalo o‘zida ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, jamoadagi munosabatlarga moslashish va mas’uliyatli ijtimoiy xulq ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ta’minlanadi.

A.Musurmonova ta’kidlaganidek, ijtimoiy moslashuvning asosiy sharti – bu tarbiyaviy hamkorlik muhitining vujudga kelishi bo‘lib, bunda oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi uzviylik hal qiluvchi ahamiyatga ega. N.Muslimov esa jarayonni ta’lim texnologiyalari va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bilan bog‘laydi. Uning fikricha, innovatsion metodlar o‘quvchining kommunikativ kompetensiyasini kuchaytirib, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish jarayonini tezlashtiradi. R. Mavlonova esa ijtimoiy moslashuvni ayniqsa ma’naviy-axloqiy

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

tarbiya, qadriyatlar tizimi va tarbiya jarayonining izchilligi bilan bog‘laydi. Xorijiy olimlar - J. Mid, V.S. Mukhina, E. Erikson va A. Maslowning yondashuvlari esa ko‘proq psixologik asoslangan, shaxsning ichki rivojlanish mexanizmlariga tayangan holda ijtimoiy moslashuvni tushuntiradi. Ularning qarashlari o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, emotsional intellekt va muloqot jarayonining rivojlanishi orqali ijtimoiy moslashuvga erishishini ko‘rsatadi. J.Mid ijtimoiy moslashuvni “simvolik interaksionizm” orqali izohlab, o‘quvchining ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi va jamiyat kutgan xatti-harakatlarni bajarishi samarali muloqot va o‘zaro ta’sirga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. V.S.Mukhina esa identitetning yoshga xos shakllanish mexanizmlarini asoslab, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni ijtimoiy moslashuvning poydevori ekanini ko‘rsatadi. E.Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi ijtimoiy moslashuvni “identitet – rol chalkashuvi” inqirozining muvaffaqiyatli hal etilishi bilan bog‘laydi. O‘quvchining jamiyatdagi o‘rnini aniqlashi, tengdoshlar bilan ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishi va o‘z shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlashi Erikson nazariyasida yetakchi o‘rin tutadi. A.Maslow esa ijtimoiy moslashuvni ehtiyojlar iyerarxiyasi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, o‘quvchining xavfsizlik, ijtimoiylik, hurmat va o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlari qondirilsa, moslashuvchanlik ham samarali shakllanadi. Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy olimlar ko‘proq tashqi pedagogik sharoitlar – tarbiya, hamkorlik, qadriyatlar, ta’lim metodlari - orqali moslashuvni izohlaydi. Xorijiy olimlar esa ichki psixologik jarayonlar – identitet, refleksiya, ehtiyojlar, muloqot mexanizmlari – orqali tushuntiradi. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi.

Demak, natijada ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish uchun:

qadriyatlarga boy tarbiyaviy muhit;
emotsional qo‘llab-quvvatlash;
shaxsning o‘zini anglash mexanizmlarini rivojlantirish;
kommunikativ kompetensiyalarni kuchaytirish;
maktab, oila va jamiyat hamkorligi;
innovatsion ta’lim texnologiyalari;
ijtimoiy tajriba va guruhiy faoliyat;
birgalikda ta’sir ko‘rsatishi zarur.

Demak, jadval mazmuni ko‘rsatib turibdiki, o‘quvchining ijtimoiy moslashuvchanligi shaxsning psixologik rivoji, pedagogik ta’sirlar va ijtimoiy muhit omillarining yaxlit tizimi sifatida shakllanadi. Shu sababli mazkur kompetensiyani

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

rivojlantirishda har ikkala yo‘nalish - pedagogik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasi zarur hisoblanadi.

Demak, umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ijtimoiy moslashuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur kompetensiya o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, muloqot samaradorligi, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari hamda shaxsiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishning pedagogik omillari - qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kommunikativ va hamkorlik texnologiyalari, emotsional intellektni rivojlantirish, ijtimoiy amaliyotlar va AKT madaniyati - bir butun tizim sifatida o‘quvchining shaxsiy-ijtimoiy kamoloti uchun poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Musurmonova A. Ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU, 2018.
2. Muslimov N.A. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Mavlonova R.H. Shaxsni ijtimoiylashtirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2019.
4. Mead G.H. The Philosophy of the Present. – La Salle, Illinois: Open Court, 1980.
5. Muxina V.S. Vozrastnaya psixologiya: fenomenologiya razvitiya, detstvo, otrochestvo. – M.: Akademiya, 2010.
6. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968.
7. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.

O‘QITUVCHI NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

SAVODXONLIKNING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA ALIFBO BILAN ISHLASHNING INNOVASION USULLARI: RAQAMLI PEDAGOGIK TA’MINOTINI ISHLAB CHIQISH STRATEGIYALARI

Rajabova Zaynura Olloqulovna
Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savodxonlikni shakllantirish jarayonida alifbo bilan ishlashning innovasion pedagogik usullari va ushbu jarayonni raqamli pedagogik ta’minot bilan qo‘llab-quvvatlash strategiyalari ilmiy-metodik asosda tahlil etiladi. Raqamli ta’lim texnologiyalari, interfaol alifbo modullari, sun’iy intellektga asoslangan individual o‘qitish tizimlari hamda multimodal o‘quv muhiti bolalar savodxonligining shakllanish jarayoniga qanday ta’sir etishi ilmiy yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *savodxonlik, alifbo, innovasion usullar, raqamli pedagogika, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, multimodal o‘qitish, boshlang‘ich ta’lim*

Аннотация. *В данной статье на научно-методической основе будут проанализированы инновационные педагогические методы работы с алфавитом в процессе формирования грамотности в начальных классах и стратегии поддержки этого процесса цифровым педагогическим обеспечением. Научное освещение того, как цифровые образовательные технологии, интерактивные алфавитные модули, индивидуальные системы обучения на основе искусственного интеллекта, а также мультимодальная образовательная среда влияют на процесс формирования грамотности детей.*

Ключевые слова: *грамотность, алфавит, инновационные методы, цифровая педагогика, оцифровка, искусственный интеллект, мультимодальное обучение, начальное образование*

Annotation. *This article analyzes on a scientific and methodological basis the innovative pedagogical methods of working with the alphabet in the process of forming literacy in elementary grades and strategies for supporting this process with digital pedagogical support. The scientific coverage of digital educational technologies, interactive Alphabet modules, individual teaching systems based on artificial intelligence and how the multimodal learning environment affects the process of formation of children's literacy.*

Keywords: *literacy, alphabet, innovation methods, digital pedagogy, digitization, artificial intelligence, multimodal teaching, primary education*

Ma’lumki, Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bolaning tafakkur, nutq, fonetik idrok, yozish-o‘qish malakalari shakllanadigan eng muhim poydevor bosqichidir. Raqamli transformatsiya davrida savodxonlikning boshlang‘ich bosqichida alifbo bilan ishlash yanada interfaol, multimodal va texnologik yondashuvlar asosida olib borilishi zarur.

Bugun alifbo faqat harfni tanitish vositasi emas, balki, raqamli pedagogika bilan integratsiyalashgan kognitiv-ko‘nikma rivojlantirish platformasi sifatida qaralmoqda.

Shuning uchun alifbo o‘qitishning innovasion usullarini raqamli ta’lim strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy boshlang‘ich ta’limning eng dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbekistonda boshlang‘ich sinflarda savodxonlikni o‘rgatish jarayoni Davlat ta’lim standarti, “Alifbe” darsliklari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bugungi globallashgan, raqamli makondagi bilimlar jamiyati sharoitida an’anaviy alifbo darslari o‘quvchini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi, tafakkurini kengaytiruvchi metodlar bilan boyitilishini talab etadi. Shu talabdan kelib chiqib, hozirgi kundagi darsliklar zamonaviy ruhda savodxonlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Savodxonlik – grammatik ko‘nikmalar, fonetik eshituv, tushunish, matnni anglash, yozish malakalarining kompleks shakllanishidir. Savodxonlikning boshlang‘ich bosqichida alifbo bilan ishlash jarayonining nazariy asoslari uning kognitiv-fonetik mazmunidan kelib chiqadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ✓ fonematik idrokni rivojlantirish;
- ✓ harf–ovoz muvofiqligini shakllantirish;
- ✓ asosiy bo‘g‘in va so‘z strukturasini anglash;
- ✓ nutqiy faollik va tushunish faoliyatini kengaytirish.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Yangi renessans sharoitida ta’lim jarayoni shunday namoyon bo‘lmoqdaki, endilikda faqat bilim berishga emas, balki o‘quvchining kommunikativ, axborot bilan ishlash, ijodiy hamda ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, alifbo darslarida ham o‘quvchining nutqiy faoliyati, mustaqil so‘z yaratish ko‘nikmasi, matn bilan ishlash malakasi, muloqot kompetensiyasini shakllantirish uchun harakat qilinmoqda. Bu esa, alifbo darslarida zamonaviy usullarni qo‘llash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi o‘quvchi – zamon bilan hamnafas yashab, raqamli muhitda ulg‘ayayotgan shaxs. U an’anaviy ta’lim shaklidan qoniqmaydi. Ya’ni, an'anaviy usul – quruq yodlash, takrorlash, chizishlardan voz kechib, innovasion usul – sensorli idrok, multimodal obraz, gamifikatsiya, AI yordamida shaxsga yo‘naltirilgan differensial o‘qitish kabilarni tanlash davr talabi bo‘lib qolmoqda. Demak, alifbo darslari ham savodxonlikni shakllantirish uchun interaktiv, multimodal, vizual, musiqiy va ritmik, muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Zamonaviy ta’lim, didaktika shuni ko‘rsatadiki, faqat og‘zaki tushuntirish va

an’anaviy mashq bilan cheklanish savodxonlikning to‘liq shakllanishini ta’minlash uchun kamlik qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning raqamli pedagogik ta’minotini ishlab chiqishda quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. Raqamli infratuzilmani yaratish (interfaol taxtalar, planshetlar, alifbo uchun maxsus mobil ilova, video-darslar banki);

2. Sun’iy intellektga asoslangan nazorat va diagnostikani qilib borish (bolaning o‘qish tezligi monitoringi, talaffuz aniqligi uchun AI-ovoz tahlili, xatolar xaritasi (Error mapping)**)**

3. Raqamli kontent standardlarini ishlab chiqish (yoshga mos psixologik moslik, mantiqiy ketma-ketlik, fonetik-nutqiy uyg‘unlik, multimodal integratsiya);

4. Ota-onalar bilan raqamli hamkorlik modelini ishlab chiqish **(**ota-onalar uchun mobil platform, farzandining rivojlanish paneli, uyda qo‘llash mumkin bo‘lgan raqamli mashqlar).

Bugungi kunda zamonaviy usullardan ijobiy foydalangan holda dars o‘tishning samaradorligi tadqiq qilinganda quyidagi natijalarni ko‘rsatadi:

- multisensor metodlar qo‘llanganda o‘quvchilarning eslab qolish darajasi 32% dan 79% gacha oshadi;
- o‘yinlashgan topshiriqlar qo‘llanganda darsda faollik 2 baravar ko‘tariladi;
- interaktiv mashqlar yozuv texnikasini 25–30% tezlashtiradi;
- raqamli alifbo vositalari matnni tushunish ko‘nikmasini 18% ga yaxshilaydi.

Bu metodlar o‘quvchilarni faqat harfni yodlashga emas, balki tushunish, fikr yuritish va muloqot qilishga undaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Savodxonlikning boshlang‘ich bosqichida alifbo bilan ishlash innovasion, raqamli va multimodal metodlarga asoslanishi bolalar tafakkuri, fonetik idroki, ijodiy fikrlashi hamda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini yuqori darajada rivojlantiradi. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning raqamli pedagogik ta’minotini ishlab chiqish strategiyalari esa, boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi, AI va raqamli texnologiyalar yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlaydi, o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onani yagona raqamli ta'lim ekotizimiga birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M.A. Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish. – T.: TDPU, 2022. – B. 47

2. Qosimov, U., Rahmonov, F. (2020). O‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

INSON KAMOLOTIDA MA’RIFAT VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGI

Rasulova Aziza Mirbaxramovna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’rifat va ma’naviyatning o‘zaro uyg‘unligi hamda ularning inson kamolotidagi o‘rni yoritilgan. Ma’rifat insonni bilimli va tafakkurli etib tarbiyalasa, ma’naviyat uning ruhiy pokligini ta’minlaydi. Ushbu uyg‘unlik jamiyatning ma’naviy yuksalishi va barqaror rivojlanishining asosiy omili sifatida talqin etiladi.*

Kalit so’zlar: *ma’rifat, ma’naviyat, bilim, ruhiy poklik, ,inson kamoloti, ma’naviy yuksalish, jamiyat rivoji, axloqiy qadriyatlar, tarbiya, ezgulik*

Аннотация. *В данной стате раскрывается взаимная гармония просвещения и духовности, а также их рол в совершенствовании личности. Просвещение воспитывает в человеке знания и мышление, тогда как духовност обеспечивает его внутреннюю чистоту. Такое единство рассматривается как основной фактор духовного возвышения и устойчивого развития общества.*

Ключевые слова: *просвещение, духовност, знание, внутренняя чистота, совершенствование личности, духовное возвышение, развитие общества, нравственные ценности, воспитание, добродетел*

Abstract. *This article highlights the interconnection between enlightenment and spirituality, as well as their role in human perfection. While enlightenment cultivates a person to be knowledgeable and thoughtful, spirituality ensures the purity of their soul. This harmony is regarded as a fundamental factor for the moral upliftment of society and its sustainable development.*

Keywords: *enlightenment, spirituality, knowledge, spiritual purity, human perfection, moral upliftment, societal development, ethical values, upbringing, goodness*

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi inson shaxsining kamolotida, jamiyatning ma’naviy yuksalishida va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ma’rifat insonni bilimli, tafakkurli va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirsa, ma’naviyat uning ruhiy pokligini, axloqiy barqarorligini va ezgulikka bo‘lgan intilishini ta’minlaydi. Ushbu uyg‘unlik shaxsning hayotiy qarorlarida ongli va tizimli yondashuvni, jamiyatda esa o‘zaro hurmat, tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyoti uchun ham asosiy omil sifatida qaraladi.

Ma’rifat va uning shaxsiy rivojlanishdagi roli. Ma’rifat insonni bilimli va tafakkurli qiladi, uning fikrlash doirasini kengaytiradi, hodisalarni tahlil qilish va

mantiqiy asosda baholash qobiliyatini shakllantiradi. Ma’rifat orqali shaxs o‘zining ichki va tashqi dunyosini chuqurroq idrok etadi, yangiliklarni qabul qiladi, ularni amaliy hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ma’rifat insonning ijtimoiy faolligini oshiradi, u jamiyatdagi turli ijtimoiy jarayonlarga ongli ravishda ishtirok etadi va mas’uliyatini chuqur anglaydi.

Ma’naviyat va ruhiy poklik. Ma’naviyat insonning ruhiy dunyosini tartibga soladi, qalbini ezgulik, halollik va adolat tamoyillari bilan boyitadi. U shaxsni sabr-toqat, mehr-muhabbat va insoniylik qadriyatlariga yo‘naltiradi, insonning xulq-atvorini boshqarishda va qarorlar qabul qilish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ma’naviyatning rivojlanishi shaxsni o‘zini boshqarishga, stress va qiyinchiliklarga bardosh berishga va ijtimoiy muhitga moslashishga tayyorlaydi. Shu tarzda, ma’naviyat shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlab, uning ichki dunyosini ijobiy energiya bilan to‘ldiradi.

Ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligining ijtimoiy ahamiyati**.** Ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi jamiyatning ma’naviy barqarorligi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bilimli va tafakkurli, shuningdek, ruhiy va axloqiy jihatdan pok insonlar jamiyatda o‘zaro hurmat, tinchlik va ezgulik muhitini yaratadi. Ular jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarga ongli va axloqiy jihatdan to‘g‘ri yondashadi, boshqalar bilan hamkorlik va samimiy munosabatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlaydi va ijtimoiy hamjihatlikni oshiradi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida uyg‘unlik. Ta’lim va tarbiya jarayonida ma’rifat va ma’naviyatning uyg‘unlashuvi yosh avlodni shakllantirishda asosiy shartlardan biridir. Bolalar ma’rifat orqali bilim oladi, tafakkurini rivojlantiradi, lekin bu bilimlar ma’naviyat bilan uyg‘un bo‘lmasa, shaxsning ruhiy va axloqiy rivojlanishi to‘liq bo‘lmaydi. Shu sababli, tarbiyachilar va ota-onalar yoshlarni tarbiyalashda nafaqat bilim berishga, balki ularning ruhiy dunyosini, axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga ham e’tibor qaratishlari lozim. Ta’lim jarayonida ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatish, ezgulik va insoniylik tamoyillarini uyg‘unlashtirish orqali shaxs kamoloti ta’minlanadi.

Aholining ma’naviy-ma’rifiy hayoti jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar, diniye’tiqodlarva axloqiy me’yorlarning uyg‘unligida shakllanadi. Ma’naviyat jamiyatningichkimustahkamligini ta’minlovchi muhim omil bo‘lib, inson qalbini yuksak axloqiyfazilatlarsariyetaklaydi. O‘zbekistonning boy tarixiy, madaniy va diniy merosi —xalqimizning o‘zligidachuqurildiz otgan. Bugungi kunda ham islom

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

dini aholining axloqiy tarbiyasi, savodxonligi, ijtimoiybirdamligi va ma’naviy uyg‘oqligida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilb aytganda, ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi shaxsni bilimli, tafakkurli, ruhiy va axloqiy jihatdan barkamol qiladi. Bu uyg‘unlik jamiyatning ijtimoiy barqarorligini oshiradi, o‘zaro hurmat, tinchlik va ezgulik qadriyatlarini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta’lim tizimida bilim berish bilan birga, ma’naviy tarbiya ham ustuvor vazifa sifatida qaralishi zarur. Ma’rifat va ma’naviyat uyg‘unligi shaxs va jamiyatning uzviy bog‘liqligini mustahkamlaydi va inson kamolotining eng muhim omili sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2020). *Yoshlar tarbiyasi va millat ma’naviyati*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nashriyoti.

2. Karimov, I. (2015). *Ma’rifat va zamonaviy jamiyat*. Toshkent: Sharq nashriyoti.

3.Abdurahmonov, S. (2018). *Ma’naviyat va tarbiya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

4.Qodirov, B. (2017). *Shaxsning ma’naviy va intellektual rivojlanishi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

5.Tursunov, N. (2016). *Axloqiy qadriyatlar va shaxs tarbiyasi*. Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI AXBOROT KOMPETENSIYASINI SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TARBIYA MASALASI

Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqola ta’limda bo’lajak mutaxassis tayyorlashda axborot kompetensiyasini oshirish va bunda sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy axloqiy tamoyillarini va dolzarb muammolarini o’rganishga bag’ishlangan. Muallif raqamli jamiyat va raqamli axloq masalalarini tahlil qilgan holda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali integrallashuvi shaffoflik, adolat, maxfiylik va insonga yo’naltirilganlik tamoyillarining zaruratini asoslaydi. Shuningdek, tadqiqotda insonga hurmat, ta’limda tenglik va ishonchli raqamli muhit yaratish bo’yicha amaliy tavsiyalar keltirib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *bo’lajak o’qituvchi, axborot kompetensiyasi, Sun’iy intellekt, axloqiy tamoyillar, raqamli muhit, ta’lim dastulari, etik SI*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена изучению основных этических принципов и актуальных проблем использования искусственного интеллекта при повышении информационной компетентности будущих специалистов в сфере образования. Автор, анализируя вопросы цифрового общества и цифровой этики, обосновывает необходимость соблюдения принципов прозрачности, справедливости, конфиденциальности и человекоориентированности при эффективной интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс. Кроме того, в исследовании приводятся практические рекомендации по обеспечению уважения к личности, равенства в образовании и созданию надежной цифровой среды.*

Ключевые слова: *будущий учитель, информационная компетентность, искусственный интеллект, этические принципы, цифровая среда, образовательные программы, этический ИИ*

Abstract. *This article examines the key ethical principles and current challenges of using artificial intelligence to enhance the information competence of future education specialists. By analysing issues related to the digital society and digital ethics, the author justifies the necessity of applying the principles of transparency, fairness, privacy, and human-centredness when effectively integrating artificial intelligence technologies into the educational process. The study also provides practical recommendations for ensuring respect for individuals, promoting equity in education, and creating a reliable digital environment.*

Keywords: *future teacher, information competence, artificial intelligence, ethical principles, digital environment, educational programs, ethical AI*

Biz bugun raqamli olamda yashamoqdamiz va bu raqamlashgan jamiyat bizga keng imkoniyatlar taklif qilish bilan bir qatorda biz uchun yangilik bo’lgan axloqiy

muammolarga ham sabab bo’lmoqda. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari sun’iy intellekt texnologiyalaridan ma’suliyatli qo’llash uchun axloqiy normalar va tamoyillarini belgilash muhimdir. Etika va pedagogikaning o'zaro aloqasi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy fundamental prinsiplaridan biri bo'lib, axloqiy tarbiya va qadriyatlar-asosida ta'lim pedagogik nazariya va amaliyotda har doim markaziy o'rin tutib kelgan

Etik muammolarni muhokama qilish va hal etish uchun avvalo asosiy tushunchalarni aniqlab olish foydalidir. Bizning fikrimizcha, “axloq”, “qonun” va “etika” tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim.

Biz ushbu uch tushunchadan quyidagi ma’nolarda foydalanamiz (Göbel, 2017, 27-bet va keyingi):

Axloq (Morals): Ma’lum bir davrda va muayyan jamiyatda qanday xatti-harakat, holat yoki munosabat yaxshi va ma’qul, yoki yomon va taqiqlangan deb hisoblanishi jamiyatning hukmron axloqiy me’yorlari (axloqi) sifatida tushuniladi.

Qonun (Law): Qonun — bu demokratik jarayon orqali ma’lum darajada legitimlashtirilgan, majburiy kuchga ega bo‘lgan ijobiy normalar tizimi bo‘lib, ushbu normalarga tegishli sanksiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Etika (Ethics) Tarbiya: Umuman olganda, etika — bu axloq haqidagi fan yoki falsafa bo‘lib, insonning yaxshi/axloqan to‘g‘ri va yomon/axloqan noto‘g‘ri o‘rtasidagi farqqa asoslangan xatti-harakati bilan shug‘ullanadi. Bu tushuncha ko‘pincha ma’lum guruhlar (biznes vakillari, o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqalar) yoki rollar uchun to‘g‘ri va noto‘g‘ri bo‘lgan me’yorlarni ifodalashda ham qo‘llanadi.

Raqamlashtirilayotgan jamiyatda axloqiy me’yorlarning qayta ko‘rib chiqilishi zarurdir. Raqamli texnologiyalar — kompyuterlar, algoritmlar, robotlar, sun’iy intellekt va keng miqdordagi shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash — inson faoliyatining har bir sohasiga kirib borgan sari, mavjud axloqiy me’yorlar avvalgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, raqamli tarbiya nafaqat texnik tizimlarning funksionalligi, balki inson qadriyatlari, huquqlari va jamiyat manfaatlarini himoya qilish bilan ham chambarchas bog‘liq deb qaraladi.

Raqamli tarbiyaning ikki asosiy vazifasi ko‘rsatilgan:

1. raqamlashtirilgan muhitda axloqiy oqibatlarni oldindan ko‘ra olish,
2. inson va jamiyatni himoya qiluvchi axloqiy me’yorlar va qoidalarni ishlab chiqish.

Mazkur tahlil sun’iy intellektni ta’limga integratsiya qilish kontekstida ayniqsa muhim bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishda axloqiy yondashuvning asosiy o‘ringa ega ekanini ko‘rsatadi.

Raqamli jamiyatda insonlar orasidagi har qanday munosabat raqamli vositalar orqali amalga oshadi. Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar faqatgina insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va muloqot me’yorlari hayotning barcha sohalarida ustuvor me’yorlar sifatida shakllanishi zarur. Axloqiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta’minlash, ularning barqarorligiga erishish jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun muhim ilmiy asoslarni yaratish orqali amalga oshadi. Ta’lim tizimining har bir bosqichida sun’iy intellektdan keng foydalanish oqibatida avvalambor adolatlilik, hololik, o’quvchilarning avtonomligi va pedagoglarning rollarining o’zgarib borishi kabi axloqiy muammolar dolzarblik kasb etmoqda. Misol tariqasida ChatGPT kabi neyron tarmoqlarning akademik halollik va plagiatning ta’sirini keltirishimiz mumkin. Bularning yechimi esa SI dan axloqiy foydalanish orqali o’quvchilarning ichki motivatsiyasni oshirish hamda ta’lim sifatini oshirishni taklif qilish mumkin.

Raqamli tarbiyada qadriyat tushunchasiga ham to’xtalib o’tamiz.

Qadriyatlar — bu shaxslar, hamjamiyatlar va institutlar uchun yaxshi va to‘g‘ri narsa nima, qanday xatti-harakat munosib hisoblanadi, hayotda nima muhim — masalan, adolat, hurmat va farovonlik kabi masalalar bo‘yicha shakllanadigan umumiy “mos munosabatlar”dir (Schroeder, 2021).

Raqamli texnologiyalar ayrim qadriyatlarni rivojlantirishi mumkin, biroq ular ayrim qadriyatga zid holatlarni (muammolarni) ham keltirib chiqarishi mumkin. Qadriyatlar va qadriyatga zid holatlarni tartibga solish maqsadida Ken Wilber tomonidan taklif etilgan to‘rt kvadrantdan iborat integral modeldan foydalanamiz. Sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy yondashuvni tushuntirish uchun juda qulay tushunchaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur model bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning axborot kompetensiyasini baholash va rivojlantirishda ko‘p darajali yondashuvni ta’minlaydi.

Modelning mohiyati shundan iboratki, har qanday hodisa — shu jumladan SI bilan bog‘liq axloqiy masalalar — to‘rtta o‘lchovda namoyon bo‘ladi: shaxsiy ong (I), madaniy tajriba (WE), individual xulq-atvor (IT) va ijtimoiy tizim (ITs). Bu yondashuv axloqiy me’yorlarning faqat texnik yoki faqat psixologik emas, balki ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanini ko‘rsatadi.

1. **Yuqori chap kvadrant: shaxsiy ong (I – consciousness)**

Bu kvadrant bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining axloqiy dunyoqarashi, niyati, ichki qadriyatlari va sun’iy intellektdan foydalanishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini aks ettiradi. SI asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida quyidagilar ahamiyatli:

- akademik halollikka sodiqlik;
- ma’lumotlar maxfiyligini qadrlash;
- mas’uliyatli raqamli xulq-atvorni ichki ehtiyoj sifatida his qilish;
- SI vositalariga tanqidiy fikr bilan yondashish.

Mazkur kvadrant o‘qituvchi shaxsining axloqiy yetukligini baholashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. Quyi chap kvadrant: madaniy tajriba (WE – culture)

Bu kvadrant guruh qadriyatlari, kasbiy madaniyat, ta’lim muassasasining axloqiy muhiti va jamoadagi SIga doir umumiy qarashlarni qamrab oladi. Oliy ta’limda bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- akademik hamjamiyatda axloqiy me’yorlarning umumiy qabul qilinishi;
- o‘qituvchi-trener, talabalar va bo‘lajak pedagoglar o‘rtasidagi qadriyatlar almashinuvi;
- SI texnologiyalaridan foydalanishda kollektiv mas’uliyat.

Agar madaniy muhitda axloqiy me’yorlar sust bo‘lsa, shaxsiy axloqiy qarorlar ham zaiflashadi.

3. Yuqori o‘ng kvadrant: individual xulq-atvor (IT – behaviour)

Bu o‘lchov o‘qituvchining kuzatiladigan real amaliyotini o‘z ichiga oladi. Ya’ni:

- SI vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari;
- plagiatga yo‘l qo‘ymaslik;
- noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash amaliyati;
- dars jarayonida SI yordamidan mas’uliyat bilan foydalanish.

Mazkur kvadrant axloqiy yondashuvning amaliy namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi, chunki real harakatlar axloqiy niyatning eng muhim ko‘rinishidir.

4. Quyi o‘ng kvadrant: ijtimoiy tizim (ITs – system)

Bu kvadrant institutsional tuzilmalar, siyosat, qonunchilik, texnik reglamentlar, ta’lim standartlari kabi tizimli omillarni qamrab oladi.

SIga asoslangan axborot kompetensiyasini axloqiy takomillashtirishda quyidagilar muhim:

- universitet siyosati va reglamentlari;
- ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha normativ hujjatlar;

- raqamli ta’lim infratuzilmasi;
- DigCompEdu, TESOL Technology Standards, UNESCO AI Ethics kabi xalqaro standartlarning joriy etilishi.

Bu o‘lchov axloqiy amaliyotning tizimli kafolatlarini belgilaydi.

Jahon tajribasida UNESCO tomonida tadbiq etilgan me’yoriy hujjat- “Sun’iy intellekt etikasi to’g’risida Tavsiyalar”- Sun’iy intellektni takomillashtirish va qo’llashda insonparvarlik, shaffoflik, adolat, xavfsizlik va jamiyat manfaatlarini yuqori o’ringa qo’yilishi kerakligini takidlaydi. Quyida ta’lim sohasida SI texnologiyalardan foydalanishning etik tamoyillarini, buni joriy qilishdagi dolzarb muammolarni hamda xalqaro miqyosdagi eng yahshi tajribalarni tahlil qilamiz. Bunda nazariy-amaliy yondashuvlar adolatlilik, maxfiylik va insonga yo’naltirilganlik kabi fundamental tamoyillari atrofida ko’rib chiqamiz.

Jaxondagi tadqiqotlar 58% talabalar o’z vazifalarini SI asosida tayyorlab yozayotganlarini aniqlashdi. Perkins va boshqalar (2024) generativ sun'iy intellekt vositalarining (masalan, ChatGPT) ta'limdagi akademik halollikka ta'sirini o'rganib, ushbu texnologiyalarning to'g'ri tatbiq etilishi ta'lim jarayonini yaxshilashi, lekin noto'g'ri foydalanilganda plagiat va bilimlarni tekshirmasdan ishlatish xavfini oshirishi mumkinligini isbotladilar. Mualliflar deontologik etika, konsekventializm, konstruktivist o'qitish va O'z-o'zini Aniqlash Nazariyasi (Self-Determination Theory) kabi nazariy asoslar orqali SI ni etik asosda integratsiyalash yo'llarini taklif qildilar (Perkins et al., 2024). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agar generativ SI vositalari o'quvchilarga bilimlarni konstruktiv ravishda o'zlashtirishda yordam berish, kritik fikrlashni rivojlantirish va o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular ta'limda ijobiy rol o'ynashi mumkin. Biroq, bu jarayonda o'qituvchilarning pedagogik rahbarligi va etik yo'riqnomalar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimidagi SI algoritmlarining xolisligi muammosi bir necha tadqiqotlarda chuqur tahlil qilindi. Gardner va boshqalar (2024) o'z tadqiqotlarida "FairAIED: Navigating Fairness, Bias, and Ethics in Educational AI Applications" ishida ta'limda SI algoritmlarining turli demografik guruhlarga nisbatan xolis bo'lmaslik xavfini ko'rsatdilar. Algoritmik xolislik turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin: tarixiy ma'lumotlardagi noto'g'ri tendensiyalar, algoritm dizaynidagi xatolar, yoki baholash me'yorlarining noaniq bo'lishi (Gardner et al., 2024).

Holmes va boshqalar (2024) ta'lim o'lchash sohasida SI qo'llanilishining etik muammolarini tahlil qilib, validlik, ishonchlilik, shaffoflik, adolatlik va tenglik

masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Ular algoritmik xolislik va SI qaror qabul qilish jarayonlarining shaffof bo'lmasligi tengsizliklarni davom ettirish va baholash natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini tug'dirishi mumkinligini ta'kidladilar (Holmes et al., 2024).

Wang va boshqalar (2024) ta'limda SI etikasini foydalanuvchilar (o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va ma'murlar) nuqtai nazaridan o'rgangan sistematik sharh natijalarini taqdim etdilar. Ularning tahlili 2018-2023 yillar orasida nashr etilgan empirik maqolalar asosida quyidagi asosiy etik muammolarni aniqladi (Wang et al., 2024):

1. Maxfiylik va Ma'lumotlar Xavfsizligi: O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, o'quv natijalari va boshqa sensitiv ma'lumotlarning SI platformalari orqali to'planishi va saqlanishi katta tashvish tug'diradi.
2. Shaffoflik va Tushunarlililik: Ko'plab SI tizimlari "qora quti" sifatida ishlaydi, ya'ni ular qanday qaror qabul qilishini tushunish qiyin.
3. Avtonomiya va Nazorat: SI texnologiyalari o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi avtonomiyasiga ta'sir qilishi va o'qituvchilarning pedagogik nazoratini cheklashi mumkin.
4. Adolatlik va Kirish Imkoniyati: Barcha o'quvchilar SI texnologiyalariga teng kirish imkoniyatiga ega emasligini, bu esa raqamli tengsizlikni kuchaytiradi.

Mualliflar ko'p tomonga yo'naltirilgan yondashuv (multi-stakeholder approach) orqali SI etika yo'riqnomalarini ishlab chiqishni taklif qildilar, bunda barcha manfaatdor tomonlarning fikrlari hisobga olinishi kerakligi ta’kidlandi.

Raqamli ta'limda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi muammosi ham muhim ahamiyatga ega. Sinthawarangsan va boshqalar (2023) oliy ta'limda bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni sintetik tahlil qilib, 9 ta asosiy kompetensiyani aniqladilar, ulardan biri "Etika, axloq va texnologik xavfsizlik" kompetensiyasi hisoblanadi (Sinthawarangsan et al., 2023)

Ta’limda Sun’iy intellektdan etik foydalanishning quyidagi asosiy tamoyillari belgilangan:

Shaffoflik-Sun’iy intellekt tizimlarining ishlash prinsipi, qaror qabul qilish jarayoni va ma’lumotlar ishlanishi aniq va tushunarli bo’lishi kerak. Bunda o’qituvchi, o’quvchi va ota-onalar SI dan qanday foydalanishayotganini bilishlari kerak.

Adolatlilik-Barcha o’quvchilarga SI bilan bog’liq xizmatlarning teng taqdim etilishi, diskriminatsiyaga yo’l qo’ymaslik va holislikni ta’minlanishi

Maxfiylik- O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi va ularning maqsadsiz ishlanmasligidan saqlash.

Javobgarlik- SI tizimlari natijasidan foydalanuvchilarning va mutasaddilarning javobgarligini ta'minlash. Bunda akademik xolislik va baholash xatarlaridan xabardor bo’lish nazarda tutiladi.

Shaxsga yo'naltirilganlik- SI chiqarayotgan qaror va tavsiyalar inson(o'qituvchi, o'quvchi) uchun foydali va rivojlantirilgan bo'lishi. Bundan asosiy ta'lim maqsadi - o'quvchining samarali rivojlanishi - hamma SI tatbiq etilishining markazida turishi muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytganda mahalliy kontekstda raqamli pedagogika va etika muammolari global tendensiyalar bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda, ammo milliy qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gardner, J., Brooks, C., & Baker, R. (2024). FairAIED: Navigating fairness, bias, and ethics in educational AI applications. **https://arxiv.org/abs/2407.18590**
2. Holmes, W., & Porayska-Pomsta, K. (2025). A call for caution and evidence-based research on the impact of artificial intelligence in education. *Learning: Research and Practice*. **https://doi.org/10.1108/LRP-10-2024-0001**
3. Holmes, W., Porayska-Pomsta, K., Holstein, K., Sutherland, M., Baker, T., Shum, S. B., ... & Koedinger, K. R. (2024). The rise of artificial intelligence in educational measurement: Opportunities and ethical challenges. *arXiv preprint arXiv:2406.18900*. **https://arxiv.org/abs/2406.18900**
4. Schroeder, M. (2021). Value Theory. In The Stanford Encyclopedia of Philosophy. https://plato.stanford.edu/entries/value-theory/
5. Perkins, M., Furze, L., Roe, J., & MacVaugh, J. (2024). Shaping integrity: Why generative artificial intelligence does not have to undermine education. *Frontiers in Education, 9*, 1403350. **https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1403350**
6. Sinthawarangsan, P., Wangwacharakul, V., & Dumrongrojwatthana, P. (2023). Synthesizing digital teacher competencies for teaching profession students in higher education. *International Journal of Information and Education Technology, 13*(11), 1689-1697. **https://doi.org/10.18178/ijiet.2023.13.11.1984**
7. UNESCO. (2021). *Recommendation on the ethics of artificial intelligence*. UNESCO. **https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137**
8. Wang, Y., Pan, Y., & Gong, Z. (2024). Decoding AI ethics from users' lens in education: A systematic review. *Heliyon, 10*(20), e39084. **https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e39084**
9. Wilber, K. (2005). Introduction to Integral Theory and Practice. IOS Basic and the AQAL Map. Journal of Integral Theory and Practice, 1(1), 1–40.

GERMENEVTIK YONDASHUVNING O‘QITUVCHILAR NUTQI VA MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI SPETSIFIK OMILLARI

Raximboy Djumaniyazov
Filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada germenevtik yondashuv asosida pedagogik mahoratning muhim omili bo’lgan nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyani rivojlantirish masalasi tahlil etilgan. Unda xususan, pedagog mahoratining asosiy qirralaridan bo‘lgan kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati va notiqlik san’ati haqida fikr yuritilib, ta’limning kaliti nutq va tarbiyaning kaliti xulq bilfn bog’liq ekani ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *germenevtik asos, lingvistik kompetensiya, notiqlik, nutq mahorati, germenevtika, samaradorlik, ma’naviy tarbiya, pedagogik jarayon, ritorika, voizlik, til taktikasi, tafakkur teranligi, kasbiy rivojlanish, akademik nutq, va’z, da’vat, jang san’ati, strategiya, kommunikativlik, ritor, mulohaza, voiz, ta’sirchan mexanizm, uzluksiz ta’lim.*

Annotation. *This article analyzes the issue of developing speech culture and spiritual education, which are important factors of pedagogical skills, based on a hermeneutic approach. In particular, it discusses communicative competence, speech culture and oratory, which are the main aspects of pedagogical skills, and it is scientifically and theoretically based on the fact that speech is the key to education and behavior is the key to upbringing.*

Key words: *hermeneutic basis, linguistic competence, oratory, speech skills, hermeneutics, effectiveness, spiritual education, pedagogical process, rhetoric, preaching, language tactics, depth of thought, professional development, academic speech, sermon, exhortation, martial arts, strategy, communicativeness, rhetorician, reasoning, preacher, influential mechanism, continuing education.*

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI OLIY MALAKALI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MILLIY INSTITUTI

Germenevtik metodologiyaning ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ahamiyatini ahiqlashda germenevtika – bu nafaqat matnni tushunish va sharhlash san’ati, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi, fikrni tahlil qilish va chuqur anglashga chorlovchi ilmiy yondashuv ekanligiga e’tibor qaratish lozim bo`ladi.

Bu metodologiya insoniyat tarixida yuzaga kelgan narsa va hodisalarni tushunish, ularning chuqur ma’nosini anglash va bu anglash orqali o‘z tafakkurini boyitish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida germenevtika milliy o‘zlikni anglash: yangi O‘zbekiston tarixini germenevtik yondashuv asosida o‘rganish, xalqimizning madaniy, ma’naviy ildizlarini chuqur anglashni, tarixiy hodisalarni, milliy qadriyatlarni, allomalar merosini faqat yodlash emas, ularni zamonaviy tafakkur bilan tahlil qilish, ulardan to‘g‘ri saboq chiqarishni, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish ucun muhimdir.

Germenevtik yondashuv o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki fikr yurituvchi, izlovchi, tahlil qiluvchi shaxsga aylantiradi. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchilar va tarbiyachilar uchun ayniqsa muhim. Tarix va ijtimoiy-siyosiy hodisalarni talqin qilish nuqtayi-nazaridan olganda har bir tarixiy voqea – bu oddiy fakt emas, balki chuqur ijtimoiy, madaniy va ma’naviy mazmunga ega. Ularni germenevtik metod asosida tahlil qilish, avvalgi avlodlar tafakkuri va hayot falsafasini anglashga, zamonaviy qadriyatlar bilan bog‘lashga imkon yaratadi.

Pedagogikada germenevtik yondashuvni quyidagi sohalarda samarali qo‘llash mumkin:

o‘qituvchilarning malakasini oshirishda – tarixiy, badiiy, diniy matnlar va nutqlarni zamonaviy kontekstda talqin qilish orqali dars samaradorligini oshirish.

ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda – targ‘ibot nutqlari, tarixiy-ma’rifiy mavzulardagi suhbatlar orqali auditoriyani mustaqil fikrlashga undash.

tarix va falsafa darslarida – talabalarga faktlarni yod olish emas, balki voqelik mohiyatini tushunishga asoslangan yondashuvni shakllantirish.

XXI asrda ta’limda yangi paradigma – ya’ni germenevtik yondashuv asosida fikrlash va o‘qitish zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Fanlararo integratsiya va ixtisoslashuv natijasida fanlar tobora ixtisoslashmoqda, ammo ayni vaqtda fanlararo yondashuv (interdisciplinary approach)ga bo‘lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Bu o‘qituvchidan nafaqat o‘z fani bo‘yicha chuqur bilim, balki muloqot, tahlil, kontekstual anglash, tafakkur qilish qobiliyatlarini talab qiladi. Germenevtika aynan shu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda axborot oqimi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talab etiladi, chunki bugungi globallashgan dunyoda o‘quvchi va o‘qituvchi ulkan axborot to‘lqini ostida qolmoqda. Shunday muhitda har qanday axborotni tahlil qilish, anglash, tanqidiy yondashish o`qituvchidan talab etiladigan asosiy kompetensiyalardan biriga aylanmoqda. Germenevtika o‘z mohiyati bilan matnlar, g‘oyalar, voqealar va belgilarni talqin qilish metodologiyasini taklif etadi. Germenevtika nazariyasining poydevorini yaratgan mutafakkirlar va ularning g‘oyalari ta’limda bu yondashuvning metodologik va falsafiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Germenevtika nazariyasining asoschilari va ularning qarashlari

Olim	Asosiy g‘oya va hissasi
E.Gusserl	Fenomenologiya asoschisi, bilimning mohiyatini anglash va subyekt-obyekt munosabatiga e’tibor qaratgan.
F. de Sossyur	Tilning ijtimoiy-madaniy tizim ekanligini asoslab berdi; belgi va mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirgan.
L. Vitgenshteyn	Tilning chegaralari – tafakkur chegarasi degan, har bir til o‘z kontekstida talqin qilinishi kerakligini ta’kidlagan.
M. M. Baxtin	Dialogizm nazariyasi orqali ko‘p ovozlilik (polifoniya) va matnning ijtimoiy-tarixiy kontekstini o‘rganish zaruratini ilgari surgan.
M. Fuko	Bilim va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, matn va bilimlar tizimining tarixiylikka asoslanganligini ko‘rsatgan.
G. Frege, K.G. Gempel, G.X. fon Vrigt	Mantiqiy tahlil, ilmiy uslub, va tushunchalarning aniqligi – bu fikrlarning asosiy mazmuni bo‘lib, germenevtikaning zamonaviy talqini uchun zamin yaratgan.

Ma’lumki, “Germenevtika” yunoncha “hermeneukos‖” so‘zidan olingan bo‘lib, — tushuntiruvchi, — talqin etuvchi ma’nosini bildiradi. Atama qadimgi yunon afsonalariga ko‘ra, Olimp tog‘idagi — ma’budlarning amr-farmon va xabarlarini Germes odamlarga olib kelib, tushuntirib, talqin qilib berishi natijasida germenevtika vujudga kelgan.

Shu sababli tarixchilar vositachi Germes va germenevtika termini orasida talaffuzda ham, vazifadoshlikda ham o‘xshashlik bor deb hisoblashadi. Ya’ni, Germesning ma’no va mazmunni tashuvchilik, yetkazib beruvchilik vazifasi germenevtikaning matn ma’nosini tushunish va tushuntirish san’ati ekanligi bilan bir xil. Ayrim manbalarda germenevtika sharhlash va tushuntirish san’ati, ko‘p ma’noli belgi, ishoralarni, hamda Gomer va qadimgi mutafakkirlar asarlarini talqin qilish ta’limoti sifatida ta’riflanadi. Keyinchalik, germenevtik an’ana diniy ilm ahliga muqaddas (Tavrot, Zabur, Injil va Qur’on) kitoblarni sharhlash va tushuntirishda qadimiy èdgorliklarni tarjima qilishning haqiqiy san’ati (uslubi) sifatida xizmat qila boshlagan.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Falsafa tarixi ensiklopediyasida Germenevtika keng ma’noda, ijtimoiy borliqni tushunish sharti haqidagi falsafiy ta’limot, tor ma’noda, filologiya, huquqshunoslik, ilohiètshunoslik va boshqa gumanitar sohaga taalluqli matnlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metod va qoidalar to‘plami, deb ta’kidlangan.

Ma’lumki, germenevtik yondashuv shaxsiy sifatlarni, tajribalarni va uning ahamiyatini aniqlash uchun shaxsni turli ko‘rinishlarini kuzatishga imkon beradi. Bu holatda biz pedagogik nuqtai nazaridan ta’lim oluvchilarni ta’lim beruvchilar tomonidan kuzatilishini e’tiborga olishimiz lozim. Aytish mumkinki, pedagogikada germenevtik yondashuv har qimni o‘zi kabi qabul qilish va tushunish bilan birga o‘zini ham, boshqalarni ham tushunishiga imkon beradigan pedagogik tizimlar, ya’ni “o‘qituvchi - o‘quvchi”, “o‘quvchi - o‘quvchi”, “o‘quvchi - guruh” faoliyatidagi sub’ekt va sub’ekt munosabatining kommunikativligini belgilab beradi. Bunda albatta, jonli muloqotga asoslangan bag‘rikenglikni rivojlantirish juda muhim sanaladi. Demak, ta’lim oluvchilarda bag‘rikenglikni germenevtik yondashuv asosida rivojlantirish dunyoni va o‘zini anglashning mohiyatini bilishdan boshlanadi degan xulosaga kelish mumkin.

Zamonaviy pedagogik tafakkurdagi “insonparvar ta’lim”, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va ta’limda hermenevtikaning transformativ roli bilan bevosita uyg‘unlashgan yondashuv sifatida germenevtikaning uzluksiz kasbiy rivojlanishda o‘rni quyidagilar bilan ifodalanadi:

sub’ekt–sub’ekt munosabatlarini shakllantirishda yangi bosqich sifatida germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tinglovchi, tushunuvchi, muloqotga kirishuvchi shaxs sifatida qaraladi;

ta’lim jarayoni monolog emas, balki dialogik muhitda kechadi (Baxtinning “dialogizm” g‘oyasi asosida), bu yondashuv empatiya va refleksiyaga asoslanadi – o‘qituvchi o‘z faoliyatini nafaqat baholaydi, balki o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘yib ko‘radi;

germenevtika orqali o‘qituvchi ta’limiy voqealarni shunchaki kuzatmaydi, balki ularning mazmunini talqin qiladi, kontekstual (ijtimoiy, madaniy, psixologik) anglaydi; masalan, sinfda yuz berayotgan muayyan “tashqi” muammoning asl sabablari o‘quvchining oilaviy yoki shaxsiy muammolarida yotganini anglab yetadi, bu esa diagnostika, muammo tahlili, individual yondashuv kabi ko‘nikmalarni mustahkamlaydi;

bag‘rikenglik va insonparvar muhitni qaror toptirishda germenevtika har bir o‘quvchini yagona shaxs sifatida anglashga undaydi. Bu esa ta’limni

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

insonparvarlashtirish, shaxsga hurmat bilan yondashish, tolerantlik tamoyillarini tatbiq etishga xizmat qiladi;

o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi tushunmovchilik, madaniy tafovut, dunyoqarash farqlarini muloqot orqali yechish, psixologik salomatlik, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, iqlim va muhitni yaxshilash bilan bevosita bog‘liq bo`ladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga germenevtik yondashuvlarni joriy etish ta’limni rivojlantirishga xizmat qilib, sub’ekt-sub’ekt munosabatidagi yangi konseptual bosqichni ifodalaydi. Bu yondashuv o‘qituvchining ta’lim muassasasidagi mavjud hodisalarni o‘zaro bog‘liqligini anglash, sabab-oqibatlarini aniqlash qobiliyatini anglatadi. Pedagogik germenevtikaning bag‘rikenglikni rivojlantirishdagi o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u ta’lim oluvchini tushunishga, unda mavjud bo‘ladigan “anglashilmovchilik” holatini bartaraf etishga, ta’lim oluvchilar muhitini insonparvarlashtirishning dolzarb muammolarini hal qilishga yordam beradi.

O‘qituvchining pedagogik-kasbiy faoliyatida o‘quv jarayonlaridagi ziddiyatli holatlar, murakkabliklar ob’ekt sifatida doim uni qiyinchiliklariga, tushunmovchiliklarga sabab bo‘lgan, bu holat o‘z navbatida o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi ziddiyatlarga olib keladi va bu ta’lim sub’ektlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim oluvchidagi o‘ziga xos sifatlar o‘zgaruvchan bo‘lib, bunday holatlarda empatiya, “his qilish”, “tinglash” kabi harakatlar asosidagi yaxlit tafakkur o‘qituvchining ta’lim oluvchi o‘ziga xosligini tushunishiga yordam beradi. Bu jarayonlarda germenevtik usulni o‘zlashtirishning o‘qituvchi kasbiy fikrlash madaniyatini oshirishda, o‘z bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Agar germenevtikaning asosiy tayanch tushunchalaridan biri tushunish va tushuntirish so‘zlari bo‘lsa, o‘qituvchining nutqida asosiy masala tushuntirish uchun muayyan nuqtalarni belgilab oladi.

O‘qituvchining roli faqat bilim berishdan iborat emas, balki o‘quvchining o‘zini anglashiga, dunyoqarashini rivojlantirishiga, va bilimlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining vazifasi faqat faktlarni taqdim etishdan iborat bo‘lmasdan, balki o‘quvchilarga mavzuni har xil nuqtai nazardan tahlil qilish, tushunish va anglashni chuqurlashtirishni ham o‘rgatishdir. Haqiqatni ko‘rish va haqiqatni talqin qilish har kimning shaxsiy dunyoqarashi va bilimiga bog‘liq. Bu jihat o‘qituvchining pedagogik metodlariga ham ta’sir qiladi: agar o‘qituvchi mavzuni faqat o‘zi bilgan nuqtai nazardan ko‘rsatsa, u o‘quvchining shaxsiy tahlil qilish va tasavvurlarni shakllantirishiga to‘siq bo‘lishi mumkin.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Shu o‘rinda Navoiy hazratlarining “Fil” hikoyasi haqidagi hikoyasi har bir inson o‘ziga xos fikrlar va qarashlarga ega ekanligini ta'kidlanadi. Navoiyning ushbu hikoyasidagi "filni ko‘rgan odamning tasavvuri" degan ibora shuni anglatadiki, haqiqat har bir insonning o‘z dunyoqarashi va tajribalariga qarab shakllanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga shaxsiy nuqtai nazarlarni ochishga yordam berishi lozim, chunki bu ularning fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, tahlil qilish nafaqat mavzuni o‘rganish jarayonini chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat, va bilimni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi.

Ushbu nuqtalarni amalga oshirishda o‘qituvchi:

o‘quvchilarga savollar berish: bu o‘quvchining mavzuni qanday tushunganini tekshirish va tahlil qilishga undaydi;

fikrni rivojlantirish: o‘qituvchi o‘quvchining javoblarini to‘g‘ri yo‘naltirib, uning fikrini chuqurlashtiradi;

hikoyalar yoki misollar keltirish: o‘qituvchi, navoiy kabi, o‘quvchilarga turli holatlarda haqiqatni qanday ko‘rish mumkinligini ko‘rsatish orqali ular o‘zingizning dunyoqarashingizni kengaytiradi;

tahlil qilishni o‘rgatish: o‘qituvchi faqat ma'lumotni berish bilan cheklanmay, ularni tahlil qilishga yo‘naltiradi, ya'ni mavzuga chuqurroq kirib borishga yordam beradi.

Bunda o‘qituvchi o‘zining metodik yondashuvini har bir o‘quvchining o‘ziga xos dunyoqarashini va tasavvurlarini hisobga olgan holda shakllantirishi lozim.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». – T.: «O‘zbekiston» NMIU. 2016.
2. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. “Sahhof” nashriyoti T., 2023
3. Allayarova S.N. Germenevtika. O’quv qo’llanma. Toshkent - 2017 - y
4. Navoiy A. "Vaqfiya" "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2006-y.
5. Husayn voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy. Axloqi Muhsiniy. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2018.
6. Jumaniyozov R. "Spikerlik sirlari" "O‘zbekiston" NMIU, 2022- y
7. Bekmirzaev N. Notiqlik san’ati. T., 2019 -y

AVLODLAR XUSUSIYATLARI VA RAQAMLI TA’LIM YONDASHUVLARI

Raxmatullayev Xumoyun Shafoatovich
Termiz davlat pedagogika institute Musiqa mahorati va madaniyati kafedrasi katta o`qituvchisi, dotsent v.b.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada X, Y, Z va Alfa avlodlarining psixologik, raqamli va ta’limiy xususiyatlari, shuningdek ularning raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida avlodlararo tafovutlar o‘quv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot avlodlar nazariyasi, Prenskiyning “raqamli tub aholi” va “raqamli muhojirlar” konsepsiyalari, xalqaro markazlar tomonidan e’lon qilingan hisobotlar, shuningdek musiqiy ta’lim amaliyoti asosida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turli avlod vakillari o‘qitish usullariga turlicha munosabat bildiradi: Milleniallar va Gen Z uchun interfaol, qisqa va vizual-kontekstli yondashuvlar samaraliroq bo‘lsa, Avlod X vakillari an’anaviy va digital metodlarning uyg‘unligini afzal ko‘radi. Alfa avlodida esa adaptiv texnologiyalar, gamifikatsiya va xavfsiz raqamli muhit asosiy o‘rin tutadi. Maqolada musiqiy ta’lim jarayonida avlod xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli pedagogik yondashuvlarni moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *avlodlar nazariyasi, raqamli pedagogika, raqamli tub aholi, Gen Z, Alfa avlodi, musiqa ta’limi, gamifikatsiya, adaptiv ta’lim*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности поколений X, Y, Z и Альфа в контексте их психологического профиля, цифровой грамотности и учебных предпочтений. Показано, что цифровая трансформация усиливает различия между поколениями и влияет на образовательный процесс. Исследование опирается на теорию поколений, концепции Марка Пренски о «цифровых аборигенах» и «цифровых иммигрантах», а также на отчёты международных исследовательских центров и наблюдения из практики музыкального образования. Результаты демонстрируют, что поколения по-разному воспринимают форматы обучения: для миллениалов и поколения Z наиболее эффективны интерактивные, визуальные и краткие формы преподавания, тогда как представители поколения X предпочитают сочетание традиционных и цифровых методов. Поколению Альфа наиболее подходят игровые технологии, адаптивные системы и безопасная цифровая среда. В статье предлагаются рекомендации по адаптации цифровых педагогических стратегий в музыкальном образовании с учётом межпоколенческих особенностей.*

Ключевые слова: *теория поколений, цифровая педагогика, цифровые аборигены, поколение Z, поколение Альфа, музыкальное образование, геймификация, адаптивное обучение*

Abstract. *This article examines the psychological, digital and educational characteristics of Generations X, Y, Z and Alpha, as well as their differing levels of acceptance and use of digital technologies. In the context of ongoing digital transformation, generational differences significantly influence learning behavior and instructional effectiveness. The study draws upon*

generational theory, Prensky’s concepts of “digital natives” and “digital immigrants,” as well as reports from international research organizations and insights from music education practice. The findings indicate that each generation responds differently to instructional approaches: Millennials and Generation Z benefit more from interactive, visual and concise instructional formats, whereas Generation X tends to prefer a balance of traditional and digital methods. Generation Alpha demonstrates strong affinity for gamified learning, adaptive technologies and safe digital environments. The article provides recommendations for adapting digital pedagogical strategies in music education by considering generational learning needs.

Keywords: *generational theory, digital pedagogy, digital natives, Generation Z, Generation Alpha, music education, gamification, adaptive learning*

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida bir necha avlod vakillari ishtirok etmoqda – X avlodi (1965–1980-yillarda tug‘ilganlar), Y avlodi (1981–1996-yillarda tug‘ilganlar), Z avlodi (1997–2012-yillarda tug‘ilganlar) va eng yosh Alfa avlodi (2010-yildan keyin tug‘ilganlar). Har bir avlodning raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq o‘ziga xos psixologik va ta’limiy xususiyatlari mavjud. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, avlodlararo farqlar ta’limda “raqamli tub aholi” (digital natives) va “raqamli muhojirlar” (digital immigrants) tushunchalariga sabab bo‘lgan – ya’ni, texnologiya muhitida ulg‘aygan yangi avlodlar bilan ularning o‘qituvchilari o‘rtasida ma’lum tafovutlar bor. Xususan, zamonaviy talabalarning tafakkuri va axborotni qayta ishlash uslubi oldingi avlodlardan keskin farq qiladi. Musiqa ta’limi kontekstida ham bu farqlar e’tibordan chetda qolmaydi – raqamli texnologiyalarga nisbatan turlicha munosabat va ko‘nikmalar musiqani o‘qitish usullarini moslashtirish zaruratini tug‘diradi. Raqamli vositalarni qo‘llashda yosh avlodning xususiyatlarini inobatga olish, nazariy va amaliy jihatdan, talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirishda samarali strategiya hisoblanadi. Ushbu maqolada turli avlod vakillarining xulq-atvori va o‘quv uslublaridagi farqlar tahlil qilinadi, har bir guruhga mos raqamli pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi. Shuningdek, bunday tahlil natijalarini ilmiy tadqiqot (dissertatsiya) tuzilmasida joylashtirish bo‘yicha takliflar ham beriladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda adabiyotlar sharhi usuli qo‘llanildi – turli manbalarda keltirilgan avlodlar xususiyatlari va ularning ta’limdagi ehtiyojlari haqidagi ilmiy hamda amaliy ma’lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, avlodlar nazariyasi bo‘yicha Strauss va Howe (2000) qarashlari, Mark Prenskiyning “raqamli tub aholi” konsepsiyasi (2001) hamda Twenge (2017) kabi tadqiqotchilarning ishlari ko‘rib chiqildi. Prenskiy ta’kidlaganidek, XXI asr talabalari bolaligidan raqamli texnologiyalar qurshovida o‘sgani bois an’anaviy usullar ularning e’tiborini tortmay

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

qolmoqda[1]. Shu sabab, biz avlodlar bo‘yicha e’lon qilingan so‘nggi tadqiqotlar ma’lumotlarini qiyosiy tahlil qildik. Asosiy e’tibor har bir avlodning o‘qishga yondashuvi, raqamli savodxonlik darajasi va ta’lim texnologiyalarini qabul qilishi kabi omillarga qaratildi. Olingan ma’lumotlar musiqiy ta’lim misolida talabalarning o‘quv jarayonini yaxshilash uchun qanday pedagogik yondashuvlar samarali ekanini aniqlashga xizmat qildi. Ta’kidlab o‘tish joizki, *“avlod”* tushunchasi doirasida umumiy tendensiyalar tasvirlanadi – albatta, individual talabalarda istisnolar uchrashi mumkin. Biroq avlodlarga xos o‘xshash jihatlar asosida ta’limiy strategiyalarni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishidir[1].

Izlanish doirasi: maqolada keltirilgan xulosalar avvalo O‘zbekiston oliy va o‘rta maxsus musiqa ta’limi tizimidagi kuzatuvlarga tayanadi. Adabiyotlar tahlili davomida xorijiy tadqiqotlar natijalari ham jalb etildi – masalan, Pew Research markazi avlodlarni yillarga bo‘lib o‘rganish natijalari[2], Purdue Universiteti olimi B.Bourne intervyulari[3], Frontiers in Education jurnalida chop etilgan zamonaviy izlanishlar[1]. Shuningdek, Barnes & Noble College[4] tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, Navigate360 va Acer Education[5] kabi platformalarning ta’lim trendlari bo‘yicha hisobotlari tahlilga jalb qilindi. Barcha topilmalar musiqiy pedagogika nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilib, muallifning shaxsiy pedagogik tajribasi bilan. Tadqiqot maqsadi – raqamli texnologiyalarni qo‘llashda avlodlar o‘rtasidagi tafovutlarni ilmiy asosda yoritish va ulardan kelib chiqib ta’lim jarayonini moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatishdir.

Natijalar va tahlil. Avlod X (1965–1980) – *“Raqamli muhojir”* avlod vakillari. Ushbu avlod rasmiy ta’limni analog davrda olgan bo‘lib, katta yoshida texnologiya bilan tanishgan ilk guruhlardandir. Avlod X odatda mustaqil, o‘z-o‘zini o‘qitishga moyil, hayotiy tajribaga tayanib ish ko‘ruvchi shaxslar sifatida tavsiflanadi. Ular qat’iy tartib-qoidalardan ko‘ra moslashuvchan, erkin muhitda samaraliroq o‘qiydi. Raqamli texnologiyalar bilan Avlod X vakillari faqat yoshlik davrida tanisha boshlagan – masalan, ilk shaxsiy kompyuterlar va oddiy elektron vositalar ularga yangi bo‘lgan davrda yoshliklarini o‘tkazganlar. Shu bois, ular texnologiyani qabul qilishi mumkin, lekin uni hayotining markaziga qo‘yish darajasi bo‘yicha “raqamli muhojir” sanaladilar. Masalan, ko‘plab X avlodi o‘qituvchilari axborot qidirishda avvalo internetga emas, balki o‘z an’anaviy usullariga tayanishga moyil – Prenskiy buni “raqamli aksent” deb ataydi[6]. Shu bilan birga, Avlod X vakillari ta’lim sifati uchun texnologiyaning foydasini inkor etmaydi. Avlod X uchun an’anaviy va zamonaviy usullar uyg‘unligi samarali sanaladi. Ma’ruzalarni slayd va videolar bilan

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

boyitish, mustaqil o‘qish uchun elektron manbalar berish, muammoli topshiriqlarni tajribaga asoslab qo‘yish maqsadga muvofiq.

Avlod Y – (1981–1996) – “Raqamli mahalliy” (digital native) avlodning ilk vakillari. Milleniallar bolaligidan kompyuterlar, internet va dastlabki ijtimoiy tarmoqlar bilan ulg‘aydi; shu bois juda texnologiyaga o‘ch, kompyuter-savodxonligi yuqori avlod hisoblanadi. Bu avlod vakillari jamoada ishlashga va hamkorlikda o‘rganishga intiladi, o‘zaro fikr almashish orqali bilim olishni yaxshi ko‘radi. Millenial talabalar ta’lim jarayonida darhol aloqa va mulohaza olishni kutadi va bir nechta vazifani bir paytda bajarishga moyil. Ularning diqqatini uzoq muddat ushlab turish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki ular axborotni tez, vizual shaklda olishga odatlanganlar. Shu bilan birga, Milleniallar global dunyoqarashga ega. Milleniallar uchun hamkorlikka asoslangan, interfaol o‘qitish samaraliroqdir. Pedagogik nuqtai nazardan, Milleniallar bilan ishlashda o‘qituvchi an’anaviy nazoratchi emas, balki murabbiy rolida bo‘lgani ma’qul. Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, Milleniallar rasmiyatchiliksiz, do‘stona muhitda erkin muloqot qilib o‘rganganida yuqori natijalarga erishadi Shunday ekan, qat’iy intizom va avtoritar uslubdansa, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bu avlod uchun samaraliroqdir.

Avlod Z (1997–2012) – hozirgi kunda akademik muhitdagi eng yirik yosh guruhlardan biri. Bu avlod chin ma’noda “raqamli dunyoda voyaga yetgan” – bolaligidan smartfonlar, tezkor internet, YouTube, Instagram, TikTok kabi platformalar hayotining bir qismiga aylangan[5]. Avlod Z vakillari texnologiyani instinktiv ravishda tez o‘zlashtiradi va onlayn muhitni tabiiy qabul qiladi. Psixologik jihatdan, bu avlodning diqqatni jamlash davomiyligi oldingilarga nisbatan qisqargan deb hisoblanadi – ular uzun matnli ma’ruzadandan ko‘ra qisqa, mazmunli va ko‘rkam axborotni afzal ko‘radilar. Masalan, an’anaviy dars o‘rniga qisqa video yoki infografika orqali tushuntirishni yaxshiroq qabul qilishadi. Multi-tasking – bir vaqtning o‘zida bir nechta axborot manbalarini kuzatish – ular uchun odatiy hol, biroq bu ko‘pincha e’tiborning tez chalg‘ishi va “chuqur o‘rganish”ning qiyinlashuviga olib keladi[1]. Shuning uchun o‘qituvchilardan ma’ruza vaqtini ixchamlashtirib, darslarni iloji boricha interaktiv shaklga o‘tkazish talab etiladi. Avlod Z tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular tezkor fikr-mulohaza va mukofot talabchan: shu zahoti natijani ko‘rish, baho olishni istaydilar. Masalan, agar ular test topshirsa natijasini darhol ko‘rishni xohlaydi yoki o‘yin tarzidagi topshiriqlarda ball to‘plash ularga zavq bag‘ishlaydi. Bu avlod uchun “o‘yinga xos” (gamifikatsiya) elementlar juda jozibador – raqamli nishonlar, reytinglar, onlayn musobaqalar ularni rag‘batlantirib, darsni qiziqarli o‘yin sifatida his qilishlarini ta’minlaydi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TA'LIM VA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Avlod Alfa (2010-yildan keyin) – hali juda yosh, hozir boshlang‘ich va o‘rta maktablarga kirib kelayotgan avlod. Alfa bolalari to‘liq raqamli davrda tug‘ilib o‘smoqda: ko‘pchiligining uyida kichikligidan “Alexa” yoki “Siri” kabi ovozli yordamchilar, planshetlar mavjud[5]. Shuning uchun bu avlod uchun har qanday texnologik yangilik oddiy hol – masalan, aqlli qurilmalar (smart-devices) ular nazarida hayratlanarli emas, odatiy vosita xolos. Alfa avlodining psixologik portreti shuni ko‘rsatadiki, ular interaktiv o‘yinlar va rang-barang animatsiyalar orqali o‘rganishga moyil. Kichikligidan YouTube va TikTok’ni ko‘rib katta bo‘lgan bola an’anaviy darsni quruq eshitib o‘tirishni zerikarli deb topishi tabiiy. Mutaxassislar Gen Alfa bolalarining diqqatini jalb etish va ushlab turish avvalgilarga qaraganda yanada qiyinlashganini ta’kidlaydilar – ular juda qisqa, jo‘n va jonlantirilgan kontentni xohlaydilar. Alfa avlod bolalari ijtimoiy o‘yinlar va onlayn hamkorlik muhitida o‘ynashga ham o‘rganmoqda – masalan, birgalikda Roblox yoki Minecraft o‘ynab, yoshligidan virtual jamoalarda muloqot qilishmoqda. Bu esa ularda *kooperativ* ruh, lekin bir oz yakka tartibda qaror qabul qilish odatlarini ham shakllantiryapti (o‘yinda kim bilan do‘stlashishni, nimani qurishni o‘zi hal qiladi). Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik yoshli bolalar o‘yin shaklida berilgan bilimni jiddiyroq qabul qiladi: masalan, matematikani oddiy misol yechishdan ko‘ra o‘yin orqali o‘rgansa, ko‘proq e’tibor beradi – xuddi shunday, musiqada ham notalarni yodlashni musobaqa yoki musiqiy o‘yin orqali tashkil qilish mumkin. Adaptiv ta’lim dasturlari – sun’iy intellekt yordamida bolaning bilim darajasiga mos ravishda savollar yoki topshiriqlar murakkabligini oshirib boruvchi ilovalar – Alfa avlodi uchun juda foydali. Chunki bunday tizimlar har bir bola qaysi mavzuni qanchalik tushunganini tahlil qilib, keyingi qadamda nimani takrorlash yoki nimani o‘tishga tayyorligini belgilaydi. Bu esa sinfdagi hamma bolaga bir xil yondashuvdan ko‘ra ancha samarali, zero ayrim bola tez, ayrimi sekin o‘zlashtiradi. Boshqa muhim masala – Alfa avlodiga raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini singdirish zarur. Ular yoshligidanoq internetdan foydalanmoqda, lekin uning xavf va illatlarini hali anglay olmaydi; shu bois zamonaviy boshlang‘ich ta’lim dasturlariga “Onlayn xavfsiz xulq” mavzularini kiritish muhim. Xuddi shuningdek, ularning ortiqcha ekranga tikilib qolishi oqibatlarini yengillashtirish uchun offline faoliyatlar (jismoniy mashqlar, jamoaviy o‘yinlar) bilan raqamli mashg‘ulotlarni muvozanatlashtirish lozim. Alfa avlod bolasi bilan ishlaydigan o‘qituvchi texnologiya bo‘yicha yo‘riqchi ham bo‘lishi kerak – masalan, yangi chiqqan o‘quv ilovasini o‘quvchilardan ko‘ra o‘qituvchi avval o‘rganib, ularga xavfsiz va foydali tomonlarini ko‘rsatib berishi maqsadga muvofiq.

QOBI NIYOZIY NOMDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Yuqoridagi avlodlar tavsifida keltirilgan xususiyatlar umumiy tendensiyalardir. Albatta, har bir talaba individuallikka ega: masalan, ba’zi Gen Z vakili kitob mutolaasini yaxshi ko‘rishi, yoki ayrim X avlodi vakili ham ijtimoiy tarmoqlarda juda faol bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, pedagoglar uchun avlodga xos xulq-atvor va o‘qish odatlarini bilish muayyan guruh talabalariga mos yondashuvni tanlashga yordam beradi. Masalan, agar akademik guruh tarkibida yoshi kattaroq (Avlod X yoki Y) tinglovchilar va bir paytning o‘zida yosh (Z yoki Alfa avlodi) talabalar bo‘lsa, pedagog dars metodikasini shu ikki guruhga mos tarzda aralashtirib qo‘llashi lozim bo‘ladi. Bunday moslashuv dars samaradorligini oshiradi: tajribalar shuni ko‘rsatadiki, turli yoshdagi o‘quvchilarni bir xil uslubda o‘qitish ayrim toifani zeriktirishi yoki aksincha, ayrim toifa imkoniyatidan yuqori murakkablikda qoldirishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida qayd etamizki, hozirgi kunda ta’lim jarayonida avlodlararo tafovutlarni inobatga olish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar bilan o‘ralgan holda ulg‘aygan yoshlar – Milleniallar, ayniqsa Gen Z va Alfa – o‘quv motivasiyasi, axborotni qabul qilish tezligi, ko‘nikma shakllantirish uslubi jihatidan oldingi avlodlardan farq qiladi. Bu farqlarni e’tiborsiz qoldirib, an’anaviy “bir xil ta’lim”ni barchaga tatbiq etish o‘quv samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, moslashuvchan yondashuv – ya’ni turli yosh va tajriba vakillariga mos uslub va vositalarni tanlash – o‘quv jarayonini yaxshilaydi. Xususan, musiqa ta’limida raqamli vositalardan foydalanish samarasi bevosita ushbu vositalarning auditoriya ehtiyojiga muvofiqligiga bog‘liq. Bizning tadqiqot tahlillarimiz va boshqa izlanmalar natijasi shuni ko‘rsatadiki, faol (interaktiv) o‘qitish strategiyalari barcha avlodlarda, ayniqsa Gen Z talabalarida ishtirok va mustaqil o‘qishni kuchaytiradi. Sun’iy intellekt va adaptiv tizimlar yordamida shaxsiylashtirilgan o‘qitish esa talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlaydif. Biroq, texnologiyaga ortiqcha tayangan holda inson omilini kamaytirib yubormaslik lozim – o‘qituvchi rahbarligi va mentorlik roli haligacha muhim ahamiyatga ega, ayniqsa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda[1].

Umuman olganda, turli avlod vakillarining raqamli ta’limga munosabatini ilmiy asosda o‘rganish va ta’lim jarayonini o‘quvchi-markazli va moslashuvchan qilish bugungi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishidir. Musiqa ta’limi kontekstida bu yondashuv yosh musiqachilarning kasbiy malakasini shakllantirishni tezlashtiradi va sifatini oshiradi, zero har bir talaba o‘ziga mos raqamli muhitda eng yaxshi natijasini ko‘rsata oladi. Kelajakda avlodlar almashinuvi davom etarkan, har bir yangi

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

avlodning o‘ziga xos raqamli olami bo‘ladi; pedagoglar doimo yangiliklarni kuzatib borib, ta’limni shunga qarab moslashtirishlari zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prensky M. *Digital Natives, Digital Immigrants.* On the Horizon, Vol.9 No.5, 2001.
2. Bourne B. *Generational Differences in the Workplace [Infographic].* Purdue University Global, 2019.
3. Pew Research Center. *Defining generations: Where Millennials end and Generation Z begins.* Pew Research, 2019.
4. Navigate360 Editorial Team. *Gen Z vs. Gen Alpha: Learning Styles in the Classroom.* Navigate360 Blog, 2025.
5. Acer for Education. *Millennials vs Generation Z: How education is evolving.* Acer Education Trends, 2019.
6. Sarah Chardonnens. *Adapting educational practices for Generation Z: integrating metacognitive strategies and AI.* Frontiers in Education, 2025.
7. Culp-Roche A. et al. *Generational Differences in Faculty and Student Comfort With Technology Use.* SAGE Open Nursing, 2020
8. Breezin’ Thru. *How to Engage Digital Natives in Music Theory.* BreezinThruTheory Blog, 2020.
9. Issacs et al. *Learning styles, preferences and needs of Generation Z healthcare students.* (Matn ichida keltirilgan iqtibos).
10. International Journal of Research and Innovation in Social Science. *Learning Styles and Performance of Generation Z Accounting Students.*, 2023

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

KIBERSPORTNING YOSHLAR IJTIMOIY ONG VA XULQ-ATVORGA TA’SIRI

Raxmatullayeva Farangiz
Mirzo ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy Fanlar Fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada muallif kibersportning yoshlar ongiga ta'sirini sotsiologik jihatdan tahlil qilgan. Maqolada texnologiyalar rivojlanib borayotgani sari kibersportning keng tarqalayotgani va bu holat yoshlarning ongiga ko’rsatayotgan ijobiy va salbiy tomonlari yoritilib berilgan. Kibersport bo’yicha sodir bo’layotgan yangiliklar va rivojlanishlar o’rganilib yoshlar ongiga ijobiy ta'sir qilayotgani asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *kibersport, yoshlar, raqamli axborot, raqobat, texnologiya, xulq-atvor, me’yor, faollik, raqamli jamiyat, globallashuv, interaktiv texnologiyalar, mass-media, motivatsiya, kommunikativlik, integratsiya*

Аннотация. *В данной статье автор социологически анализировал влияние киберспорта на сознание молодежи. В статье показано, что по мере развития технологий киберспорт становится все более распространенным, и освещаются его положительные и отрицательные стороны, оказывающие влияние на молодежь. Изучены новшества и достижения в области киберспорта, обосновано его положительное воздействие на сознание молодых людей.*

Ключевые слова: *киберспорт, молодежь, цифровая информация, конкуренция, технология, поведение, норма, активность, цифровое общество, глобализация, интерактивные технологии, масс-медиа, мотивация, коммуникативность, интеграция*

Annotation. *In this article, the author analyzes the influence of e-sports on the consciousness of young people from a sociological perspective. The article highlights that as technology develops, e-sports are becoming more widespread, and both their positive and negative effects on youth are discussed. Innovations and developments in the field of e-sports are studied, and their positive impact on young people’s mindset is substantiated.*

Key words: *esports, youth, digital information, competition, technology, behavior, norm, activity, digital society, globalization, interactive technologies, mass media, motivation, communicativeness, integration*

KIRISH. Bugungi kunda hammamizga ma'lumki, texnologiyalar rivojlangani sari inson hayotining barcha jabhalarida raqamli axborot vositalarining o’rni ortib bormoqda. Shu jumladan, yoshlar uchun internet, kompyuter o’yinlari kundan-kunga muhim omilga aylanib borayotgani hammamizga ma'lum. Buning natijasida esa kibersport ya'ni kompyuter o’yinlari orasidagi musobaqalar paydo bo’ldi. Hozirda O’zbekistonning 14,9 million nafar fuqarosi ushbu musobaqalarni hobby sifatida qabul qilganlar va ularning 65%ini yoshlar tashkil etadi. Bu musobaqalar qisqa vaqt davomida yer yuzini ko’ra oldi. Kibersport nafaqat hobby balki ba'zi insonlarning mo’maygina daromad topadigan asosiy kasbi hisoblanadi. Ushbu maqolada

zamonaviy texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan kibersport va uning yoshlar ongiga ta'siri to’g’risida ko’rilayotgan tashabbuslar muhokama qilinadi.

ASOSIY QISM. Ko’pgina mamlakatlarda sodir bo’layotgani kabi bizda ham kibersport masalalari ularning yoshlar ongiga ta'siri muhim masalaga aylanib bormoqda. Hukumat asosan bu sport turini yaxshi daromad topish manbayi sifatida targ’ib qiladi. Bu sohada insonlar nafaqat raqobat balki strategik fikrlashni, dunyoqarashini kengaytiradi va texnologik tafakkurini rivojlantirishlari mumkin. Bu fikrlar isbotini ko’plab sotsiolog olimlarning asarlarida ko’rishimiz mumkin.Yoshlarning kibersportga bo’lgan qiziqishi ularni ijtimoiy faolligini ko’rsatadi va yanada internetda yangi g’oyalar yangicha ixtirolarni yaratuvchanlik qobiliyatini sezilarli darajada oshirib beradi. Bundan tashqari geymerlarning 15%i 18-34 yoshli ayollar hisoblanadi. Bu haqida mashhur olim Antony Giddens o’zining "Sotsiologiya" asarida raqamli jamiyatda inson faoliyatning refleksiv xarakteri kasb etishini aytib o’tadi. Uning so’zlariga ko’ra, kibersportning yana bir ijobiy jihatlaridan biri shundaki, har bir insonda o’zini o’zi xatolarini ko’ra olish va tahlil qilish qobiliyati paydo bo’ladi. Ya'ni xatolaridan tez xulosa chiqarib, ma'suliyatli bo’lishni, hayot strategiyalarini yaratishni, qiyin vaziyatlardan osonlikcha chiqib keta olish va eng muhimi jamiyat ishlarida faol bo’lib insonlarni boshqara olishni o’rganadi.

Emil Dyurkgeym esa “De La Division Su Travail Social” asarida jamiyatdagi birlik va solidaritetning ahamiyatini yoritgan. Birlik bor yerda g’alaba bo’lishini tushuntirib bergan. Sababi agar biz birdam bo’lsak hech kim bizni yenga olmaydi. Dyurkgeymning olib borgan tadqiqotlarida shuni ma'lum qildiki, ijtimoiy birdamlik har bir kishining umumiy maqsadi sari harakat qilish orqali namoyon bo’ladi. Kibersport jamoalari ham shu zaylda shakllantiriladi. Ya'ni birinchi navbatda o’yinchilar orasida o’zaro ishonch, hamkorlik, birdamlik va bir maqsad ortidagi harakat hisoblanadi. Shu orqali yoshlar o’zining ijtimoiy tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ustiga-ustak, u xalqaro musobaqalar orqali yoshlarni vatanparvarlik hissini oshiradi, O’zbekiston nomini butun olamga tanitadi. Shu sababli ham kibersportga to’gri yo’naltirilgan, maqsadli va qo’llab-quvvatlashlar bo’lgan yerda biz doim g’alabani ko’ramiz. Raqamli axborot nafaqat o’yin, balki raqamli tafakkur maktabidir. Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ham bu haqda ko’plab ma’ruzalarida va kitoblarida to’xtalib o’tgan. Shu jumladan, Prezidentimiz kibersport turlari global raqobatga tayyor avlod sifatida tarbiyalash, har bir inson raqamli axborot haqidagi tushunchalarga ega bo’lishlari uchun ko’plab yengilliklar yaratmoqdalar. 2022- yıl 20- yanvardagi

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

nutqida u shunday degan edi: “Yoshlarni zamonaviy kasblarga o’qitish IT sohasida ularning qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish - bu nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy yetuklik kamolotidir.”

Bu fikr kibersportga bo’lgan talabning ko’pligini bildiradi va biz hozirda ko’plab insonlarni huddi shu sohaga jalb qilib, boshlang’ich ma'lumotlarni to’la yoritib berolsak kelajakda yoshlarimiz ham yurtimiz uchun ham o’zlari uchun ko’plab ijobiy faoliyatlar olib bora oladilar.

Kibersport yoshlar orasida tez ommalashayotgan raqamli madaniyatning bir shakli hisoblanib, bu sport turi faqat ijobiy emas, balki ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Eng avvalo, kibersportga haddan tashqari mukkasidan ketish - insonning jismoniy faoliyatini sustlashib ketishi ko’z nuri pasayishi, psixologik kabi sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkin. Barchamizga ma'lumki, ayrim yoshlar o‘yinni maqsadsiz foydalanib, ko‘ngilochar vosita sifatida foydalanadilar va natijada hayotiy rejalardan chalg‘ib qoladi. Ustiga-ustak, animiya kasalligi ham shu tarzda kelib chiqadi. Germaniyalik neyropsixolog L. Kiefer o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, kuniga 5 soatdan ortiq kompyuter o‘yinlariga berilgan yoshlar orasida migren, ko‘rish nervi charchashi va vegetativ asab tizimi disbalansi holatlari ko‘paygan. Unga ko‘ra, bu jarayon miyadagi dopamin tizimining haddan ortiq faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, vaqt o‘tgan sari inson nogiron va hissizlashib boraveradi. Biroq bu holatda inson butun boshli kantentni inkor etishdan ko’ra to‘g‘ri yo’lga qo’ya olishimiz darkor. Biz bunda zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali kibersportni nazoratli, maqsadli qilib cheklab, muntazam nazorat ostiga olib to’g’ri yo’naltirish orqali yuksaltirishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo’lsak, sport psixologiyasi sohasidagi yangi tadqiqotlar o‘yin jarayoni orqali insonning diqqat, tez fikrlash va strategik qaror qabul qilish qobiliyati kuchayishini ko‘rsatmoqda, ya'ni tadqiqotlar kibersport afzalligini isbotlamoqda. Anthony Giddens “refleksiv o‘zini anglash” tushunchasini ommaga tanitgan. Unga ko‘ra, inson o‘z harakatlarini tahlil qila olsa, ularni ijobiy tomonga yo‘naltira oladi. Insonda o’zini o’zi boshqara olish qobiliyati rivojlansagina bu yuksalish abadiy bo’ladi degan. Kibersportda ham o‘yinchini ongli o‘yin madaniyatiga o‘rgatish orqali vaqtni boshqarish, sog‘lom turmush tarzini saqlash va muvaffaqiyatni maqsad bilan bog‘lash mumkin.

Yana bir salbiy holat - kibersportdagi online muloqotlar inson real hayotdagi aloqalarni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, yoshlar do‘stlari, oilasi bilan kam muloqot qilsa, bu ijtimoiy chekinishga olib keladi. Insonda o’ziga nisbatan past nazarda qarash, hayotdan qoniqmaslik hissi paydo bo’ladi. Natijada o’z bolaligini mazmunsiz yo’qotadi. Ammo bu muammoni ta’lim va raqamli psixologiya orqali

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

hal etish mumkin. Masalan, onlayn turnirlar jamoaviy hamkorlik, mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar bilan qiziqtirilsa virtual aloqalar ijtimoiy faollikka aylanishi mumkin. Shundagina inson ham real dunyoda ham virtual muloqotda faol bo’ladi

Emil Dyurkgeym jamiyatda “ijtimoiy birdamlik”ni saqlash har qanday yangi hodisaning asosiy vazifasi ekanini aytib o’tgan. Shu nuqtai nazardan, kibersportni jamoaviylik ruhida tashkil etish yoshlarni raqamli jamiyatda ham bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, hurmat qilishga olib keladi. Bu salbiy holatlarni kamaytirib, hamkorlik madaniyatini mustahkamlaydi.Shuningdek, kibersport ayrim hollarda moliyaviy xavf tug‘dirishi mumkin. Avval aytib o’tilganidek, insonlar o’z hayotlarini xavf ostiga qo’yib turli xil o’yinlarda pul, mashina, uy va shu kabi mol-mulklarini evaziga qo’yib qimorbozlikni yo’lga qo’ymoqdalar. Ammo bu holatlarda davlat tomonidan turli chora-tadbirlar ko’rilib jazolar tayinlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar siyosatida “raqamli madaniyatni tarbiyaviy jarayon bilan uyg‘unlashtirish” zarurligini alohida urg’u berganlar. Demak,kelajakda kibersport nafaqat o‘yin, balki tarbiyaviy va kasbiy yo‘nalishda yo‘naltirish orqali salbiy holatlar ijobiy natijaga aylantiriladi.Umumiy qilib aytadigan bo’lsak, kibersportning salbiy tomonlari uni to‘g‘ri boshqarish va maqsadga yo‘naltirish orqali ijobiy natijalarga erishiladi. U yoshlarni mantiqiy to’ğri fikrlash, jamoa bilan ishlash, rivojlanayotgan texnologik asrda o‘z o‘rnini topa olish kabi sifatlarni shakllantiradi. Natijada, salbiy ko‘rinayotgan jihatlar insonni o‘zini tahlil qilish, o‘zini rivojlantirish va sog‘lom raqobatga tayyorlaydigan vositaga aylanadi. Ustiga-ustak kibersportdan kelayotgan daromad oddiy ishchilar maoshidan ancha yuqori. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan 2022-yilning 16-noyabr kuni kibersport rasman alohida sport turi etib belgilandi. Darxaqiqat ushbu qaror yoshlar orasida kibersportni rivojlantirish hamda yoshlarni xalqaro maydonda raqobatbardosh bo‘lishlariga turtki berishini ham alohida ta’kidlash lozim.

Xulosa. Muxtasar qilib aytadigan bo’lsak, kibersportning yoshlar ongiga biroz salbiy tarafi bo’lsada, uning ijobiy taraflari salbiy taraflaridan ustunroq. Albatta zararli jihatlariga biroz e’tibor berib muntazam “ijtimoiy nazorat” ostiga olinsa, kelajakda bu sport turi yanada yuksalib yurtimiz uchun ham manfaatli bo’ladi. Biz hozirda kibersportni bugungi yoshlar uchun shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki yangi davr tafakkurining yangicha talqinida intelektual sport tariqasida talqin qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kibersport yoshlarimiz dunyo bilan bog‘lagan holda, turli millat va madaniyat vakillarini birlashtiradi va ular bilan

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

muloqot qilish imkonini beradi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Kibersport ommalashishi natijada o‘zaro kirishimlilik, sabr-toqat va raqobatbardoshlik rivojlanadi. Shuni ta’kidlab o’tishimiz joizki, albatta o‘yin va hayot o‘rtasida muvozanatni saqlash zarur. Agar yoshlar bu sohaga mas’uliyat bilan yondashsalar, u nafaqat ko‘ngilochar, balki bilim, tahlil, sabr va g‘alabaga intilish maktabiga aylanishi mumkin. Mening fikrimcha, kibersportni cheklash emas, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish kerak. Chunki u zamonaviy avlod uchun o‘zini namoyon etish, o‘rganish va rivojlanishning yangi imkoniyatlar maydoni bo’layotganini ko’rishimiz mumkin.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ANATOMIYA FANINI O‘QITISH SPORT YO‘NALISHIDAGI TALABALARNI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI

Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna
Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasi o’qituvchisi
Olimova Aziza Ixtiyor qizi
Navoiy davlat universiteti Biologiya ta’lim yo’nalishi talabasi

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘z davrida Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarimiz jismoniy tarbiya va sportning insonda barkamollik fazilatlarini tarbiyalashdagi o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tganlar. Keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan globallashuv davrida sportning ommaviyligini har tomonlama oshirish va uning barkamol avlodni tarbiyalash vositalaridan biri ekanligi turli adabiyotlarda keng tahlil qilinmoqda.

Jismoniy tarbiya yo'nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda anatomiya fanining o‘rni juda muhimdir, chunki u inson tanasining tuzilishi va funksiyasini chuqur o‘rganishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya (sport va jismoniy madaniyat) yo‘nalishida anatomiya fanini o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni beradi, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda, jarohatlardan himoyalanishda va sport samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tananing tuzilishi (anatomiya) va funksiyalarini (fiziologiya) tushunish orqali, harakat qilganda, mashq qilganda yoki sport bilan shug‘ullanganda barcha tizimlar qanday birgalikda ishlashini yaxshiroq tushunish mumkin. Inson tanasi turli vazifalarga ixtisoslashgan qismlardan tashkil topgan. Ushbu qismlar qanday tashkil etilganini va qanday ishlashini o‘rganish jismoniy faoliyat va sport bilan shug‘ullanish uchun juda muhimdir.

Zamonaviy sharoitda anatomiyani o‘rganishda an’anaviy usullarni (masalan, tabiiy anatomik preparatlar, muzey ko‘rgazma namunalari va boshqalardan foydalanish) *zamonaviy axborot texnologiyalari* bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bu esa talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Katta hajmdagi material, ko‘plab murakkab atamalar va o‘rganiladigan tuzilmalar talabalar uchun laboratoriya mashg‘ulotlari va imtihonga mustaqil tayyorgarlik jarayonida

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

yordam beradigan o‘quv adabiyotlari zaruratini keltirib chiqardi. «Osteologiya», «Artrosindesmologiya» va «Miologiya» bo‘limlarining tuzilmasini zamonaviy kompyuter usullari yordamida qayta ishlash va illyustrativ material tayyorlash orqali modernizatsiya qilish ishlari olib borish zarur. Chunki bu ularning anatomik tuzilish va mushak-harakat tizimlarini tushunishini osonlashtiradi, murakkab kontseptsiyalarni vizual tarzda ko‘rsatadi, mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi va mashg‘ulot jarayonini samarali qiladi. Shuningdek, bu ishlar talabalarni zamonaviy xalqaro standartlarga mos bilim bilan ta’minlaydi hamda ularning kelajakda murabbiy yoki pedagog sifatida amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Inson tanasi turli tizimlardan tashkil topgan bo‘lib, ular birgalikda ishlaydi va turli sport va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Masalan, sportchi bir necha soniya ichida dam olish holatidan maksimal tezlik bilan yugurishga o‘tishi mumkin. Suyak va mushak tizimlari birgalikda ishlab, tanamizga turli harakatlarni bajarish imkonini beradi. Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari esa “yetkazib berish xizmati” sifatida harakat qilib, tanaga kislorod va oziqa moddalarni yetkazadi, ular esa mushaklarning qisqarishi uchun energiya ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bu tizimlarning har biri qanday ishlashini tushunish uchun talabalar suyak, mushak, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining tuzilishini o‘rganadilar. Ushbu tizimlarning anatomiyasi farq qilsa-da, ularning ishlash jihatidan har biri o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ushbu tana tizimlarini tushunish sport va faol dam olish sohalarida juda muhimdir, chunki bu tananing qanday ishlashini va mashq paytida yuzaga keladigan turli stresslarga qanday moslashishini tushunishga yordam beradi.

Anatomiya organizmdagi turli tarkibiy qismlarning tuzilishi va joylashishini tushuntirib, ularni tushunish uchun asos yaratadi. Anatomiya har bir qismning, molekulalardan suyaklargacha, qanday o‘zaro ta’sir qilib, bir butun funksional tizimni tashkil etishini o‘rganadi. Anatomiya tana qismlarining tuzilishi, joylashuvi va tashkil etilishi haqida ma’lumot beradi. Anatomiya – organizmlarning, shu jumladan insonning jismoniy tuzilishi bilan shug‘ullanuvchi ilm sohasidir. U organizmni tashkil etuvchi turli tizimlar, a’zolar va to‘qimalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

"Jismoniy tarbiya" yo‘nalishida anatomiya fanini o‘qitish inson organizmining tuzilishini tushunish uchun zarur bo‘lib, mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish, sog‘liqni mustahkamlash, jarohatlarning oldini olish va yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi. Anatomiya fanini bilish jismoniy madaniyat bo‘yicha

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

bilimlarni hayotda va kasbiy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llash uchun asosiy poydevor hisoblanadi.

Anatomiya mushaklar, suyaklar va bo‘g‘imlarning qanday ishlashini tushuntiradi. Bu mashqlarni to‘g‘ri bajarish va harakat ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Tana tuzilishini bilish o‘z sog‘lig‘iga ongli munosabatda bo‘lish, jismoniy yuklamani to‘g‘ri tanlash va ortiqcha zo‘riqishlarning oldini olishga yordam beradi. Anatomiya fanini bilish mashqlarni noto‘g‘ri bajarish yoki organizmning tayyor emasligi bilan bog‘liq jarohatlarni oldindan ko‘ra bilish va ularning oldini olish imkonini beradi. Mushaklar va tana tizimlarining ishlash prinsiplari haqidagi bilimlar jismoniy tarbiya mutaxassisiga maqsadli va samarali mashg‘ulot dasturlarini tuzish imkonini beradi. Anatomiya, fiziologiya, sport biomexanikasi kabi jismoniy tarbiya bilan bog‘liq boshqa fanlarni o‘rganish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Inson anatomiyasi, shubhasiz, nafaqat tibbiyot, balki jismoniy tarbiya yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun ham asosiy o‘quv fanlaridan biridir. Uning asoslarini bilmasdan turib, talabalar tomonidan tibbiy-biologik yo‘nalishdagi fanlarni o‘zlashtirishni, shuningdek, bo‘lajak pedagog va murabbiy tomonidan mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni tasavvur etish qiyin. Anatomiya fanini o‘qitishning asosi, har qanday boshqa o‘quv fanidagi kabi, metodik ta’minotdan iborat bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturiga, shuningdek, o‘qituvchi va talabalarga mo‘ljallangan uslubiy tavsiyalarga tayanadi. O‘rganilayotgan fan bo‘yicha bilimlarni muvaffaqiyatli va sifatli egallash bevosita ushbu faning o‘quv-metodik ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq.

Jismoniy harakatlarni to‘g‘ri bajarishda anatomiya fanining ahamiyati.

Birinchidan, sport harakatlarining ilmiy asosini tushunish. Anatomiya o‘quvchilarga mushaklar, suyaklar, bo‘g‘imlar va ligamentlarning tuzilishi va funksiyalarini o‘rgatadi. Masalan, yugurish, sakrash yoki og‘irlik ko‘tarishda qaysi mushak guruhlari ishlayotganini bilish texnikani to‘g‘ri bajarishga yordam beradi. Harakatlar samaraliroq bo‘lib, energiya sarfi optimallashtiriladi.

Ikkinchidan, jarohatlardan profilaktika qilish. Anatomik bilimlar orqali o‘qituvchi va sportchilar bo‘g‘imlarning chegaraviy yuklanishini, mushaklarning cho‘zilish darajasini baholay oladi.

Uchinchidan, individual yondashuvni ta’minlash. Har bir insonning skelet tuzilishi, mushak tonusi va bo‘g‘im moslashuvchanligi farq qiladi. Anatomiya bu farqlarni aniqlashga yordam beradi, shuning uchun dars rejasi shaxsiy xususiyatlarga

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

moslashtiriladi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar guruhida rivojlanish bosqichlarini hisobga olish uchun zarur.

To’rtinchidan, o‘qituvchilar malakasini oshirish. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari anatomiyani bilmasa, xato mashqlarni tavsiya qilishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida bu fan majburiy bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini ta’minlaydi.

O‘qituvchi noto‘g‘ri bajarilgan mashqlarning organizmga salbiy ta’sirini (masalan, bo‘g‘imlarning shikastlanishi, mushaklarning zo‘riqishi) oldindan bashorat qila oladi. Masalan, og‘irlik ko‘tarishda noto‘g‘ri texnika bel umurtqalariga zarar yetkazishi mumkin. O‘qituvchi organizmning tuzilishi (suyaklar, mushaklar, bo‘g‘imlar, organ tizimlari) va ularning fiziologik funksiyalarini tushunadi. Bu ularga o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini (masalan, yurak-qon tomir tizimi yoki mushaklarning holati) to‘g‘ri baholash imkonini beradi. O‘qituvchi qaysi mashqlarning ma’lum mushak guruhlari yoki organ tizimlariga ta’sir qilishini biladi. Masalan, aerobik mashqlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashga yordam bersa, kuch mashqlari mushaklarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Anatomiya fanini jismoniy tarbiya yo‘nalishida o‘qitish – bu nafaqat bilim, balki xavfsiz, samarali va ilmiy asoslangan sport madaniyatini shakllantirishning kalitidir. Ushbu fanni e’tiborsiz qoldirish jarohatlar, samarasizlik va kasbiy xatolarga olib keladi. Anatomiya bo‘yicha bilimlar o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy mashqlarni tanlash, taqsimlash va bajarishni nazorat qilish ko‘nikmalarini beradi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, jarohatlanishlarning oldini olish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, o‘qituvchi har bir o‘quvchining jismoniy va psixologik rivojlanishiga mos dastur ishlab chiqib, ularning salomatligini saqlashga va o‘quv yutuqlarini oshirishga hissa qo‘shadi.

Kelajakdagi jismoniy madaniyat pedagoglari uchun anatomiya fanidan bilimlar nafaqat maktabda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish, shaxsiy, professional va jamoat gigiyenasi qoidalarini asoslash, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullarini tushunish uchun, balki o‘sib kelayotgan avlodda sog‘liqni saqlashning hayotdagi asosiy qadriyat ekanligini anglashni shakllantirish uchun ham zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

2. A. Ahmedov, X. Rasulov. Odam anatomiyasi, bolalar anatomiyasi asoslari bilan.: darslik . T.: «Iqtisod-moliya», 2016, -632 b.
3. Березовская Р.А. Отношение к здоровью // Здоровая личность / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Речь, 2013. – Б. 214-244.
4. Замараев В. А.,. Година Е. 3, Никитюк Д. Б. Анатомия для студентов физкультурных вузов и факультетов учебник и практикум. Москва - Юрайт - 2018
5. Лисицын Ю.П. Общественное здоровье и здравоохранение: Учебник для вузов. - М.: Гэотар-мед. 2002.
6. Raxmonova D.O. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilariga anatomiya fanini o’qitishning metodik tamoyillari va innovatsion usullari. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal.2025, № 5.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O‘QUVCHILARDA G‘OYALARNI GENERATSIYALASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Rustamov Nazir Choriyevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish texnologiyasining mohiyati, uni amaliyotga joriy etishning afzalliklari hamda o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishdagi samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *loyiha asosida o‘qitish, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiya, innovatsion ta’lim, tanqidiy fikrlash, motivatsiya, kreativ, o‘quv jarayoni*

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratish, muammolarga kreativ yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bunday maqsadga erishishda loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni real hayotiy muammolarni yechish jarayoniga jalb etish orqali ularning ijodiy va amaliy faoliyatini rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi - bu o‘quv jarayonini o‘quvchilarning faol ishtirokiga, mustaqil izlanishiga, hamkorlikdagi o‘rganishga va real hayotiy muammolarga yechim topishga yo‘naltiruvchi innovatsion ta’lim yondashuvidir. Ushbu texnologiya o‘quvchi shaxsini o‘quv jarayonining markaziga qo‘yadi, ya’ni o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quv faoliyatini yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi shaxs sifatida qatnashadi.

Loyiha asosida o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyat, tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘quvchilar ma’lum bir mavzu yoki muammo bo‘yicha izlanish olib boradilar, ma’lumot to‘playdilar, uni tahlil qiladilar va o‘zlari ishlab chiqqan mahsulot - loyiha natijasini yaratadilar. Bu mahsulot turlicha bo‘lishi mumkin:

- taqdimot yoki video rolik;
- amaliy loyiha (masalan, ekologik loyiha, texnik model, dasturiy yechim);
- tahliliy hisobot yoki maqola;
- ijtimoiy loyihalar (xayriya aksiyasi, mahalla uchun foydali tashabbus va h.k.).

Loyiha asosida o‘qitishning asosiy g‘oyasi shundaki, o‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish, sinov, muhokama va tajriba orqali o‘zi kashf etadi**.** Shunday jarayon natijasida, o‘quvchi nafaqat yangi bilim oladi, balki uni real hayotda qo‘llashni o‘rganadi.

Loyiha asosida o‘qitish quyidagi tamoyillarga tayangan holda tashkil etiladi:

a) faollik va mustaqillik tamoyili - o‘quvchi o‘quv jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi.

b) hamkorlik va jamoaviylik tamoyili - loyiha guruhda bajariladi, bu esa ijtimoiy muloqot, mas’uliyat va yetakchilik sifatlarini rivojlantiradi.

d) natijaviylik tamoyili - har bir loyiha aniq yakuniy mahsulotga ega bo‘lishi kerak.

e) amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili - loyiha mavzusi hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

f) refleksiya tamoyili - o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni ko‘radi va o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadi.

An’anaviy darsda o‘qituvchi bilim manbai, o‘quvchi esa uni tinglovchi sifatida ishtirok etsa, loyiha asosida o‘qitishda rollar tubdan o‘zgaradi. **O‘qituvchi** - rahbar, yo‘naltiruvchi, maslahatchi va motivator. U o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq beradi, resurslarni tanlashda yordam beradi, ammo tayyor javobni bermaydi. **O‘quvchi** - izlanuvchi, tadqiqotchi, yaratuvchi va ijodkor. U loyiha jarayonida mustaqil qaror qabul qiladi, muammolarni hal qiladi, jamoa bilan muloqotda bo‘ladi.

Loyiha asosida o‘qitish odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoni aniqlash - o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikda dolzarb masalani tanlaydilar.

2. Rejalashtirish - vazifalar taqsimlanadi, maqsad va kutilayotgan natija belgilanadi.

3. Izlanish va ma’lumot to‘plash - o‘quvchilar turli manbalardan axborot yig‘adilar, tahlil qiladilar.

4. Ijodiy faoliyat - to‘plangan ma’lumot asosida yangi mahsulot yaratiladi.

5. Taqdimot va baholash - loyiha natijasi sinf yoki jamoa oldida himoya qilinadi.

6. Refleksiya - o‘quvchi o‘z faoliyatini baholaydi, xulosalar chiqaradi.

Loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar muammolarni mustaqil hal etish, qaror qabul qilishni o‘rganadilar, ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va mantiqiy tahlil ko‘nikmalari rivojlanadi. Bundan tashqari, yangi g‘oyalarni ilgari

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

surish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar hamda fanlararo integratsiyani amalga oshiradilar.

Ta’lim jarayonida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, yangicha g‘oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi bu borada katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiya orqali o‘quvchilar muammoni mustaqil tahlil qilish, innovatsion yechimlar topish va o‘z g‘oyalarini amaliy natijaga aylantirishni o‘rganadilar. Bunda quyidagi metodik usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan:

Birinchidan, O‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun dars jarayonida hayotiy, dolzarb va ularning qiziqishlariga yaqin bo‘lgan muammoli vaziyatlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, sabab–natija munosabatlarini tahlil qilish va yangicha yechim taklif etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, ekologik muammolar, ijtimoiy tarmoqdagi axloqiy masalalar, maktab hayotidagi tashkiliy muammolar asosida kichik loyihalar ishlab chiqish o‘quvchilarda g‘oyalarni generatsiyalashni rag‘batlantiradi. Muammoli vaziyat shunchaki topshiriq emas, balki o‘quvchini fikrlashga majbur etuvchi, izlanishga undovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarda kreativ g‘oyalar ishlab chiqish jarayonini faollashtirishda interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, o‘z g‘oyasini ifoda etish va himoya qilishga o‘rgatadi. Jumladan, “Aqliy hujum” jarayonida o‘quvchilar muammoni yechish uchun imkon qadar ko‘p g‘oya taklif qiladilar; bu esa kreativlikni rag‘batlantiradi. “Klaster” metodi yordamida esa g‘oyalar tizimlashtiriladi, ular orasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. “Debat” va “Rol o‘ynash” metodlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, dalillash va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilar g‘oya yaratish, uni baholash va amaliy shaklga keltirish bosqichlarini puxta o‘zlashtiradilar.

Uchinchidan, bugungi raqamli davrda o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etishda turli onlayn platformalar va raqamli vositalardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, Canva, Google Workspace, Miro kabi interfaol platformalar yordamida o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini vizual shaklda ifoda etish, jamoaviy tarzda loyiha hujjatlarini tayyorlash va taqdimotlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday texnologiyalar o‘quvchilar orasida raqamli madaniyatni rivojlantiradi, ularni zamonaviy axborot muhitida mustaqil ishlashga o‘rgatadi va g‘oya generatsiyasini tezlashtiradi.

QOBIL NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

To‘rtinchidan, har bir loyiha yakunida o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va kelgusi faoliyatini rejalashtirishi zarur. Refleksiya jarayoni o‘quvchilarda o‘z fikrini baholash, g‘oyalarini qayta ko‘rib chiqish, yangi yondashuvlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro fikr almashish va konstruktiv tanqidni qabul qilishga o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchi o‘z ijodiy faoliyatini ongli ravishda rivojlantirishga intiladi.

Beshinchidan, har bir o‘quvchining qiziqishlari, iste’dodi va individual imkoniyatlari bir-biridan farq qilgani bois, loyiha asosida o‘qitishda differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda vazifalarni taqsimlashi, ularni mos rol va topshiriqlarga yo‘naltirishi zarur. Masalan, kommunikativ qobiliyati kuchli o‘quvchi loyiha taqdimotini tayyorlasa, tahliliy fikrlovchi o‘quvchi ma’lumotlarni tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Bu yondashuv nafaqat g‘oya generatsiyasini samarali tashkil etadi, balki o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga ham zamin yaratadi.

Yuqorida keltirilgan usullar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda g‘oyalarni generatsiyalash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Loyiha asosida o‘qitish orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashni, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishni va ularni amaliy natijaga aylantirishni o‘rganadilar. Bu esa ta’lim jarayonining asosiy maqsadi - ijodkor, faol va mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. - Toshkent: “Science and innovation”, 2024. - 186 bet.

2. Jalolov J. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim tizimi.” - Toshkent: O‘qituvchi, 2022.

3. Mavlonova R., Qodirova F. “Zamonaviy ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalar.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

4. Thomas J. W. “A Review of Research on Project-Based Learning.” – California: Autodesk Foundation, 2020.

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURINING MAQSADLARI VA O‘ZGARUVCHAN PARAMETRLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TAVSIYALAR

Sardorbek Palvannazirov Xamrobek o‘g‘li

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Xalqaro tadqiqotlar markazi direktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada TIMSS xalqaro baholash dasturining rivojlanish bosqichlari, uning konseptual asoslari va raqamli davr talablariga mos ravishda o‘zgarib borayotgan parametrlarining mazmuni keng yoritilgan. Tadqiqotda an’anaviy qog‘oz formatidan elektron formatga (eTIMSS) o‘tish jarayoni, muammolarni hal qilish va tadqiqot (PSI — Problem Solving and Inquiry) topshiriqlarining joriy etilishi, hamda kognitiv domenlarning murakkablashuvi (xususan, Mulohaza Yuritish) ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, TIMSS 2023 siklida qo‘llanilgan innovatsion adaptiv test dizayn texnik yangiliklar ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimini ushbu xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish va o‘qituvchilarning baholash savodxonligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *TIMSS, xalqaro baholash, kognitiv domen, Mulohaza Yuritish, eTIMSS, raqamli test, adaptiv dizayn, STEAM, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В данной статье широко освещены этапы эволюционного развития международной программы оценивания TIMSS, ее концептуальные основы и содержание изменяющихся параметров в соответствии с требованиями цифровой эпохи. В исследовании научно проанализирован процесс перехода от традиционного бумажного формата к электронному (eTIMSS), внедрение заданий по решению проблем и исследованию (PSI — Problem Solving and Inquiry), а также усложнение когнитивных доменов (в частности, Рассуждение). Также рассмотрены технические новшества цикла TIMSS 2023, такие как инновационный групповой адаптивный дизайн и ландшафтный интерфейс. Разработаны научно-практические рекомендации по адаптации системы образования Узбекистана к этим международным стандартам, модернизации учебных программ и повышению оценочной грамотности учителей.*

Ключевые слова: *TIMSS, международная оценка, когнитивный домен, Рассуждение, eTIMSS, цифровое тестирование, адаптивный дизайн, STEAM, качество образования.*

Abstract. *This article broadly covers the stages of the evolutionary development of the TIMSS international assessment program, its conceptual foundations, and the content of its changing parameters in line with the demands of the digital age. The study scientifically analyzes the transition process from the traditional paper format to the electronic format (eTIMSS), the introduction of Problem Solving and Inquiry (PSI) tasks , and the increasing complexity of cognitive domains (specifically, Reasoning). Technical innovations of the TIMSS 2023 cycle, such as the innovative group-adaptive design and landscape interface, are also discussed. Furthermore, scientific and practical recommendations have been developed for adapting the education system*

of Uzbekistan to these international standards, modernizing curricula, and enhancing teachers' assessment literacy.

Keywords : *TIMSS, international assessment, cognitive domain, Reasoning, eTIMSS, digital test, adaptive design, STEAM, quality of education.*

KIRISH. Zamonaviy globallashuv sharoitida davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti bevosita inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Shu bois, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar, xususan, Matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha xalqaro o‘rganish dasturi (TIMSS) bugungi kunda milliy ta’lim tizimlarini isloh qilishda eng muhim indikatorlardan biriga aylandi.[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida[6] belgilanganidek, milliy ta’lim tizimini rivojlantirish va ta’lim sifatini xalqaro standartlarga olib chiqish strategik vazifa hisoblanadi. Xususan, 2030-yilga kelib PISA (Xalqaro talabalarni baholash dasturi) reytingi bo‘yicha jahonning 30 talik ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishga erishish maqsad qilingan.[7]

TIMSS dasturi shunchaki o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlovchi vosita bo‘lib qolmay, balki ta’lim siyosatining samaradorligini o‘lchovchi, maktab infratuzilmasi, o‘qituvchi malakasi va o‘quv dasturlarining xalqaro talablarga mosligini tahlil qiluvchi global monitoring tizimi sifatida faoliyat yuritmoqda.[3] So‘nggi yillarda ushbu dasturning maqsadlari va baholash parametrlarida kuzatilayotgan tub o‘zgarishlar O‘zbekiston ta’lim tizimi oldiga ham yangi strategik vazifalarni qo‘ymoqda.

TIMSS dasturi maqsadlarining rivojlanishi va yangi parametrlar -TIMSS dasturining asosiy maqsadlari vaqt o‘tishi bilan statik bilimlarni tekshirishdan dinamik kompetensiyalarni baholashga tomon o‘zgardi. Dastlabki bosqichlarda o‘quvchilarning aniq fanlar bo‘yicha faktik bilimlari asosiy e’tiborda bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda dastur ta’limdagi global trendlarni aniqlash va kontekstual omillarni tahlil qilishga qaratilgan keng qamrovli maqsadlarni ilgari surmoqda.

Kognitiv domenlarning murakkablashuvi: mulohaza yuritishga e’tibor - TIMSS baholashi talabalarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini uchta asosiy kognitiv sohada baholaydi: Bilish (*Knowing*), Qo‘llash (*Applying*) va **Mulohaza Yuritish (*Reasoning*)**. Bu uchinchi soha muntazam muammolarni hal qilishdan tashqariga chiqib, notanish vaziyatlar, murakkab kontekstlar va ko‘p bosqichli muammolarni yechishni o‘z ichiga oladi.[2]

8-sinf matematikasi bo‘yicha baholashning taxminan 25 foizi aynan *Mulohaza Yuritish* kognitiv domeniga ajratilgan.[8] Bu esa o‘quvchilardan nafaqat ma’lumotni

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

yodlashni, balki uni tahlil qilish, sintez qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va bilimlarni yangi, noodatiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini talab qiladi.

TIMSS kognitiv domenlari (8-sinf Matematikasi) (1-jadval)

TIMSS kognitiv sohasi (8-sinf)	**Salmog‘i**	**Asosiy maqsad (TIMSS ta’rifi)**	**O‘zbekiston strategiyasi (moslashuv)**
Bilish (Knowing)	35% [8]	Faktlar, tushunchalar va protseduralarni bilish. [8]	Asosiy bilimni mustahkamlash.
Qo‘llash (Applying)	40% [8]	Bilimni aniqlangan muammolarni hal qilishda ishlatish. [8]	An'anaviy mashg'ulotlar orqali ko'nikmalarni mustahkamlash.
Mulohaza Yuritish (Reasoning)	25% [8]	Notanish vaziyatlar, murakkab kontekstlar va ko‘p bosqichli muammolarni yechish. [8]	Asosiy Maqsad: STEAM [7] / PISA [9] talablariga mos yuqori tartibli fikrlashni rivojlantirish.

Raqamli transformatsiya va eTIMSS yangiliklari - TIMSS dasturidagi eng katta konseptual o‘zgarish — bu an’anaviy qog‘oz formatidan to‘liq raqamli platformaga, ya’ni eTIMSS tizimiga o‘tishdir. Yangi parametrlar doirasida "Muammolarni yechish va tadqiqot" (PSI — Problem Solving and Inquiry) bloklarining kiritilishi o‘quvchilardan nostandart fikrlashni talab etmoqda.[1]

PSI topshiriqlari interaktiv simulyatsiyalar va real hayot ssenariylarini o‘z ichiga oladi, masalan, 8-sinf tabiiy fanlarida "Qalampir o‘simliklari" topshirig‘ida o‘quvchilar eng samarali o‘g‘itni aniqlash uchun virtual tajriba o‘tkazishi, sozlamalarni o‘zgartirishi va natijalarni kuzatishi mumkin.[1]

TIMSS 2023 dagi texnik va metodologik innovatsiyalar - TIMSS 2023 siklida baholashning aniqligi va samaradorligini oshirish maqsadida bir qator muhim yangiliklar joriy etildi:

Guruhli adaptiv dizayn: TIMSS 2023 yangi, innovatsion guruhli adaptiv dizayndan foydalandi.[3] Ushbu dizayn baholashni ishtirokchi mamlakatlardagi o‘quvchilar populyatsiyasi bilan yanada yaxshiroq moslashtirishga imkon beradi.[3]

Interfeysning yangilanishi: Baholash interfeysining yo‘nalishi eTIMSS 2019 dagi portret (vertikal) oriyentatsiyasidan landshaft (gorizontal) oriyentatsiyaga o‘zgartirildi [4], bu xalqaro miqyosda o‘quvchilar foydalanadigan qurilmalarga mos kelish uchun qilingan.[2]

Munosabat va natijalar: TIMSS 2023 xalqaro natijalari shuni ko‘rsatdiki, matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lgan o‘quvchilar ushbu fanlarda yuqori natijalarga erishadilar.[2]

O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishga doir strategik tavsiyalar

TIMSS dasturidagi ushbu o‘zgarishlarga moslashish va O‘zbekistonning xalqaro reytingdagi natijalarini yaxshilash, shuningdek, 2030-yilgacha ilg‘or davlatlar safiga kirish maqsadiga [7] erishish uchun ta’lim tizimida kompleks islohotlarni amalga oshirish zarur.[6]

1. Milliy O‘quv Dasturlarini Integratsiyalashgan Modernizatsiya Qilish

Amaldagi darsliklar va o‘quv metodikalarini qayta ko‘rib chiqib, ularda yodlashga qaratilgan nazariy ma’lumotlarni qisqartirish va o‘rniga real hayotiy muammolarga asoslangan amaliy topshiriqlarni ko‘paytirish lozim.[5] O‘quvchilarga **STEAM yondashuvi** (Fan, Texnologiya, muhandislik, San’at va Matematika) orqali fanlararo integratsiyani chuqur o‘rgatish lozim.[7] Bu yondashuv bolalarga dunyoni tizimli o‘rganish, atrofdagi jarayonlarni mantiqiy mushohada qilish orqali kognitiv o‘rganish darajasini rivojlantiradi.[7]

2. O‘qituvchilarning baholash savodxonligini oshirish

Pedagoglarni xalqaro baholash mezonlari (PISA [9], TIMSS) asosida dars o‘tishga tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq.[5] O‘qituvchilar dars jarayonida faqat standart testlardan emas, balki formativ baholash usullaridan foydalanishga o‘tishlari kerak. Pedagoglar amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida [5]:

O‘quvchining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatini.

Hayotda tadqiqotlarni qo‘llay olish ko‘nikmasini.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

Analiz-sintez fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga [5] qaratilgan metodikalarni qo‘llashlari zarur. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri TIMSSning *Mulohaza Yuritish* kognitiv domenida talab qilinadigan ko‘nikmalarni shakllantiradi.[2]

3. Raqamli pedagogika vositalarini keng joriy etish

eTIMSS formatiga, xususan, PSI vazifalariga tayyorgarlik ko‘rish uchun maktablarda virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. O‘quvchilarni TIMSS 2023 da qo‘llanilgan **landshaft interfeysi** [2] kabi raqamli test platformalariga moslashtirish va ma’lumotlarni elektron shaklda tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim. Shuningdek, fanlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun interaktiv va qiziqarli raqamli kontentdan foydalanish muhim, chunki bu o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir qiladi.[2]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, TIMSS xalqaro baholash dasturining o‘zgaruvchan parametrlari jahon ta’lim tizimi "bilimlar iqtisodiyoti"dan "kompetensiyalar iqtisodiyoti"ga o‘tayotganidan dalolat beradi. *Mulohaza Yuritish* (Reasoning) kognitiv domenining ustuvorligi [2] va innovatsion guruhli adaptiv dizaynning joriy etilishi [3] O‘zbekiston uchun ta’lim sifatini xalqaro standartlarga olib chiqish imkoniyatidir. Yuqorida keltirilgan o‘quv dasturlarini isloh qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimiz o‘quvchilarining kelajakda raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.[7] Milliy ta’lim siyosatini (PF-60) [6] xalqaro baholash talablari bilan sinxronlashtirish O‘zbekistonning global ta’lim makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. von Davier, M., Kennedy, A., Reynolds, K., Fishbein, B., Khorramdel, L., Aldrich, C., Bookbinder, A., Bezirhan, U., & Yin, L. (2024). *TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science*. IEA.
3. von Davier, M., Fishbein, B., & Kennedy, A. M. (2024). *TIMSS 2023 Technical Report: Methods and Procedures*. IEA.
4. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., Kelly, D. L., & Fishbein, B. (2020). *TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science*. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
5. Oliy Ta’lim Muassasalarida Kognitiv O‘rganish Darajasini Rivojlantirishda STEAM

Ta’limining Ahamiyati. *Xalq ta’limi* jurnali, 2022, 2-son.

6. Xodiyev, B. Y. (2023). PISA Xalqaro Baholash Dasturi Asosida O‘quvchilarning Tabiiy-Ilmiy Savodxonligini Rivojlantirishning Kontseptual Asoslari. *Zamonaviy Ta’lim*, 6 (127).
7. OECD. Programme for International Student Assessment (PISA).
8. TIMSS & PIRLS International Study Center. (2019). *The TIMSS 2019 Problem Solving and Inquiry (PSI) Tasks*.
9. TIMSS & PIRLS International Study Center. (Official Website). Boston College.
10. TIMSS & PIRLS International Study Center. (2019). *TIMSS 2019 Mathematics Content and Cognitive Domains (M8)*.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

TA’LIM VA TARBIYA JARAYONLARIDA RAQAMLI KONTENTLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYALASH

Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi Katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’limiy kontent va uning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida kontentlardan foydalanish strategiyalari, turli yoshdagi o‘quvchilar ongida kuzatuvchanlik, tahlil, baholash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Muallif tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kontentlarni ilmiy-tahliliy asosda ishlab chiqish, ta’limiy jarayonga bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi haqida taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *kontent, tanqidiy fikrlash, tafakkur, tahlil, vizual material, matn, ta’lim, video, kuzatuv, interaktiv, kompetensiya, rivojlanish*

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается образовательный контент и его роль в развитии критического мышления у учащихся. Также анализируются стратегии использования контента в современном образовательном процессе, подходы, направленные на формирование навыков наблюдательности, анализа, оценки и формулирования выводов у учащихся разных возрастов. Автор выдвигает предложения и рекомендации о необходимости разработки на научно-аналитической основе контента, способствующего развитию критического мышления, и поэтапного внедрения его в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *контент, критическое мышление, мышление, анализ, визуальный материал, текст, образование, видео, наблюдение, интерактивность, компетенция, развитие*

Abstract. *This article provides detailed information about educational content and its role in developing critical thinking skills in students. It also analyzes strategies for utilizing content in modern educational processes and approaches aimed at fostering skills of observation, analysis, evaluation, and drawing conclusions in students of various age groups. The author puts forward proposals and recommendations on the necessity of developing content that promotes critical thinking on a scientific and analytical basis, as well as the gradual implementation of such content into the educational process.*

Keywords: *content, critical thinking, reasoning, analysis, visual material, text, education, video, observation, interactive, competence, development*

Ta’limiy kontent — bu o‘quvchilarning bilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash, ularni mantiqan izlash, solishtirish, o‘rganayotgan ma’lumotlarni tahlil qilishga undaydigan turli ko‘rinishdagi axborot materiallari majmuasidir. Bugungi raqamli

davrda bunday kontentlar darsliklarda, o‘quv platformalarida, mobil ilovalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, videodarslarda, testlar va amaliy topshiriqlarda keng qo‘llanilmoqda. O‘quvchi har kuni ko‘plab kontentlar bilan to‘qnashadi, ammo ularning barchasi tanqidiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi, deb bo‘lmaydi. Shu sababdan ularni tizimli asosda ishlab chiqish masalasi dolzarbdir.

Kontentlarning umumiy tasnifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:

Matnli kontent. Maqola, izoh, matnli topshiriq, bahs-munozara savollari, nazariy ma’lumotlar o‘quvchilarni dalillarni ajratish, asosiy g‘oyani aniqlash, muallif pozitsiyasini tahlil qilishga undaydi. Tanqidiy fikrlashning boshlang‘ich bosqichlari aynan matnli materiallar orqali shakllanadi.

Grafik kontent. Diagrammalar, jadval, infografika, kontseptual xaritalar, taqqoslash jadvallari o‘quvchining kuzatuvchanligini oshiradi. Vizual tarzda berilgan ma’lumotlar murakkab tushunchalarni yengil tushuntiradi va o‘quvchini mustaqil xulosaga olib keladi.

Video kontent. Tajribalar, ilmiy izohlar, animatsiyalar, savol-javobli videolar, muammoli vaziyatga asoslangan roliklar o‘quvchilarga fakt va fikrlarni farqlashni o‘rgatadi. Bunday videomateriallar nafaqat ma’lumot beradi, balki o‘quvchini faol fikrlash jarayoniga jalb qiladi.

Audio kontent. Podkastlar, suhbatlar, audio izohlar eshitish orqali tahlil qilishni, asosiy g‘oyani aniqlashni, tinglangan ma’lumotni mantiqan qayta shakllantirishni rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida ayniqsa videokontentning o‘rni katta. Chunki mazmunli videorolik o‘quvchini nafaqat tinglashga, balki o‘ylashga, fikr yuritishga, muammoli vaziyatlarga yechim izlashga majbur qiladi. Ammo savol tug‘iladi: mavjud kontentlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yetarlimi? Ular zamonaviy ta’lim standartlariga mosmi? O‘quvchilarni mustaqil mushohada jarayoniga jalb eta oladimi? Shu kabi savollarga javob topish uchun kontentlarni yaratishda ilmiy yondashuv zarur.

Bizningcha, tanqidiy fikrlashga xizmat qiluvchi ta’limiy kontent ishlab chiqish uch bosqichli tizim asosida tashkil etilishi lozim:

1-bosqich: G‘oya, reja va ssenariy tayyorlash

Sifatli kontent yaratishning boshlang‘ich nuqtasi — puxta o‘ylangan ssenariydir. U o‘quvchi ongida savol uyg‘otishi, javob izlashga undashi, muammoni ko‘ra olish, solishtirish va xulosa chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga olishi kerak. Shu

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

sababdan ssenariyni pedagoglar, ilmiy xodimlar, psixologlar, ota-onalar va sohaga aloqador ekspertlar birgalikda ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

2-bosqich: Sifatli ta’limiy mahsulot yaratish

Bu bosqichda texnik jamoa — videomontajchilar, grafik dizaynerlar, ovoz ustalari, kontent ishlab chiquvchilar ssenariyni vizual va interaktiv mahsulotga aylantiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan kontent aniq mantiqiy ketma-ketlikka ega bo‘lishi, muammoli vaziyatlarni yoritishi va o‘quvchini mustaqil tahlilga undashi kerak.

3-bosqich: Targ‘ibot, ommalashtirish va ta’limga integratsiya

Yaxshi kontent yaratilgani bilan ish tugamaydi. Uni to‘g‘ri auditoriyaga yetkazish, ta’lim jarayoniga joriy etish ham muhim bosqich. Televideniye, YouTube, Telegram, o‘quv platformalari, maktab medialari va taniqli pedagog-blogerlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, sifatli ta’limiy kontent — o‘quvchining tafakkurini o‘stiruvchi eng muhim omillardan biridir. Shu ishlarni sifatli tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarori bilan “Bolalar kontentini rivojlantirish markazi” tashkil etildi va faoloyat yuritmoqda. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish esa kelajak avlodning intellektual salohiyati va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-183-son. Bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-7528758
2. https://www.unisender.com/ru/glossary/chto-takoe-kontent-kak-on-privlekaet-vnimanie-auditorii/#anchor-1

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TABBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

RAQAMLI MUHITDA TALABA-YOSHLARNING HALOLLIK TAMOYILLARIGA SODIQLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Shavkatova Shaxrizoda Sherzod qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli muhitda talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, halollik tamoyillariga sodiqlikni mustahkamlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni oshirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki halollik madaniyatini tarbiyalovchi ijtimoiy institut sifatida muhim o‘rin tutishini asoslaydi. Maqolada halollik, ijodkorlik va fuqarolik faolligi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch asosiy omil sifatida yoritilib, korrupsiyasiz jamiyat qurishda talaba-yoshlarning shaxsiy mas’uliyati va tashabbuskorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *halollik madaniyati, korrupsiyaga qarshi kurash, ijodkorlik, ijtimoiy faollik, talaba-yoshlar, Yangi O‘zbekiston, fuqarolik mas’uliyati*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-философские аспекты формирования у студенческой молодежи непримиримого отношения к коррупции, укрепления приверженности принципам честности, развития творчества и социальной активности. Подчеркивается, что в условиях Нового Узбекистана система образования играет важную роль не только как институт передачи знаний, но и как социальный институт воспитания культуры честности. В статье раскрывается взаимосвязь между честностью, креативностью и гражданской активностью как тремя ключевыми факторами, от которых зависит построение общества без коррупции.*

Ключевые слова: *культура честности, борьба с коррупцией, креативность, социальная активность, студенческая молодежь, Новый Узбекистан, гражданская ответственность*

Annotation. *This article analyzes the socio-philosophical aspects of forming an uncompromising attitude toward corruption among student youth, strengthening their commitment to the principles of integrity, and developing creativity and social activity. It emphasizes that, under the conditions of New Uzbekistan, the education system plays a crucial role not only as an institution of knowledge transmission but also as a social institution that cultivates a culture of honesty. The article reveals the interconnection between integrity, creativity, and civic activity as three key factors that determine the building of a corruption-free society.*

Keywords: *culture of integrity, anti-corruption, creativity, social activity, student youth, New Uzbekistan, civic responsibility*

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash har bir jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy inqiroz manbai sifatida yoshlarning e’tiqodi va adolat tuyg‘usiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu

bois, talaba-yoshlar ongida halollik, poklik va mas’uliyatni shakllantirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni tarbiyalash dolzarb vazifa sanaladi. Ta’lim muassasalari bu jarayonda asosiy rolni bajaradi. Chunki aynan oliy ta’lim muhitida halollik madaniyati, fuqarolik faolligi va ijtimoiy adolat qadriyatlari mustahkamlanadi. “Halol talaba – halol jamiyat” tamoyili yoshlarning hayotiy pozitsiyasiga aylangandagina korrupsiyasiz kelajak sari qadam qo‘yish mumkin bo‘ladi. Halollik – insoniyat ma’naviy kamolotining eng yuksak qadriyatlaridan biridir. U shaxsning vijdon, adolat, mas’uliyat va poklik tamoyillariga sodiqligini bildiradi. Falsafiy jihatdan halollik – bu inson so‘zi bilan amali o‘rtasidagi uyg‘unlik, ichki e’tiqod va tashqi xulq-atvor birligi sifatida talqin etiladi. “Halollik – insonning ichki haqiqatga sodiqligi, u o‘zini aldamaslikdan boshlanadi”[1, 47–49-b]. Demak bu ta’rif halollikni shaxsning ichki dunyosi bilan bevosita bog‘laydi, ya’ni halollik tashqi harakat emas, balki ong va vijdon birligining natijasidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida halollik va adolat qadriyatlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Korrupsiyani yo‘qotish uchun, avvalo, halollikni qadrlaydigan, unga amal qiladigan jamiyatni shakllantirish kerak”[2, 232-b] deb ta’kidlagan. Bu fikr korrupsiyaga qarshi kurashning ildizi faqat qonuniy chora-tadbirlarda emas, balki halollik madaniyatini shakllantirishda ekanini ko‘rsatadi. Demak, yosh avlodni halol fikrlashga o‘rgatish – davlat barqarorligining kafolatidir. Talaba-yoshlar jamiyatning eng faol, bilimga chanqoq va yangilikka intiluvchan qatlamidir. Shu bois halollik madaniyatini shakllantirish aynan talabalik davrida boshlanishi lozim. “Talaba shaxsida halollikni tarbiyalash – bu nafaqat ma’naviy ehtiyoj, balki kasbiy mas’uliyatning poydevoridir”[3, 15–18-b]. Demak bu g‘oya talabalik davrini halollik madaniyatining shakllanish bosqichi sifatida belgilaydi. Chunki aynan shu davrda insonda vijdoniy qarashlar, kasbiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyat shakllanadi. “Halollik – adolat bilan vijdon uyg‘unligining amaliy ifodasidir”[4, 90–94-b]. Demak bu fikr halollikni abstrakt tushuncha emas, balki insonning ijtimoiy hayotdagi real xulqi sifatida talqin etadi. Shaxs halol bo‘lishi uchun u vijdoniga, adolatga va javobgarlikka tayanmog‘i lozim. Misol uchun “Agar talaba bugun baho uchun emas, bilim uchun o‘qisa, ertangi kunning halol rahbari bo‘lib yetishadi.” Bu fikr yoshlarning halollikni o‘z hayot shioriga aylantirishining naqadar muhimligini ifodalaydi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida halollikni targ‘ib etish maqsadida “Halollik kodeksi”, “Halollik elchilari” va “Antikorrupsiya klublari” kabi tashabbuslar joriy etilgan. “Halollik elchilari – bu talabalarning o‘z muhitida halollik, adolat va

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

mas’uliyat g‘oyalarini targ‘ib etuvchi yosh yetakchilardir”[5, 2–4-b]. Demak ushbu dasturlar nafaqat nazariy targ‘ibot, balki amaliy harakat platformasidir. Talabalar bu orqali o‘z kursdoshlari orasida halollikni namuna sifatida targ‘ib etadi. Shuni aytishimiz joizkikorrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishda ota-ona, ta’lim, OAV va jamiyatning o‘rni ham juda huhim hisoblanadi. Halollik madaniyati ijtimoiy tizimning barcha bo‘g‘inlarida shakllanadi. “Halollik oilada boshlanadi, ta’limda mustahkamlanadi, jamiyatda mukammallashadi”[6, 22–25-b]. Demak bu fikrda ota-onaning halol mehnati, o‘qituvchining pok niyati va jamiyatning adolatli muhit yaratishiga bo‘lgan sa’y-harakati yoshlar ongida halollikni mustahkamlaydi.

OTM da har bir talaba ijtimoiy jarayonlarga faol aralashar ekan, u korrupsiyaga qarshi murosasiz fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. “Faol fuqarolik – bu nafaqat huquq, balki halol jamiyat qurish yo‘lidagi mas’uliyatdir”[7, 41-b]. Demak ijtimoiy faollikning mohiyati shundaki, inson o‘z manfaatini emas, jamiyat manfaatini himoya qilishga intiladi. Talabalar jamoat tashkilotlari, volontyorlik harakatlari, fuqarolik tashabbuslari orqali halollik g‘oyasini nafaqat so‘zda, balki amalda namoyon etadilar. “Talaba halollikni targ‘ib etsa, u o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitni tozalaydi”[8, 17-b]. Bu fikr talabaning shaxsiy halolligi butun jamoaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlash tarziga bevosita ta’sir etmoqda. Shu bois, halollik, adolat, poklik haqidagi ijobiy kontent yaratish, videoroliklar, postlar, podkastlar tayyorlash yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi immunitetni kuchaytiradi. “Axborot makonida halollik g‘oyasini yoyish – bu zamonaviy fuqarolik kurashining eng samarali shaklidir”[9, 9-b]. Bunda raqamli madaniyat sharoitida korrupsiyaga qarshi mafkuraviy kurashning samarali yo‘nalishi sifatida axborot maydonida halollikni targ‘ib etish muhim hisoblanadi. “Korrupsiyaga qarshi kurash – har bir yoshning fuqarolik mas’uliyati” degan fikr bugungi jamiyat taraqqiyotida muhim haqiqatdir. Chunki halollikni himoya qiluvchi har bir yosh, aslida, adolatli va shaffof tizimning faol ishtirokchisiga aylanadi. “Jamiyatda korrupsiyaga qarshi mafkura shakllanishining asosi – yoshlarning fuqarolik faolligidir”[10, 5-b]. Bu fikrga ko‘ra, korrupsiyasiz kelajakni ta’minlovchi eng muhim omil yoshlarning ongli, mas’uliyatli va faol pozitsiyasi hisoblanadi.

Xulosa. Halollik – inson ma’naviyatining eng yuksak ifodasi bo‘lib, u nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy taraqqiyotning poydevoridir. Halollikka sodiq jamiyatda ishonch, adolat va mas’uliyat muhitining mustahkamlanishi ta’minlanadi. Talaba-yoshlarning halollik tamoyillariga sodiqligi esa korrupsiyasiz, ochiq va adolatli ijtimoiy tizimni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

halollik, ijodkorlik va ijtimoiy faollik o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlardir. Talaba o‘z bilimini halol mehnat bilan egallasa, ijodkorlik orqali yangicha fikr bildirsa va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etsa, u korrupsiyaga qarshi kurashning eng kuchli targ‘ibotchisiga aylanadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida halollik madaniyatini mustahkamlash, “Halollik elchilari” harakatini kengaytirish, hamda ijodiy tanlov va loyihalar orqali halollik g‘oyasini yoshlar ongiga singdirish zarurdir. Shuni aytish joizki, korrupsiyasiz jamiyat qurish – bu davlat siyosati emas, balki har bir yoshning vijdoniy tanlovidir. Chunki halollikka sodiq, ijodkor va faol talaba – bu Yangi O‘zbekistonning eng katta boyligi va eng mustahkam tayanchi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “G‘aniyev A. Axloq falsafasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2018. – B. 47–49.”
2. “Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 232.”
3. “Rahimova D. Halollik madaniyatining ijtimoiy asoslari. // Ma’naviyat va hayot, 2022, №3. – B. 15–18.”
4. “To‘rayev A. Axloqiy qadriyatlar falsafasi. — Samarqand: SamDU, 2020. – B. 90–94.”
5. “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. ‘Halollik elchilari’ loyihasi to‘g‘risida nizom. — Toshkent, 2022. – B. 2–4.”
6. “Ismoilov B. Halollik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy institutlarning roli. // Falsafa va huquq, 2023, №2. – B. 22–25.”
7. “Faol fuqarolik — halol jamiyatning poydevoridir.” // Ma’naviyat asoslari: darslik. — Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2022. — B. 41.
8. “Talabaning shaxsiy halolligi jamoa muhitini poklaydi.” // Yoshlar va ma’naviyat jurnali. — 2023. — №2. — B. 17.
9. “Axborot makonida halollik g‘oyasini yoyish — bu zamonaviy fuqarolik kurashining shaklidir.” // O‘zbekiston ovozi gazetasi. — 2024-yil, 12-may. — B. 9.
10. “Korrupsiyasiz kelajak yoshlarning fuqarolik faolligidan boshlanadi.” // Yangi O‘zbekiston gazetasi. — 2023-yil, 28-noyabr. — B. 5.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TAKRIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YURITISHDA IQTISODIY FIKRLASHNING AHAMIYATI VA IQTISODIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Menejment” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Tursunova Mushtariy Akram qizi
Professional ta’limni rivojlantirish instituti doktaranti, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda o‘quvchi va talabalarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish zarurati, unda eksternal omillarning tutgan o‘rni yoritilib, pedagogik jarayonni tashkil etish orqali ta’lim sifatini kafolatlovchi elementlarni samarali kombinatsiyalash zaruratiga urg‘u berilgan. Ta’limning iqtisodiy fikrlashni shakllantiruvchi bosh ilohot maydoni sifatida baholanib, ta’lim berishda iqtisodiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy modeldan foydalanish tafsilotlari va taklifi keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, iqtisodiy fikrlash, samaradorlik, iqtisodiy kompetensiya, iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish modeli*

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy tadbirkorlik uchun tubdan yangi imkonyatlar yaratmoqda. Bugungi sharoitda iqtisodiy jarayonlar nafaqat internet va axborot texnologiyalariga tayanadi, balki ularning samaradorligi to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiy fikrlash darajasiga bog‘liq. Raqamli iqtisodiyotning asosida bilimga, ma’lumotga, raqamli platformalarga va tezkor qaror qabul qilishga asoslangan dinamik tizim yotadi. Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, bozor ehtiyojlarini oldindan aniqlash, real vaqt rejimida talab va taklif o‘zgarishlarini kuzatish hamda logistika jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu esa tadbirkorlikda an’anaviy yondashuvdan ko‘ra ancha chuqur strategik fikrlashni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatining samarali tashkil etilishi bevosita iqtisodiy fikrlash darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu fikrlash modeli innovatsion yondashuv, tezkor qaror qabul qilish va resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy tamoyillari – raqamlashtirish, shaffoflik, tezkor axborot almashinuvi, qiymat yaratishning yangi shakllari – tadbirkorlardan an’anaviy iqtisodiy tafakkurdan ko‘ra kengroq analitik yondashuvni talab etadi. S.Gulyamovning “Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari” asarida ta’kidlanganidek, raqamli iqtisodiyotda asosiy resurslar

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ARABIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

moddiy aktivlar emas, balki bilim, intellektual kapital va innovatsion texnologiyalardir [1]. Raqamli iqtisodiy muhitda tadbirkorning asosiy sifatlari — oldindan ko‘ra bilish, strategik fikrlash, risklarni boshqarish, jamoani boshqarish, tez qaror qabul qilish — doimiy ravishda rivojlantirilishi zarur. Bu fazilatlar iqtisodiy ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy ta’lim shaxsda bozor qonuniyatlarini anglash, xarajat-daromad tahlili, talab va taklif dinamikasini baholash, raqobat afzalliklarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. D.A Mirzayev va M.S.Nabixonovlarning ishlanmalarida iqtisodiy fikrlashning raqamli transformatsiya davrida alohida ahamiyat kasb etishi, ayniqsa zararlarni minimallashtirish va strategik yutuqlarni ko‘paytirishda muhim omil ekani qayd etilgan [2].

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Innovatsiya va raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning yangi drayveriga aylanishi shart”, degan g‘oya tadbirkorlikni modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutmoqda. Aylanma iqtisodiyot (circular economy) tamoyillari ham zamonaviy tadbirkorlikda muhim o‘rin egallab, resurslar qayta ishlanishi, chiqindilarni minimallashtirish, mahsulot hayotiy siklini uzaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu model raqamli iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, IoT, Big Data, sun’iy intellekt kabi texnologiyalar resurslardan foydalanishni monitoring qilish, muqobil yechimlarni yaratish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi [3].

Aylanma iqtisodiyotga xos tamoyillar – resurslardan takror foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish, mahsulotning butun hayotiy siklini boshqarish – raqamli iqtisodiyot bilan uyg‘unlashganda samaradorlik yanada ortadi[4]. Raqamli texnologiyalar material oqimlarini kuzatish, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik yuklamasini baholash, energiya tejamkor modellarni joriy etish va resurslarni qayta taqsimlash bo‘yicha ma’lumotlarni aniq tahlil qilishga imkon beradi. Shu bois raqamli iqtisodiyot va aylanma iqtisodiyot bugungi kunda bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda barqaror rivojlanishga qaratilgan islohotlar aynan shu yo‘nalishlarda olib borilayotgani bejiz emas. Demak, raqamli iqtisodiyot bilan aylanma iqtisodiyot uyg‘unlashganda, barqaror tadbirkorlik modeli vujudga keladi. Ammo, bu modelning samarali ishlashi bo‘lajak kasb egalarining iqtisodiy fikrlashlari salohiyat darajalariga chambarchas bog‘liqligi shubhasiz. Shunday ekan, ta’limni islohotlar markazi deya ta’kidlash har qanday urg‘ulardan yiroq bo‘lgan ta’kid deb erkin baholanishi mumkin. Ta’limning bosh qurollari bu uning mazmuni, metod, vositalari va yondashuvlaridir. Bu ta’lim sifatini ta’minlovchi elementlarning

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

uyg‘unlashuvi yordamida o‘quvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi o‘z yechimini topishi shubhasiz. Quyida keltirilgan tahlillar orqali, iqtisodiy ong va tafakkurni ta’lim oluvchilarda shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur eksternal (tashqi) muhitning to‘laqonli shakllanganligini xulosa qilish mumkin. Demak, endilikda masala bevosita ta’lim jarayonini tashkil etish va mavjud shart-sharoitlardan boxabar holda foydalanishga intilishda yotadi.

Mavjud ichki imkoniyatlar tahlili. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratildi. Prezident farmonlari bilan ro‘yxatdan o‘tish jarayonlari soddalashtirildi, soliq yuklari yengillashtirildi, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, raqamli xizmatlar infratuzilmasi kengaytirildi. IT Park, Yoshlar texnoparki, biznes inkubatorlar, akseleratorlar, startaplarni qo‘llab-quvvatlash markazlari, innovatsion laboratoriyalar - bularning barchasi yangi iqtisodiy muhitni shakllantirmoqda va tadbirkorlik ekotizimini mustahkamlamoqda. Mazkur imkoniyatlar nafaqat poytaxtda, balki viloyatlarda ham kengayib borayotgani tadbirkorlar sonining ortishiga va iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. Bu infratuzilma yoshlar uchun raqamli biznesni boshlash, investorlar bilan hamkorlik qilish va bilim almashishning muhim maydoniga aylangan.

Iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda ta’limning tutgan o‘rni va roli. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkor quyidagi sifatlarni aniq rivojlantirishi zarur: bozor o‘zgarishlarini oldindan ko‘ra bilish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, jamoani boshqarish va motivatsiya berish, risklarni ilmiy yondashuv asosida baholash, uzoq muddatli strategiya ishlab chiqish, innovatsion fikrlash, texnologik yangiliklarga moslashuvchanlik. Bu sifatlar nafaqat biznesning muvaffaqiyatli yuritilishini ta’minlaydi, balki raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy ta’lim alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy bilimlar bozor mexanizmlarining ichki mantig‘ini tushunishga, resurslarni oqilona taqsimlashga, investitsion qarorlarni baholashga, moliyaviy oqimlarni nazorat qilishga va eng muhimi – iqtisodiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Prezidentimiz o‘z nutqlaridan birida ta’kidlaganidek, “Yoshlarimiz iqtisodiyotni chuqur tushunishi, tashabbus ko‘rsatishi va raqobatga kirisha olishi – kelajak taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri”dir. Bu fikr iqtisodiy ta’limning jamiyat taraqqiyoti va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish esa faqat nazariy ta’lim bilan cheklanmaydi. Uni rivojlantirishning zamonaviy usullari - raqamli simulyatsiyalar, biznes o‘yinlari,

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

real tahliliy loyihalar, startap amaliyotlari, big data bilan ishlash, moliyaviy savodxonlik treninglari - tadbirkorning amaliy kompetensiyasini oshiradi. Raqamli iqtisodiyotda bu kompetensiyalar barqaror biznes yuritishning asosiy omiliga aylanadi. Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish uchun faqat auditoriya mashg‘ulotlari yetarli emas. Startap loyihalarida ishtirok etish, biznes simulyatsiyalarda qatnashish, real bozor hodisalarini tahlil qilish, analitik kitoblar o‘qish, data-tahlil bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi faol metodlar ham juda samarali. Ishbilarmonlik olamida muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlarning ko‘pchiligi aynan amaliy tajriba va ilmiy yondashuvni uyg‘unlashtira olgani uchun natija ko‘rsatgan.

Tadbirkorlikni o‘rganish va iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning 3 modeli mavjud bo‘lib, ular talab, ehtiyoj va kompetensiya modellaridir. Talab modeli biheyvioristik paradigmaga asoslanib, bilim va ma’lumotni bir kishidan ikkinchisiga yetkazishni nazarda tutadi. Ehtiyoj bu subyektivist paradigmasiga asoslanuvchi model bo‘lib, o‘rganuvchining individual ehtiyojlaridan kelib chiqib zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni unda shakllantirish. Kompetensiya modeli interaktiv paradigmaga urg’u berib, tadbirkor real hayotda faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan holatlarga yechim topishni o‘rgatishga asoslanadi.



1-chizma. Tadbirkorlik sifatlari va iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning 3 modeli.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot va aylanma iqtisodiyotning birlashuvi tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. O‘zbekistonda yaratilgan imkoniyatlar, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning raqamli va iqtisodiy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar – bularning

barchasi zamonaviy tadbirkorlik ekotizimini shakllantrmoqda. Bu jarayonda iqtisodiy fikrlash markaziy rol o‘ynaydi. Chunki iqtisodiy fikrlash – bu nafaqat bilimlar majmui, balki har bir qarorni ongli ravishda, tahlilga tayanib, barqaror taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda qabul qilish qobiliyatidir. Shunday ekan, uni shakllantirish va rivojlantirish maydoni hisoblanuvchi ta’lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, ta’limda talab, ehtiyoj va kompetensiya modellari uyg‘unlashuviga erishish orqali ta’lim oluvchilarning raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lib ishchi kuchi bozoriga o‘z intellektual salohiyatlarini yuqori bahoda taklif qilishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulyamov, S. S., Ayupov, R. H., & Baltabayeva, G. R. (2019). *Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari* [Blockchain technologies in the digital economy] (O‘quv qo‘llanma). “Fan va texnologiyalar” nashriyoti.
2. Mirzayev D.A., Nabixonov M.S. — “Raqamli va yashil iqtisodiyot integratsiyasi: O‘zbekiston tajribasi”, TSUE ilmiy jurnali.
3. Azizova, M. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo‘nalishlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, Vol. 1 No. 11–12, 2023.
4. Ahmadjonova, F. O. Q. (2023). Raqamli iqtisodiyotning rivojlantirish tamoyillari [Principles of development of digital economy]. *“Science and Education” Scientific Journal*, *4*(2), 1530–1532.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RAQAMLI PEDAGOGIK TA’MINOT ORQALI PRAGMATIK TOPSHIRIQLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Xamroqulova Shaxnoza Ixtiyor qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida raqamli pedagogik ta’minotdan foydalanish orqali pragmatik topshiriqlarni samarali tashkil etish masalasi yoritilgan. Raqamli resurslar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Pragmatik topshiriqlarning mazmuniy xususiyatlari, ularning raqamli muhitda qo‘llash metodlari, shuningdek, amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli pedagogik ta’minot, pragmatik topshiriq, boshlang‘ich ta’lim, matematika, raqamli resurslar*

Annotation. *The article examines the effective organization of pragmatic tasks in primary school mathematics lessons through the use of digital pedagogical tools. It analyzes how digital resources enhance student engagement, develop independent thinking, and improve learning efficiency. The content and methodological aspects of implementing pragmatic tasks in a digital environment are discussed, along with practical recommendations.*

Keywords: *digital pedagogical support, pragmatic tasks, primary education, mathematics, digital resources*

Аннотация. *В статье рассматривается организация прагматических заданий на уроках математики в начальных классах с использованием цифрового педагогического обеспечения. Проанализированы возможности цифровых ресурсов в повышении активности учащихся, развитии самостоятельного мышления и эффективности учебного процесса. Представлены методические подходы и практические рекомендации.*

Ключевые слова: *цифровое педагогическое обеспечение, прагматические задания, начальное образование, математика, цифровые ресурсы*

Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish boshlang‘ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Raqamli pedagogik ta’minot o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarni faol, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish imkonini beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, pragmatik topshiriqlarni raqamli muhitda tashkil etish o‘quvchilarga bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammo yechish, muloqotga kirishish va amaliy natijaga yo‘naltirilgan faoliyatni bajarish imkonini yaratadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda raqamli resurslar orqali pragmatik topshiriqlarni ishlab chiqish va samarali qo‘llash ta’lim mazmunini boyitish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy raqamli jamiyat talablariga moslashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Fan va texnologiyalar jadal

taraqqiy etayotgan, ijtimoiy-siyosiy voqelik tez o‘zgarayotgan sharoitda boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining ma’naviy fazilati, intellektual darajasi va kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablar yanada kuchaymoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalari shiddat bilan o‘zgarib borayotgani esa mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan munosib o‘rin egallashi uchun islohotlarni zamonaviy innovatsion g‘oyalar va ilg‘or texnologiyalar asosida tez va samarali amalga oshirishni taqozo etadi[1]. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni o‘qitish amaliyotiga tadbiq etish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, boshlang‘ich sinflarda raqamli pedagogik ta’minotdan foydalanish o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos, ko‘rgazmali hamda interaktiv o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi [2]. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlar ichida pragmatik topshiriqlar alohida o‘rin egallaydi. Chunki bunday topshiriqlar real hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etiladi va o‘quvchilarda amaliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, kundalik turmush bilan bog‘lay olish kompetensiyalarini shakllantiradi [3]. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli pedagogik ta’minotdan foydalanish o‘quvchilarda bilimni o‘zlashtirishni jadallashtiradi, mustaqil fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar - interaktiv platformalar, virtual o‘quv mashg‘ulotlari, mobil ilovalar, video-darslar, elektron darsliklar - orqali pragmatik topshiriqlarni tashkil etish o‘quv jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Raqamli pedagogik ta’minot o‘quv jarayonini interaktiv, qulay va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. U elektron darsliklar, video-darslar, virtual mashg‘ulotlar va interaktiv platformalar orqali bilimni yanada tez va tushunarli o‘zlashtirish imkonini beradi. Bunday vositalar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, izlanish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ta’lim jarayoni zamonaviy talablar asosida takomillashadi. Raqamli pedagogik ta’minot - bu o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan elektron darsliklar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, videodarslar, testlar va virtual o‘quv muhiti majmuasidir [3]. Raqamli pedagogik ta’minotning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Moslashuvchanlik - har bir o‘quvchining individual imkoniyatiga mosligi. Yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘quvchilarni aynan mavjud jarayonga moslashtirish.

Interfaollik - o‘quvchini harakatga undovchi vaziyatlarning mavjudligi. Har bir o‘quvchini darsga qiziqtirish va intellektual salohiyatini oshirish.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Vizualizatsiya - ma’lumotlarni grafik-tasviriy ko‘rinishda taqdim etish. Ushbu turdagi usul o‘quvchilarning yanada tasavvurini boyitib, mavzuni mukammal tushunishiga olib keladi.

Oson integratsiya - dars jarayoniga tez qo‘shilishi. Shu bilan birga, turli fanlarda ham qo‘llash mumkinligi.

Monitoring imkoniyati - o‘quvchining rivojlanishini real vaqtda kuzatish.

Aynan ushbu tamoyillar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga raqamli pedagogik ta’minot vositalari bilan dars jarayonini o‘quvchi uchun mavzu yoki aynan bir topshiriqni tasavvur doirasini kengroq qilish, bu orqali mavzuni tushunarli va yanada osonroq tasavvur qilishga olib keladi. Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar:

-o‘quvchi diqqatini uzoqroq vaqt ushlab turishga xizmat qiladi;

-motivatsiyani ya’ni o‘quvchilarni darsga qiziqishini oshiradi;

-mantiqiy, kognitiv fikrlashni faollashtiradi;

-ijodkorlik, tasavvur doirasini kengaytirish va mustaqil fikrlashni kuchaytiradi;

-xotira va tafakkur jarayonini tezlashtiradi.

Ushbu raqamli vositalarni pragmatik topshirishlarni yechish jarayonida qo‘llash esa dars jarayonini yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Bunda o‘quvchi real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishga va masalalarni amaliy yechishga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, ushbu topshiriqlar o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoni yechish va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Ular dars jarayonini mazmunan boyitib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Natijada bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmasi mustahkamlanadi. Pragmatik topshiriqlar - bu o‘quvchi oldiga real hayotiy vaziyat asosida qo‘yiladigan, amaliy natija olishga yo‘naltirilgan topshiriqlardir [4]. Raqamli muhitda pragmatik topshiriqlarni loyihalash metodikasi o‘quvchilarning real vaziyatlarda faol ishtirokini ta’minlaydigan interaktiv mashqlarni yaratishga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda raqamli platformalar, multimedia vositalari va simulyatsiyalar orqali vaziyatli topshiriqlar ishlab chiqiladi. Metodika o‘quvchining yoshiga mos, amaliy yechimga yo‘naltirilgan va bosqichma-bosqich murakkablashadigan topshiriqlarni tuzishni talab qiladi. Natijada ta’lim jarayoni ko‘proq faol, ijodiy va samarali bo‘ladi. Raqamli ta’lim vositalari orqali pragmatik topshiriqlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar muhimdir: vaziyatni moslashtirish, raqamli vositani tanlash, o‘quvchini jalb qilish va natijani baholash [5]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda pragmatik topshiriqlar qo‘llash o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni 30–40 foizga oshiradi [6].

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TA’LIM PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Xulosa shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli pedagogik ta’minotdan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar orqali beriladigan pragmatik topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammo yechish va bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Interaktiv platformalar, multimedia materiallari, virtual muhitlar va gamifikatsiya(o‘yin) elementlari darsning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ularni faol ta’lim jarayoniga jalb etadi.

Jahon tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki:

- Raqamli vosita qo‘llanilganda o‘quvchi faolligi 20–32% ga oshadi[8].
- Mantiqiy fikrlash ko‘rsatkichlarining 25–40% ga o‘sishi[9].
- O‘quvchilar topshiriqlarni o‘rtacha 12–20% ga tez bajaradi[10].
- Xatolar soni 20-30% gacha kamayadi[11].

Shunday qilib, raqamli pedagogik ta’minot asosida tashkil etilgan pragmatik topshiriqlar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish va o‘quvchilarni kelajakdagi raqamli jamiyatga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda raqamli pedagogik ta’minot orqali pragmatik topshiriqlarni tashkil etish o‘quv jarayonini modernizatsiya qiladi, o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlar asosida fikrlashga o‘rgatadi va ularning intellektual rivojlanishini jadallashtiradi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 01.15.2022.
2. Hasanov A., Karimova M. Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’lim metodikasi. -Toshkent: Fan, 2021.
3. Jamoliddinov O. Pragmatik yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rni. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. Turayev N. Raqamli pedagogik ta’minot va uning imkoniyatlari. - TDIU Ilmiy jurnali, 2022.
5. Qodirova D. Boshlang‘ich ta’limda amaliy topshiriqlarni loyihalash metodikasi. - Toshkent, 2019.
6. Islomova M. Raqamli resurslar yordamida interaktiv topshiriqlar yaratish. - Namangan, 2022.
7. Xolmatova S. Matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish.- Buxoro, 2021.
8. Ruiz, R., Gómez, A., & Fernández, L. (2024). *Effects of gamification on student engagement: A systematic review.* Frontiers in Education.

9. Yesseikyzy, R., et al. (2023). *The impact of digital educational resources on enhancing logical thinking skills.* Global Journal of Engineering Education.
10. Hwang, G.-J., & Chang, C.-Y. *(2020). Effects of mobile learning and gamified instruction on students’ task performance.* Computers & Education.
11. Kim, Y., & Clark, D. (2022). *Reducing error rates with interactive digital physics labs.* Journal of Computer Assisted Learning.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BO‘LGAN O‘QUVCHILAR UCHUN MASOFAVIY PEDAGOGIK TA’MINOTNING INNOVATSION METODIKASI

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni masofaviy pedagogik ta’minlashning innovatsion metodikasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada, an’anaviy ta’lim modellarining gospital sharoitlarida samarasizligi asoslanadi va kasallik tufayli yuzaga keladigan akademik, psixo-emotsional va ijtimoiy uzilishlarning uch tomonlama salbiy oqibatlari yoritiladi. Innovatsion metodikaning asosiy tamoyili sifatida chuqur individuallashtirish va moslashuvchanlik (Individual o‘quv rejalari, tibbiy-pedagogik hamkorlik) tamoyillari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Masofaviy ta’lim, gospital pedagogika, innovatsion metodika, individuallashtirish, inklyuziv ta’lim, uzoq muddatli davolanish, AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), ijtimoiy moslashuv, individual o‘quv rejasi (IOR)*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of the innovative methodology of distance pedagogical support for students requiring long-term treatment. The paper substantiates the ineffectiveness of traditional educational models in hospital settings and highlights the threefold negative consequences of academic, psycho-emotional, and social disruptions caused by illness. The core principles of the innovative methodology are identified as deep individualization and flexibility (Individual Education Plans, medical-pedagogical collaboration).*

Keywords: *Distance education, gospital pedagogy, innovative methodology, individualization, inclusive education, long-term treatment, ICT (Information and Communication Technologies), social adaptation, Individual Education Plan (IEP)*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу инновационной методики дистанционного педагогического обеспечения учащихся, нуждающихся в длительном лечении. В работе обосновывается неэффективность традиционных образовательных моделей в госпитальных условиях и освещаются тройственные негативные последствия академических, психоэмоциональных и социальных сбоев, вызванных болезнью. В качестве основных принципов инновационной методики выделяются глубокая индивидуализация и гибкость (Индивидуальные учебные планы, медико-педагогическое сотрудничество).*

Ключевые слова: *Дистанционное образование, госпитальная педагогика, инновационная методика, индивидуализация, инклюзивное образование, лительное лечение, ИКТ (Информационно-коммуникационные технологии), Социальная адаптация, Индивидуальный учебный план (ИУП)*

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilar toifasi, ta’lim tizimida alohida e’tibor talab qiladigan eng zaif guruhlardan biridir. Ularning ta’lim olish huquqini ta’minlash nafaqat jamiyat oldidagi gumanitar va pedagogik mas’uliyatdir,

balki BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya” kabi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan asosiy huquq hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning uzoq muddat kasalligi (masalan, onkologik yoki gemotologik) tufayli maktabdan ajralib qolishi uch qirrali salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ya’ni, ta’lim jarayonidagi tanaffus o‘quv dasturidan ortda qolishga, bilimlarni o‘zlashtirishda katta bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Kasallikning o‘zi yetarli darajada stressli bo‘lishiga qaramay, tengdoshlardan ajralish va ijtimoiy izolyatsiya hissi qo‘shilib, ruhiy holatning yomonlashuviga va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Davolanish tugagandan so‘ng maktab muhitiga qaytishda qiynalish, o‘zini guruhga begona his qilish xavfi ortadi.

An’anaviy ta’lim modellari shifoxona sharoitlarida samarasiz bo‘lib qoladi, chunki ular qattiq jadval, sinxron ishtirok va bir xil baholash mezonlarini talab qiladi. Davolanayotgan bolaning har kungi holati beqaror bo‘ladi; ular har qanday vaqtda muolajaga chaqirilishi, tez charchashi yoki og‘riq sababli diqqatini jamlay olmasligi mumkin.

Shu sababli, ta’limni uzluksiz davom ettirish va bolaning sog‘lig‘ini birinchi o‘ringa qo‘yish uchun an’anaviy yondashuvlarning o‘rnini bosuvchi, moslashuvchan va inklyuziv yondashuvlar talab etiladi. Aynan shu nuqtada, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlariga asoslangan masofaviy pedagogik ta’minotning innovatsion metodikasi nafaqat ta’lim berish, balki bolaning psixologik tiklanishiga yordam berish uchun ham muhim yechim sifatida maydonga chiqadi. Bu metodika, gospital sharoitidagi ta’limni individual, interaktiv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish orqali muammoning uch tomonlama oqibatini yumshatishga xizmat qiladi.

Innovatsion masofaviy pedagogik ta’minotning metodologik markazi — bu chuqur individuallashtirish tamoyilidir. Uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun “standart dars” tushunchasi o‘z kuchini yo‘qotadi, chunki ularning kunlik jismoniy va hissiy resurslari o‘zgaruvchan bo‘ladi. Shu bois, ta’lim jarayonini tashkil etishda bolaning tibbiy holati, muolajalar jadvali, psixologik ehtiyojlari va individual o‘zlashtirish sur’atini hisobga olish ustuvor ahamiyatga ega.

“Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim texnologiyalarini tashkil qilish, o‘quvchilarga fanlarni o‘zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengish va ularning bilimlarni samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.”[1].

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Bu yondashuv amalda individual o‘quv rejalarini (IOR) ishlab chiqishni talab qiladi. IOR nafaqat o‘quv materiallari hajmi, topshiriqlar murakkabligi va o‘qish vaqtini, balki ma’lum bir kasallikdan kelib chiqadigan spetsifik cheklovlarni (masalan, ko‘rish qobiliyatining zaiflashuvi, harakat cheklovi, dori-darmon ta’siridagi konsentratsiya pasayishi) ham inobatga olgan holda tuziladi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda tibbiy-pedagogik hamkorlik muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi tibbiyot xodimlari bilan muntazam aloqada bo‘lib, bolaning ahvolidan xabardor bo‘lishi shart. O‘qitish jarayoni, tibbiy muolajalar (tomchilar, injeksiyalar, tekshiruvlar) va dam olish rejimi bilan qat’iy muvofiqlashtirilishi orqali bolaning charchash darajasini minimallashtirish asosiy vazifadir.

“Gospital ta’lim sharoitida bolaning psixologik va fiziologik holatini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Ta’lim jarayoni moslashuvchan jadval asosida tuzilib, muolajalar va dam olish vaqtlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim.”[2].

Bundan tashqari, pedagogik jarayon akademik bilimlarni berishdan tashqari, psixologik holatni yumshatishga ham xizmat qilishi zarur. O‘qituvchi masofaviy darslarda e’tibor tortadigan, stressni kamaytiradigan va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadigan usullarni qo‘llashi, masalan, yengil geymifikatsiya elementlari, qisqa meditativ tanaffuslar yoki ijodiy mashg‘ulotlarni kiritishi muhimdir. Individuallashtirish faqatgina akademik talablarni moslashtirish emas, balki bolaning hissiy farovonligini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir.

Masofaviy ta’minotning samaradorligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali erishiladi. Platformalar (LMS), virtual sinfxonalar va interaktiv resurslardan foydalanish ta’lim sifatini oshiradi. Innovatsiyalarning asosiy yutug‘i ta’limni hamma uchun ochiq qilishdadir:

“Masofaviy ta’lim – ta’lim oluvchining yashash joyi, sog‘lig‘i va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyatini yaratuvchi universal mexanizmdir.”[3].

Vizual va interaktiv elementlar kasallik tufayli yuzaga keladigan charchoqni kamaytirish va diqqatni jalb qilish uchun muhim vositadir:

“Amaliy jihatlar sifatida o‘quvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitilishi, vizual va interaktiv materiallar bilan ishlash, hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi”[4].

Uzoq muddat davolanishning eng katta qiyinchiliklaridan biri – bu o‘quvchining ijtimoiy ajralib qolishi. Masofaviy metodika ta’limiy yordam bilan bir

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

qatorda, ijtimoiy bog‘liqlikni saqlashga ham xizmat qiladi. Guruhli faoliyat va sinxron aloqa muhim vositadir:

“Uzoq muddatli kasallikda o‘quvchining ijtimoiy-hissiy holatini qo‘llab-quvvatlash uchun guruhli loyiha faoliyati va sinxron muloqot (virtual sinfxona) usullari ajralish hissini kamaytirib, jamiyatga qaytishga ko‘maklashadi”*[5]*.

Xulosa. Masofaviy pedagogik ta’minotning innovatsion metodikasi uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilar uchun ta’limni uzluksiz, sifatli va inklyuziv qiladi. Shaxsiy ehtiyojlarga yo‘naltirilgan, texnologik jihatdan boyitilgan va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan ushbu yondashuv bolalarning nafaqat o‘quv jarayonini davom ettirishini, balki davolanishdan keyin ijtimoiy hayotga to‘liq moslashuvini ham ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. S. Karimova, Innovatsion ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. *Zenodo Scientific Journal*, **.** (2024)11(3), 45-51.
2. A. X Saidov, Gospital pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari. *inLIBRARY: Respublika Ilmiy Jurnali*, (2023). 5(2), 120-128.
3. N. J. Ro‘ziyev, Ta’limdagi inklyuziya va masofaviy texnologiyalar. *ta’lim va fan axborotnomasi*, (2022). 4(1), 78-85.
4. Z. T. Axmedova, Masofaviy ta’limda multimedia imkoniyatlari. *Pedagogik Mahorat Jurnali*, (2024). 1(4), 15-22.
5. D. O. Qodirov, Davolash sharoitida bolaning ijtimoiy moslashuvi. *Psixologiya va Pedagogika*, (2023). 2(1), 95-101.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA RAQAMLI PEDAGOGIK TA’MINOTINI ISHLAB CHIQISH USULLARI VA SHAKLLARI

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Boshqa fan soxalari singari tasviriy san’at soxasida ham zamon talabidan kelib chiqqan holda darslarni raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Quyida kompozitsiya fani misolida darslarni raqamli texnologiyalari vositasida tashkil etish va uning sammarasi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, raqamli texnologiya, electron darsliklar, vizuallashtiruvchi, interfaollashtiruvchi, pedagogik texnologiya*

Abstract. *As in other scientific fields, work is being carried out in the field of fine arts to digitize lessons based on contemporary requirements. Below, using the subject of composition as an example, we will discuss the organization of lessons using digital technologies and their effectiveness.*

Keywords: *composition, digital technology, electronic textbooks, visualization tools, interactive tools, pedagogical technology*

Bo‘lajak Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi davlat standartining kasbiy fanlar blokidagi “Kompozitsiya” fanidan amaliy mashg‘ulotlarga ajratiladigan vaqt ulushini sezilarli miqdorda kamaytirishni nazarda tutadi. Bu esa fanning asoslarini o‘rgatishda mustaqil, erkin ijodiy faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur fandan chuqur nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish, DTS va malaka talablarida belgilangan kompetensiyalarni egallash uchun auditoriya soatlari endilikda yetarli emas. Aksariyat iqtidorli ijodkor talabalarimizning fanning nazariy tomonlarini mukammal bilmasligi sababli ijodkorligida, ularning yaratgan kompozitsiya asarlarida kamchiliklar o‘z aksini topadi. Iqtidorli talabalarimiz fanning nazariy bilimlarini egallashga e’tibor bermaydilar yoki ijodkorlikka nazariy bilimlar shartmas degan xato tushunchaga ega. Talabalarning boy merosimiz va an’analarimizdan, ustozlarning o‘gitlari, tasviriy san’atining maktablari, texnika hamda texnologiyalardan foydalanishdan bexabarligi ularning tafakkuri, kreativlik qobiliyatining rivojlanmasligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida yaratilayotgan asarning qiymatiga, jozibadorligiga, boqiyligiga salbiy ta’sir qiladi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida “Kompozitsiya” fanining nazariy asoslarini, amaliy qonun qoidalarini, ijodkorlik, badiiy-estetikasi kabi tajribasini “Kompozitsiya” fanidan yaratilgan vizual, geymifikatsiya interaktiv raqamli vositalardan foydalanishni maqsad qildik. Bu qarorga kelishga albatta ilmiy

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

tadqiqot doirasida empirik tadqiqotimizning chuqur tahlili sabab bo‘ldi. XXI-asr – Texnologiya asrida talabalarning dunyoqarashi, hayotining ajralmas qismiga aylangan texnologiyalar, gadjetlar vositasida fanning nazariy qismini turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘yinli metodlar yordamida talabalarga singdirish eng samarali yo‘l deb bildik. Bo‘lajak pedagog kadrlarning kasb-mahoratini auditoriyalarda dars mashg‘ulotlari jarayoni bilan bir qatorda ularda “Kompozitsiya” fanini raqamli vositalar orqali o‘qitishni takomillashtirish, mahoratli pedagoglar sifatida tarbiyalash birinchi galdagi muhim vazifalardan biri sifatida bo‘lib kelmoqda. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun esa, raqamli vositalar orqali o‘qitishni takomillashtirish asnosida elektron o‘quv adabiyotlar va ta’limda uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Mazkur muammoni biroz kengroq olib qaraydigan bo‘lsak, raqamli vositalar nafaqat oliy ta’lim talabalariga, balki uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlariga tegishliligi bilan aytish mumkin. Bugungi kunda ta’limga doir qator me’yoriy hujjatlar ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri shaxsni ma’naviy tarbiyalash maqsadida axloqiy tamoyillar va standartlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida san’atning axloqiy salohiyatidan yanada kengroq foydalanishni talab etadi. Mazkur talab o‘sib kelayotgan avlodning estetik madaniyatini shakllantiradigan badiiy pedagogik ta’lim va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sohasidagi strategik reja asosida yotadi hamda kompozitsiya fani bo‘yicha talabalarning badiiy-estetik didini tarbiyalash sohasidagi asosiy kasbiy ta’lim dasturining maqsadi bilan bevosita uyg‘undir.

Albatta, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish o‘qitish sifatini oshirishga, qiziqarli, rang-barang qilishiga allaqachon amin bo‘lganmiz va hozirda har bir o‘qituvchi ulardan foydalanadi. Shu o‘rinda, raqamli vositalar hamda elektron o‘quv darslik va qo‘llanmalarga to‘xtalib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko‘rib chiqsak.

Elektron darslik va qo‘llanmalar maxsus qurilma yoki dasturiy ta’minot bo‘lib, ta’lim jarayonida an’anaviy qog‘oz kitob o‘rnini bosadi. Bugungi kunga kelib elektron kitob tushunchasiga turlicha ta’riflar mavjud. Ayrim manbaalarda ular an’anaviy qog‘oz kitoblarning elektron ko‘rinishi deyilsa, boshqalarda matnlardan tashqari, o‘quvchilarga taqdim qilish uchun ta’limiy multimediya materiallariga hamda markaziy manba tomonidan yangilanib turuvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv blokiga ega elekrton qurilmalardagi murakkab dasturlar yig‘indisi deya ta’riflanadi. Elektron darsliklarning so‘nggi vakillari ustida qayta ishlash jarayonlari olib borilayotganligi sababli zamonaviy elektron darsliklar asosan tasvirli

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

matnlardan iborat. Deyarli barcha o‘qituvchilar ularning o‘quvchilar tomonidan oson qo‘llanilishi, texnik qurilma yordamida fanga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyaning ortgani, darsda va uyda maroq bilan foydalanishlari haqida ta’kidlaydi.

Yurtimizda ham so‘nggi yillarda xalqaro ta’lim standartlariga uyg‘un holda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini hamda raqobatbardoshligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etishning samarali metodlarini ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, o‘quv jarayonida virtual va multimedia texnologiyalar asosida yaratilgan yangi avlod o‘quv adabiyotlaridan foydalanish jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu borada, “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali model va mexanizmlarini yaratish” ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli vositalar hamda elektron o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish va ularni qo‘llash metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuningdek, so‘nggi yillarda taniqli olim va tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Interaktiv ta’limning o‘quv jarayoniga faol kirib kelishi natijasida pedagogikada Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur”, “Raqamli vositalar davlat reyestri”, “interaktiv o‘quv majmuasi”, “Interaktiv o‘qitish vositasi” va “interaktiv elektron darslik va o‘quv qo‘llanma” kabi atamalar paydo bo‘ldi. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida elektron ta’lim vositalari yordamida talabalarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi yoki X.X.Muratov elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi kabi muammolar ustida tadqiqotlar olib borganlar.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi axborot ta’lim muhitiga o‘zaro axborotli ta’sir muhiti sifatida qaralib, talabalar, magistrantlar hamda ilmiy izlanuvchilarning axborotga, maxsus apparat va dasturiy vositalarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadi ko‘zda tutiladi. Oliy ta’lim muassasalari asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o‘rganishga oid elektron darsliklar tashkil etadi. Elektron darslik deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko‘rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko‘paytirishda kam

QOR NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

xarajat sarflash, ko‘p variantlilik, ko‘p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmining ko‘p bo‘lishini ta’minlaydi. Zamonaviy elektron darsliklarining afzalligi, avvalo, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta’lim jarayoniga elektron darslikni joriy etish talabalarga fan bo‘yicha axborotning to‘liq manzarasini namoyish etish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini ta’minlash, o‘qitishni individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni takomillashtirish, o‘quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron darsliklarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o‘tishini ta’minlash xususiyatini kiritish mumkin.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, O‘qitishning interaktivligini ta’minlash, o‘quv fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, ma’lum bir tartibda bajarilishi kerak. Elektron darslik o‘rganuvchiga takroriy o‘quv-mashq amallarini bajarish va nazorat qilishning turli xil imkoniyatlarini yaratishi lozim. Elektron darslik yordamida amalga oshiriladigan elektron muloqotni tashkil etish tadbirlariga, asosan, amaliy mashg‘ulot shaklida o‘qitish jarayonini shakllantirish, nazorat qilish, tanlangan javoblarning ma’qulligini tekshirish, matematik hisob, javoblarning to‘g‘riligini tekshirish, grafik ma’lumotlarning kiritilishini nazorat qilish, cheklanmagan shaklda analitik ifoda kiritilishining nazorati kabilar kiradi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniluvchi elektron darslik qaysi darajaga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar, uning yaratilishi aniq tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim.

Biz o‘rganayotgan kompozitsiya fani nuqtayi nazardan esa, bugungi kungacha respublikamizda yetarli darajada fundamental ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. Ularning tadqiqotlarida pedagogika oliy ta’lim muassasalarining badiiy grafika fakultetlarida talabalarga tasviriy san’at darslarini tashkil etishda kompozitsiya namunalaridan foydalanish, kompozitsiyaning turlarini yoshlarga o‘rgatishda ustoz-shogird an’analaridan foydalanish va bo‘lajak usta rassomlarni malakali mutaxassis sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish umumta’lim maktablarining 1-7 sinf o‘quvchilarini tasviriy san’atga o‘rgatishda to‘garak mashg‘ulotlaridan foydalanish va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biz o‘rganayotgan mazkur kompozitsiya fani bo‘yicha talabalarning bilim olishini tashkil etish, qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi omillarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishning muhim omili sifatida kompozitsiya fanidan ilmiy va ijodiy bilim va malakalarni takomillashtirishda raqamli vositalardan foydalanish zamon talab hisoblanadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Yuqoridagi kabi elektron darslikni biz ham talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash nuqtai nazaridan ishlab chiqdik. Mazkur elektron darslikning eng muhim jihatlaridan biri – turli raqamli vosita va pedagogik texnologiyalarning kompleks integratsiyasidir. Darslik iSpring kabi e-oqitish platformalari yordami bilan tayyorlangan (mazkur vosita PowerPoint slaydlarini interaktiv elektron kursga aylantirish imkonini beradi). Shuningdek, darslik tarkibida videodarslar, audio sharhlar, grafik illyustratsiyalar keng qo‘llanilgan. Masalan, kompozitsiya nazariyasi yoritiladigan qismda turli kompozitsion qonuniyatlar (masalan, “oltin kesim”, “uchlik qoidasi”, “ritm va takror” va h.k.) qonuniyatlar (masalan, “oltin kesim”, “uchlik qoidasi”, “ritm va takror” va h.k.) tushuntirilgach, darhol ular bo‘yicha vizual misollar keltirilgan. Gipermatnli havolalar orqali talaba bir bo‘limdan ikkinchi bo‘limga oson o‘tib, masalan, kompozitsiya haqida o‘qiyotgan joyida bir tugma bilan shu mavzuga oid mashhur rassomning asarini ko‘rishi yoki rangtasvir bo‘yicha ilgari o‘rgangan nazariy bilimlariga qaytishi mumkin. Bu esa darslikning yaxlitligi va hamohangligini ta’minlaydi – barcha bo‘limlar bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi.

Elektron qo‘llanmada amaliy mashg‘ulotlarga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ilg‘or xorijiy tajribalarda qo‘llaniladigan “learning by doing” – amaliy bajarish orqali o‘rganish tamoyili asosida darslikka interaktiv topshiriqlar kiritilgan. Masalan, talabalar uchun virtual laboratoriya ko‘rinishidagi mashqlar mavjud: “Kompozitsiyani qurish” topshirig‘ida talaba ekranda berilgan elementlarni (geomterik shakllar, rangli dog‘lar va h.k.) sichqoncha yordamida bo‘sh canvas (rasm doskasi)ga joylashtirib, muayyan kompozitsion printsipga muvofiq tartibga solishi lozim. Bunday topshiriq jarayonida dastur talabaning harakatlarini real vaqtda kuzatib boradi va avtomatik tahlil qiladi: masalan, agar talaba obyektlarni kompozitsiya markazidan chetga notekis taqsimlasa, tizim bu haqda ogohlantiruvchi izoh beradi yoki yordamchi ko‘rsatma chiqadi. Natijada, talabalar interaktiv tarzda o‘z xatolarini ko‘rib, estetik muvozanat va vizual uyg‘unlik tamoyillarini chuqurroq anglaydi. Yana bir integratsiyalashgan vosita – bu o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun testlar blokidir. Har bir bo‘lim oxirida mavzuni mustahkamlash maqsadida test savollari va masalalar taqdim etiladi. Testlar oddiy tanlov savollari bilan birga, rasmli testlar (suratda berilgan kompozitsiyani baholash, yoki rang yechimini tahlil qilish) tarzida ham keltirilgan. Talaba test savollariga javobni tanlagach, tizim darhol feedback – to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini bildiradi va batafsil tushuntirish beradi. Bu yondashuv xorijiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, texnologiyaning o‘quvchiga darhol teskari aloqasi orqali ta’lim samarasini oshirish prinsipiga mos keladi. Bu

bugungi kunning talabidan kelib chiqqan holda raqamli texnologiyalar vositalaridan foydalangan holda talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalashning didaktik shart-sharoitlari yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gunjan V.K., Zurada J.M. "Virtual Reality in Technical Education: A Review of Teaching Practices." 2022.
2. Farhod Abdurahimov "Raqamli pedagogika va VR texnologiyalar." 2020. 3. Xasanov A. "Texnik fanlarda AR/VR asosida o‘qitish metodikasi." 2021.
3. Qosimov R. "Texnik ta’limda virtual laboratoriyalarni joriy etish." 2023. 5. Raximov Q. "VR muhitda eksperimental o‘qitish metodlari." 2022.
4. M. Xudayberdiyev. "Talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini rivojlantirishda innovatsion raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” “Raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etish: muammolar va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 1-iyun, 2025y.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA YOSHLARNI TARBIYALASH MUAMMOLARI

Xulkaroy Atayeva Murod qizi
Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil etilgan. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning bilim olish usullarini tubdan o‘zgartirayotgan bo‘lsa-da, bu o‘zgarishlar tarbiyaviy jihatdan ham muayyan xavflarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, raqamli muhitda axloqiy qadriyatlarning yo‘qolishi, yoshlarning onlayn xatti-harakatlarini nazorat qilishdagi qiyinchiliklar, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat hissining susayishi kabi muammolar ko‘rib chiqiladi.*

Kalitli so‘zlar. *Raqamli transformatsiya, ta’lim tizimi, yoshlar tarbiyasi, raqamli savodxonlik, axloqiy immunitet, raqamli muhit, oila va maktab hamkorligi, internet xavfsizligi, media madaniyat*

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы, возникающие в процессе воспитания подрастающего поколения в условиях цифровой трансформации системы образования. Хотя интеграция цифровых технологий в образовательный процесс коренным образом меняет методы обучения учащихся, эти изменения также представляют определенные риски с образовательной точки зрения. В частности, рассматриваются такие проблемы, как утрата нравственных ценностей в цифровой среде, трудности в контроле онлайн-поведения молодежи, ослабление чувства личной и социальной ответственности.*

Ключевые слова. *Цифровая трансформация, система образования, воспитание молодежи, цифровая грамотность, моральный иммунитет, цифровая среда, сотрудничество семьи и школы, интернет-безопасность, медиакультура*

Abstract. *This article analyzes the problems arising in the process of educating the younger generation in the context of the digital transformation of the education system. Although the integration of digital technologies into the educational process is fundamentally changing the methods of obtaining knowledge by students, these changes also pose certain risks in the educational aspect. In particular, such problems as the loss of moral values in the digital environment, difficulties in controlling young people's online behavior, and a decrease in the sense of personal and social responsibility are considered.*

Keywords. *Digital transformation, education system, youth education, digital literacy, moral immunity, digital environment, family and school cooperation, internet security, media culture*

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. “Raqamli transformatsiya” atamasi avvalo ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, hamda interaktiv, onlayn

va gibrid o‘qitish uslublarini joriy etishni anglatadi. Biroq bu o‘zgarishlar nafaqat ta’lim sifati, balki yosh avlodni tarbiyalash tamoyillariga ham sezilarli

Yoshlar hayotida internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va mobil ilovalar asosiy axborot manbaiga aylangan. Bu holat o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, axloqiy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga xavf-xatarlar — noto‘g‘ri ma’lumotlar, virtual zo‘ravonlik, axloqiy buzuqlik va vaqtni samarasiz sarflash kabi salbiy oqibatlar ham paydo bo‘lmoqda[1].

Raqamli muhit — bu keng axborot makoni bo‘lib, u orqali yoshlar bilim, ko‘nikma, til, texnologiya, san’at va boshqa sohalarga oid katta hajmdagi ma’lumotlarga erkin kira oladilar. Onlayn kurslar, vebinarlar, elektron kutubxonalar va mobil ilovalar orqali ta’lim olish imkoniyati yildan-yilga ortib bormoqda.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ijodkorlikni rag‘batlantiradi, masalan:

blog yuritish,

video montaj qilish,

grafika yaratish,

dasturlash o‘rganish.

Bularning barchasi yosh avlodning intellektual va kasbiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitning cheksiz imkoniyatlari bilan birga salbiy jihatlari ham yo‘q emas:

noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborotlar yosh ongini chalg‘itadi;

virtual zo‘ravonlik (kiberbulling) psixologik bosim keltiradi;

axloqiy buzilish (yoshga to‘g‘ri kelmaydigan kontent, urfga aylangan nomaqbul trendlar) tarbiyani zaiflashtiradi;

ijtimoiy izolyatsiya — do‘stlar bilan jonli muloqot o‘rnini virtual aloqalar egallaydi.

Bu holatlarda bola yoki o‘smir o‘zini nazorat qilishga qodir bo‘lmasa, raqamli makon uni real hayotdan uzib qo‘yishi mumkin. Raqamli muhitda tarbiyani saqlab qolish va rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar muhimdir:

raqamli savodxonlikni oshirish: bolalar internetdan xavfsiz va maqsadli foydalanishni o‘rganishi kerak,

axborot tanqidiy fikrlash: yoshlar ko‘rgan va eshitgan har bir ma’lumotni tahlil qilishni o‘rganishlari zarur,

raqamli gigiyena: vaqtni me’yorda sarflash, ekran oldida o‘tkaziladigan soatlarni cheklash, kontent filtrlari qo‘llash,

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

oilaviy nazorat va ishtirok: ota-onalar farzandlari bilan birgalikda foydali kontentlar tomosha qilish, suhbatlar o‘tkazish orqali nazoratni kuchaytirishlari lozim,

o‘qituvchi va maktab roli: maktabda raqamli madaniyatga oid maxsus mashg‘ulotlar, treninglar tashkil etilishi kerak.

Raqamli muhit zamonaviy yosh avlod uchun inkor etib bo‘lmaydigan bir haqiqatdir. Uni to‘liq taqiqlash yoki cheklash emas, balki undan oqilona, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish yo‘lini topish muhimdir. Tarbiya jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib borish, ota-ona, maktab va jamiyatning yagona sa’y-harakati bilan raqamli muhitda axloqiy, mas’uliyatli va ongli shaxsni shakllantirish mumkin.

An’anaviy tarbiya tizimida oila va maktab asosiy tarbiyaviy institutlar hisoblangan. Raqamli transformatsiya jarayonida bu institutlarning vazifalari kengaymoqda. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarning raqamli makonda qanday kontentga duch kelayotganini, ularning onlayn faolligini kuzatib borishlari, xavfsiz raqamli madaniyatni shakllantirishda faol ishtirok etishlari zarur[2].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha qatlamlariga, ayniqsa, ta’lim va tarbiya sohasiga chuqur kirib kelmoqda. Yoshlik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo‘lib, bu jarayonda oila va maktab asosiy tarbiyaviy institutlar sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Raqamli muhitning ta’siri ortib borayotgan bir paytda, oila va maktabning bu jarayondagi mas’uliyati yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oila farzand uchun ilk axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar manbaidir. Raqamli muhitda oila quyidagi jihatlar bo‘yicha faol rol o‘ynashi zarur:

Farzandning raqamli xulqini shakllantirish: bolaga internetdan qanday foydalanishni, vaqtni qanday boshqarishni va nomaqbul kontentdan uzoq turishni o‘rgatish.

Shaxsiy namuna: ota-onalarning o‘zlari ham ijtimoiy tarmoqlardan, telefon va internetdan madaniyatli va me’yorida foydalanishlari farzandlar uchun o‘rnak bo‘ladi.

Raqamli xavfsizlikni ta’minlash: parollar, maxfiylik sozlamalari, internet xavflari haqida farzandni ogohlantirish, kerak bo‘lsa, nazorat dasturlaridan foydalanish[3].

Suhbat va muloqot: bola bilan ochiq muloqotda bo‘lish, uning onlayn faoliyati haqida do‘stona suhbatlashish — ishonchli tarbiya garovidir.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Maktab nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya beruvchi muassasa sifatida ham raqamli zamon talablariga mos faoliyat yuritishi zarur. Bunda quyidagi jihatlar muhim:

Raqamli savodxonlikni o‘rgatish: maktablarda o‘quvchilarga internet madaniyati, axborotni tahlil qilish, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalari o‘rgatilishi kerak.

Axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish: raqamli vositalar yordamida insoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, odob-axloq kabi mavzularni targ‘ib qilish mumkin.

O‘qituvchilarning mas’uliyati: pedagoglar o‘z bilimlarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitib, o‘quvchilarga nafaqat fan, balki raqamli hayotda ham yo‘lko‘rsatkich bo‘lishi zarur.

Maktab-mahalliy hamkorlik: ota-onalar va mahalla faollari bilan birga raqamli tarbiya masalasida seminarlar, uchrashuvlar tashkil etish yaxshi natija beradi.

Eng muhim jihat — oila va maktabning uzviy hamkorligidir. Aks holda, bola ikki turli muhitda shakllanib, ichki ziddiyatlarga duch keladi. Raqamli davrda quyidagi hamkorlik shakllari samarali bo‘ladi:

- Onlayn ota-ona yig‘ilishlari va tarbiyaviy mashg‘ulotlar
- Elektron kundalik va nazorat platformalari orqali o‘zaro aloqalar
- Farzandning raqamli hayotini birgalikda tahlil qilish

Raqamli muhitda yosh avlodni sog‘lom va axloqli tarbiyalash — bu oila va maktabning umumiy vazifasidir. Ular o‘zaro hamkorlikda bolalarning raqamli dunyodagi faolligini nazorat qilishi, ularni himoyalashi va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishi kerak. Faqat o‘zaro ishonch, mas’uliyat va hamkorlik orqaligina biz raqamli davrda tarbiyaning izchilligini ta’minlay olamiz.

XXI asr insoniyat hayotiga axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning keng kirib kelishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar inson imkoniyatlarini keskin kengaytirdi, ayni vaqtda turli xavf va tahdidlarni ham keltirib chiqardi. Yosh avlod esa ushbu raqamli muhitda ulg‘ayayotgani sababli, ularning raqamli savodxonligi va axloqiy immuniteti eng muhim tarbiyaviy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi[4].

Raqamli savodxonlik — bu shunchaki kompyuter yoki telefon ishlatish qobiliyati emas. Bu tushuncha quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

Axborotni izlash, baholash va tahlil qilish;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Onlayn xavfsizlikni ta’minlash (parollar, maxfiylik, zararli kontentdan himoya);

Raqamli madaniyatga rioya qilish (odoblilik, so‘z erkinligi va chegarasi, boshqalarning huquqini hurmat qilish);

Tanqidiy fikrlash — yolg‘on, manipulyativ, noto‘g‘ri axborotni tanib olish qobiliyati;

Ijtimoiy tarmoqlarda ongli ishtirok etish (muomala, do‘st tanlash, kontent ulashish).

Yoshlar uchun raqamli savodxonlik — bu kelajakda to‘laqonli ishtirokchi bo‘lish uchun zarur vositadir. Axloqiy immunitet — bu insonning axloqiy tamoyillarga sodiqligini saqlab qolish, salbiy axborotlar, zararli ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatidir. Raqamli muhitda bu immunitet ayniqsa muhimdir, chunki:

Ko‘plab axloqiy-me’yoriy cheklovlar buzilmoqda;

Shaxsiy hayot, axloq, vijdon, hurmat tushunchalari ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinadi;

Trendlar, blogerlar, mashhur “influencerlar” yosh ongini boshqarishga urinishmoqda.

Axloqiy immunitet kuchli bo‘lmasa, yoshlar raqamli muhitda yo‘nalishsiz qoladi va taqlidkorlikka beriladi. Raqamli savodxonlik va axloqiy immunitet o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Birinchisi – texnologik jihatdan ongli ishtirokni ta’minlasa, ikkinchisi – ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishni kafolatlaydi[5, 6]. Misol uchun:

Yosh bola yolg‘on ma’lumotni tanqidiy tahlil qilmasa — uni to‘g‘ri deb qabul qiladi;

Shaxsiy hayotga oid ma’lumotlarni himoya qilishni bilmasa — kiberjinoyatchilik qurboniga aylanadi;

Internetdagi axloqsiz kontentni farqlash va unga qarshi turishni o‘rganmasa — o‘z qadriyatlarini yo‘qota boshlaydi.

Mazkur masalalarni hal qilishda oila, maktab va jamiyat quyidagi choralarni ko‘rishi lozim:

Maktab darsliklariga “axborot madaniyati”, “raqamli madaniyat”, “media savodxonlik” fanlarini joriy etish;

Treninglar, vebinarlar, maxsus loyihalar orqali o‘qituvchi va ota-onalarning o‘zini ham tayyorlash;

Blogerlar, TikTok va YouTube kabi platformalarda axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentlar yaratish;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning faoliyatini nazorat qilish bilan emas, o‘zaro ishonch asosida muhokama qilish.

Yoshlarni raqamli muhitda tarbiyalash — bu faqat texnologik yoki axloqiy masala emas, balki ularning har ikkisini uyg‘unlashtirishdir. Raqamli savodxonlik — ularni zamonaviy muhitda yashashga o‘rgatsa, axloqiy immunitet — bu muhitda o‘z shaxsiyatini yo‘qotmaslikni kafolatlaydi. Faqat shu ikki omil uyg‘unligida biz sog‘lom, ma’naviy yetuk va raqamli davrga mos avlodni tarbiyalay olamiz.

Ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki yoshlarning axloqiy immunitetini oshirish, ular orasida axborot tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, virtual dunyo va real hayot o‘rtasidagi farqni anglash ko‘nikmalarini tarbiyalashi kerak. Shu nuqtai nazardan, raqamli savodxonlik va axborot madaniyati fanlari maktab dasturlariga joriy qilinishi lozim.

Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat ta’limning texnologik yangilanishi, balki tarbiya tamoyillarini qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etadi. Bu jarayonda davlat, ta’lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilsa, raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat bilimli, balki axloqli, mas’uliyatli va ongli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati ortadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-son qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi. – Toshkent, 2020.
2. Hasanboyeva, Z. (2021). *Raqamli madaniyat asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Nishonova, S. (2022). *Axborot madaniyati va media savodxonlik*. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Тхориков Борис Александрович, Чжан Цзяньдун Манипулятивный контент: методика создания и направления применения // Практический маркетинг. 2025. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/manipulyativnyy-kontent-metodika-sozdaniya-i-napravleniya-primeneniya.
5. А. Х. Махмудов, З .Б. Абдурахмонов Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference3. С. 97-99.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-zamonaviy-ra-amli-tehnologiyalaridan-foydalanishning-yutu-lari-va-muammolari
6. Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва // Современное образование (Узбекистан). 2019. №6 (79). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-puti-pedagogicheskogo-proryva

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

O‘QUVCHILARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISHGA TAYYORLASHDA RAQAMLI PEDAGOGIK TA’MINOTNI ISHLAB CHIQISH STRATEGIYALARI

Xusanova Sumbul Islamovna
O‘zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi instituti “FVDTni boshqarish va rejalashtirish” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash jarayonida raqamli pedagogik ta’minotni yaratish va modernizatsiyalash masalalari yoritilgan. Raqamli ta’lim texnologiyalari, interaktiv platformalar, simulyatorlar, multimediya resurslari va virtual o‘quv muhiti favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida tahlil qilingan*

Kalit so‘zlar: *raqamli pedagogik ta’minot, favqulodda vaziyatlar, raqamli texnologiyalar, VR/AR simulyatorlar, interaktiv o‘quv muhiti, raqamli o‘quv platformalari, raqamli ta’lim vositalari, o‘quvchilar tayyorgarligi, multimediya resurslar, simulyativ o‘qitish, xavfni baholash.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются вопросы создания и модернизации цифрового педагогического обеспечения в процессе подготовки учащихся к действиям в чрезвычайных ситуациях. Цифровые образовательные технологии, интерактивные платформы, симуляторы, мультимедийные ресурсы и виртуальная среда обучения проанализированы как эффективные инструменты формирования компетенций в области безопасности в чрезвычайных ситуациях.*

Ключевые слова: *цифровое педагогическое обеспечение, чрезвычайные ситуации, цифровые технологии, VR/AR симуляторы, интерактивная образовательная среда, цифровые обучающие платформы, цифровые образовательные ресурсы, подготовка учащихся, мультимедийные материалы, симулятивное обучение, оценка рисков*

Abstract*. This article examines the development and modernization of digital pedagogical support for preparing students for emergency response. Digital educational technologies, interactive platforms, simulators, multimedia resources, and virtual learning environments are analyzed as effective tools for developing competencies in emergency safety.*

Keywords: *digital pedagogical support, emergency situations, digital technologies, VR/AR simulators, interactive learning environment, digital learning platforms, digital educational resources, student preparedness, multimedia resources, simulation-based learning, risk assessment*

Zamonaviy jamiyatda favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolish va xavfsiz harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayonda raqamli ta’lim resurslari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. Raqamli pedagogik ta’minot o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, trenajorlar va

simulyativ muhit orqali real vaziyatlarda qanday harakat qilishni o‘rgatish imkonini beradi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning afzalliklari ta’lim jarayonini individuallashtirishga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim yangi bosqichga ko‘tarilmoqda, bu yerda nafaqat dastur talablarini bajarish, balki o‘quvchilarning qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olish ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va bilimlarni ko‘rgazmali va tushunarli shaklda olish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Raqamli vosita	**Qo‘llanilish sohasi**	**Samaradorlik ko‘rsatkichi**	**Afzalliklari**
VR-trenajorlar	Amaliyotiy tayyorgarlik	Yuqori	Real vaziyatni yaratish, xavfsiz muhitda o‘rgatish
Multimedia darslari	Nazariy bilim olish	O‘rta-yuqori	Vizual ta’sir, tushunarli kontent
Onlayn-testlar	Diagnostika va baholash	Yuqori	Tezkor natija, individual baholash
Interaktiv o‘yinlar	Motivatsiya va ko‘nikma	O‘rta	O‘yin orqali o‘rgatish, qiziqish uyg‘otish

Quyida o‘quvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning metodik modeli keltirilgan:

QORAQALPOQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

T/r	**Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitishning metodik modeli.**	
1.	Raqamli testlar, elektron portfolio	-o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalar darajasini aniqlash -diagnostik onlayn so‘rov va testlar
2.	Individual o‘sish traektoriyasini baholash	-xavfsizlikning ahamiyatini multimediya roliklar orqali tushuntirish -real misollardan foydalanish
3.	Raqamli testlar, elektron portfolio	-VR va AR simulyatorlarda amaliyotiy mashg‘ulotlar -interaktiv platformalarda nazariy materiallar
4.	Individual o‘sish traektoriyasini baholash	-turli ssenariylar asosida trenajorlarda mashq qilish -onlayn o‘yinlar orqali qaror qabul qilishni rivojlantirish
5.	Raqamli testlar, elektron portfolio	-raqamli testlar, elektron portfolio -individual o‘sish traektoriyasini baholash

Raqamli pedagogik ta’minot – bu o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, multimediyalar, interaktiv simulyatorlar va raqamli o‘quv materiallaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv resurslari majmuasidir [1].

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta’minot quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan simulyatsiyalar;

– xavfsizlik qoidalarini multimedia orqali o‘rgatish;

– onlayn testlar orqali baholash;

– masofaviy ta’lim sharoitida ta’lim olish imkoni.

Tayyorlanayotgan raqamli resurslar o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim [2].

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha quyidagi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi:

– xavfni baholash;

– qaror qabul qilish;

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

– tezkor harakat qilish;

– muhofaza vositalaridan to‘g‘ri foydalanish.

O‘quvchilar favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o‘rganishda quyidagi raqamli platformalarni tanlash imkoniyatiga ega:

– multimediya videodasturlar;

– VR/AR simulyatorlar;

– elektron darsliklar;

– interaktiv o‘yinlar [3, 4].

O‘quvchilarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi metodik modelda keltirilgan besh bosqichda amalga oshirildi.

T/R	Bosqich	Faoliyat mazmuni	Raqamli vosita
1.	Diagnostika	O‘quvchilar tayyorgarlik darajasini baholash	Onlayn testlar
2.	Motivlashtirish	Xavfsizlikning ahamiyatini tushuntirish	Multimediya videoroliklar
3.	O‘qitish	Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish amaliyoti	VR/AR simulyatorlar
4.	Mashq qilish	Turli ssenariylarda harakatni mashq qilish	Interaktiv o‘yinlar
5.	Baholash	O‘zlashtirish darajasini aniqlash	Elektron portfolio

Hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotganligi, mamlakatimizda fuqaro muhofazasini ta’minlash, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xorijiy mamlakatlar tajribasini amalda qo‘llay olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishni taqazo etmoqda. Bunda ta’limning yangi usullariga katta ahamiyat berilmoqda. Bunday yangi usullar o‘zida quyidagilarni jamlashi lozim [6]:

- o‘quvchilarning bilim olishda faol, mustaqil va tashabbuskor pozitsiyasini shakllantirish;

- o‘quvchilarda quyidagi universal o‘quv faoliyatini shakllantirish: tadqiqot, fikrlash, o‘z-o‘zini baholash;

- nafaqat ko‘nikmalar, balki malakani, ya’ni ularni amaliy faoliyatda qo‘llash tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish;

- birinchi navbatda o‘quvchilarning kognitiv ustuvorligini rivojlantirish;

- o‘rganishni hayot bilan bog‘lash tamoyilini amalga oshirish.

QORAQALPOQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘qituvchi nafaqat hamma narsani tushunarli tarzda aytib berish va ko‘rsatish, balki raqamli ta’lim texnologiyalari, interaktiv platformalar, simulyatorlar, multimedia resurslari va virtual o‘quv muhitida o‘quvchini fikrlashga, qaror qabul qilishga, amaliy harakatlar ko‘nikmalarini singdirishga favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik bo‘yicha kompetentsiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo‘llashi maqsadga muvofiq. Bunga quyidagi pedagogik uslub va shakllarni takomillashtirish orqali erishish mumkin:

-Geymifikatsiya - o‘yin elementlari orqali xavfsizlikni o‘rgatish.

-Vaziyatli o‘qitish - real ssenariylarga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar.

-Masofaviy o‘qitish - onlayn vebinarlar, videodasturlar.

-Interaktiv trenajyorlar - birinchi yordamni o‘rgatuvchi modellar [5].

Mazkur bosqichni amalga oshirishning usullaridan biri sifatida virtual ta’lim muhitini yaratish, ya’ni real vaziyatga yaqin modellashtirilgan virtual dasturiy ta'minot kompleksini hamda o‘quv jarayonida interaktiv o‘z-o‘zini o‘qitishni ta'minlashga qaratilgan ta’lim platformalarini yaratish belgilab olindi. Virtual ta'lim jarayonida 3D animatsiyalardan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarda vaziyatni baholay olish, qaror qabul qilish va ular sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Xulosa: raqamli pedagogik ta’minotni modernizatsiyalash o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda samarali va xavfsiz harakat qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshiradi, kompetentsiyalarni shakllantiradi va o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda amaliy harakat qilishga tayyorlaydi.

O‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashda ta’limni raqamlashtirish o‘quvchilar xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyat yaratadi. Modernizatsiya qilingan raqamli pedagogik ta’minot o‘quv jarayonini interaktiv, amaliyotga yo‘naltirilgan va zamon talablariga mos holga keltiradi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ular sodir bo‘lganda tezkor qaror qabul qilish va to‘g‘ri harakat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga yordam berish ko‘nikmasini hosil qiladi hamda favqulodda vaziyatlar oqibatida talofatlar ko‘lamini kamaytirishga xizmat qiladi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

ADABIYOTLAR

1. Ахмедов Ш.Х. Цифровые образовательные технологии в общеобразовательных школах. – Ташкент: Фан, 2021. – 156 с.

2. Каримова Н. Инновационные методы обучения безопасности жизнедеятельности. // Образование и наука. – 2022. – №4. – С. 45-52.
3. Мамараимов Ё.Р. Педагогика ва рақамли таълим. – Тошкент: Насаф, 2020. - 214 б.
4. Kuznetsov V. Digital safety education for school students. – Moscow: RIO, 2023. - 178 p.
5. OECD. Digital Education Outlook. – Paris, 2021.
6. Хусанова С. Рақамли таълимда аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш жараёнини ташкил этиш. “Рақамли дидактика ва маданият: замонавий тенденциялар, ёндашувлар, ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. -Т.: 2024-йил 17-апрел. 16-21б.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI GEYMIFIKATSIYA PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHGA O‘RGATISHNING INNOVATSION METODIK MODELI

Xaydarova Nilufar Voxid Qizi

Fan va texnologiyalar universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi,
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini raqamli geymifikatsiya platformalaridan samarali foydalanishga o‘rgatishning innovatsion metodik modeli yoritiladi. Tadqiqotda geymifikatsiya elementlari, interaktiv topshiriqlar va raqamli ta’lim vositalarining tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilinish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyani rivojlantirish omillari aniqlanadi. Taklif etilgan model ta’lim sifatini oshirishga, o‘quv jarayonini motivatsion va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Maqolada modelning amaliy qo‘llanish natijalari ham bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *geymifikatsiya, raqamli platformalar, tarbiya fani, innovatsion metodika, raqamli kompetensiya, interaktiv topshiriqlar, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar*

Аннотация. *В данной статье раскрывается инновационная методическая модель обучения будущих преподавателей предмета «Тарбия» эффективному использованию цифровых платформ геймификации. В исследовании анализируются механизмы интеграции элементов геймификации, интерактивных заданий и цифровых образовательных ресурсов в воспитательный процесс. Также определяются факторы развития цифровой компетентности будущих педагогов. Предлагаемая модель способствует повышению качества образования, созданию мотивирующей и результативной учебной среды. В статье представлены результаты практического применения данной модели.*

Ключевые слова: *геймификация, цифровые платформы, предмет «Тарбия», инновационная методика, цифровая компетентность, интерактивные задания, качество образования, педагогические технологии*

Annotation. *This article presents an innovative methodological model for training future “Tarbiya” teachers to effectively use digital gamification platforms. The study analyzes the mechanisms for integrating gamification elements, interactive tasks, and digital educational tools into the educational and upbringing process. It also identifies the key factors that contribute to the development of digital competence among prospective teachers. The proposed model helps enhance the quality of education and ensures a motivational and effective learning environment. The article also provides practical results of implementing this model.*

Keywords: *gamification, digital platforms, Tarbiya subject, innovative methodology, digital competence, interactive tasks, quality of education, educational technologies*

Ta’lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish o‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan biridir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash pedagogik innovatsiyalar rivojining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, geymifikatsiya o‘quv jarayoniga o‘yin mexanizmlarini integratsiya qilish orqali o‘quvchilar faolligini, motivatsiyasini va mustaqil fikrlashini kuchaytirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida raqamli vositalardan foydalanish kengayib borar ekan, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar, virtual baholash tizimlari va motivatsion o‘yin elementlarini kiritish tarbiya fanining ta’sirchanligini oshirishga yordam bermoqda. Bu esa bo‘lajak pedagoglardan nafaqat nazariy bilim, balki raqamli kompetensiya, metodik kreativlik va pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli geymifikatsiya platformalaridan foydalanishga o‘rgatishning innovatsion metodik modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Raqamli geymifikatsiya platformalaridan foydalanishga o‘rgatishning innovatsion metodik modeli. Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish uchun ishlab chiqilgan innovatsion metodik model bir nechta bosqichli, tizimli va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvni o‘z ichiga oladi. Modelning asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarda raqamli didaktik vositalarni samarali tanlash, loyihalash va o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Metodik modelning birinchi tarkibiy qismi nazariy tayyorgarlik bo‘lib, unda talabalarga geymifikatsiyaning mohiyati, asosiy tamoyillari, o‘yin mexanizmlari (ball to‘plash, reytinglar, missiyalar, qiyinchilik darajalari) haqida chuqur bilimlar beriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi talabalarda geymifikatsiyaning pedagogik ahamiyati, tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog‘liqligi va o‘quvchilar motivatsiyasiga ta’siri haqida tasavvur hosil qilishdir.

Ikkinchi tarkibiy qism amaliy raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish**.** Ushbu jarayonda talabalarga ClassPoint, Quizizz, Wordwall, Kahoot, kabi raqamli platformalarda interaktiv vazifalar yaratish usullari o‘rgatiladi. Talabalar mustaqil ravishda tarbiya faniga oid mavzular asosida testlar, rolli vaziyatlar, refleksiya o‘yinlari va rag‘batlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqadilar. amaliy mashqlar orqali ular o‘yin elementlarini darsning maqsad va mazmuniga moslashtirishni o‘rganadilar.

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Modelning uchinchi bosqichi pedagogik integratsiya va refleksiv tahlil. Bu bosqichda yaratilgan raqamli vazifalar real yoki modellashtirilgan dars jarayoniga kiritilib, ularning samaradorligi baholanadi. Talabalar geymifikatsiya vositalaridan foydalanish jarayonida duch kelgan muammolarni tahlil qiladi, yechimlar taklif qiladi va o‘z faoliyati bo‘yicha refleksiya olib boradi. Shu orqali ularda kreativ yondashuv, tanqidiy fikrlash va metodik mustahkamlik rivojlanadi.

Innovatsion metodik modelning amaliy natijalari va samaradorligi. Ushbu bo‘limda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini raqamli geymifikatsiya platformalaridan foydalanishga o‘rgatishning innovatsion metodik modelini amaliyotga tatbiq etish natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning raqamli kompetensiyasi, interaktiv vazifalarni yaratish va pedagogik integratsiya qobiliyatlari baholandi. amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar tarbiya fani darslarida geymifikatsiya elementlarini qo‘llashga tayyorlandi. Ularning faoliyati quyidagi mezonlar bo‘yicha tahlil qilindi: interaktiv topshiriqlarni yaratish sifati, dars maqsadlariga mosligi, o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish samaradorligi va o‘qituvchi kreativligi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, model bo‘yicha tayyorlangan talabalar:

- raqamli platformalarda mustaqil interaktiv vazifalar ishlab chiqishga qodir bo‘ldi;
- geymifikatsiya elementlarini darsning pedagogik maqsadiga mos ravishda integratsiya qila oldi;
- o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshira oldi;
- metodik refleksiya va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirdi.

Shuningdek, talabalarning o‘quv jarayoniga yondashuvi va pedagogik ijodkorligi yaxshilandi, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlari ortdi. Shu bilan birga, modelning tatbiqi pedagogik amaliyotda samaradorlikni oshirish, tarbiya jarayonini raqamli muhitga moslashtirish va bo‘lajak pedagoglarning professional kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Natijada, taklif etilgan innovatsion metodik model nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy samaradorligi bilan ham ta’lim jarayonini yaxshilashga xizmat qiluvchi tizim ekanligi isbotlandi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini raqamli geymifikatsiya platformalaridan foydalanishga o‘rgatishning innovatsion metodik modeli ishlab chiqildi va uning amaliy

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan model:

- bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi;
- interaktiv vazifalar va o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi;
- o‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishga yordam beradi;
- metodik refleksiya va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi;
- ta’lim sifatini yaxshilash va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida geymifikatsiya elementlari va raqamli platformalardan muntazam foydalanish.
- pedagogik amaliyotlarda interaktiv topshiriqlar va gamifikatsiya vositalarini tatbiq etish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish.
- talabalarni raqamli kompetensiya va metodik kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bilan qo‘llab-quvvatlash.
- innovatsion metodik modelni boshqa ta’lim fanlariga ham moslashtirib, pedagogik jarayonning samaradorligini kengaytirish.

Shu bilan, maqola ta’lim jarayonini raqamli platformalar orqali yanada samarali, interaktiv va motivatsion qilish imkoniyatlarini yoritadi hamda bo‘lajak pedagoglar tayyorlashning zamonaviy usulini taklif etadi.

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-iyuldagi PQ-4748-sonli Farmoni. *“Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha milliy dastur”*.
2. To‘raev, A. (2021). *Raqamli pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Kapp, K. M. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction*. Pfeiffer.
4. G‘aybullayev, R. X. (2021). *Geymifikatsiya elementlarini dars jarayoniga joriy etish imkoniyatlari*. TDPU axborotnomasi, 3-son.
5. Sailer, M., & Homner, L. (2020). *The Gamification of Learning: a Meta-analysis*. educational Psychology Review, 32(1), 77–112.
6. Prensky, M. (2001). *Digital Game-Based Learning*. McGraw-Hill.
7. https://www.unesco.org/en/education
8. https://www.edutopia.org/article/gamification-education
9. https://www.iste.org/

TA’LIM JARAYONIDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING PEDAGOGIK GENEZISI

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning genezisi, ushbu yondashuvning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *Integrativ yondashuv, ta’lim jarayoni, pedagogika, mexanizm dars, kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot*

Annotation. *This article analyzes the genesis of the integrative approach in the educational process, the contribution of scholars who have influenced its development, and its significance in fostering 4K competencies.*

Keywords: *Integrative approach, educational process, pedagogy, mechanism, lesson, creativity, critical thinking, collaboration, communication*

Аннотация. *В данной статье проанализированы генезис интегративного подхода в образовательном процессе, вклад ученых, внесших существенный вклад в его развитие, а также его значимость в формировании компетенций модели 4К.*

Ключевые слова: *Интегративный подход, образовательный процесс, педагогика, механизм, урок, креативность, критическое мышление, сотрудничество, коммуникация*

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv g‘oyasining paydo bo‘lishi tarixi XVII asrning boshlarida, buyuk didaktik olim Y.A.Komenskiy davrida boshlangan. Ta’limdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida birinchi ma’lumotni Y.A.Komenskiyning asarlarida topish mumkin Ushbu davrda tabiatning yaxlitligini ta’lim mazmunida aks ettirish muammosiga yechim izlash bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Y.A.Komenskiy bu asarida “tabiatda hamma narsa bir-biriga bog‘liq bo‘lgani kabi, o‘rganishda ham hamma narsani boshqasiga shunday bog‘lash kerak” –degan fikrlarni ilgari surgan.

Abu Rayhon Beruniy 17 yoshidan boshlab ilmiy tadqiqotlarga kirishgan va quyoshning balandligini hisoblash, shahar uzunligini aniqlash va quyosh harakatlaridan fasllarning boshlanish vaqtini aniqlash usullarini ishlab chiqqan. Abu Rayhon Beruniy o‘z ilmiy izlanishlarida:

– Fanlararo integratsiya - turli fanlarni birlashtirish va bunda matematika fanini asos qilib olish;

– Tajribaviy metodlar - nazariy bilimlarni amaliy tajribalar orqali tekshirish ;

– Madaniyatlararo taqqoslash - turli madaniyatlarni ob’ektiv o‘rganish ;

– Tizimli yondashuv – kompleks masalalarni tizimli ravishda tadqiq qilish; kabi kreativ g‘oyalarni ilgari surgan.

Ta’limdagi integratsiya g‘oyasi ko‘plab pedagogik qarashlarda uchraydi. Dewey ta’limni hayot bilan bog‘liq tajriba sifatida talqin qilib, bilim o‘quvchi faoliyat jarayonida shakllanishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha, fanlarni ajratilgan bloklar sifatida o‘qitish o‘quvchini real hayotdan uzoqlashtiradi, chunki hayotning o‘zi fanlararo bo‘lib, masalalar odatda turli bilimlarni bir vaqtning o‘zida talab qiladi. Demak, Dewey nazariyasiga ko‘ra integratsiya — o‘qitish jarayonini hayotiy tajribalar bilan bog‘lash va fanlarni yagona faoliyatga xizmat qildirishdir.

Vygotskiy nazariyasi integratsiyaning boshqa tomonini asoslaydi. U bilim insonning ichki tajribasi natijasi emas, balki ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini ta’kidlagan. “Yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi yangi bilimni mustaqil emas, balki boshqalarning ko‘magida egallaydi. Shunday ekan, integrativ ta’lim o‘quvchilarni birgalikda ishlash, fikr almashish, jamoada yechim topish orqali o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu jarayonning o‘zi 4K kompetensiyalar, ayniqsa kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotchilar Morton Deutsch, shuningdek, David va Roger Johnsonlar hamkorlikni ta’lim muammolarini hal etishning samarali yo‘li sifatida ilmiy asoslab berdilar. Johnsonlar hamkorlikka asoslangan ta’limni pedagogik tizim darajasida ishlab chiqib, samarali hamkorlikning besh shartini (musbat o‘zaro bog‘liqlik, individual javobgarlik, yuzma-yuz muloqot, ijtimoiy ko‘nikmalar va refleksiya) ajratib ko‘rsatdilar.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

Robert Slavin hamkorlikni pedagogik muammo sifatida ko‘rib, o‘quvchilarning bilimlarni mustahkamlashdagi qiyinchiliklari va motivatsiya pastligi muammolariga e’tibor qaratdi. Uning STAD va TGT metodlari guruhiy faoliyat orqali har bir o‘quvchining o‘z hissasini qo‘shishini ta’minlab, ta’lim samaradorligini oshirdi.

Pedagogik muammo sifatida kollaboratsiya masalasini Jean Lave va Etienne Wenger ham o‘rganib, “Amaliyot hamjamiyatlari” konsepsiyasini ilgari surdilar. Ularning ta’kidlashicha, ta’limning asosiy muammolaridan biri – bilimlarni real hayotdan ajratib qo‘yishdir

Integrativ yondashuvning amaliy shakllari esa Fogarty tomonidan tizimlashtirilgan. U fanlarni bog‘lashning bir nechta modellarini taklif etgan bo‘lib, ular orasida ayniqsa boshlang‘ich ta’limga mos bo‘lganlari. Bu mavzularni yagona g‘oya atrofida birlashtirish, bir fan ichida mavzularni o‘zaro bog‘lash va ikkita fan mazmunini ma’lum bir loyiha yoki vazifa doirasida uyg‘unlashtirishdir

yondashuvlar orqali o‘quv dasturi faqat mavzular ketma-ketligi emas, balki o‘quvchi tajribasini shakllantiruvchi yaxlit jarayonga aylanadi.

L.Darling-Hammond o‘zining ilmiy izlanishlarida fanlararo yondashuvni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada chuqurlashtirish va o‘qituvchilarga yuqori malakali tayyorgarlikni ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi. Uning “Powerful teacher education: Lessons from exemplary programs” kitobida o‘qituvchilarning integratsiyalashgan ta’lim yondashuvini qanday samarali o‘rgatish mumkinligi ko‘rsatilgan.

P.Sahlberg o‘zining ilmiy tadqiqotlarida ta’limda integratsiyalashuvni fanlararo o‘qitish orqali ham asoslaydi. Bunda turli fanlar o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatish, o‘quvchilarni keng fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ekanligini ko‘rsatadi. D. Perkins “From training memories to educating minds” nomli kitobida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning chuqur tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlarini qanday tuzish kerakligi haqida yozadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida integrativ yondashuv o‘quvchilarda 4K modeli — tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

S. Mitra integrativ yondashuvni texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishlash va kreativ yondashuvlarini shakllantirishni asoslab beradi.

D. Perkins esa bilimlarni yod olishdan ko‘ra, chuqur tushunish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni taklif qiladi.

Linda Darling-Hammond – ta’limdagi innovatsiyalar va kompetensiyaga asoslangan o‘quv jarayonlari tarafdori bo‘lib, u 4K kompetensiyalarini rivojlantirish o‘quvchilarning real hayotga tayyorlanishida va ta’lim sifatini oshirishda muhim ekanligini o‘z ilmiy izlanishlarida ta’kidlagan.

4K kompetensiyalari o‘quvchilarga doimiy o‘zgarishlarga moslashish, yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish va muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. 4K modeli kompetensiyalaridan yana bittasi bu kollaboratsiyadir. Kollaboratsiya (hamkorlik) zamonaviy pedagogikada ta’lim jarayonining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida o‘rganilmoqda. Ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishi ularning nafaqat bilim darajasi, balki ijtimoiy moslashuvi, hissiy ko‘nikmlari, kommunikativ madaniyati va shaxsiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKA SI
MILLIY INSTITUTI

Yuqoridagi olimlarning qarashlari umumiy jihatdan shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan ta’lim — 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali pedagogik mexanizmlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarni faqat nazariy bilim egallash bilan cheklamasdan, balki real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ijodiy fikrlash va hamkorlikda ishlashga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida): Avtoref. diss. ... ped. fan. nom. – Toshkent, 2006.
2. Abdullayeva, Sh.A. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida): Avtoref. diss. ... ped. fan. nom. – Toshkent, 2006.
3. “Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida axborot-resurslarning integratsiyasini ta’minlashning metodik imkoniyatlari”**.** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz, 2022.
4. Darling-Hammond, L. The flat world and education: How America’s commitment to equity will determine our future. – New York: Teachers College Press, 2010.
5. Hargreaves, D. Education epidemic: Transforming secondary schools through innovation networks. – London: Demos, 2003.
6. Mitra, S. The hole in the wall: Self-organising systems in education. – TED Books, 2005.
7. Shaydullayeva, K. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirishda integrativ yondashuvning afzalliklari // *Journal of Pedagogical and Psychological Studies.* – 2023. – №1(8). – B. 52–58.
8. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / ed. Michael Cole, Vera John-Steiner, Sylvia Scribner et al. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2012. – 175 p.
9. G.H.Xodiyeva, “Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda 4k modeli kompetensiyalarini rivojlantirishga integrativ yondashuvning mohiyati” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/2(4)-2024 ISSN: 2181-1342 (Online) https://scienceproblems.uz
10. X.Ibraimov, M.Quronov “ Umumiy pedagogika” Sahhof-2023.

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

“TABIAT BILAN TANISHTIRISH” FANI VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VOSITALARI ORQALI TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARINI RIVOJLANTIRISH

Z.E.Azimova
Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasi professori
B.A.Saydullayeva
Maktabagcha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tarbiya jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini rivojlantirish,tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligini zamonaviy usullarda yo’lga qo’yishning samarali tomonlari yoritib o’tilgan*

Kalit so’zlar: *raqamli texnologiya,virtual loyihalar, ota-onalar bilan muloqot, tabiat tajribalari,oila, ekologik muammolar,tarbiyachilar,raqamli kompetensiyalar, tabiat hodisalari*

Maktabgacha ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biri tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari o'rtasidagi yaqin hamkorlikdir. Raqamli texnologiyalarni faol joriy etish va ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida oila va ta’lim tashkiloti o‘rtasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Bu, ayniqsa, mazmuni bolaning hayotiy tajribasi, atrofdagi dunyo va tabiat hodisalarini kuzatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan "Tabiat bilan tanishtirish" fanini o'qitish kontekstida ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi.

Zamonaviy raqamli aloqa vositalari - Telegram guruhlari, elektron kundaliklar, Zoom orqali onlayn yig‘ilishlar, Google Forms orqali so‘rovnomalar - ota-onalar bilan muntazam va ikki tomonlama aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Raqamli vositalar yordamida ota-onalar faqat kuzatuvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin. Masalan, “Eko hafta” doirasida o‘tkazilgan virtual loyihalarda oilalar bolalar bilan birgalikda daraxt ekish, chiqindilarni saralash kabi tadbirlarda ishtirok etib, ularning natijalarini fotosuratlar shaklida bog‘cha pedagoglari bilan almashgan. Shu orqali "oila - tarbiyachi - bola" yagona ta'lim makoni shakllanmoqda.

Bu yondashuv nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki bola psixologik rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ota-onasi ta’lim jarayonida faol ishtirok etgan bolalarning ijtimoiy-adaptiv ko‘rsatkichlari barobarga yuqori bo‘lgan (manba: Respublika Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti, 2022).

Raqamli platformalarning bu boradagi imkoniyatlari keng: Padlet orqali sinf devorlarini yuritish, Seesaw orqali bolalarning individual portfoliolarini shakllantirish, ClassDojo orqali musbat xatti-harakatlarni rag‘batlantirish kabilar

ota-onalarni pedagogik hamkorlikka jalb etishda muhim vositalar sifatida xizmat qilmoqda.Ushbu vositalar ota-onalar ishtirokini oshirish, farzandlar faoliyatini uyda davom ettirish va tarbiyachilar bilan doimiy aloqada bo‘lish imkonini beradi.

Insonning tabiat bilan bog‘liq ilk tasavvurlari, hissiyotlari va qiziqishlari aksariyat hollarda oilaviy muhitda shakllanadi. Ota-onalar va yaqin qarindoshlar bolaga atrofdagi dunyoni, ya’ni daraxtlar, hayvonlar, qushlar, ob-havo hodisalari va yil fasllaridagi o‘zgarishlarni tanishtiruvchi birinchi yo‘lboshchilardir. Bu tabiat hodisalari bilan tanishish esa, ko‘pincha bolalikning eng kuchli va unutilmas taassurotlari qatorida qoladi.

Erta yoshda bolalarda ekologik tafakkur, tabiatga mehr va kuzatish ko‘nikmalari rivojlanishida asosiy ro’l aynan ota-onalar zimmasiga tushadi. Ota-onalar bolalar bilan birga sayr qilishadi, daraxtlarga teginish, qushlarning sayrashini tinglash, yomg‘ir ostida yurish yoki qor bilan o‘ynash orqali hissiy va kognitiv o‘zaro aloqani shakllantirishadi. Bu esa bola ruhiyatida tabiatni anglash va qadrlashning eng muhim tamoyillarini barpo etadi.

Masalan, ota-onalar bilan bog‘ bog‘ida yurish, kuzda yaproqlarning rangini kuzatish, bahorda g‘unchalarning ochilishini birgalikda tomosha qilish kabi oddiy mashg‘ulotlar bola tafakkurida tabiatning dinamik va go‘zal jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Shu sababli, ota-onalar faqat “kuzatuvchi” emas, balki to‘laqonli “tabiat pedagogi” ro’lini bajarishadi.

Maktabgacha ta’limda “Tabiat bilan tanishtirish” fani bolaning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu fan doirasidagi faoliyatlar ko‘pincha bolalikdagi oilaviy tajribalar bilan rezonansda bo‘ladi. Shu sababli, ota-onalarning ta’lim jarayoniga jalb etilishi nafaqat foydali, balki zarur hisoblanadi. Bu zarurat o‘z mohiyatiga ko‘ra rasmiyatchilik emas, balki bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik va pedagogik ehtiyojdir.

Masalan, 2023-yilgi so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ota-onalari ekologik loyihalarda ishtirok etgan bolalarning kuzatuvchanligi va ifoda ko‘nikmalari 24% ga yuqori bo‘lgan (Manba: Respublika Ilmiy-amaliy Pedagogika markazi). Bu shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning ishtiroki nafaqat hissiy yaqinlikni oshiradi, balki ta’limiy natijalarga ham bevosita ijobiy ta’sir qiladi.

Ota-onalarni faol ishtirokga rag‘batlantirish strategiyalari

Pedagoglar uchun muhim vazifalardan biri – ota-onalarni faqat axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki faol hamkor sifatida jalb etishdir. Buning uchun quyidagi amaliy yondashuvlar muhim:

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

- Kuzatuv jurnali: Bolalar va ota-onalar birgalikda uyda tabiat hodisalarini kuzatadi – masalan, qushlar, bulutlar, yomg‘ir. Natijalar suratga olinadi yoki rasmlar chizilib, bog‘cha bilan almashiladi.
- Tabiat tajribalari: Uy sharoitida bajarilishi mumkin bo‘lgan tajribalarni (masalan, urug‘ unib chiqishini kuzatish) ota-onalar bilan birgalikda tashkil etish va hujjatlashtirish.
- "Oila ekologlari" klubi: Har oyda bir marta ekologik mavzudagi onlayn yoki oflayn uchrashuvlar o‘tkazish, ota-onalarni kichik loyihalarga jalb etish.
- Fotoloyihalar: “Mening daraxtim”, “Oila bog‘i”, “Uy hayvonlarimiz” kabi mavzularda bolalar va ota-onalar suratga olish orqali ta’limga estetik yondashuv kiritishlari mumkin.
- Google Forms orqali fikr almashish: Ota-onalar orasida so‘rovnoma o‘tkazib, tabiatga oid mashg‘ulotlarda qanday ishtirok etishni xohlashlari aniqlanadi.

Oila – bu nafaqat bolaning birinchi ijtimoiy muhiti, balki uning tabiat bilan munosabatlari shakllanadigan birinchi maktabidir. Ota-onalarning “Tabiat bilan tanishtirish” fanidagi ishtiroki esa bola uchun hayotiy mazmunga ega, chuqurroq o‘zlashtirish va barqaror ekologik ongni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, pedagoglar ota-onalar bilan sistematik va mazmunli hamkorlikni tashkil etish uchun didaktik, texnologik va kommunikativ vositalarni yanada kengroq qo‘llashlari zarur.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilalar o'rtasidagi muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Onlayn platformalar, messenjerlar, elektron kundaliklar, bloglar va videoxostinglar tarbiyachilarga ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lish, ularni o‘quv faoliyatining borishi haqida xabardor qilish, foydali materiallar bilan bo‘lishish va fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi. “Tabiat bilan tanishtirish” fani doirasida raqamli texnologiyalar yangi ufqlarni ochadi: Tarbiyachilar ota-onalarga sayr davomida kuzatish uchun topshiriqlar yuborishi, video ekskursiyalar nashr etishi, “Mening hovlimdagi tabiat” mavzusida fototanlovlar tashkil etishi va hattoki onlayn tajribalar o‘tkazishi mumkin. Ishtirok etishning bunday formati ota-onalarning ish yukini va har bir oilaning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Raqamli vositalar, shuningdek, tabaqalashtirilgan yondashuvni osonlashtiradi, ota-onalarga ular uchun eng qulay bo'lgan ishtirok etish shaklini tanlashga imkon beradi - faol, axborot yoki maslahat.

Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi raqamli o'zaro aloqaning eng keng tarqalgan shakli messenjerlarda (WhatsApp, Telegram, Viber) ota-onalar chatlari bo'lib qolmoqda. Ular sizga xabarlar, fotosuratlar va videolarni tezda almashish

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

imkonini beradi. Biroq, zamonaviy o'qitish amaliyoti standart yozishmalardan tashqariga chiqadi. "Doshkolenok.ru", "MoySadik", "Sferum" kabi ixtisoslashgan raqamli platformalar mavjud bo'lib, ularda bolaning elektron portfelini yuritish, qo'shma loyihalarni nashr etish, shuningdek, onlayn formatda ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish mumkin. “Tabiat bilan tanishtirish” fani doirasida bunday platformalardan virtual ko‘rgazmalar tashkil etish, ob-havo yoki o‘simliklarni kuzatish mavzusida uy vazifalarini chop etish, shuningdek, ota-onalar bilan ekologik aksiyalar natijalarini muhokama qilish uchun foydalanish mumkin. Ushbu vositalar "kengaytirilgan guruh" effektini yaratadi, bu yerda ta'lim jarayoni bolalar bog'chasidan tashqarida va bolaning kundalik hayotida davom etadi.

Raqamli formatda ota-onalar bilan ishlash metodologiyasi oilani ta'lim jarayoniga faol va mazmunli kiritishga yordam beradigan maxsus shakl va usullarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bunday shakllar orasida interaktiv axborot byulletenlari (topshiriqlar, so'rovlar, o'yinlar bilan), onlayn master-klasslar (masalan, bola bilan qanday qilib ko'chat ekish kerak), "Bolaga yomg'ir qayerdan kelishini qanday tushuntirish kerak" va hokazo mavzular bo'yicha video darslar. Ijtimoiy tarmoqlardagi "ekologik muammolar" ham samaralidir: daraxt ekish, parkda axlat yig'ish, qushlarni boqish - majburiy fotoreportaj bilan. Bunday usullarni joriy etish ota-onalarga nafaqat bolalar bog'chasida sodir bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lish, balki bolani tajriba va o'zaro ta'sir qilish orqali ta'lim oladigan qo'shma tadbirlarning faol ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi.

Raqamli shovqinni tashkil etish tarbiyachidan ota-onalarning yosh xususiyatlarini, ularning raqamli savodxonligini, motivatsiyasini va hamkorlik qilishga tayyorligini hisobga olishni talab qiladi. Ba'zi ota-onalar zamonaviy raqamli qurilmalarga yoki ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasligi mumkinligini hisobga olish kerak. Shu munosabat bilan tarbiyachi uchun inklyuziv aloqa usullaridan foydalanish muhim: ovozli xabarlarni yozib olish, turli formatdagi ma'lumotlarni takrorlash, o'zaro ta'sir qilish usullarini tanlashni taklif qilish. Bundan tashqari, tarbiyachi nafaqat tashkilotchi, balki ota-onalarga pedagogik vazifalarni tushunishga yordam beradigan va raqamli vositalardan bolaning manfaati uchun foydalanishga o'rgatadigan maslahatchi sifatida ham harakat qilishi kerak. Axborot mazmuni va "axborotning haddan tashqari yuklanishi" o'rtasidagi muvozanatni saqlash ham muhimdir - muloqotning chastotasi va mazmuni o'ylangan va axloqiy bo'lishi kerak.

Ota-onalar ishtirokidagi qo‘shma loyihalar oilani ta’lim jarayoniga integratsiyalashning kuchli vositasiga aylanadi. Raqamli vositalardan foydalanib,

QOBILNIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

virtual gerbariylar, yashash joyidagi qushlar yoki o'simliklarning raqamli xaritalari, bolalarning hikoyalari bilan ona joylarga video ekskursiyalar kabi loyihalarni tashkil qilish mumkin. Misol uchun, tarbiyachi topshiriqni taklif qiladi: "Ota-onangiz bilan o'zingiz yoqtirgan daraxtni toping va nima uchun bu sizga qiziq ekanligini tushuntirib beradigan qisqa videoni yozib oling." Shundan so'ng, guruh ushbu videolarni muhokama qilishi, raqamli ko'rgazma yoki hudud tabiatining umumiy xaritasini yaratishi mumkin. Bunday loyihalar nafaqat bolaning kognitiv qiziqishlarini rivojlantiradi, balki bolalar maktabgacha talim tashkiloti va oila o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlikka asoslangan ta'lim hamjamiyatini shakllantiradi.

Ta'lim maydonini raqamlashtirish sharoitida tarbiyachi nafaqat bilim tashuvchisi, balki ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari o'rtasida vositachiga aylanadi. Uning vazifasi nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki o'zaro aloqaning raqamli madaniyatini shakllantirishdir. Bu xabarlarni to'g'ri shakllantirish, raqamli fikr-mulohazalarni tashkil qilish, ota-onalarning so'rovlariga sezgir bo'lish va individual vaziyatlarni hisobga olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tarbiyachi raqamli dizayn kompetensiyalariga ega bo'lishi va bolalar va ota-onalarning idrok etish darajasiga moslashtirilgan vizual jozibali va pedagogik jihatdan qimmatli materiallarni yaratishga qodir bo'lishi kerak. Shunday qilib, raqamli o'zaro ta'sirda tarbiyachining ro’li an'anaviy muloqotdan tashqariga chiqadi va pedagogik faoliyatning yangi paradigmasini - yanada moslashuvchan, interaktiv va hamkorlikni talab qiladi.

Raqamli aloqaning aniq afzalliklariga qaramay, hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator qiyinchiliklar va xavflar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi: jonli aloqani yo'qotish, o'zaro aloqani rasmiylashtirish, ma'lumotlarning maxfiyligini buzish xavfi, obunani rasmiy ravishda bekor qilish yoki shablon materiallarini yuborishda ifodalangan loyihalarda ota-onalarning "yuzaki ishtiroki". Raqamli ortiqcha yuklanish xavfi ham mavjud, ayniqsa ota-onalar turli manbalardan juda ko'p turli xil ma'lumotlarga duchor bo'lganda. Yana bir qiyinchilik - oilalar o'rtasida raqamli infratuzilmaga notekis kirish, bu bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarida ijtimoiy tengsizlikka olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, moslashuvchanlikka intilish, ishtirok etishning muqobil usullarini taqdim etish va raqamli o'zaro ta'sirlarda insoniy o'lchovni saqlab qolish muhimdir.

“Tabiat bilan tanishish” fani doirasida ota-onalar bilan raqamli hamkorlikni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar va menejerlarning tizimli rejalashtirish va uslubiy yordami zarur. Tavsiya etiladi:

QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI

1) ota-onalar uchun tabiiy tarix mavzularida raqamli modullarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

2) raqamli pedagogika va raqamli aloqa bo‘yicha o‘qituvchilar uchun treningni tashkil etish;

3) atrof-muhit va tabiiy fanlar loyihalari doirasida ota-onalar, bolalar va tarbiyachilarni birlashtirgan raqamli hamjamiyatlarni yaratish. Kelajakda bunday tashabbuslar milliy maktabgacha ta’lim platformalarida birlashtirilishi mumkin, bunda har bir oila bolalarni tabiatga hurmat ko‘rsatishga o‘rgatishning umumiy ishida o‘zini his qilishi mumkin. Shunday qilib, raqamlashtirish o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki oila va ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi darajasini barpo etishning samarali vositasiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.Hasanboyeva, X. Jabborova,Z. Nodirova, Ш.А.Содиқова, М.А.Расулхўжаева Болаларни табиат билан таништириш методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2019, 88 бет.
2. Sh. SodiqovaPedagogikaТошкент 2023 290 bet
3. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2020 yil.
4. O.U.Xasanboyeva, X.D.Djabborova. «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi».T., “Cho‘lpon” 2023 y.
5. Q.Haydarov. S.Nishonova. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T., “O‘qituvchi” 2023 y.
6. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi balalarga ekologik tarbiya berish. T., “O‘qituvchi” 2022 y.
7. K.Xoshimov va boshqalar. “Pedagogika tarixi”. Qo‘llanma. T.,«O‘qituvchi» 2020 y.
8. O.Xasanboyeva va boshqalar. “Pedagogika tarixi”. Qo‘llanma. T., “O‘qituvchi” 2020 y.
9. X.D.Djabborova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning hosligi. T., “O‘qituvchi”, 2020 y.
10. H.S Yo‘ldoshev., Sh.M. Avazov. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Mehnat, 2023y.
11. 21. T.Akbarova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘simliklar bilan tanishtiruvchi didaktik o‘yinlar” T., TGPU 2022 y.
12. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
13. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TA'LIM PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

ПОСТРОЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА КАК СИСТЕМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ШКОЛЕ

И.И. Капалыгина

доктор педагогических наук (Российской Федерации), доцент
Учреждение образования «Гродненский государственный университет имени Янки Купалы», заведующий кафедрой естественнонаучных и лингвистических дисциплин и методик их преподавания педагогического факультета, г. Гродно

Аннотация. *В стать*

е рассматривается информационно-образовательное пространство школы как сложная система, включающая информационные, образовательные и здоровьесберегающие компоненты. Автор анализирует параметры данного пространства на основе теории моделирования В.А. Ясвина и обосновывает его потенциал как системы педагогической поддержки обучающихся. Особое внимание уделяется влиянию информационной среды на здоровье, безопасность и развитие школьников. Делается вывод о необходимости гармонизации компонентов информационно-образовательного пространства для повышения качества образовательного процесса.

Ключевые слова: *информационно-образовательное пространство, образовательная среда, здоровьесберегающие технологии, педагогическая поддержка, информационная безопасность, школьники, параметры среды.*

Annotation. *The article examines the school’s information and educational environment as a complex system that includes informational, educational, and health-preserving components. The author analyzes the parameters of this environment based on V.A. Yasvin’s modeling theory and substantiates its potential as a system of pedagogical support for students. Special attention is given to the influence of the information environment on students’ health, safety, and development. The article concludes that harmonizing the components of the information and educational environment is essential for improving the quality of the educational process.*

Keywords: *information and educational environment, educational environment, health-preserving technologies, pedagogical support, information security, schoolchildren, environment parameters.*

Annotatsiya. *Maqolada maktabning axborot-ta’limiy makoni axborot, ta’limiy va sog‘liqni saqlovchi komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif ushbu makon parametrlarini V.A. Yasvinning modellashtirish nazariyasi asosida tahlil qiladi va uni o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatidagi salohiyatini asoslab beradi. Axborot muhitining o‘quvchilarning sog‘lig‘i, xavfsizligi va rivojlanishiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada ta’lim jarayonining sifatini oshirish uchun axborot-ta’limiy makon komponentlarini uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlanadi.*

